



- ***Buvajon, mushuk nimadan tarqalgan?***
- ***Mushukmi? Mushuk — arslondan, bolam.***
- ***It-chi?***
- ***It — bo'ridan.***
- ***Odam-chi?***
- ...

MUQADDIMA O'RNIDA

... U xurjunini yelkasiga olib, uzoq yurdi. Ko'chki bosgan yerga yetib kelgunicha oyoqlari qaqshab ketdi. U hali ko'chki nima ekanini bilmasdi. Belga qadar qorga botgan kezlari iziga qaytganidan pushaymon bo'lar, chiqib olganda esa: «Ota yurtidan uzilgandan ko'ra muzlab o'lganim afzal», deb qo'yardi.

Oqshomga borib uning sillasi quridi, ochiqdi. Shunda ham to'xtamadi. Faqat shom qorong'usidagina tamaddi qilib olish maqsadida xurjunini yerga qo'ydi. O'tirib, nafasini rosladi. Keyin qo'lini xurjunga tiqdi. Silliq, sovuq, yumaloq bir narsaga qo'li tegdi. Seskandi. Xurjunning og'zini ochib, ikki qo'llab uni chiqardi. Chiqardi-yu, serrayib qotib qoldi. Nafasi ham, yurak urishi ham to'xtadi. U xurjundan... akasining kallasini olgan edi!..

Tog'lar ham qotib qoldi. Osmon ham. Dunyoning hayot tomirlaridan jon chiqib ketdi. Bir zum, faqat bir zum shunday bo'ldi. U qo'lidagi kallani tashlab yubordi. Akasining kesilgan boshi qorga cho'kdi. Uning qalbidan otilgan faryod sukunatni qalqitib yubordi. Tog'lar aks-sado berdi. Yo'q, aks-sado emas bu. Tog'lar ham faryod chekdi. Bu faryodni qorlar o'ziga shima olmadi — osmon bag'riga singirdi.

Hozirgina oqligi bilan ko'zni qamashtirayotgan qor bir nafasda qop-qora bo'lib qoldi. Keyin asta qizardi. Cho'qqilardan qip-qizil qon oqib kela boshladi. Issiq qon uni ham bag'riga tortib, avval tovonini kuydirdi, keyin badaniga tarqaldi. So'ng miyasi qiziy boshladi. Tomog'i qurib, qonni simira ketdi. Simirgan sayin ichi kuyaverdi. Keyin qon qorga singib, atrof asta oqardi. Shunda u qorga botib turgan kallani avaylab qo'lga oldi. Yumuq ko'zlarni, o'siq qoshlarni siladi. Silay turib vujudidan yana faryod otilib chiqdi.

Osmon qa'riga ikki kungacha faryod otilib turdi. Keyin bu ovoz boshqa yerlarga ko'chdi.

U ozib-to'zib ketdi. Borar joyini ham unutdi: telba bo'lib qoldi. Kallani qo'lidan qo'ymay, tentirab yuraverdi. Bir yerda oyog'i toyib, pastga qarab yumalaganida uni yo'qotdi. Alam bilan nola chekdi. Oxiri bir yumaloq toshni kalla xayol qilib avaylab oldi. Qosh-ko'zni izladi. Topolmay uvvos solib yig'ladi. Lekin uni tashlab yubormadi. Ehtiyotlab ko'tarib yuraverdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, savdo vajidan Koshg'arga borib-kelib yuruvchi o'zbeklar uni ko'rib qolib, xachirga mingashtirib oldilar. Charx urayotgan quzg'unlar yemishlaridan mahrum bo'ldilar. Ko'chkini pastlab o'tgan savdogarlar yig'isidan bezor bo'lib, uni yana tashlab ketdilar.

Quzg'unlar yana yemish umidida uning ustida charx ura boshladilar...

ELCHILAR

Nog'oralar chalindi. Jarchilar jar solib, buxoroliklarni baland minora atrofiga to'pladilar. Saroy va din, tijorat va irodat ahli odatlarini qilib, minoraga yaqinroq yerdan joy oldilar. Yuzu ko'zlarida hadik zohir bo'lgan ahli ano bilan ahli niyoz esa panaroqda turishni afzal ko'rdilar.

Jarchilar Buxoro saltanatida «shakkok» paydo bo'lgani, Vobkent minorasi sirtida tik yurgani, amir hukmi bilan bugun uning ulkan minoraga ro'para qilinajagini kallai saharlab fuqaroga ma'lum etdilar.

To'planganlar bu gaplarga bir ishonib-bir ishonmay, gangib, ora-sira bahslashib, «shakkok»ning olib kelinishini kutar edilar:

- Minora sirtidan yurgani yolg'on bo'lsa-chi?
- Boshi ketadi.
- Rost bo'lsa-chi?
- Bari bir boshi ketadi.

Minoraga yaqin turganlar ham bo'lajak voqeani o'ylashar, ammo chetdagilarga o'xshab, fikrlarini tilga uzatmas edilar:

«... Agar-chi, «shakkok» chindan ham minora sirtida tik yura olsa, u odam emas, iblis bo'ladi. Iblis fuqaro orasiga aylandimi, imon ketadi. Imon ketsa, davlat tayanchidan ayriladi. Farg'ona muzofoti qaqshab, Buxorodagi yirtiq choponlar g'imirlab turganda bu nimasi edi? Xudo bu ofatni ularga ne uchun ravo ko'rdi? Qaysi gunohlari uchun jazolamoqchi? Iblis shu qadar qudratga ega ekan, ularning jonini sug'urib olishi ham mumkin-ku? ... Atrofda sipohilar muncha kam?...»

Ana shu sarosima bilan orqaga qaraganda tisanishga joy yo'qligini ko'rgach, noiloj yurak yutib, joylarida qotib qolaverdilar.

Nihoyat, oyoq-qo'llariga kishan urilgan «shakkok»ni olib keldilar. Baland bo'yli, yelkalari keng, ko'zlarida o't chaqnab turgan sarpoychan bu odam aravadan bamaylixotir tushib, minora tomon yurdi. Buni ko'rib, olomon bir guvrandi.

Amir farmoni o'qildi.

Maydonga sirli sukunat cho'kdi.

«Shakkok» kulimsirab turaverdi.

Olomon hayratda...

Mullavachchalar davrasidagi qoruvli yigit «shakkok»ni ko'rdi-yu, tili kalimaga kelmay qoldi. Buxoroliklar orasida «Tabib afandi» degan nom bilan ma'lum bo'lgan odam ko'zida esa nechundir g'azab uchqunlanadi.

«Shakkok» odamlar orasidan uni izlab topgach, yana kulimsiradi. Kishanlar yechilishini ham kutmay minora sirtiga oyoq qo'ydi. Qaddi bir oz qiyalanib turdi-da, keyin rostlandi. Kishanlarni sharaqlatgancha, tik yurib ketdi.

Chetroqda turganlar kalima keltirib, vahimaga tushib, qocha boshladilar.

«Shakkok» minoraning narigi tomonidan yurib tushganida maydonda qo'rquvdan titrayotgan besh-o'n sipohidan bo'lak hech kim qolmagan edi. «Shakkok» bir nojo'ya harakat qilsa, ular ham qochib qolishga tayyor edilar. Ammo uning harakatida tajovuz

sezilmadi. Kulimsiraganicha aravaga chiqib o'tirdi. Sipohiylar nima qilarlarini bilmay, yana zindon sari yurdilar.

Ertasi kuni Buxoro xalqini tashvishli xabar uyg'otdi: minora sirtida tik yurgan «shakkok» qanotli maxluqqa minib, uchib ketibdi! Soqchilarning barchasi uning o'rnida — zindonda uxlab qolishganmish...

Tahlikada qolgan shaharda Olloh yo'liga qurbonliqlar ataldi. Odamlarning halovati yo'qoldi. Barcha qiyomatning haq ekaniga ishonib turgan kezda, kunchiqar tomonda kuchli guldirak tovushi eshitildi. Keyin falak qarsillab, ikkiga ajralib ketganday bo'ldi. Odamlar rozi-rizolik tilashib, qiyomatni kuta boshladilar. Ammo vahimali guldirak uzoqlasha borib, zamin ham, samo ham jimib qoldi.

Sarosima bilan kutilgan qiyomat sodir bo'lmadi.

Xuddi shu onda Yer kurrasi atrofida yo'ldosh kabi aylanayotgan yassi kema sayyoradan uzoqlashib, Somon yo'li tomon uchdi.

Kemaning uchburchak shaklidagi asosiy xonasida Buxoro xalqini sarosimaga solgan «shakkok» — Tang sayyorasining elchisi Lukn boshini egib o'tirardi. Undan ikki qadam narida turgan safar rahbari — yerliklarga «Tabib afandi» sifatida tanilgan Rhaq ham jim edi.

... Lukn qilgan ishidan vaqti chog' bo'lib, amir zindonida xotirjam yotar edi. Istasa, shu onning o'zida zindondan chiqishi, arkka kirishi, hammayoqning to's-to'polonini chiqarishi mumkin edi. Uni Rhakdan bo'lak hech kim ushlab qololmasdi. Darvoqe, Rhaq... Lukn Tabib afandi libosidagi o'zining hamrohini ko'z oldiga keltirganda yuzida g'olib kishining mamnun va mag'rur kulgisi paydo bo'ldi. Ha, Rhaq — yerlik odamlar ongiga yuksak baho berib yurgan donishmand bugun beadam sarosimaga tushdi. Luknning minora sirtida yurishyoq odamlarning aqlini oldi. «Ular qumliklar panasidagi fazo kemasini ko'rishsa bormi, eslari og'ib qolishi tayin. Bu odamlar taraqqiyot yo'liga chiqa olmaydilar. Rhaq endi bunga ishongan bo'lishi kerak». Yerliklar «Osmon» deb atovchi bu qora bo'shliqda Tang degan sayyora borligini rad qilib bo'lmaganidek Luknning nazarida bu fikrini inkor etish mumkin emas. Uning uchun yerlik odamlarning sarosimaga tushishlaridan ko'ra, hamrohi ko'zidagi tashvishni ko'rish muhim edi. Lukn bu tashvishni ko'rdi! Bu tashvish pardasi ortida mag'lub odamning nigohi yashirin deb o'ylagan. Lukn bahslarning o'z foydasiga hal bo'lganiga, Tang sayyorasiga — ona yurtiga o'zining mutlaq tasdiqlangan fikri bilan qaytajagiga amin edi.

Ana shu ishonch uning vujudiga rohat baxsh etdi. Butun charchoqlari hovur kabi ko'tarilganday bo'ldi. Zindonga yaqinlashishga yuragi dov bermayotgan soqchilarga qarab, kulimsirab qo'ydi-da, g'adir-budir toshlar ustiga uzala tushdi. Shu ko'yi ko'zi ilindi.

Zindonda mamnun yotgan Lukn yanglishgan, hamrohi ko'zidagi tashvishni to'g'ri uqmagan edi. Rhaq esa, aksincha, uning mamnunligi boisini yaxshi anglab, qaytish tadorigini tezlashtirdi. Tunda zindonga yaqinlashib, hali ham tili kalimaga kelmayotgan, na amirga bo'ysunib «shakkok»ni qo'riqlashni, na qochib qolishni bilmay kalovlanib turgan soqchilarga biotok oqimini yo'llab, uxlatdi. Soqchilar yaqinlashayotgan qora sharpani ko'rishdi-yu, ammo uxlab qolganlarini o'zlari ham sezishmadi. Ertalab oqshomda o'zlarini «shakkok» zindonida ko'rib, «jonlarini omon saqlab qolgan Ollohgaga» ming karra shukr qilib, «osmondan qanotli odamsimon maxluqot tushib, og'zidan o't purkagani, ana shu otash zabtida uxlab qolishgani, keyin «shakkok» qanotli maxluq yelkasiga minib uchib ketgani»ni biri olib-biri qo'yib aytib berdi. «Uxlab qolgan bo'lsalaring, «shakkok»ning uchib ketganini qanday ko'rdilaring?» deguvchi zot topilmadi.

Rhaq zindonda yotgan Luknga biotok oqimini yo'llab, uni yanada qattiqroq uxlatdi. So'nggi ishlarga xalaqit berishi mumkin bo'lgani sababli uni Yer doirasidan uzoqlashgunlaricha uyg'otmadi.

Lukn qop-qorong'i bo'shliqda uchib ketayotgan kemada uyg'onib, avvaliga gangib qoldi. So'ng yerlik odam qiyofasidan chiqib, asl shakliga kirgan — bo'yi ikki baravar uzayib, qo'li kichraygan, burni o'rnida tangadek teshik qolgan, og'zining kattaligi o'zgarmagan, ammo sochi chin rangini olib, yam-yashil bo'lgan safar rahbariga ko'zi tushib, hammasini fahmladi. Rhaqga g'azab bilan tikildi...

Yer tomon uchayotganlarida ularning zimmalariga faqat bir vazifa — sayyorada istiqomat qiluvchi jonzoatlarning taraqqiyot darajasini o'rganishgina yuklangan edi. Yer hayotiga aralashish qat'iyan man etilgani uchun ham ular odam qiyofasiga kirib olgandilar. Yerga qilingan avvalgi ikki safar mashq tarzida bo'lgan, bularniki esa dastlabki jiddiy tadqiqot sanalardi. Mana shu tadqiqot samarasi ko'p narsalarni, xususan, Yer sayyorasining taqdirini hal qilishi mumkin edi.

«Mo'ljalda ishlari risoladagiday davom etib, tadqiqotlar nihoyasiga yetay deb qolgan edi. So'nggi xulosalarga kelganda Luknning asabi chidash bermadimikin?

Rhaq shularni xayoldan o'tkazib, hamrohiga norozi qiyofada boqdi:

— Kameraga kirib chiq, — dedi u bosiqroq gapirishga tirishib.

Lukn istamaygina o'rnidan turdi. Rhaqning norozi nigohi uning izlariga qadaldi.

Dastlabki kuzatuvlardan so'ng, Yerdagi (u paytda sayyoraning nomi Yer deb atalishini bilishmasdi) taraqqiyot darajasining Tangga nisbatan ancha orqada ekani taxmin etilgan edi. Rhaq sayyora sathiga tushgan kunlari buni darrov fahmladi. Biroq, uning o'tkir zehni Tangda mahv etilgan narsalarni ham ilg'adi. Odamlarning o'zaro samimiyati, mehri, muhabbati, olijanoblighi, do'stligi, ayni choqda, munofiqlighi, adovati, qahri, makri, pastkashligi, bir-biriga yovligi uning uchun yangilik edi. Yerliklar hayoti uning fikrini shu nomutanosibliklari, shu murakkabligi bilan band qildi. Yer hayoti Luknning ham e'tiborini tortgan bo'lsa-da, u masalaga o'zgacha yondashgan, ko'rganlarini o'zgacha tahlil etgan edi. Hamrohining ayri qarashlarini ancha ilgari sezgan, biroq jiddiy e'tibor bermagan Rhaq minora voqeasidan ikki kun avval bo'lgan bahsda Luknning fikrlari faqat noto'g'rigina emas, balki zararli ekanini anglagan edi.

Yer hisobi bilan salkam bir yil davom etgan kuzatuvdan so'ng, Lukn «Odamzot taraqqiyoti tanazzulga yuz tutgan», degan qarorga kelibdi. «O'zini «inson» deb atovchi bu jonzoatlar bir-birlarini yeb bitiradilar. Yerdagi hayot tugaydi. Tafakkur darajalari o'sishdan to'xtagan...» Rhaq bu aqlni hazm qila olmas, ayni vaqtda, hamrohini fikridan qaytarish qo'lidan kelmas ham edi. Lukn Buxoro xalqini sarosimaga solish bilan o'z haqiqatini isbotlamoqchi bo'ldi. Bu uning qabihligi emas, balki kaltebinligi oqibati edi.

Lukn gen kamerasida asl qiyofasiga kirib qaytdi. Rhaq bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqeadan so'z ochmadi. Kema Quyosh majmuasi sarhadiga yaqinlashib qolgan edi. Ikkovi ham uyqu kamerasiga kirishdan oldin so'nggi tayyorgarlikni ko'rishdi. Qurilmalarning ishlashini sinchiklab kuzatgach, uchish ixtiyorini avtomat-navigatorga topshirib, bir-birlariga bosh irg'ab qo'yishdi-da, o'z bo'lmalariga kirishdi.

Lukn zindonda uxlab qolganidan so'ng qanday voqealar sodir bo'lganini endi fahm etgan edi. «Rhaq makkorlik qildi, — deb o'ylardi u. — Men bahsdagi fikrimni amalda isbotlamoqchi edim. U ishimga nima uchun aralashdi? Bahsda mag'lub bo'lishdan qo'rqdimi? Axir uning bahsda yengilishi mag'lubiyat emas, aksincha, safarimizning yaxshi natija bilan tugashini belgilovchi omil edi-ku? Yerliklarni himoya qilishi tushunarsiz bir hol. Ming afsuski, safarga men emas, u rahbar. Bo'lmasa jazosini olar edi».

Lukn uyqu kamerasiga kirgach, darhol orom topdi. Rhaq esa kameraga kirishga oshiqmadi. U Luknning norozilik bildirishini kutgan, shunga yarasha javob tayyorlab, bahsga shay turgan edi. Hamrohining indamagani uni ajablantirdi. «Bu tangliklarga xos hissizligimi yo fursat kelishini kutmoqchimi? Balki nohaqligiga amin bo'lgandir? Yo'g'-e!» Rhaq «Lukn o'libtirilibdi» degan gapga ishonishi mumkin edi, ammo uning fikridan qaytishiga sira ishona olmasdi. Fikrini o'zgartiradigan jonzotda boshqalar qismatiga nisbatan achinish, boshqalarni tushunishga nitilish, boshqalar baxtidan lazzatlanish hissi bo'lishi kerak. Luknda bunday his yo'q! Demak, fikrida qat'iy turadi. Asosiy bahs Tangda boshlanadi. Donishmandlar ikkiga bo'linishlari mumkin. Bahsda qay bir tomon g'olib keladi — bu noaniq.

Rhaq shaffof quvur shaklidagi uyqu kamerasiga kirib ko'k rangli simlarni bilagiga, sariq ranglisini engagiga tang'iganidan so'ng, belgilangan reja bo'yicha yuzgacha sanamay uxlab qolishi kerak edi. Lekin uning a'zolari bu safar rejaga amal qilmadi. Keyingi kunlardagi voqealar Rhaqning asablarini qaqshatib yuborgan edi. Hozir, majburan uxlashi kerak bo'lgan onda, yana o'sha minora, g'oliblikdan masrur turgan Lukn, zindonda yerparchin bo'lib yotgan Salimxo'ja, yonog'idagi kulgichi o'ziga yarashiqli durkun Nazira ko'z oldidan bir-bir o'taverdi...

Nazira? Voajab! Nazirani nechun esladi? Yerdan olib qaytayotgan behisob taassurotlari orasida nechun bu ma'sumaning nigohi bulut bag'rini yorib chiqqan yashin singari xotiralarini to'zitib yubordi? Nazira... Nazira... Dilbar qiz... Ammo uni hozir eslashi joiz emas. Yurtiga omon-eson yetib olishi uchun uxlashi zarur! Shuning uchun Yerdan olib ketayotgan xotiralarni, shular to'dasida Naziraning uzorini ham quvishga harakat qildi. Cho'g' kabi yilt etib ko'z ochgan har qanday xotirani beayov o'chiraverdi.

Shu zaylda uxlab qoldi.

... Rhaq qancha uxlaganini bilmaydi. Miyasidagi qaysi bir hujayra zaifgina bir titrab, uyg'onib ketdi. Yonboshiga o'girildi: Lukn xotirjam uxlayapti. Yurak urishini qayd etuvchi tasma uning g'oyat osoyishtalik bilan orom olayotganini bildirib turibdi.

Rhaq hamrohining yuziga tikilib qoldi.

«Bir maqsad bilan yo'lga chiqib, ikki xil fikrda qaytyapmiz. Yer tangliklar uchun yana muammoligicha qoladi. Agar Lukn fikrini isbotlay olsa, Yerning taqdiri o'sha damning o'zidayoq hal bo'ladi: tafakkur darajasi o'sishdan to'xtagan sayyora Tang qaramog'iga o'tishi kerak! Yerliklar hamma narsadan — tildan, tarixdan, mehrdan, dildan... mahrum etiladilar. Qadam olishlari ham, so'zlashlari ham Tang istagi bo'yicha bo'ladi. Yerning taraqqiyoti, o'z ixtiyoriga zid ravishda, tangliklar tomonidan tezlashtiriladi. Oqibat esa...»

Bu fikrdan Rhaqning vujudi seskandi. «Yo'q, — dedi u o'ziga-o'zi, — bunday bo'lishi mumkin emas. Shubhasiz, Tangda Luknni qo'llaydiganlar topiladi. Lekin bu masalada yakdillik bo'lishiga ishonmayman!»

Rhaq avtomat-navigаторning ishini tekshirib ko'rgach, yana uyqu kamerasiga kirdi.

Bu safar ham ko'p uxlamadi. Kimdir turtib uyg'otgandek bo'ldi. Oyoq-qo'llari nima uchundir og'ir, a'zoyi badani zirqiraydi. U boshini qo'llari orasiga olib uzoq o'tirdi. Eshik ochilib, kimningdir yuzi ko'rindi. Rhaq uning kimligini ilg'ay olmadi. Eshik qanday tez ochilgan bo'lsa, yana shunday tezlikda yopildi. Rhaq o'rnidan turib tor dahlizga chiqdi. Hech kim yo'q. U beixtiyor iziga qaytib Lukn yotgan kameraga qaradi. Lukn yo'q! Rhaq hayratdan dong qotdi. Shu payt orqasida sharpa sezildi. U shaxt bilan o'girildi. Kimdir boshqaruv xonasiga o'tdi. Rhaq tez-tez yurib, kemanding asosiy boshqaruv xonasiga kirdi. Hech kim ko'rinmaydi. Asboblar bir me'yorda guvillayapti. Kema go'yo qorong'i bo'shliqda muallaq turganday. Kimdir uning yelkasiga qo'l tashladi. Bo'yniga kimningdir iliq nafasi urildi. Rhaq gangib qoldi. Atrofida hech kim yo'q. U yana shoshib iziga qaytdi:

Lukn joyida uxlab yotibdi. Rhaq yana sharpa sezdi. Boshqaruv xonasiga kirdi. Luknning kamerasiga qaytdi...

«Nima bu? Gallyutsinatsiyami? Asablarim qaqshab, o'zimni eplayolmay qoldimmi? Yana kimdir yurganday bo'lyapti. Sharpa. Yo'q odamning sharpasi. Yo'q odam... Nimaga cho'chiyapman? Yo'q odam qo'rqinchlimi? Yovuzdan ham battarroq. Yovuz bilan ro'para bo'lsang, o'ldirib qutulasan. Yo'q odamdand-chi? Urrib bo'lmasa, chopib bo'lmasa. Qanday qutulish mumkin? Yo'q odam xayolimda-ku! Qaerdan keldi? Nima uchun xayolimdan joy berdim? Hali yo'lning yarmi bosib o'tilmadi. Kemada yolg'iz o'zim bedorman. Boshqa hech kim yo'q. Sharpa ham yo'q. Lukn uxlayapti. Bir o'zim bedorman. Bir o'zim...»

Rhaq shu zaylda o'zini o'zi ishontira boshladi. Sharpa har qancha xayolini chalg'itsa ham e'tibor bermadi. Asablari bir oz osoyish topgach, uyqu kamerasiga kirdi.

Yana cho'chib uyg'ondi. Yana a'zoyi badani zirqiradi. Boshqaruv xonasiga chiqdi. Kutilmaganda ekran yorishib, Fid ko'rindi. Hamisha jiddiy boquvchi botiq ko'zlar, o'siq qosh, bir tekis oqargan soch, pastki labining o'ng tomoni sal tortilib turibdi. Ovozi o'sha-o'sha dag'al:

- Sen yanglishding, Rhaq. Endi hukmni o'zing chiqarganing ma'qul.
- Hukm? Nima uchun?
- Yangi tartiblar bexato ishlashni talab etadi.
- Bunday tartiblarni faqat johillargina joriy qiladi!
- Zukkollarning izmi hamisha johillar qo'lida bo'lib kelgan.
- Yanglishyapsan! Donishmandlar hech qachon johillar qarshisida tiz cho'kmaganlar.
- Ammo ular bilan doimiy kurash olib borishga majbur bo'lganlar. Vaqt va quvvatni behuda sarf etish zukko uchun og'ir azob ekanini unutyapsan.

- Maqsadingni anglamayapman?
- Hukm chiqarishing kerak.
- Qanday hukm?
- Sen o'z-o'zini o'ldirish masalasiga qanday qaraysan?
- Bunday ahmoqona o'y sira xayolimga kelmagan.
- O'ylab ko'r...
- Esingni yig', Fid!
- O'ylab ko'r... Eng to'g'ri yo'l — shu...

Rhaq o'rnidan turib ketdi. Ko'zlarini uqaladi. Ekran qorayib turibdi. Yana gallyutsinatsiyami? Rhaq bema'ni xayollarni miyasidan quvib chiqarish uchun diqqatini bir yerga to'plashga urindi. O'zini o'zi chalg'itdi. So'ng yana uyqu kamerasiga kirdi.

Endi avvalgidan ham kamroq uxladi. Nazarida Fid tepasida turganday tuyuldi. Ko'zini keskin ochib atrofiga alangladi. O'rnidan turdi. Lukn yotgan kameraga qaradi; hamrohi uyquda. Keyin boshqaruv xonasiga kirib ekranga tikildi. «Fid boshqa ko'rinmaydi, avvalgisi gallyutsinatsiya edi. O'zimni o'nglab oldim. Bo'sh kelish yo'q...» deya o'ziga dalda berdi. Har qanday sharoitda o'zini qo'lga ola biladigan Rhaq Yerga qilinajak safar oldidagi tayyorgarlik davrida ham sinov kamerasida ko'p marta yakka o'zi yashagan, sun'iy gallyutsinatsiyalarning barchasiga bardosh bera olgan edi. Ana shu sinovni inobatga olib uzoq muddatli uchishga chidayman, deb o'ylardi. Ammo u eng muhim bir narsani — Yerda o'tgan umrini, hissiyotlar oqimidagi o'zgarishlarni hisobga olmayotgan edi. Garchi ikki sayyora o'rtasida aloqa o'rnatish uchun asosiy omil hisoblangan suv, havo, tuproq tarkibi bir xil bo'lsa-da, u Yer sayyorasida o'zini kutilmaganda o'zgacharoq his etdi. Rhaq bu xira yulduzda molekulyar komplekslarning vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan organik birikmalar mavjudligini, bu moddalarning erishiga mos suyuqlik ham borligini yaxshi bilardi. Ammo ilmiy kuzatish va tadqiqotlarga bo'ysunmaydigan talay omillarni keyinroq payqadi. Faqat payqab qolmay, ularni alohida mehr bilan ardoqlay

boshladi. Odamlarning o'zaro munosabatidan kelib chiqadigan bu omillar uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgan, shu sababli hududsiz fazosarobining domidan qutula olmayotgan edi.

U qorayib turgan ekranga qarab o'zini g'olib seza boshladi. Rhaq gallyutsinatsiyani chekintirganiga amin edi. Hatto g'oliblik nashidasi qo'ng'ir yuzida ham sezildi. O'zini chalg'itish uchun kundaliklarini varaqlayman deb kursiga endi o'tirganida, ekran yana yorishdi-yu, Fidning sovuq, qahrli yuzi ko'rindi. Rhaqning badani jimirladi.

— Kutmovdingmi? — dedi Fid kiprik qoqmay.

— Kutgan edim. Lekin istamagandim.

— Istak bilan majburiyat boshqa-boshqa narsa. Tangda istak degan tushunchaga barham berilganini unutdingmi?

— Aksincha, afsus bilan esladim.

— Rhaq! Sen Tangga qaytyapsan. Undan qochayotganing yo'q. Yurtingdagi tartiblarni afsus bilan eslash huquqidan mahrum ekaningni unutma.

— Haqqim yo'qligini yaxshi bilaman. Ammo nachora, afsus bilan eslaydigan tartiblar ko'pligini Yerdan aniq sezdim.

— Bizdagi tartiblar osmondan olingan emas. Ming yillarni oralab o'tib, pishib-etilgan. Unga shak keltirma.

— Biz ming yillar davomida gangib yurgan ekanmiz.

— Rhaq, tilingni tiy! Senga nimamiz yoqmay qoldi, ayt, balki yanglishayotgandirsan?

— Qani endi yanglishayotgan bo'lsam. Bu qadar yonmas edim.

— Ayt.

— Fid, sen mening qancha bolam borligini bilasanmi?.. Yo'q. Boshqalarnikini ham bilmaysan. Men ham shunday — xabarsizman. Chunki biz faqat xizmat yuzasidan aloqa qilamiz. Bizga faqat bir narsa — yuksalish uchun ishlash, ishlash uchun yuksalish kerak. Burch, sadoqat, mehr degan tushunchalar taraqqiyot yo'lidagi g'ov... Fid, sen sevib uylanganmisan? O'ylamay qo'ya qol. Hammamiz kompyuterning ma'lumotlariga qarab uylanganmiz. Nazarimizda sevgimiz aldamchi, kompyuter esa aldamaydi. Biz yuksalish uchun ishlashimiz, ishlash uchun yuksalishimiz kerak. Fid, sayyoramiz xavf ostida qolsa ahvolimiz nima kechadi, sen hech o'ylaganmisan?

— O'ylamay-chi? Biz bu xavfni lahzada bartaraf etamiz. Sen qudratimizga ham ishonmay qoldingmi?

— Ishonaman. Ammo fazoning qay bir nuqtasida bizdan o'n karra qudratliroq ongli jonzot bo'lsa-chi?

— Yo'q, bu farazing noo'rin. Eng oliy ong faqat Tangda mavjud. Biz tabiatni yenggan yagona oliy ong egalarimiz.

— Sen haqsan. Ammo xavf tug'ilib qolsa, yengishga chog'imiz kelmaydi. Bizning bir-birimizga qadrimiz yo'q, bir-birimizni qo'llab-quvvatlamaymiz. Shuning uchun ham ojizmiz.

— Bekor aytibsan. Qadrimiz bor. Bir-birimizni qo'llab-quvvatlaymiz ham. Tang aholisi o'rtasida eng yaxshi munosabat mavjud.

— Sen eng yaxshi deb atayotgan munosabat quruq, soxta.

— Hissiyotga berilish — tanglik ruhiyati uchun oshiqcha yuk, Rhaq.

— Men faqat ana shu yukni ko'tarib yurishga mingdan-ming rozi edim.

— Rhaq, ruhing xastalanibdi. Tang tarixini kavlishtirib yurganingdayoq buni sezib edim.

— Fid, endi tarixni ochish vaqti yetdi.

— Yo'q, aslo! Tang tarixini o'rganish — taraqqiyot yo'lidagi asosiy g'ov. Tarix faqat maxsus guruh uchun ochiq. O'tgan zamondagi xatolar tahlil qilib turilsa, bas. Boshqalar faqat yuksalishni o'ylashi kerak. Orqada hech nima yo'q!

— Fid, fikring o'zgarib qolibdi. Sen Luknning gaplarini aytyapsan.

— Men o'zimning gaplarimni aytyapman. Men — Luknman!

Rhaq seskanib, ko'zini yumib ochdi. Darhaqiqat, ekrandan Fid emas, Lukn qarab turar edi. Rhaq jon holatda ekranni kaftlari bilan to'sdi. Tasvir yo'qoldi. U telba bir ahvolda o'rnidan turib ko'zlarini uqaladi. Ekran qorayib turibdi. Yana gallyutsinatsiyami? Nima bu, halokat belgisimi? U boshini changallab o'tirdi. Keyin xayolini jamlamoq uchun ko'zlarini yumib, stolni beixtiyor cherta boshladi. Nazarida qo'li og'irlashayotganday, harakat mushkullashganday tuyuldi. Ko'zini ochib baqirib yuboray dedi: barmoqlari beshtadan bo'lib qolibdi! Xuddi yerliklarnikiday — beshta! U ko'zlarini mahkam yumib, keyin yana ochdi. Yo'q. Barmoqlari beshta emas, tangliklarnikiday uchta. Demak, yana gallyutsinatsiya. Asablari pand beryapti. Qanday bo'lmasin uxlashi kerak. Yo'qsa, manziliga yetib borolmasligi mumkin.

Kema bir maromda uchib borar, Rhaqning asablari esa tobora izdan chiqar, noxush kechinmalar o'tida qovurilardi. Keyingi kunlarda ko'ziga faqat Fid — Yerda hayot borligini bashorat qilgan donishmand Fid ko'rinadi. Qandaydir hukm chiqarishga, uni ijro etishga undaydi.

Rhaq Fid bilan ko'p jihatdan hamfikir edi. U gallyutsinatsiya domidan ozod bo'lgan kezlari xayoliy bahslarni eslab hayratlandi. Chunki Tangda Fid bilan biron-bir muammo ustida bunchalik qattiq tortishmagan edi.

Tang fazogirlari juda ko'p yulduzlarga bordilar. Lekin hech birida ongli mavjudot uchratmadilar. Donishmandlar markazida endigina tahsilni tugatgan Fid kattaligi jihatidan ham, nuri jihatidan ham o'zgalardan farq qiluvchi yulduz atrofida harakat qilayotgan nisbatan mayda va nursiz to'qqiz yulduzni kuzata boshlaganida unga aytarli ahamiyat berishmadi. Bir tomonda o'zini qoya deb his qiluvchi donishmandlarning taxmini isbotlanmay turganda, bu «go'dak»ning farazlariga kim ham e'tibor qilardi? Fid maqsadga faqat iqtidor bilan emas, balki sabr-toqat bilan ham borilajagini yaxshi bilardi. U ultrabinafsha spektrometr yordamida yorqin yulduzga yaqinlik bo'yicha uchinchi turuvchi, kattalikda esa beshinchi o'rinda turuvchi xira yulduz atmosferasining kimyoviy tarkibini aniqlab, undagi vodorod va geliy miqdori Tangniki kabi ekanini aytganda ham, xira yulduz atmosferasida suv bug'i mavjudligini spektroskopik tadqiqotlar isbot etgandan keyin ham shuhratga umid qilmadi. U o'zini donishmand sanaydigan, aslida «nima uchun kunduzi yorug', tunda qorong'i bo'ladi» deb bosh qotirib yuradigan chala olimlar qatorida navbat kutishga majbur bo'ldi. Bu uning izzat-nafsigaga tegsa-da, sayyorada joriy bo'lgan qonunga tik borolmasligini bilib, toqat qildi. Tangda uning kashfiyotidan hayratlanib, birinchi bo'lib qutlagan kimsa Rhaq edi. U do'stining taxminlariga ishonardi. Farazlarning isbot etilishi Rhaq uchun nur ustiga a'lo nur bo'lgan edi.

Birinchi fazogirlar Yerga safar qilib qaytishganda ularning quvonchi cheksiz edi. Fazogirlar ikkinchi uchishga tayyorlanayotgan vaqtlarida Rhaq uchinchi — eng muhim safarga o'zi borajagini hali bilmasdi. Mana uchinchi tadqiqot ham tugayapti. Endi to'rtinchisiga kim borarkin?

Bu savol yerda ekanidayoq Rhaqning ko'ngliga g'ulg'ula solgan, dilida: «Imkon bo'lsa yana o'zim kelardim», degan umid ham uyg'ongan edi. Ko'nglini bezovta qilayotgan xayoliy bahs-munozaralardan keyin Rhaqning Yerga yana qaytish haqidagi ilinji barbod bo'la bordi.

... Bu safar ham cho'chib uyg'ondi. Yana Fid bilan ro'baro' bo'lishini eslab yuragi orqasiga tortib ketdi. Bir nuqtaga tikilib xayolini to'pladi. Boshqaruv xonasiga ham, Lukn yotgan kameraga ham qaramay, Yerdan olib ketilayotgan «o'ljalar» turuvchi bo'lmaga kirdi. Kaftdek ekran burchagidagi qo'ng'ir murvatni buradi. Ekrandagi Yer tasviri ko'rindi; daraxtlar gullagan, pag'a-pag'a oq bulutli osmon yer bilan qo'shilib ketganday— osmon aksi yerga tushyaptimi, yo aksinchami, bilib bo'lmaydi. Ariqlarda suvlar to'lib, xas-xashaklarni surib oqadi...

Rhaq bu tasvirga qarab yengil tortdi. «Bu xonaga avvalroq kirsam bo'lmas ekanmi», deb o'ylab yumshoq o'rindiqqa o'rnashib o'tirdi. Shu payt orqa tomondan bir ovoz keldi. Rhaq cho'chimadi. Aksincha, ovozni qayta kutdi. Ovoz yana eshitildi. Rhaq o'rtandi: u Naziraning beozor kulgisini eshitgan edi. U orqasiga o'girilishdan cho'chidi — qarasa, Nazira hurkib uchib ketadiganday edi. Qiz ro'parasiga kelmasa ham mayli, faqat kulgisi eshilib tursa bas. Xuddi shu kulgi uning nazarida kemadagi noxush narsalarning barchasini quvib chiqaradi.

Nazira... Nazira... Nimaga kulmayapti. Nimaga jimib qoldi? Tabib afandiga — Rhaqqa aytadigan gapi yo'qmi? Xayrlashmay ketgan «beoqibat» Tabib afandidan xafami? Shuning uchun ham yolg'izlik to'rlarida bo'g'ilayotgan Rhaq huzuriga kechikib keldimi? Nazira... Nimaga jimib qoldi?

Rhaq chiday olmadi. Orqasiga o'girildi: nigohi qora qutilarga urildi. — Nazira yo'q! Fid adoqsiz bahslari bilan uning yurak-bag'rini qon qilib yubordi. Xotirasida qizning tiklanishi balki shu yaralarga malham qo'yarmidi? Rhaqni ruhiy halokatdan asrab qolarmidi?

Ekrandagi tasvir so'ndi. Rhaq uni qaytadan qo'ydi. So'ng qora qutilardan birini ochib, qo'lga ilingan kitobni oldi: Hofiz Sheroziy. Naziraning akasi To'xtamurod xo'b ta'rifini keltirgan edi. Shoirning bir bayti Rhaqqa ajabtovur tuyulib, yodlab olgan edi:

*Agar on turki sheroziy ba dast orad dili mo ro,
Ba holi hinduyash baxsham Samarqandu Buxoro ro.*

Kitobni qo'lga olib varaqladi-yu, shu baytni eslab kulimsirab qo'ydi. «Yerliklarning muhabbatidan aql lol qoladi, — deb o'yladi u. — Bitta hol uchun ikki shahar bermoqchi. Surishtirishsa oshiqning ikki tangasi yo'qdir. Lekin ixtiyorida ikki shahar emas, ikki dunyo bo'lsa ham go'zalning bir xoliga almashtirib tashlashi tayin. Yerliklarning muhabbati shunaqa— oshiq odam esini yo'qotib qo'yadi...» Rhaqqa bu narsa avval erish tuyulgan, yerliklarga xos keraksiz his degan xulosaga kelgan edi. Keyin, chuqurroq o'ylab ko'rib, odamlarni bir-biriga xuddi shunday muhabbat bog'lab turganiga ishondi.

Kimdir qo'shni bo'lmada turib, pichirlab she'r o'qiganday bo'ldi. Rhaq sergaklandi. Kimdir xo'rsindi. Yana she'r o'qidi — Nazira! Ha, Rhaq uning ovozi ilk marta shu zaylda eshitgan edi.

... Devor ortida bir qiz ovozi ko'tarmay g'azal o'qirdi. Rhaq quvurga tiqilib, suv yo'lini to'sib qo'ygan xashaklarni olib tashlash uchun devor tomon yaqinlashganda, qiz bolaning ovozi eshitib, to'xtadi. Ishqiy g'azalni tinglab, qizning yoshini chamaladi: o'n olti-o'n yettida bo'lsa kerak. Rhaq devor yaqinida ko'p turmadi. Suv yo'lini ochib, hujrasiga qaytdi.

Hozir ham Nazira qo'shni bo'lmada turib g'azal o'qiyotganga o'xshadi. Rhaq quloq tutdi: g'azalning so'zlarini anglamadi.

Ovoz tindi. Rhaqning xotirasidagi qiz qayoqqadir yo'qoldi.

Rhaq uni qaytarish istagida shosha-pisha qutini titdi — qiz sevgan kitobni axtardi. Topdi. O'sha zahoti qizning ovozi keldi, hatto ekrandagi o'zi ham ko'rindi.

«Siz Zebuniso begimning g'azallarini yaxshi ko'rasizmi? Akamga Hofiz Sheroziy bilan Fuzuliy bo'lsa, bas. Shoiralarga hushlari yo'q. Eshiting-a:

*Kiprigi — xanjar, karashma — tig', ko'z tashlash — yashin,
Gar shahid bo'lmoqchi ersang, karbalo bu yerdadir...*

Bu baytlarga hazrat Navoiy ham ofarin aytgan bo'lar edilar. Akam: «Yaxshi bayt aytish faqat erkaklarga xos», deyдилar. Nodirabegimni ham nazarga ilmayдилar. Siz dono odamsiz, akamga ayting: bu qadar bemehr bo'lmasinlar...»

Boshqaruv xonasida chaqiruv signallari yangrab, ekrandagi tasvirni ham, Rhaqning xayollarini ham to'zitib yubordi. Rhaq shoshib o'rnidan turdi.

Kema Tangga yaqinlasha boshlagan edi. Dam o'tmay Lukn ham uyg'ondi.

Qolgan kunlar Rhaq uchun azob bo'ldi. Lukn bilan deyarli gaplashmaydi. Gallyutsinatsiyadan qutuldi. Naziraning ovozi ham eshitilmaydi. Yuragi toshib ketaveradi. Asablari qaqshaydi. Xuddi jon tomiri uzilib ketadiganday xavotirga tushadigan bo'lib qoldi.

Rhaq kemanding Tang sahniga ohista qo'nishini ham sarob deb o'ylab, uzoq vaqt joyidan jilmay o'tirdi. Yon-atrofidagi tasvir o'zgarmagach, tushi emas, o'ngi ekaniga ishonch hosil qilib o'rnidan turdi. Biroq yura olmadi. Oyoqlari zilday og'ir edi. U muvozanatini yo'qotib kursi suyanchig'ini ushladi-da, joyiga qaytib o'tirdi. Asboblarning g'uvillashi tingach, qulog'i shang'illadi. Ko'zlarini yumdi. Tangga yeta olmay yo jinni bo'laman, yo o'laman, degan o'y uni iskanjaga olib, ko'p qiynagan edi. Nihoyat, Tangga yetib keldi. Es-hushi joyida. Salomatligi ham yomon emasga o'xshaydi. U baxtli tasodif bilan omon qoldimi? Yo'q odamning sharpasi qanchalar azobga soldi? Fid-chi? Yaxshi hamki Naziraning xotirasi dalda berdi. Yo'qsa...

«Hozir mutaxassislar kema eshigini ochadilar. Ular orasida Fid ham bormikin? Xayoliy bahslarimizni eshitib nima derkin?»

TOR DUNYO

Rhaqning asablaridagi salbiy o'zgarish qayd etilgach, uning donishmandlarga hisob berishi kechiktirildi. Shifoxonada yotib davolanishi zarur ekanligi haqidagi gapni eshitib, u e'tiroz bildirdi. Chunki Luknning ma'lumotlariga qarshi kurashni kechiktirib bo'lmasligini yaxshi bilardi. Ayni choqda, donishmandlar hukmining mutlaq ekanini unutgan ekan — noiloj shifoxonaga bordi. Bordi-yu, battar siqildi. Garchi gallyutsinatsiya endi ta'qib etmasa ham, xayoliy bahslarga chek qo'ya olmadi. Yuragi qon bo'lib ketdi. Ko'ngli kengliklarni qo'msadi. Kenglik... Qaerda bor? Yerda mavjud edi...

Tangda ikki kishiga mo'ljallangan uchuvchi yassi uchoqlar ixtiro qilingach, ko'chalarga ehtiyoj qolmagan, natijada, bir-biridan o'zishga bahs boylaganday ko'kka bo'y cho'zgan oynaband binolar orasi so'nggi imkonga qadar toraytirilgan edi. Rhaq Yerda yurganda ana shu uchoqlarni ko'p o'yladi. Ba'zan bu yassi uchoqlar osomonni xuddi za'faron bulut kabi to'sib olar, ana shunda bino poyida turgan kishi o'zini o'raga qamalib qolganday his etardi. Tangda yassi uchoq bilan bino tomiga qo'nib, ichkariga yuqoridan tushishga ko'nikkan Rhaq Yerdagi bir qavatli sodda binolarni ko'rib, dastlab ajablangan edi. Endi bilsa, o'sha binolar kenglikka erk berib turarkan. Tangda esa... bu eskirgan ibora. Tangliklar bir-biriga yelka tiraguday bo'lib turgan baland uylarga ko'nikib qolishgan. Tor dunyoga ko'z o'rgangan. Biroq ko'ngil ko'nikolmaydi.

Hozir hamma uyquda. Rhaq esa mijja qoqmaydi. U bir necha kundan beri bedor. Hech kim bilan gaplashmaydi. Hech kimga dardini aytolmaydi.

Rhaq navbatchilarni uyg'otib yubormay deb, oyoq uchida yurganicha dahlizga, undan hovliga, undan tor ko'chaga chiqdi. Havo dim. To'g'riga ketaverdi. Qaerga borayotganini o'zi ham bilmaydi. Ko'ngli faqat bir narsani — kenglikni qo'msaydi. Tangda bunday joy yo'qligini bilsa-da, qalbidagi yashirin ilinjga ishonib boradi. Xayoli jilovsiz. E'tiqod, niyat, ezgulik qora tamg'a ostida. Bosh ko'tarishga ojiz. Surur esa Tangni allaqachon tark etgan... Chunki kimdir, qachondir «bu hissiyotlar taraqqiyotga halal beradi», deb barchani ishontirgan, oqibatda sayyoradagi kattayu kichik faqat taraqqiyotni o'ylab yashashga ko'nika borgan va bu qonun tusiga kirib qolgan edi.

Tongotarda Rhaq mo'jaz bog' ro'parasidan chiqdi. Aslida bu bog' emas, qachonlardir savlat to'kib turgan o'rmonning omon qolgan bir bo'lagi. Tabiatni yenggan tangliklar marhamat tariqasida, to'g'rirog'i, yovvoyi tabiatdan yodgorlik sifatida har o'rmondan mana shunday bo'laklar qoldirgan edilar.

Rhaq kenglikni shu yerdan istab topmoqchimi?

Dunyo tor. Bir qarich ham bo'sh yer yo'q. «Qaerdadir ko'ngilga taskin bera oluvchi, xuddi Yerdagiga o'xshagan kenglik bo'lishi kerak, — deb o'ylardi u. — Poyoni yo'q ufqqa tutashib ketuvchi kengliksiz yashash mumkin emas... Alahsirayapmanmi?.. Tentakman... Bedorlik kuchini ko'rsatyapti. Sarobni orzu qilyapman...»

Rutubat bosib turgan binolar orasida yurib, toliqdi. Tang quyoshi — Zauraning sarg'ish nurlarida jilvalanuvchi shisha binolar, uning nazarida, kenglikning sarhadi. Ro'parasidagi bog' — o'rmonning omon qolgan bo'lagi ham chegara. Kenglik har tomondan o'rab olingan. Siquqda qolgan. Ko'ngil shu chegarani yorib o'tishni istaydi.

Rhaq daraxtzorga kirdi. Avval qurib-qaqshab yotgan so'qmoqdan, so'ng maysa qoplagan zahkash yerdan yurib ketdi.

Sokinlik. Go'yo shaharning asabni egovlovchi shovqini ham jilvagar baland binolar oralab shu daraxtzor tomonga oqadi-yu, dastlabki maysalarga duch kelgach, zax yerga singib ketadi. Hatto qushlarning chug'uri ham eshitilmaydi. Darvoqe, qushlar... Ularning nomlari ham, suratlari ham tarix sanalib, Tangning yosh avlodlaridan sir saqlanadi. Himoyasiz qushlar Tang havosidagi keskin o'zgarishning dastlabki qurbonlari bo'lishdi. Lekin hech kim bunga e'tibor bermadi. Hatto kislorod miqdorining kamayishi ham tangliklarni tashvishga solmadi. Ham yassilik, ham tikkalik bo'ylab yura olishga qodir, faqat yuksalish uchun ishlayotgan, ishlash uchun yuksalayotgan bu oliy ong egalari uchun sun'iy kislorod kashf etish qiyin ekanmi? Havo— sun'iy, ozuqa — sun'iy. Faqat a'zolar, yurak rosmena. Biroq, ularning ishlashi ham g'ayritabiiy.

Rhaq to'xtab, atrofiga ziyaraklik bilan boqdi.

Osudalik... Tangning bu bir parcha yerida osudalik hukmron. Kenglikning esa chor-atrofi siqib qo'yilgan. Tabiat zamon hukmida. Daraxtlarning to'rt quloch balandlikka qadar tik o'sgan tanasi, keskin yoyilgan shoxlarida hayot nishonasi sezilmaydi — harakat yo'q. Cho'p ustiga omonat qo'yilgan likopchani eslatuvchi bu daraxtlar shamolga qarshi kurashishni, egilib-bukilib qarshilik ko'rsatishni, oqibatda esa g'oliblik viqori bilan qad rostlab, savlat to'kib turishni unutishgan. Rhaqning nazarida bular mo'rtroq shishadan qilingan, chertib yuborsang, shoxu barglari duv to'kiladiganday edi...

Daraxtzor oralashi bilan birdan dimog'iga shifoxona hidi urildi. Daraxtzorda bunday bo'y nima qilsin? Rhaq bu hidni xotirasida olib kelgan. Dam o'tmay bu hid boshqa islar bilan qarishib ketdi. U holsizlanib, daraxtga suyandi. Barcha narsalarga qiziqishsiz, befarq qarovchi kimsalar barglar orasidan mo'ralaganday bo'lishdi. Ularning ko'zlari bo'm-bo'sh kenglikka qadalgan... «Bo'lmagan gap! Bo'sh kenglik hech yerda yo'q... Hatto xayol ham band. Tasavvur kenglikni unutgan. Nimani izlayapman? Kenglik — balki

o'lim chohidir? Shu choh kenglikka olib borar? Agar shunday bo'lsa, harakatim besamar. Izlaganim sayin o'lim mendan qochyapti. Nahot qolgan umrim bekinmachoq bilan o'tsa? Yo Yerdan olgan taassurotlarim asta-sekin yuvilib ketarmikin? Men ham avvalgiday hissiz, berahm, bee'tibor bo'lib qolarmikanman? Berahmlik... Ilgari bunday deb o'ylamas edim. Avvallari jazoga tortilayotganlar qismatiga achinmasdim. Hatto... o'g'limga ham. U o'rtoqlari bilan guruh tuzib, taraqqiyotni iziga qaytarishni xayol qilganda ko'p jihatdan haq ekanini bilardim. Bila turib hayrixoh bo'lolmadim. Muddaosiga yeta olmasligiga ko'zim yetsa ham to'xtatishga harakat qilmadim. Vaqtimni ayadimmi? Ha, men umrimning har bir nafasini taraqqiyot, faqat taraqqiyot uchun sarf qilishni o'ylardim. Bolalarni bir so'z bilan jazodan olib qolish imkoni bo'la turib, nimaga qutqarmadim? Xudbin edimmi? Donishmand ikir-chikirlar bilan emas, ilm bilan mashg'ul bo'lishi kerak, degan «g'oya»ga shunchalik qul ekanmanmi? Axir mening qismatim ham boshqalar uchun, hatto jazosini olgan o'g'lim uchun ikir-chikir masala bo'lishi mumkin-ku? Nimaga buni fahmlamagan edim? Naqadar jaholat! Taraqqiyot va jaholat! Men o'tgan yo'limga nima uchun bu qadar kech razm soldim? Agar Yerga bormaganimda shu fikrlar xayolimga kelar edimi?..»

Rhaq bu savollariga javob topa olmadi.

Daraxt panasidagilar Rhaqdan nigoh uzmay jim turishibdi. Ular Rhaqning dardli o'ylariga befarq. Qarashlari jonsiz, harakatsiz. Ular asta-sekin daraxtzorga singib ketdilar.

Rhaq yana ichkariladi. Kaftdek yalanglikka chiqib, to'xtadi. O'rtada katta xarsang. Bu atrofdan boshqa tosh yo'q. Ilgari xarsang ostidan suv qaynab chiqardi. Sinib tushgan shox-shabbalar, ko'katlarda qumursqalar o'ynab yurardi. Endi suv qurigan. Qumursqalar ham yo'q. Boshqa suvli, nam yerlarni izlab ketishdimikin, yo qirilib bitishdimikin?..

U Yerdagi buloqlarni esladi. Qulog'i ostida suvning shildirashi eshitilib entikdi. Boshi aylanib, o'tirib qoldi. Bir zum ko'zini yumib ochdi. Endi barglar orasidan yerliklar qarab turganday bo'ldi. Bu ko'zlarni ko'rgach, uvishgan qoni yurishib ketganday, badani ilib, asablari tinchlanganday tuyuldi. Yaqin o'rtada bulbul sayradi. Rhaq Tangda bulbul bo'lganmi-yo'qmi, bilmaydi, lekin uning ovozi Yerdan dastlab eshitganda yurtida ham shunday qushcha bo'lishini juda-juda istagan edi... Barglar shitirladi. Go'yo yerliklar ko'zlarini yumib-ochib: «Qanday xarobazorda yuribsan?» deb hayratlanayotganday tuyuldi. Rhaq chuqur xo'rsindi-da, ko'zi berkilgan buloqqa qaradi. Keyin boshini qo'llari orasiga olib, xarsangga o'tirdi. Ketgisi keldi. Qayoqqa boradi? Yana o'sha shisha qasr — shifoxonagami? Nonushta payti yaqinlashdi. Shunga shoshilyaptimi? Ochdan o'lmaslik uchun ovqatlanib, so'nggi nafasini kutib yotishga oshiqyaptimi?

«Uf... dunyo tor... juda ham tor...»

Rhaq iziga qaytdi. Daraxtzordan chiqib, yo'l chetida turgan kimsaga ko'zi tushdi. To'xtadi. Daraxtzor tomonga qarab turgan kishi esa yura boshladi. Fidmi?

— Fid... — Rhaqning lablari titrab ketdi.

— Rhaq! — Fid tez-tez kelib hamrozini quchoqlab oldi.

— Fid...

— Gapirma, hammasini bilaman. Kundaliklaringni o'qidim.

— Men yanglishibmanmi?

— Hozir bir narsa deyish qiyin.

— Axir...

— Bexato fikrlashning nimaligini bilasanmi? Mutlaqo fikrlamaydiganlarga xato qilishmaydi.

— Fid, faqatgina sen shunday deb o'ylaysan. Ammo ko'rganlarimni tasavvur qilishing juda qiyin.

— Tasavvur qildim. Kundaliklaringni o'qib, suratlaringni ko'rdim. Luknning hisobotini ham eshitdik. Sen behad hissiyotga berilibsan. Shuning uchun ham taassurotlaring tarix tamg'asi bilan sir saqlanadi.

— Fid, axir...

— Bahslashma. Hozircha ba'zilar Luknning fikrini yoqlayapti. Yerda shom pallasi boshlanganiga ishonishyapti.

— Yo'q, Fid! Bo'lmagan gap! Men hali fikrimni isbot qilib beraman. Avvalgi fazogirlar Yerning turli nuqtalarida turli davralarda uyg'onish bo'lgan, fan birmuncha taraqqiy etgan, keyin so'ngan, deb to'g'ri faraz qilganlar. Biz faqat bir nuqtada bo'ldik. Men ularning uyg'onishiga aminman. Men yoshlar bilan ko'p muloqot qildim. Ularda intilish bor. Biz qaytar chog'imizda kuchli portlash sodir qiladigan ma'naviy qudrat to'planayotgan edi. Men senga bir suhbatni aytib beraman. Ulardagi tarix yopiq darvoza emas, demak, uyg'onadilar.

Rhaq Buxoroning pastak hujralaridan birida bo'lgan suhbatdan ta'sirlanib, uni yodiga muhrlab olgan edi. Hozir shuni bayon qila boshladi.

TABIB AFANDI

Rhaq Yerga qadam qo'yishi bilan eng avvalo odamlarga yaqinlashish yo'lini o'yladi. Tangda berilgan talay tavsiyanomalardagi turli yo'l-yo'riqlarni mutlaq qonun deb bilmadi. Chunki ular odamlar hayoti, fe'l-atvorini yaxshi o'rganmay turib tuzilgandi. Linkosmofon yordamida Yerdagi katta xalqlar tilini o'rgangan Rhaq odamlar ichida yurib, ularning qiziqishlariga zehn solib, tabiblikni tanladi. Xuddi shu tabiblik tufayli odamlar bilan yaqin aloqa bog'lay olardi. Rhaq o'ylagancha bo'lib chiqdi. Tez orada uning do'stlari ko'paydi.

Lukn Rhaqning tutgan yo'lini yoqlamay, tavsiyanomalarga suyanib, odamlarni chetdan kuzatishni ma'qul ko'rdi. Rhaq buning nomaqbul yo'l ekanini bilsa ham, oqibati nima bilan tugashini kutib, monelik qilmadi. Lukn o'zining Yerga nisbatan kashf etgan haqiqatini isbot etmoq uchun kunbotar tomonda avj olayotgan muhoriba maydonlariga yo'l oldi.

Xalq tabobatini o'rgangan Rhaq esa odamlar orasida turk fuqarolarining e'tibori baland ekanini fahmlagach, o'zini turk elidan kelgan tabib deb tanishtirib, Buxoroning kunchiqar tomonidagi dahadan bir hujrani ijaraga oldi. U tabobatda qo'llanilayotgan dori-darmonlarning aksariyati befoyda ekanini bilar, ammo Tang tabobatining yo'llarini qo'llay olmas ham edi: bu bilan o'zini fosh qilib qo'ygan bo'lardi. Yerliklar hayotiga faol aralashish qat'iy taqiqlaganiga qaramay, Rhaq ba'zan o'zi sezmagan holda xastalarni biotok oqimlari bilan davolab yuborar, keyin hissiyotga berilgani uchun o'zini koyirdi. Xastalarning tez davo topishi izsiz ketmadi. Burni anchayin beo'xshov, qulog'i esa, aksincha, kichik, ko'zlari botiqroq, rangi oq-sariqqa moyil, dam haddan ziyod sekin, dam sakraguday bo'lib yuradigan Rhaq «Tabib afandi» degan nom bilan tez orada el og'ziga tushdi. Oqibatda u Buxoro fuqarosi ichida yangicha fikrlashlari bilan ajralib turuvchi ziyoli yoshlarga yaqinlashdi. Bu yoshlarning fikrlari turlicha bo'lsa-da, maqsadlari bir edi. Ularni hozircha faqat shu maqsad birligigina ushlab turar, kelajakni ko'ra olish xislatiga ega bo'lgan Rhaq vaqti kelib bu yakdillikning darz ketishini yaxshi bilardi.

Uy egasi — o'zini odamparvar deb biluvchi yigit hujrasida yig'ilganlarida, ba'zan, Tabib afandini ham chorlashardi. Ularning suhbatlarini bir chetda jimgina tinglovchi Rhaq bahslarga aytarli qo'shilmas, ammo qay birining haq, qay birining nohaq ekanini fahmlab o'tirardi.

Javzoning avvalida davraga mehmon qo'shildi. Uni «Sabohiddin» deb tanishtirdilar. Bug'doyrang, qo'llari katta-katta, yelkalari pishiq, kalta soqol-mo'ylovli, simobi salla o'ragan bu mullavachchaga Rhaq dastlabki kuniyoq e'tibor qildi. Sabohiddin davradagilardan faqat ovozinig jarangi bilan emas, keskinligi, jur'ati, eng muhimi, el uchun astoydil qayg'urishi bilan ajralib turardi. Zohiran boshqalar ham ko'pning ishi deb qo'yg'urardilar. Ammo ularning har birida o'z manfaatini o'ylash hissi yashiringanini Rhaq bilib turardi.

Sabohiddinning yo uchinchi, yo to'rtinchi kelishida bahs bexosdan ochiq kurashga o'tgandi. O'sha kuni barcha shomga qolmay yig'ilgan bo'lsa-da, uy egasidan hanuz darak yo'q edi. Davradagilar xavotirlanib endi tarqalishga taraddudlanganlarida Shoaziz terga pishgan holda kirib keldi.

— Uzrliman, afandilar, aybsitmang, — dedi u astoydil xijolat chekkan holda hamma bilan bir-bir qo'l olishib so'rashar ekan. — Shundayin ajib bir suhbatga berildimki, uni uzishga sira jur'at qilolmadim. Marhamat, afandilar, o'tiringlar, hozir dasturxon tuzayman.

Davradagilar bunga hojat yo'qligini aytib, e'tiroz bildirishsa ham, Shoaziz dasturxon tuzadi. Qo'li ishda bo'la turib, kechikish boisini bayon qildi:

— Pistashikanon¹dan o'tib hovuz labiga borayotgan edim. Qarasam, Ko'kaldoshning shunday biqinida kishilarning hojatini chiqarib o'tiruvchi mirza imlab chaqiryaptilar. Ilgari bir-ikki salom-alik qilib edim, yuz o'girib ketishim ayb bo'lar, deb yonlariga bordim.

— Mulla yigit, sizni bir sirdan voqif qilaymi? — deb qoldilar.

Ajablandim. Yana amir haqida ig'vo so'z aytib sho'rimni quritmasalar edi, deb hayiqdim ham. Atrofqa qarasam, ayg'oqchi zoti yo'qday. Mirza xavotirimni sezdi.

— Siz zinhor cho'chimang, aytadurganim yaxshi gap,— dedilar.

— Ayting, — deb ro'paralaridagi bo'yraga cho'kdim.

— Tunov oqshomda bir yigit menga kitob keltirib, evaziga picha aqcha so'radi. Qaynotasidan meros ekan. «O'zimning aqlim yetmaydi», deb tashlab ketdi. Uyga borib bu kitobni o'qidimu hang-mang bo'lib qoldim. O'zbeklarning donishmand allomalari bu qadar ko'p deb sira o'ylamagandim, — dedilar mirza yoqalarini ushlab.

— Dunyoviy ilmlarning aksariga o'sha tabarruk allomalar poydevor qo'yib ketganlar, faqat buni elimiz durust idrok qilmaydi, — dedim.

— Siz kabi mulla yigitlar bu yumushni bo'yniga olsa ajib savob ish bo'lar edi, — dedilar u kishi afsus bilan. Keyin al Forobiy, al Xorazmiy al Farg'oniy, al Beruniy, ibn Sinodan tortib mirzo Ulug'bekka qadar o'tgan allomalarni bir-bir aytib berdilar. Bu tabarruk zotlarning nomlari qatorida hali biz eshitmagan shunday allomalar bor ekanki, tinglab hayratga botdim, afandilar. Sizning bunda kutib o'tirganingiz ham xayolimdan ko'tarilibdi. Mirzaning so'zlari tugagach, o'zimga kelib, shoshqich yo'lga tushdim. Kela-kelgunimcha elimiz bu zoti tabarruklarning dahosidan bebahra ekan, bunga kim aybli, deb o'zimga-o'zim savol berdim. Keyin, eng avvalo amir tuzumi aybli, degan to'xtamga keldim.

— Amir «allomalar merosi mahv etilsin», deb oliy farmon chiqaribdimi? — dedi Sabohiddin uning so'zini bo'lib. Shoaziz bunday luqmani kutmagani uchun javobga taraddudlandi. Jo'raboshi Salimxo'ja uning joniga ora kirdi:

— Bunday farmon qog'ozda bo'lmagan taqdirda ham amalda mavjud, mulla, — dedi u odatdagiday bosiq ohangda.

— U holda aybnomani anglayolmay qoldim, — Sabohiddinning soddadillik bilan aytgan bu gapi Shoazizning hikoyasini uzib, bahsning bexos boshlanishiga sabab bo'ldi.

¹ Pista chaquvchilar mahallasi

— Amir tuzumining aybini bilmoq uchun ko'zni ochib atrofga zehn solmoq kifoya. Siz, mulla, diniy tahsildan bo'lak narsalarni ko'p ham e'tiborga olmaysiz. Umid qilamizki, bu suhbatlardan so'ng oq-qorani durustroq idrok eta boshlaysiz. Men endi aybnomamizni sizga sharhlab beray: allomalar merosidan bahramand bo'lmoq uchun eng avvalo yangi maktablar ochmoq zarur. Eng muhimi — maktabni ahli din nazoratidan xoli qilmoqqa ehtiyoj mavjud.

— Demak, allomalar xazinasiga g'ayridinlar yo'li bilan bormoq kerak ekan-da? — dedi Sabohiddin norozi ohangda.

— Yo'q, — dedi Salimxo'ja kulimsirab. — Unday emas. Agarchi maktab yana hozirgi mullalar qo'lida qolar ekan, dunyoviy ilmlarga yo'l ochilmaydi. Siz kabi mullavachchalarni O'rusiyaga, Qohiraga, hatto inglizlar yurtiga tahsil olgani yubormoq darkor. Madrasalarda zamonaviy ilmlarga yo'l ochmoq joiz. Janobi payg'ambarimizning «Beshikdan to lahadga qadar ilm oling» deyilmish muborak hadislarini sizga eslatmoq o'rinsizdir.

— Rasulilloh, sallollohu alayhi vasallam, da'vatlarini noto'g'ri anglabsiz, — dedi Sabohiddin. — Payg'ambarimiz alayhissalom ummatlarini islomiy ilmlarni egallamoqqa undaganlar.

— Hay, hay — dedi Salimxo'ja uning so'zini bo'lib. — Janob payg'ambarimizning da'vatlarini men emas, siz noto'g'ri anglagan ko'rinasiz. Muhtaram payg'ambar afandimizning «Ilm olmoq uchun hatto Chinga ham boring» deyilguvchi sharaflari hadislarini inkor etmassiz?

— Bu sahih hadislar. Rad etmoqlik — shakkoklik.

— Bale qorim, bale. Endi qo'limizga mantiq tarozisini olaylik. Hamonki siz bilan bizga hatto Chin mamlakatiga borib ilm olmoqlik farz etilyapti ekan, ayting-chi, Chin mamlakatida qanday qilib islomiy ilm olmoqlik mumkin? Axir u yer butparastlar yurti, islomiyatdan g'oyatda uzoqlar-ku? Alqissa, sharaflari hadisda dunyoviy ilm olmoqlik ham nazarda tutilgan. Faqat uxraviy masalalarga bandi bo'lib qolish jamiyatni ham, xususan, shariatni ham bo'g'ib turadi. Nasroniylar buni bizlardan avvalroq anglab yetdilar. Shu bois ham taraqqiyot bobida ancha ilgarilab ketganlar, desam fikrimni inkor etmassiz, a? Mavjud dunyoviy ilmlar ham Ollohning irodasi bilan yuzaga kelgan ekan, demak, ularni ham o'rganish farzdir. Shular xususida amir o'ylamay kim o'ylasin? Amir yurtning otasiman, deydi-yu, lekin mamlakat ravnaqi yo'lida jon kuydirmaydi. Ra'iyatning ravnaqi ilmu urfon bilangina bo'ladi. Fayzullaxo'janing Peterburgda tahsil olib qaytganini aytib edim. O'sha zot padari buzurgvorlarining butun aqchalarini shu xayrli ishga sarf etmoqqa qaror berganlar.

— Hammasini-ya?! — dedi Shoaziz bu gapga ishonqiramay.

— Ha, hammasini.

— Otalarining aqchalari amirnikidan ham ko'p deyishardi?

— Amir aqcha bermagan taqdirda ham, yo'lga g'ov solmasa go'rga edi.

— Amir hech qachon murosaga kelmaydi, — dedi Shoaziz asabiy qo'l siltab. — Uni mahv etish kerak, tamom!

— Undan keyin-chi? — dedi Sabohiddin uy egasining keskin gapidan taajjubga tushib.

— Undan keyinmi? — Shoaziz, «ayg'oqchi emasmikin bu mullavachcha?» deb ikkilandi. Keyin Sabohiddinni Salimxo'ja boshlab kelganini eslab, fikrini yashirmadi. — Keyin erkin jumhuriyat barpo etamiz. Shundagina yurtimiz qad ko'taradi.

— Siz aytgancha bo'lsa, qad ko'tarolmaydi, — dedi Salimxo'ja e'tiroz bildirib.

— Nima uchun?

— Jumhuriyatni kim boshqaradi?

— Biz kabi ziyoli ahli bilan katta sarmoya egalari. Aytaylik, Fayzullaxo'ja. Axir bu ishga katta sarmoya kerak.

— Yo'q, Shoaziz afandi, amirni xalq mahv etar ekan, mehnatni xalq qilar ekan, demakki, xalq jumhuriyati barpo bo'lishi kerak. Fayzullaxo'ja ham shu fikrda.

— Xalq dedingizmi? — Shoaziz istehzo bilan jilmaydi. — Eplay olmaydi!

— Bekor gap! Siz hozirgina tilga olgan zoti tabarruklar ham shu xalqning farzandlari ekanini unutmang.

— Inchunin, biz ham, sarmoya egalari ham.

— To'g'ri. Ammo sarmoya egalari mehnat ahliga qayishmaydi.

— Sizningcha, xalq jumhuriyatini oddiy odamlar boshqaradilar? — dedi Sabohiddin.

— Ha.

— Men xalq deganda dehqonni ham, hunarmandni ham, o'g'ri-muttahamni ham tushunaman, — dedi Shoaziz. — Odamlar orasida insof egasi ham, xudobezorlar ham bor. Jumhuriyat taxtiga insofdan naridagilar o'tirsa, u holda yurtning ahvoli ne kechadi?

— Bundaylarga xalq yo'l bermaydi. Axir u oq-qorani ajratadi, kimni saylayotganini biladi-ku?

— Salim afandi, siz sarobni orzu qilyapsiz, — dedi Shoaziz.

— Siz esa bir johilni ikkinchisi bilan almashtirmoqchisiz, xolos.

— Fikri ojizimcha, amir mahv etilgan taqdirda eng to'g'ri yo'l islom jumhuriyati barpo etmoqdir, — dedi Sabohiddin. — Xalqni faqat din ahligina to'g'ri yo'lga sola oladi. Faqat islomgina bandalarni badkorlik, insofsizlik, buzuvchilikdan asrab qola oladi.

Sabohiddinning bu fikri o'tga moy sepgandek bo'lib, Shoaziz bilan Salimxo'ja unga qarshi baxsga berildilar.

— Menga dedilarki, siz, muhtaram qori afandim, o'tgan oydamikin, Turkiyadan qaytmish ekansiz. Undagi ahvolotni bizdan ko'ra siz durust fahm etasiz. Bizim fikri ojizimizcha, qachondir qudrat kasb etgan turk sultonligi alhol tanazzulda emish. Axir bu damlarga qadar usmonli mamlakatni nechun din ahli tanazzuldan asrab qololmadi?

— Bu piching o'rinsiz, taqsir, — dedi Sabohiddin. — Usmonli turk sultonlari, garchi o'zlarini «xalifa» atasalar ham, dinda beqaror, iymonda zaif edilar.

— Qorijon, turk ulug'lariga nisbatan qattiq ketmadingizmi? — dedi Salimxo'ja, bahs ohangini yumshatish bahonasida. — Turkiyaga safar etmog'ingizdan avval fikringiz o'zgacha edi. Usmonlilar uchun jon bermoqqa tayyor edingiz?

— Haq rost, — Sabohiddin shunday deb, aybiga iqror odam kabi bosh egib, sukut saqladi. Davradagilar undan javob kutishsa-da, shoshilishmadi, boshqa luqma tashlashmadi. Sabohiddin javob qaytarmoqqa majburiyat sezib, asta bosh ko'tardi-da, Salimxo'jaga qaradi: — Taqsir, sulton boshqa, xalifa boshqa. Ikkovi bir vujudga jo bo'lolmaydi. Ularning inqirozi sababini shu holatdan izlamoq joiz. Mamlakatning xaroblighi esa Anvar poshsho, Tal'at poshsho, Jamol poshsho, yana allaqancha poshsho-poshsholarning nojo'ya sa'y-harakatlari tufaylidir.

— Shuni bilganingiz holda Chanoqqal'ada qo'lingizga qurol oldingizmi?

— Chanoqqal'a o'zga bir mas'aladir, taqsir. Unda uch yuz mingdan oshiq mo'min shahid bo'ldi. Shahidlarning ruhi hurmati bu voqea xususida bilmay turib bir so'z aytman. Unda Oллоhning mo'jizalariga na-da biz, balkim g'ayridin g'animlar ham imon keltirdilar. G'oliblik sharafi bizlarga nasib etdi.

«Mo'jiza» so'zini eshitib, Salimxo'ja Sabohiddinga bir qarab oldi. Sabohiddin safardan qaytgan kezlari ko'rganlarini bayon qila turib, o'zining ham, boshqalarning ham aqlini lol qoldirgan bir mo'jizani aytgan edi.

Chanoqqal'a bo'g'oziga egalik qilish niyatidagi ingliz va farangilar dunyoning turli mamlakatlaridan askarlar jalb etganlarida Sabohiddinga o'xshagan yoshlar uning

himoyasiga otlangan edilar. Aslida Sabohiddin shahidlik martabasi orzusida borgandi. Ammo uni kofir o'qi olmadi. Uch yuz ming shahidga nasib etgan baxt unga berilmadi. U so'nggi jangda shahid qoni ila tuproqni bezamog'iga ishongan edi. Ular to'rttagina qolgan edilar. Ortlarida tik jarlik — to'rt terak bo'yi pastlikdagi qoyalarga dengiz mavjlari uriladi. Bo'g'ozga suqilib kira olgan kemadan tushgan sanoqsiz askarlar ularni shu yerga qadar siqib keldilar. Sabohiddin birodarlari bilan o'limni kutmoqqa shay turganida bir bulut parchasi paydo bo'ldi. Asriy archalar bilan burkangan Chanoqqal'a²da bulut parchalarining suzib yurishi tasodifiy hol ham, mo'jiza ham emasdi. Ammo mana shunisi mo'jiza ko'rsatib ketdi: pala-partish o'q otib, asta-asta siljib kelayotgan g'animlar ustiga bulut bostirib keldi-yu, o'q ovozlari tindi. So'ng bulut tezgina tarqaldi. Askarlar esa izsiz yo'qoldilar. Bu holatdan Sabohiddin va uning birodarlari qanchalik ajablansalar, kemadan turib kuzatayotgan inglizlarning taajjublari ularnikidan kam emasdi. Sabohiddin va uning birodarlari ham taajjub, ham hadik bilan, tinmay kalima keltirganlari holda, hozirgina askarlarga to'lib turgan maydonni bosib o'tdilar. Bir qurolmi yoki bir kiyim qoldig'inimi uchratishmagach, ilohiy mo'jizaga iymon keltirib, yon cho'qqidagi birodarlariga qo'shildilar. O'sha kuni boshqa jang bo'lmadi. Kemadan g'animning yana yuzga yaqin askari tushdi, ammo jangga kirishmadi. Sheriklari yo'qolgan maydonda biron izga duch kelish ilinjida anchagacha izg'ib yurdilar. Keyin kemaga qaytdilar...

Bu voqea suhbatga aralashmay o'tirgan Tabib afandi qiyofasidagi Rhaqqa ham ma'lum edi. Shu bois u ham, xuddi Sabohiddin singari Salimxo'jadan biron luqma kutgan edi, Biroq, so'z Shoaziz tomonidan aytiladi:

— Qorijon afandi, shahidlik Olloh yo'lidagi jangda bo'lguvchi edi, sizning ishtirok etganingiz tarafkashlik urushi emasmi?

Sabohiddin unga burgutqarash qildi:

— Bilmasangiz so'zlamangiz, — dedi u.

— Bilib so'zlayman men, — dedi Shoaziz qaysarlik bilan. Turkiya ila Olmoniya bir taraf, Ingliston, Farangiston ila Rusiya yana bir taraf bo'lib urushganlaridan Olloh yo'lida, Olloh rizoligida ne manfaat bor?

Sabohiddin bular bilan Chanoqqal'a muxorabasi haqida bahs yuritmoqni lozim topmadi.

— Taqsir, agar Chanoqqal'adagi holatlarni uzoqdan bo'lsa-da, kuzatganingizda ham kamina sizga tushuntirmoqqa urinib ko'rar edim. Siz bilan kaminaning bu mas'aladagi bahsi ko'r va garangning aytishuviga o'xshab qolar. Yaxshisi kamina dastlabki so'raganingiz mas'ala xususidagi fikrimni ochiqroq bayon etay. Siz undagi yosh turklar harakatiga havas etib, bunda «Yosh buxoroliklar» jamoasini tuzibsiz. Fikri ojizimcha, jumhuriyat tartib etilmish taqdirda uni shu jamoa boshqarmoq istaydi. Axir Turkiyani siz havas qilganingiz yosh turklar jamoasi xaroblik jariga keltirib qo'ygani chin-ku? Bunda ham shu takror bo'lmasmi ekan?

Sabohiddinning bu gaplaridan so'ng, davra ahli sharsharaning sovuq suvi ostiga yalang'och tarzda tushib qolganday bir seskanib olishdi. Hozirgina ayri fikrda turganlar endi yakdil bo'ldilar. Sabohiddin ularning fikru dalillarini indamay eshitar, keyin Qur'ondan oyatlar keltirib, o'z fikrini ma'qullardi, aytganidan chekinishni istamasdi. Rhaq bahsga berilgan yoshlarga zehn solib, faqat Salimxo'ja bilan Sabohiddingina o'z maslagiga chinakam sodiq ekanini bilib o'tirardi. Shoaziz bugun Turkiy jumhuriyat, deb talashayotgan bo'lsa-da, ertaga vaziyatga qarab fikridan qaytishi, xalq jumhuriyatini

² Turklar O'rta yer dengizini «oq dengiz» deb atarlar. Marmara dengizi bilan bog'lovchi Dardanel bo'g'ozini esa «Chanoqqal'a bo'g'ozini» deb nomlaganlar.

ham, hatto islom jumhuriyatini ham qo'llashi mumkin edi. Rhaq tangliklarga xos, keyin bo'ladigan voqealarni oldidan sezish xislati bilan dastlab Salimxo'ja tutgan yo'l g'olib kelishini bilardi. Hali Sabohiddinning o'z maslagi yo'lida ko'p azob chekishi ham unga ma'lum edi. Mashaqqatlar Sabohiddinni yo'lidan qaytara oladimi, yo'qmi? Rhaq faqat shuni aytishga o'jiz edi.

Aksiga olib, Sabohiddin keyingi bahslarga kelmadi. Rhaq muammosiga javob topish uchun uni madrasaga yo'qlab borib, suhbat quradigan bo'ldi. Rhaqning Sabohiddin bilan qiziqayotganini sezgan Lukn o'zboshimchalik bilan uning miyasiga biotok uzatgich o'rnatdi. Rhaq buni bilib g'oyat g'azablandi. Biroq, dardini ichiga yutib, indamadi. Chunki Tangda Luknning zimmasiga shunday vazifa yuklangan, u bunday qilishga haqli edi.

Rhaq mana shu gaplarning hammasini Fidga aytdi. Fid uni diqqat bilan tingladi-yu, jo'yali bir fikr bildirmadi. Ertaga Oliy donishmandlar markazi Rhaqning hisobotini eshitajagini ma'lum qilib, uni oromgohga boshladi.

BEGONA

Rhaq Tangga qaytar chog'ida yaqinlari bilan ko'rishish onlarini, ular bilan qanday muomala qilishini ko'p o'ylagan edi. Shubhasiz, yoru do'stlarining ayrimlari hayotdan ko'z yumgan, boshqalarining esa yoshi ulg'aygan, hayotiy tajribalari oshgan, dunyoqarashlari ham qisman (balki butkul!) o'zgargan bo'ladi. Sirdosh begonaga, hamfikir esa g'oyaviy muxolifga aylansa ajab emas. Yurtdan uzoqlarda yurish uni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan holdan toydirdi. Lekin koinotdagi vaqt oqimi Tangdagi singari bo'lmagani uchun yillarning o'tgani, yoshi ulg'aygani yuzida aks etmadi.

Tibbiy kuzatuv muddati tugab, hisob bergach, u yurtldoshlari bilan muloqotda bo'ldi. Kutilmagan voqealar, gap-so'zlarni eshitib ham quvonish, ham g'azablanish, ham hayratlanish asnosida nima uchundir begonasiray boshladi. O'g'li birinchi uchrashuvdayoq, otasining taassurotlarini eshitib, uni keraksiz hissiyotga berilishda ayblashdan toymadi. Hech narsani bilmagan holda, so'rab-surishtirmay turib, uni jamiyatga zarar keltiruvchi donishmandlar qatorida tilga oldi. O'z farzandidan bunday aybnomani eshitishni Rhaq sira kutmagan edi. Yoshlar voqeaga nisbatan havoyi baho berishar ekan, xafa bo'lishi kerak emas. Axir hamma ayb o'zlarida — katta avlodda-ku?!

Xotini qaribdi, yuzlarini ajin bosibdi. Ayriliqning har yili chehrasiga bittadan chiziq tortgan. Tez-tez xastalanadi. Yuragi bezovta. Sog'inch otashidan ajralib chiqqan har bir xo'rsinish cho'qqa aylanib yurakka dog' bo'lib tushgan. Xullas, kampirga aylanayozgan xotining umri kiprigiga ilinib qolgan edi.

Rhaq uyiga ham sig'madi. Suhbatdosh yo'q. Dardkash yo'q. Xotini esa... U Yerda yurganida xotini, farzandiga talpingan edi. Yetishdi. Nimadan norozi?! Nima uchun hamma, hatto xotini ham begonaga o'xshaydi?

O'g'li uylanibdi. Ammo haligacha farzand ko'rmabdi. Rhaq bundan taajjublandi.

— Meni nevaralarim ham kutib olsa kerak deb o'ylovdim, — dedi u oila a'zolari jam bo'lgan mahalda.

— Nima demoqchi bo'layotganingizga tushundim, — dedi o'g'li Rhaqqa yoqmaydigan bir ohangda. — Sizni befarzandligimiz qiziqtirsa kerak?

— Ha, albatta. Turmush qurishning ma'nosi...

— Siz tez eskirish bobida falsafaning birinchi o'rinda turajagini unutibsiz, chog'i. Turmush qurishning hech qanday ma'nosi qolmagan hozir. Tabiiy zarurat tufayligina turmush quriladi.

— Sen kabi «donishmandlar» to'qigan falsafa eskirishi mumkin, ammo hayot falsafasi unday emas. Hayot so'nmasligi uchun nasl qoldiriladi. Tushunyapsanmi, hayot davom

etishi uchun! — Rhaq keyingi gaplarni chertib-chertib gapirdi. — Sening gaplaring — xudbinlik falsafasi!

O'g'il otasini endi ko'rayotganday tikilib qoldi. Ko'zlar uchrashgach, miyig'ida kuldi.

— Xudbinlar falsafasi, dedingizmi?! — U o'rnidan turib deraza tomon yurdi. Zauraning o'tli tig'ini to'suvchi ko'kish pardani ko'tardi. Xona yorishib ketdi. Derazani ham ochdi. — Bir qarang, atrof qanday go'zal! — dedi u piching aralash. — Zaura saxiylik bilan nur sochadi. To'yib-to'yib nafas olish qanday rohat! Tuproq unumdor — qurigan cho'p tushsa ham ko'karadi!

Rhaqning xotini ko'kragini ushlab yo'tala boshladi. O'g'il darhol derazani yopib, pardani tushirdi. Onasi tinchlangach, gapini davom ettirdi:

— Ko'rdingizmi? Yaxshi hamki, baxtimizga oddiy parda bilan sun'iy havo bor... Men farzandlarimga shularni ravo ko'rishim kerakmi? Ular tug'ilib qancha yashaydilar? Biz — o'zimiz qancha yashaymiz? Sun'iy havo, sun'iy taomlar bilan yana necha yil hayot kechirish mumkin? Bevaqt o'lim soya tashlab turgan bir paytda bola topish — jinoyat. Buni biz — yangi avlod to'g'ri tushunib yetdik

— Siz, ya'ni «yangi avlod», nihoyatda tushkunlikka berilibsiz. Kurashmoqdan chekinishni afzal bilibsiz. Biz yuksalish uchun ishlamog'imiz, ishlash uchun yuksalmog'imiz kerak! — Rhaq o'zi suymaydigan shiorini aytib yuborgani uchun ich-ichidan g'ijindi. Biroq, sir boy bermadi.

— Kurashmoq... Qanday kurashni nazarda tutyapsiz? — dedi o'g'il asabiylashib. — Kurashdan foyda bormi? Biz eng baxtiqaro avlodmiz. Bizga qoqsuyak sayyorani ravo ko'ryapsizlar. Biz uni saqlab qola olamizmi-yo'qmi, bilmayman. Qoldirishga arziqli merosimiz bo'lmagani uchun ham farzand ko'rishni istamaymiz. Sizning xudbinlik haqidagi gapingizni quruq safsataga yo'yishga majburman. Afv eting. Siz uzoq vaqt bu hayotdan ajralib yashadingiz. Ko'p narsalar o'zgardi. Shularni hisobga oling, behuda bahslashishni bas qiling. O'g'il sifatida ogohlantirib qo'yishim lozim edi. Buni bajardim.

Darhaqiqat, ko'p narsalar o'zgargan, hatto ota-o'g'il o'rtasidagi muomala ham boshqacha. Rhaq bu xil munosabatga ko'nika olmas edi.

Zambarakni tepalikka sudrab chiqish mumkin. Ammo u bexos qo'yib yuborilsa, hech to'xtatib bo'lmaydi: yo'lida uchragan narsani bosib-yanchib ketaveradi. Tang taraqqiyoti xuddi shu zambarakka o'xshaydi. Yaqindagina barcha ilm ahli zambarakni yuqoriga chiqarish bilan band edi. Barcha uni shunchaki bir tepalikka emas, balki oliy cho'qqiga ko'tarishga va shu yerda o'q uzib, tabiat ustidan qozonilgan g'alabani tezroq nishonlashga oshiqdi. O'q uzildi. Ular zambarakning o'q uzganida silkinishi, so'ng pastga qarab sho'ng'ib ketishi mumkinligini bilardilar. Ammo zambarak g'ildiraklarini mahkam tutib turuvchi sim arqonlarga ishongandilar. Afsuski, sim arqon chirigan edi. Endi zambarak eng muqaddas fazilatlarini, faqat ongli mavjudotga xos mehr-muhabbat, oqibat kabi his-tuyg'ularni bosib, yanchib borardi.

Rhaqdagi ruhiy o'zgarishni sezgan tibbiyotchilar uni darhol orom olish uchun dengiz sohiliga yubordilar. Rhaq e'tiroz bildirmadi. Yerdagi dengiz mavjlarini sog'ingan edi. «Ko'nglim sal-pal taskin topar», deya umid qildi.

Dengiz sohilidagi bu shahar ko'rinishi ham boshqalari kabi sovuq, jonsiz. Oynaband binolar junjikib turganday, shovqindan esa zamin titrayotganday tuyuladi. Sohil odatdagiday gavjum emas. Dengiz to'lqinlari avval qanday bo'lsa, hozir ham shunday qirg'oqqa bosh qo'yadi, katta-kichik xarsanglarga to'sh uradi. Ammo uning shovullashi Yerdagi kabi yoqimli emas. Shiddati sezilmaydi. Go'yo za'faron suv o'layotganday.

«O'layotganday? Allaqachon o'lib bo'lgan... — deb o'yladi Rhaq dengizga horg'in tikilib. — Bu suvda nima qoldi? Qoni so'rib olindi. Suv emas, keraksiz suyuqlikka aylandi...»

Shahar sohilga qarab bostirib kelgan. Qirg'oqdagi bahaybat inshootlar suvning qonini so'rib oluvchi kanaga o'xshaydi. Behad katta quvurlar ajdaho singari suvni ho'plab shu inshootlarga yuboradi. O'nlab filtr, magnit maydonlari, elektr zaryadlari suv tarkibidagi temir, tuz, tillani ajratib oladi-da, boshqa quvurlar orqali jonsiz suyuqlikni dengizga qaytarib to'kadi.

Rhaq sohilda uzoq turib qoldi. Qarashlari vazmin. Toliqqan ko'zlarini bir oz yumib, Yerdagi dengizlar, daryolarni eslamochi bo'ldi. Osoyishta, salobat bilan oquvchi daryolar, qo'sh kokil bo'lib ajrashgan, so'ng yana birlashgan irmoqlar orasida daraxtlarga ko'milib turgan orolchalar, qoyalar bag'ridan shiddat bilan otilayotgan sharsharalar uning ko'z oldiga keldi. Qo'yosh nurida tovlanayotgan zumrad tomchilar xuddi yuziga urilganday seskandi. Ko'zlarini ochdi: madorsiz dengiz qaltirab turibdi. Shu topda Rhaqning oyoqlari quvvatdan qolganday bo'ldi. Nazarida bir qadam bosishga ham qurbi yetmaydi. Tomog'i qaqragan. Yurak siqadi. Ko'ngli ana shu jonsiz dengizning qattiq to'lg'anishini, osmonga sapchishini, so'ng ruhsiz shaharlar ustiga yopirilishini istadi. Nimadir bo'lishi kerak, nimadir... Bir me'yorda davom etuvchi silliq hayotga ko'nikolmayapti. Ko'nikolmayapti? Yer tabiati, yerliklar uning ruhini butkul o'zgartirib yuborganmi? Nahotki, Yerdan olgan taassurotlari ongini zaharlab, o'z yurtiga nisbatan bu qadar norozilik uyg'otsa? Yo'q, yo'q, u Tangdan butkul norozi emas. Faqat yerliklarning ayrim tuyg'ularini yurtdoshlariga «yuqishi»ni xohlaydi. Dengizdan «so'rib olingan» temir, tuz, tilla...kelgusida qayta eritilib, qayta milligrammlarga aylantirilib, suv tarkibiga qayta singdirilgani kabi, tangliklar unutilib yuborgan tuyg'ular yuz ochsa...

Hech bo'lmasa muhabbat uyg'onsa edi. Yigit qizni suyib-suyib erkalasa, qiz yigitga suyib-suyib bo'sa bersa... Mana shu sohilda shirin-shirin orzularga erk berib, tonglarni qarshilasa... Suyib-suyib turmush qurishsa, suyumli-suyumli farzandlar ko'rishsa...

Rhaq xo'rsindi. Ajin bosa boshlagan keng peshonasini siladi. «Bu qiyin masala, — deb o'yladi u. — Muhabbat uyg'onsa, nafrat ham paydo bo'ladi. Keyin rashk bosh ko'taradi. Yaxshilikka qo'shilib yomonlik, mehrga qo'shilib g'azab, sadoqatga qo'shilib xoinlik... kirib keladi. Yerdagi ziddiyatlarning hammasi Tangda ham hukmron bo'lib olsachi? Barcha shu ziddiyatlar orasida o'ralashib qolsachi? Chin muhabbati qaysi, soxtasi qaysiligini bilmay garangsib yurishsachi? Taraqqiyot nima bo'ladi? Yo'q, bizga nafratdan xoli muhabbat, xoinlikdan yiroq sadoqat, g'azabsiz mehr, rashk o'rniga ishonch... kerak. Faqat yorug' tuyg'ular zarur! Bora-bora Yerda ham shunday bo'ladi...»

Rhaq sohil bo'ylab bir-ikki qadam bosdi. Oyoqlari og'irlashib qolganday, boshi aylanganday bo'lib to'xtadi. Yerga tushib birinchi qadam qo'yganda ham xuddi shu hol yuz bergan edi. Yerga taraqqiyoti behad yuqori bo'lgan sayyoraning vakili sifatida, g'olib sifatida qadam qo'ygand edi. Iziga hissiz sayyoraning ruhi shikastlangan vakil holida, ma'naviy mag'lub holida qaytdi.

Tangda muhabbat uyg'onsa edi... Yerda yurganida ko'nglida tug'ilgan bu ilinji uning tinchini olgani uchun «Muhabbat hissini qanday uyg'otish mumkin?», «Tangliklar sevishga, sevilishga qodirmi?» degan jumboqqa o'zicha javob izlar edi. Keyingi kunlar ichi: «Xo'sh, o'zing seva olasanmi?», «Muhabbat nimaligini bilasanmi?», «Yerliklar kabi muhabbat yo'lida o'zingni qurbon qila olasanmi?»... degan savollar girdobida qolgan edi. U xotini bilan o'tgan damlarni, o'g'lining go'dak chog'larini qayta-qayta eslar, oralaridagi munosabatlarda mehr bo'lgan-bo'lmaganini aniqlashga tirishardi. Muhabbat uyg'ongan taqdirda munosabatlarning qanday o'zgarishini chamalardi. Har qancha o'ylamasin, jumboqlarga har qancha javob izlamasin puch xayollardan nariga o'ta olmas edi.

«Yerliklarning tuyg'ulari bo'lakcha edi!..»

Rhaq o'z aqidasiga tobora mute bo'lib borardi. U ona sayyorasida emas, balki Yer bilan Tang orasidagi cheti-chegarasi yo'q qorong'i bo'shliqda muallaq yashardi. U dam

o'zi tug'ilgan sayyorasiga talpinardi, dam pokiza tuyg'ulari tug'ilgan Yerga intilardi. Arosatda yurish uning qalbini tobora yemirardi.

U yolg'iz edi. Shunda ulkan sayyorada yakka-yolg'iz... Yolg'izlik halokat bilan tugaydi. Uning qismati ham shumi? Taqdiriga nima yozig'liq? Aqldan ozishmi? Tangga uchib kelar chog'idagi xayoliy bahslarida Fid: «O'zingni o'zing o'ldir», deb undagan edi...

Yo'q! Shunday fikr o'rmalashi bilan Rhaq sapchib tushardi. Badbin o'ylardan qutulish uchun xayolan Yerga qaytardi. Eng birinchi bo'lib... Nazira bilan uchrashardi. Har bir «uchrashuvdan» keyin: «Nima uchun Nazirani bu qadar ko'p eslayapman?» deb hayron bo'lardi. U hali bu eslashlar bejiz emasligidan, yuragida Naziraga nisbatan muhabbat borligidan bexabar edi. «Tangda muhabbat uyg'onsin» degani, yerliklar sevgisiga ixlos qo'ygani bilan, o'zi muhabbat tuyg'usi qanday bo'lishini hali bilmas edi. Bo'lakcha ta'bir bilan aytilsa, muhabbat nimaligini aqlan bilardi, ammo bu dardni hali tanasida sinab ko'rmagan edi. Mana, bugun ham yolg'izlik komidan qutulish uchun Yerga «qaytganda» Nazirani ko'rди...

— Bugun chehrangizda g'am borga o'xshaydi?

— Dadam aytgandirlar?

— Aytдилar. Kuyov qulluq bo'lsin?

— ...

— Xo'rsinyapsizmi?.. Pichirlab g'azallar o'qir edingiz? Esingizdami:

*Parishon holing o'ldim, so'rmading holi parishonim,
G'amingdan darda dushdim, qilmading tadbiri darmonim,
Ne dersan, ro'zgorim bo'ylami kechsun, go'zal jonim,
Ko'zim, jonim, afandim, sevgilim, davlatli sultonim!*

— Esimda... hazrat Fuzuliydan... Men... g'azallarga ishonar edim. Men... yo'q, aytolmayman. Tabib afandi, aytolmayman, aybsitmang.

— Chehrangizga parishonlik yarashmas ekan. G'am cheksangiz o'zingizni dardga oldirib qo'yasiz.

— Dardga?.. Dardga bo'yin berib bo'lganman.

— Dardga chalingan ekansiz, endi shifo lozim.

— Muolajangiz dadamni bizga qaytarib berdi. Umidimizni uzib qo'ygan edik... Umringiz uzoq bo'lsin. Tabib afandi... Lekin... Lekin... Siz dardimga shifo topa olmaysiz. Umidimning rishtalarini kesib qo'yishdi. Men... tunlari yulduzlarga tikilib yotaman. Qanot chiqarib uchgim keladi. O'sha yulduzlarning birontasi Yerimizga o'xshasa deyman. Sevishganlarning qanotlari qayrilmasa, deyman... Tabib afandi, siz dunyo kezgansiz, donishmandsiz, ayting, Xudo ne uchun bizga sevish baxtini ravo ko'rib, so'ng ayiradi?

— Savolingizga eng ulug' donishmandlar ham javob bera olishmagan.

— G'azallardagi faryodlarga endi fahmim yetyapti.

«Bechoraman, bedavoman, qanotlarim qayrilgan, umidim rishtalari kesib qo'yilgan...»

Rhaq — Tabib afandi Naziraning otasidan xabar olgani kirib, yangilikni eshitgan, shundan so'ng qizning nima sababdan parishon bo'lib qolganini anglagan edi. O'sha kuni qiz unga ro'yxush bermadi, gaplashmadi. Umuman, Rhaq Nazira bilan kam suhbatlashgan. Qiz o'zini undan olib qochardi. Rhaq Naziraning fikrlarini o'qigani uchun ham qizning bir yigitga ko'ngil qo'yganini bilardi. Bilgani sababli qizni hadeb kuzatishdan o'zini tiyardi.

Hozir dengiz sohilida, yolg'izlikdan qutulish uchun Yerni eslagan chog'ida, Nazira bilan xayolan suhbatlashdi. Nazarida qiz o'shanda unga — Tabib afandiga arzini aytganda xuddi shu zaylda so'zlagan bo'lardi. Balki bir bayt ham o'qirdi. Balki mana bu baytni:

*Nay kibi, har damki, bazmi vaslingni yod aylaram,
To nafas vordur quruq jismimda, faryod aylaram...*

Keyin suygan yigitining dunyoda yagona ekanini, o'sh suyuklisi qadar ba'mani, xushxulq, xushaxloq odam bu olam aro yo'qligini aytardi. «Ko'ngil qo'yganim borligini dadamga ma'lum qiling, meni undan ayirmasinlar», derdi... Biroq Nazira unga arzi hol qilmadi. Dardini ichiga yutdi. Yerlik donishmandlar: «Yorug' olamda muhabbatdan kuchliroq narsa yo'q», derdilar. Rhaq Naziraning iztirobini ko'rib, bu fikrning yanglish ekanini angladi... «Muhabbatdan ham qizlik iffati qudratliroq ekan», degan to'xtamga keldi.

«Mening ko'ngil qo'yganim bor...» Birgina shu gapni aytish Naziraning taqdirini hal qilardi. U aytmadi, aytmadi. Rhaq buni jaholat deb bilib, qizni ayblashni ham, bardoshiga tan berib, unga ixlos qo'yishni ham bilmay garangsib yurdi. Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin ham tugal bir to'xtamga kelolmadi.

Nazira qanot chiqarib, yulduzlarga uchmoqchi edi. Yulduzlardan biri shu Tang. Qiz bechora bu yerga kelib nimani ko'rardi? Qanot chiqarganiga ming pushaymon bo'lmasmidi?..

Rhaq chuqur uf tortdi-da, qo'lni orqasiga qilganicha asta yura boshladi. Bir qulochli xarsang poyida sochilib yotgan baliq suyaklarini ko'rib engashdi. Keyin mavjlanib turgan dengizga qaradi. «Hali ham baliq bor ekan-da? Biz sun'iy havoga ko'nikdik. Tarkibida hech vaqo bo'lmagan suyuqlikda baliq qanday yasharkin?! Temir, tuz, oltin... Juda qimmatga tushyapti bu ashyolar. O'g'lim haq... Biz ularga yalang'och sayyorani qoldiryapmiz. Hatto suvning ham qonini so'rib oldik...»

Dengiz azob bilan to'lg'anadi. Ojiz to'lqinlar Rhaqni la'natlaganday bo'ladi. Dengizning alami bor. Qancha la'natlasa shuncha oz... U dengizdan ko'z uzib, sohildan uzoqlashdi.

Rhaq Tang markaziga qaytganida oqshom cho'kkan, ammo kunduzgi jaziramaning nafasi so'nmagan edi. Sayyoraning umurtqasini qirsillatib yuborguday bo'lib turgan bahaybat binolar qizigan tandirdek qaynoq sel ufuradi. Qariyb bir-biriga yopishtirib qurilgan baland imoratlar orasidan shamol o'tmaydi. Binolar dudli bulutlarga sanchilib turganday. Rhaq talaba ekanida qaysi bir me'mor: «Shaharni ham eniga, ham uzunasiga to'g'ri chiziq bo'ylab kesib o'tuvchi ikki ko'cha bo'lishi zarur. Shunda yelvizak turib, havo almashinishi yaxshilanadi», degan taklifni o'rtaga tashlagan edi. Bu gap barchaga ma'qul kelib, taklifni amalga oshirish choralari belgilangan, biroq gap gapligicha qolib ketavergan edi. Hozir ko'pchilik o'sha taklifni eslamaydi ham.

Rhaq uyiga qaytganda oila a'zolari ovqatlanayotgan edi. U xotinidan hol-ahvol so'ragach, yuvinib keldi-da, to'rga o'tirdi. O'g'liga bir qarashda uning ruhi tushkunligini sezdi.

— Nimaga ovqat yeyishlaringning mazasi yo'q. Urishib qolmadinglarmi, ishqilib? — dedi u o'g'liga, noxushlikni ko'tarish uchun.

— Urishish uchun sabab bo'lishi kerak, — dedi o'g'il sovuqqina. — Bizda ko'pdan beri bunday sabab yo'q.

— Shunday bo'lgani ma'qul.

— Noxushligimizni to'g'ri payqabsiz. Bugun Mek o'ldi.

— Mek? Kim u?

— Eslashga urinmang. Siz uni tanimaysiz. U marhum do'stimning o'g'li edi.

— Nimaga o'libdi? Kasal ekanmi?

— Ovqatingizni yeng, keyin aytib beraman.

Rhaq, ishtahasi bo'lmasa ham o'zini majbur qilib ovqatlandi. Og'zini sochiq bilan artib o'g'lga: «Men tayyorman, gapingni boshlayver», deganday qaradi. Xotini bilan kelini o'rnidan turib dasturxonni yig'ishtirishdi-da, qo'shni xonaga chiqib ketishdi.

— Men Mekning otasini yaxshi bilardim, — deb gap boshladi o'g'il. — Biz birga ishlardik. U ehtiyotsizlik qilib oqqon kasaliga uchradi. Ayb o'zida: kirma degan joyga kiribdi. Kasalni yashirib yurdi. Uylandi. Keyin xotini homilador bo'ldi. Quvnoq edi... Tuppa-tuzuk ishlab yurib, bir kuni...o'zini o'zi o'ldirdi. Murdani tekshirib, kasalini aniqlashdi. O'lim haq ekanini bilib...

— Ojizlik!

— Yo'q, ojizlik emas. U bari bir o'lardi. Bolasini ko'rib o'lishni istamagan.

— Ana shuning o'zi...

— Iltimos, bahslashmaylik. Bari bir fikrlarimiz bir yerdan chiqmaydi. Odatda, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun bahslashadilar. Men bunday haqiqatni ko'rmayapman. Gapimning davomini eshiting: xullas, bola tug'ildi. Men tez-tez Mekni yo'qlab borardim. Juda nozik, kasalmand bola bo'ldi. Ammo ziyrak, aqlli edi. O'qish-yozishni erta o'rgandi. Bir kuni borsam, yotibdi. Meni ko'rib yig'lab yubordi.

— Nimaga xafasan? — deb so'radim.

— Kasal bo'lganlar o'lar ekan, men ko'p kasal bo'laman-ku, nima uchun o'lmayman, — deydi.

«Kasallarning hammasi ham o'lavermaydi. Seniki tuzaladigan kasal», deb yupatishga harakat qildim. Ovunishi qiyin bo'ldi. «Menam o'lishni istayman. O'lsam hamma yig'laydi, menga achinadi. Meni gapiradi», deydi. Orzusini qarang... Niyatiga yetdi. Bugun joni uzildi. Ammo o'limi uchun hech kimning qayg'urmasligini bilmay ketdi...

— Sen-chi? Sen qayg'uryapsan-ku?

— Qayg'urishim kerak edi. Ammo muhit bunga yo'l bermaydi. Men har bir hujayralarim bilan ishni, faqat ishni o'ylashim kerak. O'lganlar o'laveradi. Murdalarni esa dafn guruhi ko'maveradi. Hatto... vaqti kelib onam... Axir, siz ham onangizni dafn etishda bo'lmagansiz-ku?!

— Gapni chalg'itma. Bir go'dak uchun masalani chuvalashtirish shart emas.

— Mek o'ldi. Uni sizning taraqqiyotingiz o'ldirdi!

— Taraqqiyotni biz boshlamaganmiz. To'xtatish ham qo'limizdan kelmaydi. Hadeb ta'na qilaverma. Qo'lingdan kelsa, ana taraqqiyotga qarshi kurashib ko'r.

— Qo'lingdan kelsa?.. Hm. Kelmaydi!.. Bir marta kurashmoqchi edik. Esingizdami? Endi... O'limimni kutib o'tirishdan o'zga hech nima qo'limdan kelmaydi.

Rhaq hozir o'g'li bilan gaplashish befoydaligini bilib qo'zg'aldi. Xotini yotgan xonaga kirdi.

Xotini pinakka ketgan ekan, sharpa chiqarmay iziga qaytdi. O'g'li qayoqqadir g'oyib bo'libdi. Rhaq nima qilarini bilmay xona bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

O'g'lining gaplarida jon bor. Rhaq o'zi istamagan holda unga tanbeh berdi. Aslida Rhaqning o'zi ham shunday fikrlardi. U jon-dilidan o'g'lini quvvatlagisi kelardi, lekin oqibat degan tushuncha farzandini tergashga majbur etardi. Rhaq o'g'lidagi yaxshi hislarning uyg'oq ekanidan xursand holda, uning kelajagini o'ylab qayg'urardi. Tangning ma'naviy yuksalishida u biron-bir o'zgarish ko'rgani yo'q, shu sababli behad tashvishlanardi.

Ertaga haligi go'dak dafn etiladi. Ammo bu bola uchun hech kim nola chekmaydi. Jonzotning qadri shuncha... Yerdan esa butunlay boshqa edi. Odamlar hatto marhumning izidan qabrga kirishga ham rozi bo'ladilar. Balki, bu ortiqcha hissiyotdir. Ammo, bari bir

kuyinish yaxshi... Rhaq yumshoq, pastak kursiga yastanib o'tirib, yerliklarni esladi. Xayoliga kuyunchak, ayni choqda, keskin, to'g'ri yo'lni fahmlay olmasdan qiynalayotgan Sabohiddin keldi.

CHORRAHADA QOLGAN MULLA YIGIT

Rhaq Luknni amir zindonidan olib chiqqach, Sabohiddinni shahar darvozasi yonida so'nggi marta ko'rdi. Sabohiddin yurtiga — otashda qovurilayotgan Farg'ona vodiysiga qarab ketgandi. Hozir taqdiri nima bo'ldi ekan? Balki Lukn o'rnatgan biotok uzatgichlar ishlab turgandir, ma'lumot kelayotgandir. Ammo buni Rhaqqa bildirisharmikan?

Sabohiddin o'sha bahsdan keyin Shoazizning xonadoniga qadam bosmay qo'ygan edi. Mezon ucha boshlagan pallada uning qo'qqisidan kirib kelganini ko'rib, Rhaq— Tabib afandi taajjublandi. O'shanda Sabohiddin madrasada bo'lib o'tgan gapni aytib berdi. Hammasi tunov kungi xufton namozidan so'ng boshlanibdi:

Namoz tugagach, mullavachchalar imomning harakatidagi xotirjamlikni ko'rib, va'z aytish niyati borligini fahmladilar. Bunday paytda deyarli va'z aytilmas, shu bois mullavachchalar bir oz ajablangan holda bu xufton imomatga o'tgan mudarrisning so'z boshlashini kutdilar.

— Ma'lumingizkim, Xudovandi karimning nazari tushgan jannatsifat Farg'ona viloyatida g'ayridinlar etagini tutgan murtadlar islom lashkarlariga ozor yetkazmoq qasdiga tushganlar. Kalimai shahodatga ham tili kelmay qolgan bu osiy bandalar, inshoolloh, Tangrining qahriga uchragaylar. Jannatdan shayton alayhila'nani quvib chiqargan, to'liq hikmat va qudrati ila Odam Ato va Momo Havvoni yaratgan Haq taoloning rahm-shafqati beqiyos ulug'dir. Qur'oni sharifning Xud surasida Tangrining marhamati shunday tavsif etiladi, — mudarris Qur'onni varaqladi. Ammo unga qaramay so'zini davom ettirdi:

— Nuh alayhissalom Ollohnning istagi bilan o'z qavmlariga yuborildilar. Va dedilarki: «Albatta men sizlar faqat Ollohgagina ibodat qilishingiz uchun kelgan xolis ogohlantiruvchiman. Ollohdan o'zgaga ibodat qilmanglarkim, sizlarga alamli kun azobi bo'lishidan qo'rqadirman». Nuh alayhissalomning asosiy vazifalari ogohlantirish edi. Payg'ambarliklarining mazmuni, g'oyasi esa shunga monand — Ollohdan o'zgaga ibodat qilmaslikka chorlamoq edi. U zot vazifalarini ado etdilar. Biroq, qalblari muhrlangan, hidoyatdan begona, kufrdagi zodagonlar «Sen ham o'zimizga o'xshagan odamsan, senga esi pastlar, yalangoyoqlar ergashyapti xalos», deb tuhmat qildilar. Nuh alayhissalom dedilarki: «Ey qavmim, men sizlarning taqdirlaringizni o'ylab kuyunyapman. Men sizlarning iymonli bo'lib, saodatga erishishingizni istayman xalos. Men bu payg'ambarlik xizmatim uchun sizlardan mol-dunyo so'ramayman. Menga boylikning zarurati yo'q-dir. Mening ajrim faqat Ollohnning zimmasidadir. Ajr-mukofotni Olloh beradi, siz bermaysiz, xavotirlanmang. Siz «Senga esi pastlar, yalangoyoqlar ergashyapti», deyapsizmi? Bilingkim, men iymon keltirganlarni sizlarga yoqish maqsadida yoki sizlarni rozi qilish uchun huzurimdan quvmasman. Men uchun boy-kambag'al tengdir. Mezon — boylik emas, muhimi— iymon keltirmoqlikdir. Hamma gap iymonda! Yana bilingkim, ular men uchun iymon keltirgan emaslar. Ularning iymon keltirishlari Ollohga bog'liqdir. Ular robbilariga ro'baro' kelganlarida sharmanda bo'lmaylik, deb iymon keltirdilar». Nuh alayhissalom yana qavmlariga dedilarkim: «Men sizlarga «Huzurimda Ollohnning xazinalari bor», demayman. Shu bois sizlarga boylik berolmayman. G'aybni ham bilmayman, «Men farishtaman» ham demayman». Afsuslarkim, iymonsizlar qalblari so'qir bo'lgani sababli hidoyat yo'lini ko'ra olmadilar. Va Olloh o'z payg'ambariga

dedikim: «Ularning qilmishlaridan qayg'uga tushmagin». Va vahiy qilindikim: «Qavmingdan hozirgacha imon keltirganlaridan boshqa hech kim endi imon keltirmas. Endi Bizning himoyamiz va vahiyimiz bilan kema yasagin hamda zulm qilganlar haqida Menga «Ularni ham asragin», deb xitob etma. Ular, albatta g'arq bo'lguvchilardir». Vaqtiki yetib, Ollohning amri ila tannur favvora otganda, ya'nikim, Ollohning azobi—to'fon kelganida buyurildikim: «Har, bir jonivordan bir juftdan ol, oila a'zolariningni olginu ahlingdan kimlarning g'arq bo'lishi haqida Bizdan so'z kechgan bo'lsa, ular mustasnodirlar. Kemaga faqat imon keltirganlarni ol».

Nuh alayhissalom amrga itoat etdilar va dedilarkim: «Kemaga mininglar, uning suzishi ham, to'xtashi ham Ollohning ismi ila bo'lur. Albatta Robbim kechirimli va rahmlidir.» To'fon dahshatli tus olganida kema tog'lardek kattalikda mavj urayotgan to'lqinlar osha suzayotganida Nuh alayhissalom chetda turgan o'g'illarini ko'rdilar va dedilarkim: «Ey o'g'lim, biz bilan birga mingin, kofirlar bilan birga bo'lmagin.» Kishi kofir bo'lsa qiyin, u o'zi ko'nikib qolgan tor doirada fikr yuritadi. Nodon o'g'il to'fon dahshatini ko'ra turib ham iymonga kelmadi, «Toqqa chiqib panoh topaman», dedi va g'arq qilinganlardan bo'ldi, — imom oyatlarni o'qimay, o'z tilida shu tarzda bayon qilib bo'lgach, mushafni yopdi. Bir oz muddat jim qoldi. So'ng yana so'zini davom ettirdi: — Farg'ona viloyatidagi g'alayonlar shu tarixni eslatmaydimi? Toki iymonsizlar haq yo'lga qaytmas ekanlar, Xudovandi karimning qiyomat yuborishi aniq. Siz bilan bizning burchimiz, nainki Olloh-taolodan bandalarning gunohini so'rab, ibodat qilmoqlik, balki gunohkor bandalarni iymonga qaytarish hamdur. Tangrining marhamati bisyordir va haq yo'lga qaytgan bandalarning gunohi afv etilg'usidir...

Va'z tugadi. Garchi imom aniq maqsadni aytmagan bo'lsa-da, mullavachchalar bu ibratga faqat amal qilmay, har joyda targ'ib etish lozim ekanligini anglab yetdilar.

Mudarris yig'ilganlarga ketish uchun izn berib: «Mulla Sabohiddin, siz picha turib hujramga kiring, ma'qulmi?» dedi. Sabohiddin: «Xo'p bo'ladi, taqsir», deb ta'zim qildi.

Hujrada Sabohiddin tanimaydigan yana ikki kishi bor edi. Sabohiddin katta salla o'rab, zarrin to'n kiygan bu zotlarga salom berib, ostonada ta'zim bilan turib qoldi.

— Beriroq keling, o'g'lim, tortinmang, — dedi hujra egasi. So'ng mehmonlarga qaradi. — Farg'ona muzofotiga bormoqlikni ixtiyor etgan mulla Sabohiddin deganimiz shu yigit.

— Barakallo, — dedi to'ladan kelgan mehmon. — Hazratim sizning iqtidoringiz va e'tiqodingiz xususida ko'p maqtov gaplar aytdilar. Insha Olloh, sizning bu e'tiqodingiz oxiratda inobatga olinur.

— Insha Olloh.

— O'g'lim, yarangiz azob bermay qo'ydimi? — deb so'radi hujra egasi, ammo savolga javob kutmay, mehmonlarga qarab so'zladi: — Falokatni qarangki, mulla Sabohiddin ko'chada ketar chog'larida boshlariga g'oyibdan qirrali bir tosh kelib tushibdi. Xotirim chalg'itmasa, biron o'n kun shuning azobini tortdilar. Xudoning rahmi kelib, mulla Sabohiddinga insof egasi yo'liqibdi. Yarani bog'lab madrasamizga uzatib qo'yibdi.

Bu gapni eshitib, Sabohiddin xavotirlandi. Chunki «insof egasi»ning minoraga tik chiqib tushganini u o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. Iblis qo'lidan shifo topganini bu oliy zotlar bilishsami.... Yo'q, xayriyat, suhbat mavzuiga qaraganda, ular bundan ogoh emas ko'rinadilar. Hatto «iblis» haqida so'z yuritilganda ham Sabohiddinning yarasiga shama qilmadilar. Sabohiddin yengil tin oldi. Biroq, kutilmaganda boshqa zarbaga duchor bo'ldi. Mehmonlardan biri choyni ichib, piyolani to'ntarib qo'ygach, unga murojaat qildi:

— Mulla Sabohiddin, bizni bir narsa taajjubga soldi: Marg'ilon atrofidagi imonsizlar orasida Jamoliddin degan askarboshi bor emish. O'sha sizning akangiz emasmi?

Savol kutilmagan bo'lsa-da, Sabohiddin gangimadi. Xiyol bosh egib, so'zlovchiga lutf bilan javob berdi:

— Taqsir, Ollohning bandalari orasida askarboshilar ham, Jamoliddin ismli odamlar ham ko'p. Men yaqin orada uydan xabar ololmadim. Akamning taqdirlari men uchun qorong'u.

— Sizni Novqatdan deb aytdilar. Padari buzurgvoringizning ismlari Jalolliddin ekan, shundaymi?

— Haq gap, taqsir.

— U holda biz yanglishmabmiz. O'sha imonsiz — sizning akangiz!

Gapga mudarris aralashdi.

— Taqsir, har kim o'z gunohi uchun Tangri oldida o'zi javob beradi. Akalarining ayblari deb mulla Sabohiddinni xijolatga qo'yish insofdan bo'lmas. Mulla Sabohiddinning gaplari chin: Chanoqqal'a muhorabasidan yaqinda qaytdilar. Bu orada ahli baytdan darak kelmadi.

— Mulla Sabohiddin akalarining gunohlari uchun mutlaqo izza chekmasinlar. Biz faqat farazimizning haq yo nohaqligini bilmoq istagida edik. Besh barmoq barobar emas. Bir pushtikamardan turli farzandlar bunyod bo'ladi. Mana, mulla Sabohiddin mo'min-qobil yigit ekanlar. Birov, shu yigitning akasi Oq poshsho zamonida odam o'ldirib, Sibir qilingan desa ishonib bo'lmaydi.

— Yo alhazar! — Mudarris yoqa ushladi. — Men bundan bexabar ekanman. Shu rostmi, o'g'lim?!

— Yo'q.

— Inkor etyapsizmi?

— Ha, taqsir. Akam qon to'kkan emaslar.

Ustoz-shogirdning so'zlashuviga diqqat bilan quloq tutib o'tirgan mehmonlardan yana biri istehzo bilan jilmaydi.

— U holda Ma'mur boyvachchaga kim pichoq urgan ekan, yo sizmi? — dedi u.

— Taqsir, siz mulla Sabohiddin bilan faqat tanishmoq niyatida edingiz?

— Ha, ha. Mulla Sabohiddin aytganingizday, qobil yigit ekanlar. Bizning boshqa so'zimiz yo'q. Shar'iy niyatlariga yetmoqliklarini Ollohdan so'rab, duo qilamiz.

— O'g'lim, siz boravering. Ertaga bomdoddan so'ng huzurimga yana bir kirasiz.

Sabohiddin ta'zim bilan chiqdi. U kutilmagan tanishuvning boisini anglay olmadi. «Ajab, maqsadlari faqat men bilan tanishishmi yo akam haqidagi farazlarini oydinlashtirishmi? Istaklari nima? «Ma'mur boyvachchaga kim pichoq urgan ekan, yo sizmi?» Nimaga bunday deb so'radi? Nahot, Ma'mur boyvachcha voqeasi ular uchun oydin bo'lsa? Qaerdan bilishsin? Kim aytishi mumkin? Otammi? Yo'q. Sultonmurod akami? Yo'q... Axir qur'onni o'pib turib qasam ichgan-ku? Yo surgun azoblari suyak-suyagidan o'tib ketgan akam sirni ochdimi? Nahot? Bo'lmasa kim? Haqiqat shu uch kishidan boshqa hech kimga ayon emas. Hatto Ma'mur boyvachchaning o'zi ham asl qotili kim ekanini bilmay dunyodan ko'z yumdi. Oradan shuncha yil o'tdi. Dunyo alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Shunaqa paytda Ma'mur boyvachchaning o'ldirilish voqeasi ularga nima uchun kerak bo'lib qoldi? Yo: «Bosgan har bir izingizdan boxabarmiz», deyishmoqchimi? Har holda, bir sir bor. Bu sir bomdoddan so'ng ochilsa ajab emas».

Sabohiddin shu xayollar ichida qoldi. Hujrasiga go'yo Ma'mur boyvachcha kirib olganday, ko'ziga uyqu ilinishi bilan bosinqirab turib ketaverdi. Bir safar u hujraga go'sht ko'tarib kirdi. Go'shtdagi qon tomchilari hali qotmagan. Boyvachchaning bo'g'zi ham qon. «Ajab, — deb o'yladi Sabohiddin, — bo'g'zi nimaga qon? Pichoqni ikki kuragi o'rtasiga urgan edim-ku?» Ma'mur boyvachcha go'shtni Sabohiddinning dimog'iga tutdi. Sabohiddin kalima keltirmoqchi bo'ldi. Lekin tili aylanmadi.

— Kalimai shahodatingiz befoyda, — dedi boyvachcha.

— Nimaga keldingiz, keting, — dedi Sabohiddin.

- Men sizga go'sht olib keldim.
- Xom go'shtning xosiyati yo'q. Tezda keting!
- Men haqiqatni bilishim kerak.
- Qanday haqiqat?
- Meni kim o'ldirdi?
- ...
- Indamaysizmi? Meni siz o'ldirgansiz!
- ...
- Siz nomardsiz! Pichoqni orqadan kelib urdingiz. Yuzma-yuz kelishga botina olmadingiz.
- Men yosh edim...
- Yosh odam qo'rqqoq bo'ladi, deb kim aytdi?
- Alamim ichimda.
- Musulmonning qoni musulmon uchun harom ekanini bilmasmidingiz? Meni nima uchun o'ldirdingiz? Sizga nima gunoh qilib edim?
- Siz oilamiz nomusini bulg'adingiz.
- Men-a?
- Ha, siz! Yangamni buzuvchi bo'lga boshladingiz.
- Xudo shohid, men begunohman. Sojidani nikohlab olganman.
- Undan avvalroq-chi? Yangamga nomahram bo'la turib, u bilan qo'shilganingiz rostmi?
- ...
- Indamayapsizmi? Demak, sizni o'ldirib savob qilgan ekanman.
- Ko'z suzgan g'unajinni jazolamay, arqon uzgan buqachani qatl etish shariatda savob sanaladimi?
- Agar u buqacha chinakam hayvon bo'lsa — gunoh. Ammo odam bo'lsa — zinokorni o'ldirish savob.
- Men sizga go'sht keltirdim. Oling.
- Tez keting... Ustimdan bosmang! Keting deya bman!
- Men sizni yonimga chaqiraman...
- Sabohiddinning nafasi bo'g'ildi. Baqirib yubordi. O'z ovozi o'zi cho'chib, yana turib ketdi. Chap tomoniga qarab tupurdi. So'ng kalima keltirdi. So'ng bunga ham qanoat qilmay humdan bir siqim guruch olib tashqariga chiqdi. Yulduzlar xira tortib, ufq bo'zaray deb qolgan edi. U guruchni tomga sochdi. Xujrasiga qaytib kirishga yuragi betlamadi.
- Bomdoddan so'ng yana mudarris huzuriga yo'l oldi.
- Keling, o'g'lim, qani o'ltiring. Kechagi gaplarni ko'nglingizga olmang. Siz xafa qilish niyatlari yo'q edi... Ruhingiz cho'kibroq turibdi... Yo chindan...
- Yo'q, taqdir, ularning so'zlari zarracha og'ir botmadi. Ruhsizligim boisi... birodarlar bilan suhbatga berilib, uyquni andak kanda qilibmiz chog'i...— Sabohiddin irim qilib, ko'rgan tushini aytmadi. Mudarris uning botiq ko'zlariga qarab yolg'on gapirayotganini anglasa-da, sir boy bermay, tasbeh o'g'irganicha duo o'qidi.
- Ishqilib, Olloh jumla dardmandlarning dardlariga davo berib, shular qatorida birodarimiz Sultonmurodga ham shifo komil ato etsin, — dedi bir oz ovozi ko'tarib.
- Taqdirimdan xabar bormi?
- Ha, u kishini betob deb eshitdik, — mudarris bu yangilikni e'tiborsiz xabarlay aytib, so'ng gap mavzuini butunlay o'zga yoqqa burdi: — Sizning Chanoqqal'a muhorabasiga borganingiz faqat jasorat emas, iymoningiz kuchidan bir nishonadir. Farg'onaga qaytmoqqa qasd etganingiz bu kuch, Ollohnin marhamati ila, yanada

qudrat kasb etganini ayon qildi. Biz bunda kengashib, sizga izn bermoqlikni lozim topdik. Xatmi kutubingiz yaqin edi. Siz ayni choqda fotiha olmoqqa loyiqsiz. Siz Xudo ato etgan qobiliyatingiz bilan o'zga mullavachchalardan ajralib turardingiz. Endi validayn quchog'iga borib, Haq yo'ldan qaytgan bandalarni insofga keltirish bilan mashg'ul bo'lishingiz vaqti yetdi. Men sizni bu xabardan ogoh etib qo'yimoqchi edim. Ha, darvoqe, kechagi muhtaram zotlar agar malol kelmasa, sizdan bir duoyi salom berib yubormoqchi ekanlar. O'shal nomani Marg'ilonga tashlab o'tarmikinlar, degan o'tinchda iltimos qilishdi.

— Nimaga malol kelsin, bosh ustiga, taqsir. Sizning xohishingiz men uchun amri vojib.

— Borakallo, o'g'lim. Endi boring, yo'l hozirligini ko'ravering.

Sabohiddin yana muammolar chohiga tushdi. Sultonmurodning eslanishi uni taajjubga soldi. Kechagi odamlarning qotil haqidagi gaplari bilan mudarrisning duosida bog'liqlik borday tuyuldi. Biroq, bu ilmoqli gaplardan maqsad ne ekanini anglay olmadi. Sultonmurodning betobligini aytish bilan safar tadorigini tezlashga undadimi? Busiz ham uchmoqqa qanot chiqarib shay turibdi-ku? Farg'onaga bormoq niyatini o'zi aytdi-ku?.. Sabohiddin imom huzurida qarzdor. Avvalambor Sabohiddinga alifni o'rgatgan odam — shu imom. Qolaversa, o'sha mudhish kechada, Ma'mur boyvachchaga pichoq sanchgan onida voqeaga xuddi shu odam guvoh bo'lgan.

...Ko'cha kimsasiz va qorong'i edi. Ma'mur boyvachcha xirgoyi qilib borardi. Sabohiddin pisib kelib unga pichoq urdi-yu, orqasiga qarab qochdi. O'n qadam tashlamay, bir odamga urildi. Bu odamni maktabdor ustoz Sultonmurod ekanini keyinroq bildi. Sharafli Buxoroga kelishiga ham shu odam sababchi. Qaytish onida ham uning nomi tilga olinyapti. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin.

...Sabohiddin ketish sababini Tabib afandiga mujmallik bilan aytib, boshini quyi soldi. Shubhasiz, u Ma'mur boyvachcha voqeasini yashirdi. Biroq, odamlar fikrini o'qiy oladigan Rhaq uchun bu voqea qorong'iligicha qolmadi. Bundan butkul bexabar Sabohiddin safar vaqti-soati o'zi kutganidan ham ancha ilgari kelganini, tongda Buxoroni tark etajagini bildirdi. Aftidan, u Salimxo'jani izlab kelgan. Bahonada Tabib afandi bilan xo'shlashmoqchi edi. Rhaq buni sezib, oqshomga qadar Salimxo'jani daraklab topajagini, so'ng birgalashib madrasaga o'tajagini aytdi. Sabohiddin qulluq qilib chiqib ketgach, Rhaq uydagi buyumlarini saranjomladi. Chunki u ham ertaga Tang sari uchishi kerak. Lukn minoraga tik chiqib tushgach, ularning qaytishlari tezlashdi. Rhaq uyqudagi Luknni sahro qo'ynidagi mo'j'az kemaga qo'yib kelib, o'zi Yerdagi ishlarni yakunlashga shoshilardi. Baxtiga kun oyoqlamay turib, uyiga Salimxo'janing o'zi kirib keldi. Rhaq unga bo'lgan voqeani qisqa bayon etgach, Shoazizning kelishini kutmay, ikkovlashib Sabohiddin tahsil ko'rayotgan madrasa sari yo'l olishdi.

Safar tadorigini ko'rayotgan Sabohiddin hujra eshigi oldida Salimxo'ja bilan Tabib afandini ko'rib g'oyat quvondi. Salimxo'ja bilan Sabohiddinning olti yillik qadrdonligi bor. Buxoro tuprog'iga ilk qadam bosgan chog'ida orttirgan birinchi oshnasi — shu Salimxo'ja. Sabohiddin dastlab jinko'chalarda gangib, adashib qolganida Salimxo'ja joniga ora kirgan edi. Sabohiddin xiyla badavlat oilaga mansub bu mulla yigitning madrasada emas, Peterburgda tahsil olib qaytganini keyinroq bildi. Uni ba'zi zamonaviy ilmlardan, yuzaki tarzda bo'lsa-da, Salimxo'ja ogoh qildi. Aslida, Salimxo'ja Sabohiddinni shunchaki emas, balki ilmning o'zagiga qadar oshna etishi mumkin edi. Biroq, Buxoro madrasasining talabasi «shayton isi anqib turgan bu ilmlar» haqida so'z ochilishini ham istamasdi. Olti yil badalida na u, na bu bir-birovining aqidasini ma'qulladi. Ammo, har biri o'zicha to'g'ri deb ishongan haqiqat yuzasidan toza ko'ngil, chuqur mulohaza bilan fikr yuritgani uchun ham yillar hatlasa-da, do'stlik iplari uzilmadi. Salimxo'ja uni

Chanoqqal'a safaridan qaytarishga urindi, bir necha bor «Yosh buxoroliklar» deb atalmish guruh suhbatiga ham tortdi. Ammo bu yigitlarning aksari Sabohiddinga maqbul kelmadi. Chunki ular Salimxo'janing butkul aksi, chuqur mulohaza yuritmay, jo'shib ketishar, hatto ahli joh, ahli dinga qarshi so'z aytishdan ham qaytmas edilar. Ahli donishdagi «Aytgan so'zim — hojam, aytmaganim — qulim», degan hikmatga amal qiluvchi Sabohiddin esa tilni besuyak biluvchilardan o'zini nari tutardi.

Buxoro ahli ichida Sabohiddin uchun yagona chin do'st hisoblangan Salimxo'ja takalluf kutmayoq ichkari kirib, bir qavat yakandoz ustida chordana qurdi. Rhaq uning yonidan joy oldi. Sabohiddin do'stining kelishiga intiq edi. Mehmon sharafiga dasturxon tuzashga chog'langanida Salimxo'ja ruxsat bermadi. Bilagidan tutib, yonidan joy ko'rsatdi. Sabohiddin poygastroqda, mehmonlarga yuzma-yuz o'tirdi.

— Nazarimda xatmi kutubga picha vaqt bor edi. Qaytishga chog'langaningizdan xabar topib ajablandim? — dedi Salimxo'ja unga savol nazari bilan tikilib, — yana vujudingizdagi mujohidlik qoni jo'sh urdimi?

— O't tushgan onda kimdir o'chirmoqqa jazm qilmog'i lozimmi? Yo sizning birodarlaringiz kabi o't o'chirmoqning qay usuli ma'qul, deb fikr talashib o'tirmoq joizmi?

— Men diydor qiyomatga qolmasa degan xadikda edim. Aybga buyurmang, ammo xo'shlashgani kelganingiz holda meni so'roqqa tutishingizga aqlim yetmay qoldi.

— Uzrliman, mulla, aybsitmang. Sizni so'roqqa tutish niyatim yo'q edi. Faqat bemavrid ketishingizni mulohaza qilib, men bo'lakcha xulosaga kelib edim.

— Qanday?

— Farg'ona viloyatidagi afsusga loyiq voqealar haqida siz bilan ko'p bahs yuritgan edik. Viloyatga qadalgan ikki ko'zdan biri sarmoyadorlarniki, yana biri g'ayridin inglizniki deganimda, fikrimni bir qadar ma'qullagan edingiz?

— Hali fikrimni o'zgartirganimcha yo'q.

— Borakallo. «Islom lashkarlari» deganingiz chin xaloskor emas, sarhad tashqarisidagi begonalar qo'lida qo'g'irchoq ekanini ham ma'qullab edingiz?

— Butunicha emas. Islom lashkarlari hozircha ulardan ko'mak oladilar keyin...

— Keyin... Bugungi ko'mak iplari ertaga tobe bo'yindagi zanjirga aylanajak.

— Ochig'ini aytsam... fikrim o'zgarib qolib qolyapti. Bir tomoni ingliz, yana bir tomoni o'rus...

— Siz shu tobga qadar o'zganing tuziga non botirmagansiz. Mehnat bilan ulg'aygansiz. Mehnat ahliga qayishing, deyman.

— Bundan bo'lakcharoq niyatim ham yo'q.

— Mulla, haq yo'ldan adashmasangiz bas.

— Haq yo'lni... haq yo'lni farqlayman, insha Oллоh!

— Aybsitmang Mulla, gaplarim bir oz achchiq bo'ladi: Siz hozir ko'zingiz yumuq holda chorrahada turibsiz. Fikrim o'zgarib, deb o'zingiz aytdingiz. Men sizning islom lashkarlari tomonga o'tib, ingliz harbiylarining qo'g'irchoqiga aylanishingizdan qo'rqa-man.

— Xudo saqlasin! Asti unday emas. Niyatim — faqat yurtga osoyishtalik, farog'at tilamoq.

— Niyatingiz yo'ldoshingiz bo'lsin. Ammo so'zlarimni nazardan forig' etmang.

— Saharmardonda Buxoroni tashlab chiqaman. Bundan buyon Xudo xohlasa, yana ko'risharmiz. Buguncha dunyo ishlarini qo'ya turib, bahsga berilmaylik. Boshqa gaplardan gaplashaylik.

Salimxo'ja ma'qul ishorasini qildi. Onda-sonda Rhaqni ham suhbatga chorlashdi. Ammo so'z aylanib yana Farg'ona viloyatiga borib taqalaverdi. Salimxo'ja Sabohiddinning ikki o't orasida qolib azoblanayotganini sezib, suhbatni bas qildi. Saharda yana kelajagini aytib, xayrlashdi.

Sabohiddin uni bomdoddan so'ng ancha kutdi. Kelavermagach, noiloj yo'lga chiqdi. Jinko'chalarni oralab borayotgan Sabohiddinning yuragi go'yo uzilib tushdi. Shahar darvozasiga yetganda Tabib afandini ko'rganidan keyin chehrasi bir oz yorishdi. Ammo yuzidagi xavotir ko'lankasi yo'qolmadi. Rhaq Salimxo'janing bu tun amir sarbozlari tomonidan hibsga olinganini aytgach, Sabohiddin birdan kichrayib cho'kib qolganday bo'ldi. Keyin bir qarorga kelib, shahar tomonga yuz burdi. Rhaq uning maqsadini anglab yo'lini to'sdi.

— Qayoqqa? — dedi u Sabohiddinni yelkasidan ushlab. — Borganingiz bilan qo'lingizdan nima keladi? Zindonda birga o'tirib, bahslaringizni davom ettirasizmi... Orqaga qaytishning xosiyati yo'q. Siz boravering. Salimxo'ja haqida o'zimiz qayg'uramiz...

Sabohiddin Tabib afandining yelkasiga bosh qo'yib, turib qoldi. Keyin qo'l olishib xayrlashdi-da, behol yurib ketdi...

Rhaq ezilgan ko'yi bir-bir bosib ketayotgan Sabohiddinni, o'zgalardan zehni bilan farqlanib turuvchi Salimxo'jani eslab yuragi ezildi. Aslida o'shanda Salimxo'jani zindondan chiqarib, Sabohiddinni yo'ldan qaytarsa bo'larkan. Haqiqatni eshitib, bir oz sarosimaga berilsalar ham, ishonishardi. Ularning boshiga yana qanday tashvish tushdi ekan? Yerda Tang ko'rsatmalarini buzmay ishlagani uchun Rhaq yana bir afsuslandi.

Hozir orqa tomonda Sabohiddin xo'rsinganday, iliq nafasi bo'yniga urilganday bo'ldi-yu, entikib turib qetdi. Orqasiga o'girilib... o'g'lini ko'rди.

— Qaerda eding? — dedi u bir oz dovdiragan holda.

— Shu yerda... kirganimni payqamadingiz, — o'g'li shunday deb unga yaqinlashdi. — Siz boshqacha bo'lib qolgansiz. Yuragingizdagi gaplarni yashiryapsiz. Sir boy bermayapman, deb o'ylaysiz. Yodlab olgan aqidalaringizni pesh qilib nasihat qilasiz. Bunaqada o'zingizni yeb qo'yasiz. — O'g'li kinoya bilan jilmaydi. — Taraqqiyot uchun xizmat qila olmaysiz. — U shunday deb chiqib ketdi.

Rhaq o'g'liga e'tiroz bildirishga shu tobda ojiz bo'lgani uchun ham uni iziga qaytarmadi. U Yerda yurganida uyga qaytgach, ruhan ezilishini taxmin qilgan, yerliklarning tuyg'ulariga bandi bo'lmay deb, xuddi yuqumli kasallikdan qochganday qochishga urinar, yiroqlashishga intilgani sayin, undan uzoqlashmay, aksincha, tobora yaqinlashardi. Mana, oqibat: yerliklarning tuyg'ulari qariyb yuqdi, Lukn minoraga chiqib tushgandan beri qalbida g'imirlayotgan norozilik ochiq g'alayonga aylandi. Tangga kelgunga qadar o'zi bilan o'zi pinhona olishdi. Keyin o'g'li bilan, Fid bilan bahslashdi. «Qachon?» «Nimaga?», «Shartmi?» «Zarur emas?» «Ajab...» Bir tana, bir yurakka ikki kishi xo'jayin. Aql yurakka, yurak harakatga, harakat so'zlarga monand emas. Biri ikkinchisini inkor etadi. Biri biroviga bo'ysunmaydi. Buni o'g'li ham payqabdi.

Rhaq ana shunday og'ir ahvolda edi.

Nima uchun hech kim yo'qlamay qo'ydi? Bu — muddaoning o'zi bo'lsa-da, Rhaq ajablana boshladi. Ayniqsa, hozir uyga sig'mayotgan paytida kimningdir yo'qlashini kutdi. Ammo yo'qlov bo'lmadi.

U, ayniqsa, Fiddan xabar kutgandi. Oradan oylar o'tyapti, ammo Rhaq intiq bo'lgan gapdan darak yo'q. Tangda biron-bir masalani hal etish bunchalik uzoqqa cho'zilmas edi. Fid nima uchun jim? Nahot donishmandlar markazi haligacha bir qarorga kelmagan bo'lsa? Axir muammo juda ham chigal emas-ku? Rhaq Yerning hayotini to'laligicha oqlagani yo'q. U ham Lukn kabi yerliklarning yaramas jihatlarini payqagan, bundan g'azablangan. Lukn bilan uning xulosalarida asosanbittagina jiddiy farq bor: Rhaq yerliklar kelajagiga umid bilan qaraydi. Luknda mana shu umid yo'q. Har qanday

noto'g'ri xulosaning, har qanday fojining boshi umidsizlik ekanini anglash nahot shu qadar og'ir bo'lsa?!

Rhaqni ma'lumotlarning qay darajada ma'qullanishi emas, balki Yerga qilinajak yangi safar taqdiri ko'proq tashvishga solardi. Yerga yana tadqiqot maqsadida uchiladimi yo uning hayotiga bevosita aralashish uchun safar qilinadimi? Tadqiqot davom ettirilsa kimlar boradi? Luknmi yoki Rhaqning o'zimi?...

«Men albatta borishim kerak», — degan qat'iy qarorga kelgan Rhaqni o'sha damdayoq «Nima uchun men borishim kerak?», «Nima uchun Yerga qaytgim kelyapti?» degan savollar siquvga olardi. U turli bahonalar o'ylab topib, o'zini-o'zi ishontirishga harakat qilardi. Kunlar shu zaylda o'tyapti. Fiddan esa darak yo'q. Rhaq o'ylay-o'ylay, «Xabar kutib, diqqinafas bo'lmasdan, Fidning oldiga borganim ma'qul», degan qarorga keldi. Ertasiga nonushtadan so'ng Fidning huzuriga yo'l oldi.

Do'stining xonasida bo'g'ilib bahslashayotgan Luknni ko'r-di-yu, ostonada to'xtab qoldi. Fid Rhaqni imo bilan ichkariga taklif qildi.

— Nimangizga kerilasiz? — dedi Lukn kirib kelgan Rhaqqa e'tibor ham bermay. — O'zingiz ham foydali kashfiyot qilganingiz yo'q-ku?

Lukn asabiylashgan sayin Fid o'zini xotirjam tutardi. Luknning so'nggi so'zlaridan hatto kulib ham qo'ydi. Fidning qanday buyuk kashfiyot egasi ekani kattayu kichikka ma'lum bo'lsa-da, Lukn uni atayin kamsitib, jig'iga tegmoqchi edi. Lekin o'q mo'ljalga tegmadi — Fid asabiylashmadi.

— Men yerliklarni bejiz sarosimaga solmaganim uchun ham kerilaman, — dedi u bosiqlik bilan.

— Men buning zararli ekanini bilmagan edim.

— Sizning ongsizligingiz ham shu.

— Hayotda xatolar yuz berib turadi, buni unutmang.

— Har narsaning chegarasi borligini siz ham unutmang.

— Yaxshi, unutmazlikka harakat qilaman. — Lukn shunday deb o'zini bosib olish uchun chuqur nafas oldi.— Endi bu gaplarni qo'yib, muddaoga o'taylik.

— Meng qarorimni o'zgartirmayman.

— Siz meni...

— Ha. Layoqatsiz deb bilaman. Siz bu ishga mutlaqo noloyiqsiz!

Fid o'rnidan turdi-da, deraza oldiga borib, orqasini o'girib oldi. Lukn unga nafrat bilan qaradi-da, chiqib ketdi. Fid shundan keyingina Rhaqqa o'girildi.

— Ko'rdingmi? — dedi u eshik tomon ishora qilib.— Temir sandiqqa solib ko'mib tashlasang ham ilojini topib teshib chiqaveradi.

— Sendan nima talab qilyapti?

— Yana Yerga uchmoqchi. Qo'yib bersang, endi Yerni alg'ov-dalg'ov qilib qaytadi. Minora sirtida yurgani uchun u jazolandi.

— Yerga yana uchilmoqchimi?

— Ha. Shu masalada seni chaqirmoqchi edim. Kelganing yaxshi bo'ldi. Endi Yerda jiddiy tadqiqotlar boshlash vaqti yetdi. Sen bilan Lukn tavsiya etgan ikki xil ma'lumotlar bizni chalg'itib qo'ydi. Endi Yerning olti nuqtasiga yakka-yakka holda yuboramiz. Qadimda taraqqiyoti yuksak bo'lib, oqibatda uyquga berilgan yurtlarni chuqur o'rganish kerak.

— Yerga kimlar uchadi?

— Hozircha aniq bir gap aytish qiyin.

— Taxminiy ro'yxat bordir axir? — Rhaq Fidga yaqinlashib yelkasini ushlab, siltaganini o'zi ham sezmay qoldi.

— O'zingni bos, — dedi Fid uning qo'llarini yelkasidan olib. — Bu nima qilganing? Shu asabiyliging bilan Yerga uchmoqchimisani?

— Ha. Men albatta uchishim kerak.

— Nima uchun?

— Men... taxminlarimni isbot qilaman.

— Shuning o'zimi?

— Demak... Men ro'yxatda yo'q ekanman-da, a?

— Men bunday demadim shekilli?

Bu gapdan keyin Rhaqning chehrasi ochildi.

— Men ro'yxatga nomzodingni kiritdim. Ammo bu ahvoldingda tibbiy sinovdan o'ta olarmikansan?

— O'taman, Fid.

— Yaxshi. Lukn o'rnatib qaytgan uzatgichlarning ayrimlari ma'lumot yubormay qo'ydi. Balki u odamlar o'lgandir. Sabohiddin degan yerlikni bilarmiding?

— Bu senga qaerdan ma'lum bo'lib qoldi?

— Luknning hisobotidan. Xullas, o'shandan kelayotgan ma'lumotlar chalkashib ketdi. Yerga borsang, u odamni topasan. O'zgarish sababini bilishimiz zarur.

— Fid, yerliklarning hayotini tahlil qilish uchun ajdodlarimiz tarixini ozgina bo'lsa ham bilsam, zarar qilmasdi.

— Shart emas. Sen ko'rganlaringni bizga ma'lum qilaver. Tahlil etish maxsus guruhning ishi.

— Fid, bir narsani ochiq ayt, tadqiqotlar tugagandan keyin Yerning taqdiri nima bo'ladi?

— Ochig'i, o'zim ham bilmayman. Ammo Tangning taqdiriga befarq qarash mumkin emas. Biz ertami-kechmi, tabiatga qaytadan yaqinlashishimiz shart. Tabiatdan uzoqlashganimiz sayin hamma narsadan ajralyapmiz. Buni faqat sen emas, boshqalar ham tushunadi.

— Demak... biz bora-bora yerliklar hisobiga yashashimiz kerak ekan-da?

— Juda unchalik emas. Biz avvalo ularga yordam beramiz. Ularning ong darajalari biznikidan past.

— Balki yuqoridir?

Fid Rhaqqa tikilib qoldi. Yuqori labi uchdi. Teskari o'girilib oldi. Bir necha daqiqa ilgari ham Luknning gaplaridan g'azablanib, shu alfozda deraza yoniga borib turgan edi. Rhaq bemavrid bahslashganini sezib, afsuslandi. Fiddan sado chiqavermagach, iziga qaytmoqchi bo'ldi. Eshik tutqichiga qo'l yuborganda barmoqlarining titrayotganini ko'rdi. Qiziq, asabiylashishga hech bir asos yo'q edi. Aksincha, Yerga uchuvchilar ro'yxatida nomzodi borligini bilib, quvonishi lozim edi. Bu xushxabarni intiqliq bilan kutayotgan edi...

— Men bu xabarni eshitib, quvonarsan, deb o'ylabman, — dedi Fid bosiq ohangda.

Rhaq to'xtab, o'girildi. Fid hamon deraza oldida turardi.

— Fid, o'zim ham hayronman.

— Agar yana uchishni istasang, salomatligingni o'yla. — Fid shunday deb unga qaradi. Rhaq gapirolmadi. Boshini quyi egib, chiqib ketdi. Dahlizda o'g'lini ko'rib, taajjublanib to'xtadi.

— Sen bu yerda nima qilib yuribsan?

— Sizni izlayapman. Tezda uyga boring. Onam yo'qlayaptilar.

— Uydan hozirgina keldim-ku?

— Toblari qochdi.

— Yur, bo'lmasa.

— Men tajribaxonadagi do'stinga bir og'iz gap aytamanu orqangizdan yetib boraman. Rhaq shoshganicha uyga jo'nadi. O'g'li, aytganiday, orqasidan yetib bormadi. Rhaq xotini yotgan xonaga kirdi. Xotini pinakka ketgan ekan, cho'chib ko'zini ochdi. Erini ko'rib, ma'yus jilmaydi.

— Tinchlikmi? — dedi xasta ovozda.

Rhaq nima deyishini bilmay ikkilandi.

— Tinchlik... qiladigan ishim yo'q, zerikypman, — dedi nihoyat. — O'zing tuzukmisan?

— Ha, bugun ancha yengil tortib turibman. O'lingiz hozirgina ketdi.

— Senga bir nima dedimi?

— Hech... Ha, aytmoqchi, videomagnitofoningizga bir nimalarni yozdi shekilli.

Rhaq xonasiga kirib, videomagnitofon tugmasini bosdi. Kaftdek ekranda o'g'lining jiddiy qiyofasi ko'rindi. U shoshilmay dona-dona qilib gapira boshladi:

— Har narsaning cheki-chegarasi bo'lishi kerak. Hissiz sayyoraning umri qisqa. O'tmishini rad etgan va unutgan jamiyatning kelajagi ham yo'q. Biz norozilik sifatida butun to'damiz bilan o'zimizni qurbon qilamiz. Tangda bir kunmas-bir kun, albatta his-tuyg'u, mehr-oqibat ko'z ochadi, degan umid bilan o'lamiz. — O'g'li bir oz tin oldi. Keyin ovozini balandlatdi: — Nima uchun biz faqat yuksalishni va ishni o'ylashimiz kerak? Biz avlodlarga nimani meros qilib qoldiramiz? Vahshiyliknimi?

Gap tugashi bilan tasvir yo'qoldi. Rhaq gangib, xotiniyotgan xonaga chiqdi.

— Nima debdi yana? — dedi xotini xavotirlanib.

— O'zining o'sha eski dardi...

U gapini tugatmay, deraza oynaklari zirillab, uy titrab ketdi. Xotini vahima bilan qichqirib yubordi.

Rhaq donishmandlar markazidagi asosiy tajribaxona portlaganini, bu mudhish ishni amalga oshirishda o'g'li ham ishtirok etib, to'dasi bilan birga halok bo'lganini bir necha daqiqadan so'ng bildi.

O'ziga suiqasd qilgan yoshlar maqsadlarini bayon qilib ketgan bo'lsalar ham ularning o'limi baxtsiz hodisa sifatida qayd etildi. Keraksiz shov-shuvga yo'l berilmadi.

Rhaq Tangga qaytgach, o'zini yolg'iz sezib, sayyorada tuyg'ularning uyg'onishini orzu qilib yurgan edi. Endi bilsa, u yolg'iz emas ekan. Tuyg'uga chanqoqlar ham bor ekan. U o'g'lining halokatidan behad iztirobda edi. Ammo zurriyodining aniq bir maqsad yo'lida qurbon bo'lgani uni ovuntirardi.

Oradan yarim oy o'tmay, xotini bilan ham vidolashdi-yu, tamoman gangib qoldi. Asablari butunlay ishdan chiqayotganini angladi. Yerga qilinaajak safardan umidini uzdi. Ana shu kezda yana Fid joniga ora kirdi. Uni markaziy asab hujayralarini sozlovchi biotelekameraga joylashtirdi. Shu muolajadan so'nggina u tibbiy kuzatuvdan o'tdi. Fid Rhaqning iltimoslarini bajarishga harakat qildi. Gen kamerasiga o'rnatilgan miyaning telepatik xususiyatini kuchaytiruvchi moslama quvvatini oshirishga erishdi. Endi Rhaq inson qiyofasiga kirgach, bir necha o'n qadam naridagi odamning fikrini uqib, unga fikran buyruq bera oladigan bo'ldi. Yerdan uzatilgan biotok oqimlari asosida to'plangan ma'lumot bilan tanishish Rhaqni behad quvontirdi. Chunki bu ma'lumot Sabohiddinning keyingi harakatlarini bayon etardi. Kemaning maxsus bo'lmasidagi bu ma'lumotni Rhaq faqat Yerga yaqinlashgan choqdagina olib o'qishi mumkin, chunki Yerning ma'naviy qiyofasi haqida ma'lumot tangliklarga ayon bo'lmasligi shart edi. Uchish onlari yaqinlashgani sayin Rhaqni ajib bir hayajon qamrab borardi. Ilgarilari u bunday holga hech tushmagan edi. Endi u hissiz sayyorasidagi tartiblar borasida fikran bahslashmas, balki ko'proq Yerni o'ylandi. Eski tanishlarini qo'msardi... U Yerga tushadi. Buxoroga boradi. Yosh buxoroliklarni bir-bir izlab topadi. Suhbat quradi. Keyin Nazirani ko'radi...

Nazira unga g'azallar o'qiydi. Keyin o'zi yashirincha bitgan baytlardan... Suyuklisi bilan topishganini quvona-quvona aytadi... Keyin Rhaq vodiylarni kezadi. Bulbullarning sayrashini eshitadi. Buloq suvidan simiradi...

Rhaq uchish kunigacha shu shirin xayollar bilan yashadi.

Kemaga chiqar mahalida birdan nafasi qaytib, yuragi urishdan to'xtaganday bo'ldi. Kutilmaganda «Yana borishim shartmidi?» degan fikr miyasiga urilib, badaniga muz yugurdi. Beixtiyor orqasiga o'girildi: maydonda hech kim yo'q. Uzoqda kuzatuvchilar joylashgan bino. Fid ham o'sha yerda. Ular bilan qayta ko'rishish nasib bo'larmikin? Yerdan qaytganda hammadan yotsirab qolgan edi. Endigi qaytishida qanday holga tusharkin? Yerliklarni yanada qattiqroq yaxshi ko'rib qolarmikin yo Lukn kabi nafratlanib qaytarmikin?

Kema sayyora sathidan ko'tarilgach, Rhaqning yuragi qalqdi. Nazarida qalbining bir parchasi uzilib qolganday bo'ldi. Tang — hissiz bo'lsa ham har holda ona yurti edi...

Rhaq kemada o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi. Keraksiz bahsga berilmaslik uchun hamrohlarining suhbatlaridan o'zini chetga oldi. Muddat yetgach, birinchi bo'lib uyqu kamerasiga kirdi. Tiniqib uxladi. Gallyutsinatsiya bu safar hukmini o'tkaza olmadi. Quyosh majmuasiga yaqinlashganlarida uyg'onishdi. Rhaq shundagina Sabohiddin haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishga tutindi.

ORAGA QILICH TUSHDI

Sabohiddin Tabib afandi — Rhaq bilan qo'l olishib xayrlashgach, ancha yergacha otini yetaklab, behol yurib bordi. Shahar darvozasi oldidagi baqiriq-chaqiriqlar eshitilmay qolgach, orqasiga qaradi. Horg'in odamday cho'kib yotgan devorlarga ma'yus tikilib turdi-da, otiga mindi. U muddarrisning o'gitiga amal qilib, otash aravaga minmadi, otliq holda Karmana, Samarqand, Xo'jand, Qo'qondan o'tib, Marg'ilonni qoralab boraverdi.

U Marg'ilonga yaqinlashganida kun peshindan og'ib qolgan edi. Guzardagi masjid imomiga berib yuborilmish omonat maktubni topshirgach, shomga qadar Farg'onaga yetib olishni reja qilgandi. Masjidga kirib hech kimni uchratmagach, guzarning narigi betidagi katta tollar panasida biqinib turgan samovarxonaga borib o'tirdi. Yelkasiga sochiq tashlagan, yaktagi ustidan bog'langan qo'shbelbog'dan nosqovog'i do'mpayib chiqib turgan samovarchi bir likobchada holva, ikkinchisida mayiz keltirib qo'ydi.

— Mehmon suv qaynagunga qadar andak sabr qiladilarmi?

— Xijolat bo'lmang, shoshayotgan yerim yo'q. Faqat masjidda hech kim ko'rinmayotganidan taajjubdaman.

— E, mehmon, yangi gaplardan xabarlari yo'qmi hali?

— Tinchlikmi, ishqilib?

— Bu tunda Xoliqberdi to'ramning validai mukarramalarini qatl qilishibdi. To'ram peshinga yetib keldilar. Hozir hamma janozada.

Sabohiddin fотиha o'qidi. Samovarchi unga qo'shildi.

— Qatl qilishibdi, dedingizmi? — deb so'radi Sabohiddin ajablanganini yashirmay.

— Ha, qatl qilishibdi, — dedi samovarchi xotirjam bir ohangda. Keyin: «Shunday olatasir zamonda bir kampirni o'ldirishsa nima qipti? Ne-ne lochin yigitlarning boshi uchyapti-yu! Bu yigit osmondan tushganmi, nima balo? Buncha hayron bo'lmasa», deganday g'alati qarash qildi.

— Himoyasiz bir ojizada kimning qasdi bor ekan?

— Bunisi bizga qorong'i. Yuzta og'izdan yuz o'n gap chiqyapti hozir. Qay biriga ishonishni ham bilmay qoldi kishi. Samovar qaynadi shekilli, men boray-chi...

Sabohiddin jo'mragi chegalangan choynakdagi choyni bo'shatay deganda ot dupuri eshitildi. Yo'ning ikki chekkasidagi qo'shqator tollarning ishkomb bo'lib chirmashgan shoxlari oftob nurini o'tkazmagani uchun ko'cha bir oz qorong'iroq ko'rinardi. Otiqlar guzarga yaqinlashdilar. Oldinda ikki suvori. Orqarokda qo'qonarava. Aravaga to'rt kishi chandib bog'langan. Orqada yana o'nga yaqin otliq askar. Oldinda kelayotgan suvorilarning biri Sabohiddinning ko'ziga issiq ko'rindi, tikilib qaradi: akasi! Choynakni qo'yib, otliqlarga peshvoz chiqdi. Akasini chaqiraymi-chaqirmaymi, deb ikkilanib turganda, Jamoliddin uzun to'n kiyib, salla o'ragan ukasini tanib, tizginni tortdi-da, «Sabohiddin, jigarim!» deb otdan sakrab tushdi. Aka-uka bir-birini bag'riga bosganicha unsiz turib qoldi. Til o'rniga bir-biriga juda yaqin kelgan ikki yurak gaplashdi:

— Sog'-omonmisan, ukajonim!

— Xudoga shukr, omon qaytibsiz. Meni deb ne azoblarni yelkangizga oldingiz. Akamning jonini omon saqla, yaxshi kunlarda diydor ko'rishaylik, deb har ibodatdan so'ng Ollohga yalbordim. Ming qatla shukr, ohlarim Tangrimga yetib boribdi...

Odatda uzoq ayriliqdan so'ng topishgan ayollar yig'ilarini yashira olmaydilar. Erkaklar esa ovoz chiqarmay ko'rishadilar. Chunki so'zga og'iz juftlansa yig'italab qalblar irodadan ustun kelishi mumkin. Alamlarini ham, dard-hasratlarini ham ichga yuta olish qudratiga ega bo'lgan erkaklarning zaifligini bunday hollarda mijjalar orasidan sizib chiqqan ko'z yoshlari oshkor qilib qo'yadi. Hozir ham shunday bo'ldi.

— Jaloliddinov, yo'ldan qolyapmiz!

Sog'ingan yuraklar bir-biriga to'ymay qoldi.

— Sasha, qara, ukam kelibdi. Esingdami, senga u haqda gapirgandim, — dedi Jamoliddin hamrohiga qarab.

— Esimda, esimda. Juda a'lo ish bo'libdi. Ammo hozir to'xtashga fursat yo'q. Qaytishda istaganingcha ko'rishaverasan.

— Xo'p, hozir. Sabohiddin, sen shu yerda tura tur. Men tezda qaytaman.

— Uzoqqa ketyapsizmi?

— Anavilarni Xoliqberdi to'raga topshiramizu qaytamiz.

— Ular kimlar?

— To'raning onasini o'ldirishibdi. Eshitgandirsan?

— Ha.

— Bo'pti, ukajon: men kelgunimcha shu yerdan jilma.

— Samovarda bo'lmasam, masjiddan topasiz.

Otiqlar yo'lga tushdi. Sabohiddin joyiga qaytdi.

— Tanishingizni uchratdingiz, shekilli, a, mehmon? — deb so'radi samovorchini unga yaqinlashib.

— Tanishim emas, akam bo'ladilar. Olti yil ko'rishmagan edik.

— Olti yil?! Tag'in ham odam hijronga chidaydi. Akangiz mardikorga ketgan edilarmi?

— Yo'q, mardikorga olish boshlanmasdan burunroq Sibir qilishgan edi.

— A...a?

— Men esam Buxoroi sharifga tahsil olgani ketgan edim.

— Akangiz o'sha damlarda ham oqposhshoga qarshi ekanlar-da, a?

Sabohiddin akasining surgun qilinishi sababini aytib o'tirmay, «ha», deb qo'ya qoldi.

— Aravadagilarni qaerga olib ketishyapti ekan?

— Xoliqberdi to'raga.

— Qotillar shular bo'lmasin tag'in?

— Ha, o'shalar ekan.

— Yo alhazar! Ular ham sho'rolardan-ku? O'zlarinikini ushlab berishibdimi?

— Sho'rolar deysizmi?

— Ha-da! Ikkitasini yaxshi taniyman. Biri melisada, bittasi chekadami, qo'mitadami ishlardi. O'shanisi bir kuni menga po'pisa qilgan. Voy, onangni ko'rgurlar-e, g'irt g'alamis ekan-da, a, bari? Ammo ushlab to'ramga topshirishlari durust bo'libdi.

— Nimaga?

— Qotillarni topshirishmasa, qirg'in bo'lishi turgan gap edi. Xudoga shukr, begunohlarning qoni to'kilmaydi endi.

Asr namozi yaqinlashgach, masjid atrofida odamlar ko'rindi.

Sabohiddin imomni topib, Buxoroi sharifdan duo olib kelganini aytdi. Imom maktubni olib o'pdi, ko'ziga surtdi-da, tokchaga olib qo'ydi. Namozdan so'ng gaplashamiz, deb gapni kalta qildi.

Sabohiddin tahorat olib namozga kirdi. Imom unga yonidan joy ko'rsatdi. Namoz tugagach, imom yig'ilganlarga qarab so'z boshladi.

— Muhtaram jamoa, bugun Marg'ilonimizga Buxoroi sharifdagi oliy madrasada tahsil ko'rib qaytayotgan mulla Sabohiddin Jaloliddin o'g'illari tashrif buyurganlar. Iqbolimiz kulganini qarang-ki, u kishi bizning masjidimizga qadam ranjida qilishni lozim ko'ribdilar. Oliy zotlarning suhbatlaridan, ilmidan bahramand bo'lgan mo'tabar mehmonimiz va'iza aytish istagini bildiriyaptilar. Biz ham muhtaram janobning amri ma'ruflariga muntazirmiz.

Sabohiddin imomga hayron bo'lib qarab qoldi. Imom esa uning taajjubini sezmaganga olib, yarim qulluq, yarim jilmayish bilan o'rnini bo'shatdi. Sabohiddin mudarrisning o'gitlarini eslab, Hud surasini tafsir qila boshladi. Va'z tugagach, poygak tomonda turgan yosh bir yigit uni savolga tutdi:

— Biz omilarni aybsitmaysiz, taqsir, ammo Olloh-taoloning to'fon yuborishiga oid bir rivoyatda to'fon qaytganidan keyin Tangri «Endi bandalarimni bunday azobga qo'ymayman», deb osmonu falakka kamalak ilgan ekan?

— Ayni rost.

— Agarchi, Olloh-taolo shunday qaror bergan ekan, shu topga kelib, ahdini buzib, qiyomatni yuborishi mumkinmi?

— Tangrim iymonini yo'qotmagan bandalariga rahm-shafqat qilib, shu qarorga kelgan edi. Toki iymonsizlar safi oshib borar ekan, Tangrimizdagi rahm-shafqat jomi g'azab zahriga aylanur va qiyomat qoyim boshlanur. Ammo Xudovandi karim hidoyatdagi bandalarini hech vaqt azobga qo'ymaydi. Olloh taborak va taolo Sod surasida marhamat qilib aytadiki, asta'izubillah: «am naja'lullaziyna amanuu va a'milus-salixati kalmufsiydiyna fil arzi am naj'alulmuttaqiyna kalfujjar», sadoqollohulaziyim. Ya'nikim, Haq-taolo deydikim: «Biz iymon keltirgan va yaxshi amallarni qilgan zotlarni Yerda buzg'unchilik qilib yuruvchi kimsalardek qilamizmi? Yoki taqvodor zotlarni fisqu-fujur qilib yurgan kimsalar kabi qilar ekanmizmi?» Alqissa shuki, iymon keltirganlar bilan iymonsizlar Olloh huzurida teng emaslar. Qiyomatdagi ajrlari ham bo'lakcha-bo'lakchadir.

— Taqsir imonsizlar, buzg'unchilar deganda sho'rolarni nazarda tutyaptilarmi?

Suhbatga imom aralashdi.

— Mulla Sabohiddin, izn bersalar, bu savolga men javob qilsam.

— Marhamat qilsinlar.

— Muhtaram jamoa, mulla Sabohiddin asli vodiidan bo'lsalar ham, keyingi uch yil badalida biz tomonlarga endi kelishlari. U kishi hali sho'rolarning qanday kishilar ekanini bilmaydilar. Shu bois so'rog'ingizga men o'zim bilganimcha javob beraman: sho'rolarning bari ham imonsiz emas. Imonlilari ham bor. Ammo ular yo'ldan adashganlar. Ahli muslimdan kimda-kim yo'ldan adashgan bir musulmon bandasini islomga qaytarsa, uning yetti gunohidan o'tilib, oxiratda qiynoq azoblaridan xoli etilur.

Agar uch gunohkor bandani yoʻldan qaytarsa, unga jannatning eng koʻrkam yeridan joy ato qilinur. Bu rasulillohning sharaflari hadislaridur va barchangiz uni dilingizga jo qilmogʻingiz darkor. Nainki dilga jo etish, balki koʻrgan, bilgan barcha birodarlaringizni bundan ogoh qilish burchingizdir. Robbimiz Olooh Qurʻoni azimushshanda marhamat qiladiki, atsaʼizubillah: «Va man yaʼmal minas-solixati min zakarin av unsa va huva muʼminun faulaika yadxulunal jannata va la yuzlamuna naqiyran», sadoqollohulaziyim. Yaʼnikim, kimki u xoh erkak boʻlsin, xoh ayol — moʻminlik holida savobli ishlar qilsa, aynan ular jannatga kirurlar va ularga xurmoning dumicha ham zulm qilinmagay.

— Taqsir, men bir narsaga tushunmay garangman,— oldingi qatorda oʻtirgan samovorchisi shunday deb imomga murojaat qildi. — Mulla Sabohiddinning akalari shoʻrolardan ekan. Mulla akalari yoʻldan adashgan hisoblaydilar yoki yomon deb biladilar?

— Siz bu gapni qaydan oldingiz?

— Uzoq ayriliqdan soʻng hali-zamon topishdilar. Omonlashganlariga koʻzim tushib edi. Akalari qotillarni Xoliqberdi toʻramga topshirgani olib ketayotgan ekanlar.

Bu gapni eshitib, imom Sabohiddinga oʻgʻrincha qarab oldi, ammo sir boy bermay javob qildi:

— Mulla Sabohiddin, yanglishmasam, akalari bu yoʻlga kirganlaridan bexabarlar. Akalari bilan hamsuhbat boʻlib, u kishining dilidagilarini bilmay turib, sizga tayin javob qilishlari mushkul, shundaymi, mulla? — Sabohiddin bu savolga yarim taʼzim bilan javob qildi. Imom mamnun bosh irgʻab soʻzini davom ettirdi: — Oloohdan umid qilamizkim, mulla Sabohiddinning akalari hali imonlarini yoʻqotmaganlar.

Boshqa soʻrovchilar qolmagach, odamlar tarqala boshlashdi. Imom Sabohiddinni gilam toʻshalgan hujraga boshladi.

— Men siz haqingizda avvalroq koʻp ibratli gaplar eshitib edim, — dedi u Sabohiddinni toʻrga oʻtishga taklif qilar ekan. — Chanoqqalʼadagi jihodda Olooh yoʻlida jang kilganingizdan ham xabardormiz.

— Lutfingizdan bagʻoyat minnatdorman. Ammo andek sarosimaga solib qoʻydingiz. Ilgaritdan ogoh etganingizda...

— Vaʼzdan ogoh etishni atayin ravo koʻrmadim. Siz endi mullavachcha emassiz. Jamoat hamisha sizning soʻzingizga mahtal turadi. — Imom shunday deb tokchadagi maktubni olib oʻqidi. Soʻng Buxorodagi yangiliklar bilan qiziqdi. Amir lashkarlaridan soʻz ochdi. Gap orasida Jamoliddin ismli askarboshini durust bilishini ham qistirib oʻtdi. Keyin: «Yotadurgan yeringiz bormi?» deb soʻradi.

— Akamning diydoriga toʻysam, degan niyatdaman,— dedi Sabohiddin shikasta bir ohangda.

— Bagʻoyat toʻgʻri fikr qilibsiz. Agar akingiz shayton vasvasasiga tushgan boʻlsa, u kishini haq yoʻlga solishga qudratingiz yetadi, degan umiddaman.

— Insha Olooh.

— Siz uyingizga oshiqmay, avval Xoliqberdi toʻramning huzurlariga borasizmi?

— Sabab? — Sabohiddin imomga yarq etib qaradi. Qalin qoshlar soya tashlab turgan koʻzlarda makr koʻrdi. Goʻllik bilan toʻrga ilingan saydini mamnun bir kayfiyatda kuzatayotgan sayyodning kulgisini imomning yupqa lablarida koʻrdi.

— Buxorodagi oliy zotlarning istagi shunday. Toʻramning huzurlarida qanday yumushga chorlanishingizni oʻsha yerda maʼlum qiladilar, — dedi imom unga sinov nazari bilan qarab. — Maktubda zikr etilishicha, oliy zotlar Maʼmur boyvachchaning asl qotilini bilar ekanlar.

Bu gapni eshitib Sabohiddin imomga burgut qarash qildi.

— Bilsalar, nima qilibdi? — dedi zardasini yashirmay.

— Ular yopig'liq qozon yopiqligicha qolsin, mullaning sha'niga dog' tushmasin, deyaptilar.

Bu gapni eshitib, Sabohiddin avvaliga tildan qolganday bo'ldi. G'azabga bandi bo'lib qolmaslik uchun kalima qaytarganicha dasturxonni g'ijimladi. Imom uning barcha harakatlarini xotirjam kuzatardi. Shuning uchun ham u o'zini bosishga harakat qildi:

— Taqsir, Buxorodagi oliy zotlarga maktub bitar bo'lsangiz, ikki og'iz so'zim bor, qistirib o'ting. — U ovozi titrayotganini sezib, ozgina sukut saqladi. — Aytingki... ular men uchun bo'lak qayg'urishmasin. Yana aytingki, men gunohim uchun faqat Tangri oldida hisob beraman. Ollohdan bo'lak hech bir kimsa gunohimni pesh qilib meni qo'rqita olmaydi. Mulla Sabohiddin gunohidan cho'chib, Xoliqberdi to'raning xizmatiga majbur bo'ladi, desalar qattiq yanglishadilar. Men jonimni haq yo'lga tikkanman, buni unutmashinlar.

— Mulla, esingizni yig'ing.

— So'zimni bo'lmay eshiting: men — Muhammadur Rasullilloh ummatidanman. Jonim bitta ekan-ku, mingta bo'lsa ham islom yo'lga qurbon qilishdan qaytmayman. Islom lashkarlariga xizmat qilishday sharafiga yetkurgani uchun Ollohga ming qatla shukr. Shu so'zlarimni yozing. Sabohiddinni go'dak fahmlamasinlar.

Shu bilan suhbatga yakun yasaldi. Sabohiddin yana samovarga chiqdi. Marg'ilon bag'rida shabada yugurgilagach, yo'l-yo'l ishtonining pochasini himarib olgan bo'z yaktakli o'spirin atrofga suv sepdi. Kun bo'yi quyosh zaptiga bandi bo'lgan yerning tafti ko'tarildi. Samovar asta-sekin gavjumlashdi. Odamlar bugungi dafn marosimi haqida, yurtning besaranjomligi to'g'risida suhbatlashishar, gapga aralashmay jimgina o'tirgan Sabohiddinga xavotir ko'zi bilan qarab qo'yishardi. Sabohiddin choynakni yarimlatmay, samovarchi yangilab keldi.

— Zerikmayapsizmi, taqsir, bir juft qo'shiqqa tobingiz qalay, Rustam qori kelganlar, — samovarchi Sabohiddindan javob kutmay, o'ng tomondagi so'rida o'tirganlarga qarab baland ovozda: «Qani, qori pochcha, bir eshitaylik», dedi.

Atrofdan: «Ha, bir eshitaylik», «Yurakni qon qiladig'onidan bo'lsin», «Eshitganlar murodlariga yetsinlar», degan ovozlari keldi. To'rda o'tirgan ko'zlari yumuq, cho'tir yuzli, to'ladan kelgan kishi yonini paypaslab tanburni oldi. Uni baxmal g'ilofdan chiqarib, sozladi. So'ng hazin kuy yangradi. Go'yo tanbur simlari emas, o'tirganlar qalbida g'ubor bosgan torlar chertildi. Barcha, jumladan, Sabohiddin ham ajib bir sirli holat pardasiga burkaldi. Bugungi marosim ham, alg'ov-dalg'ovlar ham unutildi. Go'yo hech yerda urush-janjali yo'q, go'yo hech yerda qon to'kilmayapti, go'yo hech kim alam bilan boshini toshga urmayapti. Go'yo dunyoda hech gap yo'q. Faqat olamda shu so'lim samovarxona mavjud. Go'yo yer yuziga tanburdan taralayotgan shu kuygina hukmron. Yo'q, faqat kuy emas, shirali ovozda aytilgan qo'shiq ham bor. Ana, kuy pastlab, qori qo'shiq ayta boshladi:

*Sening ishqingda, ey nomehribon, bexonumon bo'ldum,
Demon bexonumon, ovorai ikki jahon bo'ldum.
Labing gar bermasa bo'sa, nechun jon elta olg'ayman,
Bu yo'ldakim adam sahrosig'a emdi ravon bo'ldum.*

Qo'shiq tugadi. Oraga jimlik cho'kdi. Tinglovchilar ashula sehridan qutulib, ijrochiga olqish aytishga ulgurmay ikkinchi qo'shiq boshlandi:

*Qani Shirin bilan Layliki, sendin noz o'rgansa.
Qani Farhodu Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam...*

Tanburning zir titrayotgan torlari, hofizning nolali ovozi hammani bandi qilib qo'ygan, ayniqsa vodiyning qo'shiqlarini, vodiyning gurunglarini sog'ingan Sabohiddinni sehrlab olgan edi. Garchi Buxoro bilan Farg'ona osmoni bir bo'lsa-da, Sabohiddin kindik qoni to'kilgan yerni ko'p qo'msardi. Xatm kutubni orziqib kutardi. Ota-onasi bag'riga intilardi. Uyiga mulla yigit bo'lib kirib kelishni, xonadonidagi shodiyonani kunda turlicha tasavvur etardi. Dunyoning nomardligini qarangki, uning qaytishi notinch kunlarga to'g'ri kelibdi. U Chanoqqal'ada ekanida: «Tanamni qirqqa bo'lib, osmonga sochib yuborsalar ham mayli, daydi shamollar birgina bo'lagimni uchirib, qishlog'imga tashlab o'tsa, mingdan-ming roziman», deb xayol qilardi. Shukrki, ota-onasi bag'riga to'rt muchasi sog' qaytyapti. Yana oddiy mulla emas, islom lashkarlarining murodbaxsh rahnamolari qanotiga kiruvchi e'tiborli odam sifatida qaytyapti. Musulmon bolasi uchun bundan bo'lak ulug'roq ajru saodat bormi?

Sabohiddin qo'shiq sehrida shularni o'ylardi. O'yi nihoyasiga yetmay qo'shiq uzildi. Otlarning dupuri eshitildi. Yurak ezgulikka qonmadi.

— To'ram! — dedi samovarchi. — Toqqa chiqib ketyaptilar shekilli?

— Xoliqberdi to'ra qaysi birlari? — deb so'radi Sabohiddin.

— O'zlari ko'rinmaydilar.

Go'yo yerdan qaynab chiqayotganday otliqlarning keti ko'rinmas edi. Samovarxonadagilar fotiha o'qib, asta-sekin tarqala boshlashdi. Qori ham tanburni g'ilofga soldi.

— Odamlarning tinchi buzildi?

— To'ram shahardan ketsalar, osoyishtalik yo'qoladi, taqsir. To'ram ketdilar, talonchilik boshlandi, deyavering.

— Sho'rolar talashadimi?

Samovarchi savolni eshitmaganday gapni burdi:

— Taqsir, agar yotadigan yeringiz bo'lmasa, shu so'riga joy qilib beray.

Sabohiddin unga mehribonchiligi uchun rahmat aytdi. Samovarchi eskiroq ko'rpacha, qattiq yostiq keltirdi. Sabohiddin yonboshlab yotib, akasini esladi. O'sha mash'um kechada akasi bilan bo'lgan so'nggi uchrashuvi ko'z oldiga keldi...

U Ma'mur boyvachchaga pichoq urib to'g'ri uyiga yugurdi. Bo'zaxo'rlikdan sarmast qaytgan Jamoliddin eshik og'zida turgan edi. Hansiragan ukasining qo'lidagi pichoqni ko'rib hayratda qoldi. Uni tez ichkariga oldi.

— Nima gap?

— Boyvachchani o'ldirdim.

— Nimaga?

— Oilamiz nomusini pokladim!

— Tentak! — Jamoliddin shunday deb ukasining yuziga shapaloq tortib yubordi. Sabohiddinning qo'lidagi pichoq uchib, yerga tushdi. Aka-ukaning ovozini eshitib, uydan dadasi chiqdi. Voqeani bilgach, karaxtlanib turib qoldi. Bu orada ko'cha tomonda sharpa sezildi. Eshik taqilladi. Jaloliddin yurak yutib eshikni ochdi. Ro'parada Sultonmurod ko'rib, sarosimasi bir oz bosildi. Sultonmurod ostona hatlamay turib, bosh suqqanicha ichkariga mo'raladi. Hovli o'rtasida qotib turgan aka-ukalarni ko'rib, manzirat kutmayoq, ichkariga kirdi. Sabohiddinning yaktagidan siltab, o'shqira ketdi:

— Bu nima qilganing, gumroh! Qaysi iblisning vasvasasiga kirding, badkirdor!

— Hay, hay, jon taqsirim, devorning ham qulog'i bor-a... — Jaloliddin uning odatini yaxshi bilgani uchun yalinishga tushdi. Sultonmurod yagona guvoh. Ota uning og'zini yopish uchun hamma narsaga rozi edi. Sultonmurod, anchagacha poklik va haromlik

haqida va'z o'qidi, ora-sira Sabohiddinni la'natlab ham qo'ydi. Nihoyat, «gunohga sherik bo'lishga» ko'ndi.

— Men sizni deb gunohga botyapman, Jaloliddin. Sizday olihimmat odam uchun do'zax otashida kuyishga ham tayyorman, — dedi u oxiri, — ammo Xudo yo'lga bir nima atamasangiz bo'lmaydi.

— Tilaganingizni beraman, — dedi Jaloliddin ishning yengil ko'chganidan quvonib.

— Ataganingiz-da...

— Yo'q, o'zingiz ayting. Jonimni so'rasangiz ham beraman.

— Joningiz o'zingizga, ana, bolalaringizga buyursin. Xudo yo'lga qorabayiringizni atasangiz, bas.

Jamoliddin bu gapni eshitib titrab ketdi:

— Bekor aytibsiz! — dedi u, taqsimni yeb qo'ygudek bo'lib.

— Sen tek tur, — dedi Jaloliddin uni nari itarib. Keyin Sultonmurodga yuzlandi: — Jon taqsimim, siz otni nima qilasiz. Axir uloq chopmaysiz-ku?

— Ot menga emas, Xudo yo'lga. Olloh ko'nglimga shuni soldi. Nima qilay?

Keyingi ikki yil ichida butun O'sh, Andijonu Marg'ilon atrofida Jamoliddinning qorabayiri oldiga tushadigan ot topilmayotgan edi. Qaysi bir uloqda qorabayir ko'rindimi, tamom, manaman degan chavandozlar ham sovrindan umidlarini uzadigan bo'lib qolgandilar. Qorabayirning bahosi kun sayin oshib borar, qirg'izlar u yoqda turib, Toshkentning etagidagi qozoqlar ham xaridor bo'lib kelaverib Jamoliddinni bezor qilib yuborishgandi. Sultonmurod buni yaxshi bilardi. Shuning uchun ham «xudo uning ko'ngliga aynan shu qorabayirni solgan» edi. O'tkir nafasi yoki zehni bilan emas, xasisligi va pastkashligi bilan nom chiqargan Sultonmurodning bu talabi Jamoliddinni butunlay hushidan ayirdi.

— He, o'sha ko'nglingga uray seni... — deb hezlanib kela boshladi. Otasining hay-haylashiga ham qaramadi. Hali esini yig'ishtirib ololmagan Sabohiddin nima qilarini bilmay joyida tek turaverdi.

Qishloq imomi esa, Jamoliddinning vajohatidan qo'rqib, orqasiga tisarildi. Boshini kesakiga urib olib, sallasini tushirib yubordi. Jaloliddin eshikka ko'ndalang turib, o'g'lining yo'lini to'sdi.

— Jon bolam, qo'y, bu shahdingdan qayt. Ukangni o'yla, jon bolam, juvonmarg bo'lmasin.

Jamoliddin shundagina xushiga keldi. Nima qilib qo'ydi? Achchiq ustida otiga jon kuydirib, ukasini o'ylamapti-ku?! Bu rasvo bir baloni boshlamasa edi.

— Chaqiring, olib ketsin, — dedi Jamoliddin bo'g'ilib. U hovli o'rtasida mung'ayib turgan ukasiga botinib qaray olmadi.

Jaloliddin Sultonmurodning izidan tushdi. Ammo u qorong'i muyulishda ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Jaloliddin uning izini yo'qotib, garang bo'lib turganda Ma'mur boyvachchaning ko'chasi tomonda imomning jaranglagan ovozi eshitildi:

— Ayyuhannos, musulmonlar! Ayyuhannos! Bu qanday bedodlik! Jaloliddinning kenjasi Ma'mur boyvachchani o'ldirib qo'ydi!

Bo'lar ish bo'lgan edi. Jamoliddin: «O'g'limni qochirib yuboraman», degan xayolda uyiga oshiqdi. Sultonmurodning ovozini eshitgan aka-ukalar garangsib hamon hovlida turishardi.

— Qoch, o'g'lim, toqqa chiqib ket. G'or tomonga bor. Erta-indin o'zim topaman seni, — dedi Jaloliddin halloslab kirib. — Qorabayirga min, yetisholmaydi.

— Ha, bo'laqol, — dedi Jamoliddin otasining gapini ma'qullab. Keyin otxona tomon yurdi-yu, dam o'tmay to'xtadi. «Yo'q, qochish foydasiz», dedi o'zicha fikrlab. So'ng ukasiga yaqinlashdi. — Yaktagingni yech.

— Nimaga?

— Yech deyapman! — Jamoliddin uning yengidan siltab tortdi. Sabohiddin dovdiraganicha qon sachragan yaktagini yechib akasiga berdi. Jamoliddin uni kiyib, yerda yotgan pichoqni oldi-da, «uningni o'chir», deb ko'chaga chiqdi. Yugurib kelayotgan olomon uni ko'rib, to'xtadi.

— Ma'mur boyvachchaga kim qasd qildi? — dedi oldinda mash'ala ushlagan yigit.

— Men. Uning qoni bilan nomusimni pokladim.

— Yolg'on gapirma. Ukangni chaqir!

Odamlar asta bostirib kela boshlashdi.

— Yaqinlashma! Kelganingni chavaqlayman! — deb hayqirdi Jamoliddin. Olomon to'xtadi.

— Taqsir qanilar? — dedi haligi yigit. Olomon orasidan Sultonmurod chiqib keldi. — Qarang, qotil shumi?

U Jamoliddinga uzoq tikilib qoldi. «Ukasini saqlab qolmoqchimi? Ayni muddao. Ham undan qutulaman, ham ukasini jilovlab olaman. Qariganimda asqotadi», deb o'yladi. So'ng past ovozda: «Ha, shu. Qorong'ida ko'zim aldabdi. Ana, yaktagi ham qon. Ukasi emas, shu o'ldirgan», dedi.

— Qonga qon! — dedi yigit.

— Zinhor! — dedi Sultonmurod qo'lini baland ko'tarib. — Zinhor ozor yetkaza ko'rmang. Gunohi bo'lsa, Ollohning o'zi jazolaydi. Bandaga ozor berib siz ham gunohga botmang. Shariat peshvolari uning aybiga yarasha jazo bergaylar. Zinhor qo'l tekkiza ko'rmanglar.

Jamoliddinni mahkamaga boshlab ketdilar. Sabohiddinning dardi ichida qoldi...

Shundan beri necha marta o'rik gulladi, necha marta sel keldi, dunyo ostin-ustun bo'lib ketdi. Ammo olomon oldiga tushib borayotgan akasi sira ko'z o'ngidan ketmaydi. Sabohiddin qilmishining to'g'ri yo noto'g'riligi, akasining ne sababdan azoblarga ro'para bo'lgani to'g'risida ko'p o'yladi. Biroq, kalavaning uchini topa olmadi...

Uzoq yo'l azobi ta'sir qilib, Sabohiddinning ko'zi ilingan ekan, otlarning dupuridan cho'chib uyg'ondi.

— Tozza kutdingmi? — dedi Jamoliddin otdan tushar ekan. — Xafa bo'lma, To'ra bir oz suhbatga tutib qoldi.

— Xoliqberdi to'rami? — Sabohiddin «yanglish eshitdim shekilli?» deb akasiga ajablanib qaradi.

— Ha. U bilan eski oshnachiligim bor, — dedi Jamoliddin ukasidagi hayratni sezmay.

— Xoliqberdi to'ra bilan-a?!

Jamoliddin kuldi. Ilgarilari kulganda ko'zlari qisilib, yumilib ketay derdi. Hozir ham shunday bo'lgan-bo'lmaganini Sabohiddin qorong'ida bilolmadi.

— Ha, Xoliqberdi to'ra bilan. Sibirda bir ushoqni bo'lib yeganmiz.

— Sibirda? Xoliqberdi to'ra Sibir qilingan ekanlarmi?

— Xoliqberdi asli to'ralardan bo'lsa ham jangari ekan. Shunaqangi jangariki, uch paxsali devorga minib, «chuh» desa, devor ham yurib ketarkan. — Jamoliddin shunday deb yana kuldi. — Hayit kuni jig'iga tekkan pristavni bir urib, joylab qo'ya qolibdi. Qani, yur, boraylik endi.

— Qaerga?

— Kazarmaga boramiz.

— Qaerga?

— Askarlar yotadigan joyga.

— Kofiru musulmon aralash yotaverasizlarmi?

— Qoʻrqma, sen kofirlarga aralashmaysan. Yuraver, mening uyim boʻlak.

Kazarma Margʻilonning kunchiqar tomonida, qaysi bir boyning yozlik qoʻrasida edi. Manzilga yetgunlaricha aka-uka bir-birlariga deyarli soʻz qotmadilar. Sabohiddin faqat ota-onasining salomatligini soʻradi. Jamoliddin uyga ikki oy oldin borgan ekan, tayin javob aytmadi. Kazarmaga kelishgach, Jamoliddin darhol dasturxon yozib, choy-non olib keldi. Aka-uka bir-biriga tikilib gapni nimadan boshlashni bilmay qolishdi. Afatidan, oradagi olti yillik ayriliq bejiz ketmagan edi. Suhbatlari dastlab qisqa savol-javobdan nari oʻtmadi.

— Sibir deganlari doʻzaxning oʻzi emish, shu rostmi? — deb soʻradi Sabohiddin. Aslida, u: «Sibirda yurib koʻp azob chekdingizmi?» deb soʻramoqchi edi. Dabdurustdan shunday savol berishni nooʻrin deb bilib, gapni aylantirdi.

— Doʻzax emas, — dedi Jamoliddin ukasining niyatini anglab, — doʻzax boʻlsa koshki edi, jilla boʻlmasa isinib olardik. Juda sovuq yerlar ekan. Yozining ham tayini yoʻq. Lekin odam har narsaga chidarkan.

— Siz Sibirda, men bu yerda azobda qoldim, aka. Yaktagimni yechib berganim uchun hali-hali armon qilaman.

— Bu gaplaringni qoʻy, uka. Loyqa suvlar oqib oʻtib boʻldi. Endi pokiza suvlarni rohat bilan shimirish payti keldi.

— Aka, oʻtgan ishning toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanini Tangrining oʻzi baholaydi. Lekin men bir savolga javob topolmayapman.

— Nimani soʻramoqchi boʻlganingni bilib turibman. Sen ne sababdan qotillikni boʻynimga olganimni bilmoqchisan, shundaymi?

Sabohiddin tasdiq ishorasini qildi.

— Sen Maʼmur boyvachchani mening nomusim uchun oʻldirding. Mening beparvoligimdan sendagi jangarilik ustun keldi. Buning uchun oʻzim jazo tortishim kerak edi.

— Meni ayamadingizmi?

Jamoliddin ukasining yelkasidan quchdi.

— Kel, endi bu haqda gaplashmaylik. Bu ishda sening aybing yoʻq. Taqsiring, hammasi Xudoning irodasi, deydi-ku. Mana, sogʻ-omon diydor koʻrishdik. Shuning oʻzi katta gap!

Akasining Xudoni piching bilan tilga olishi Sabohiddinning gʻashiga tegdi.

— Aka, shoʻrolarning bari xudobezor, benamozlarmi?

— Hammasi emas.

— Imonlilari bormi?

— Hammasi imonli.

— Tushunmadim?

— Imon deganing eʼtiqodni anglatsa, safimizdagilarning hammasi eʼtiqodli. Ayrimlar Xudoga ishonishmaydi. Ularning eʼtiqodlari haqiqatda.

— Xudoga ishonishmasa, oxiratda...

— Ular oxiratga ham ishonishmaydi.

— Astagʻfirulloh! Odamda ishonch boʻlmasa aqldan ozadi!

— Bizda ishonch yoʻq, deb kim aytdi senga? Bizning ishonchimiz senikidan mustahkamroq. Biz mavhum narsaga emas, oʻz gʻoyalarimizga, irodalarimizga, qilayotgan ishlarimizning foydali ekaniga ishonamiz. Senlarda esa bu ishonch yoʻq. Sen oʻz kuchingga ishonasanmi? Yoʻq. Ollohdan marhamat kutasan. Irodangga-chi? Yoʻq. Tangrim bergan taqdir, deysan. Qilayotgan ishingning foyda-ziyonini ham bilmaysan. Oxiratda xudo ajratib oladi, deb javrayverasan.

Sabohiddin akasiga qarab angrayib qoldi. O'ngimi, tushimi? O'z jigarimi bu yo akasi libosidagi shaytonmi? Uning tili tanglayiga yopishib qolganday bo'ldi.

— Ha, og'zingga talqon solib olding? To'g'ri gapni tan olishga bari bir majbur bo'lasan.

— Jim qolganim rizo alomati emas. Sizdan shunday gaplar chiqishiga aqlim lol. Fursat borida tavba qiling!

— Hayot shunaqa ekan, uka. Azob tortmaguncha oq-qorani tanimay, ko'r bo'lib yuraverar ekansan. Sen ham ko'zingni och. Xudoga sig'inib yuraverma.

— Aka! Menga bunday gaplarni ayt mang! Odam yaratganiga sig'inmasa, kimga sig'inadi?!

— Haqiqatga sig'in, mehnatga sig'in. Odamning butun baxti ham, hayoti ham haqiqat bilan halol mehnatda.

— Aka, demak, siz ham...

— Ha, ishonmayman. Kalima keltiraver. Yana aytaman: ishonmayman... Xudo sen aytgancha chindan bor ham bo'lsin. Arshi a'loda suzib, yerdagi voqealarni kuzatayotgan ham bo'lsin. Lekin unda insof bormi? Mukofotlanishi kerak bo'lgan odamni jazolaydigan, jazoga loyiq odamning boshini silaydigan Xudo kimga kerak? Mengami? Yo'q. Sengami? Senga ham kerak emas. Lekin sen buni tushunmaysan. Madrasada ko'zingga tuproq sochib ko'r qilib qo'yishgan. Ha. Yuzingdagi ikki ko'zingda nur bor. Yuragingdagi ko'zlaring esa ojiz. Qani ayt-chi, qaysi kambag'alning fig'oniga Xudo quloq tutdi? Har bir kalimalaring «karomatli, shafqatli, rahmdil Olloh» deb boshlanadi. Xo'sh, biz Xudoga nima yomonlik qiluvdik? Qaysi gunohlarimiz evaziga bu azoblarni bizga ravo ko'rdi? Indamaysanmi? Ha, javob bera olmaysan. Chunki men haqman. Hozir miyang zaharlangan, ularni tushunib yetishing qiyin. Bora-bora mening haq ekanimga imoning komil bo'ladi. Biz kambag'allarning kosasi oqarsin, deb kurashyapmiz. Sen ham kambag'alning bolasisan. Lekin safimizga qo'shilmaysan, buni yaxshi bilaman. Men bilan birga bo'l, deb tashviq ham qilmayman. Faqat ikki qulog'ingga quyib ol: bosmachilarga qo'shilma. Qo'shilsang, oramizga qilich tushgan bo'ladi. Jangda otilgan o'q aka-ukani ajratib o'tirmaydi.

— Axir, aka...

— Gapim esingdan chiqmasin. Sen bir vaqtlar oilamiz nomusi uchun qayg'urgan eding. Jangari eding. Maxsimchalik senga yarashmaydi.

Bu gaplar oddiy so'zlar yig'indisi emas, balki uchi zaharga botirilgan kamon o'qlari kabi edi. Bu o'qlar Sabohiddinning yuragiga sanchila qolsa mayliga edi, o'lardi-yu, bu ruh azobidan qutulardi. Yo'q, ro'parasidagi akasi emas, akasining qiyofasiga kirgan shayton alayhila'na. Zaxarli so'z o'qlari esa Sabohiddinning miyasiga sanchilib, butun vujudni o'yib, kuydirib o'tib so'ng tovonni teshib, o'pirib chiqib ketyapti.

Akasi Ollohdan yuz o'g'iribdi. Endi akasi iymonga qaytmasa, undan yuz o'g'irmoqqa majbur. Yaratganni tanimay qolgan inson tirik o'likdir. Sabohiddin bu gaplarni akasiga aytmoqchi bo'ldi, ammo ukalik haddi bunga yo'l bermadi. U payg'ambar alayhissalomning «Ollohn yod qiladigan bilan yod qilmaydiganning o'rtasidagi farq tirik bilan o'lik o'rtasidagi farq kabidir», degan muborak so'zlarini bu onda tilga ko'chirmak uchun o'zida qudrat topa olmadi. Buni o'z iymonining ojizligidan deb bilib, yanada ezildi.

U haj amallarida shaytonga tosh otmoqlik qanchalar shart bo'lsa, bu onda akasining qalbida muhrlangan iblisga qarshi isyon qilmoqlik shunchalar zarurligini his qilib, lozim so'zlarni aytmoqqa shaylanib turganida eshik taqillab, askar yigit kirdi-da, Jamoliddinni komandir chaqirayotganini aytdi. Jamoliddin anchagacha yo'q bo'lib ketdi. Sabohiddinga quyilgan choy sovidi. U butkul karaxt bo'lib qoldi. Akasining kirganini ham sezmedi.

— Afsus, ukajon, tezda yo'lga chiqishimiz kerak ekan. — U shunday deb aslahalarini taqa boshladi. — Uyga borib dadamga, buvimga, singlimga salom ayt. Meni sog'-omon

yuribdi, de. Qattiq gaplarim ko'nglingga og'ir botmasin. Ertami-kechmi haqiqatni bilib olishing kerak. Hozir chaynaladigan zamon emas. Shuning uchun dangal-dangal gapirdim-qo'ydim. — U Sabohiddinni bag'riga bosib xayrlashdi. — Shu yerda damingni ol. Navbatchi yigitlarga tayinlab qo'ydim. Aytmoqchi, — Jamoliddin jilmaydi, — choydan ich, namozxon yigitlar damlagan. Faqat ularning boshini gangitib o'tirma.

Jamoliddin shu gaplarni aytib, chiqib ketdi.

Sabohiddin it azobida tong ottirdi. U kalavaning uchini yo'qotib qo'ygan edi. Akasi, Xoliqberdi to'ra... Qachondir hamnafas bo'lgan ekan. Endi bir-biroviga yov. Yov bo'la turib bordi-keldi qiladi. Xoliqberdi to'ra islom yo'lida shamshir ko'targan. Bular esa... Ertaga u Xoliqberdi huzurida bo'ladi. To'ra albatta akasidan so'z ochadi. Qanday zamon bo'ldi o'zi?.. Sabohiddin ko'zini yumdi. Qo'ynilarini yong'oqqa to'ldirib, ko'cha changitib yurishlarini esladi. Kunduzi aka-uka bir bo'lib boshqa ko'cha bolalari bilan yong'oq o'ynashardi. Goh yutib, goh yutqizib, goh yarashib, goh mushtlashib qaytishardi. Jamoliddin ukasini boshqalardan himoya qilib jiqqamusht bo'lardi. Jahli chiqqanida esa Sabohiddinni ham ayab o'tirmasdi. Oqshom chog'ida ikkovlon hovlida o'ynashguday bo'lsa, Sabohiddin yong'og'ini yutqizib qo'yib, g'irromlik qilar, keyin yig'lar, oraga onasi tushgach, yong'og'ini qaytarib olar, ammo quloq cho'zmadan ham quruq qolmasdi.

Sabohiddin shularni eslab, entikdi. Akasi unga «Miyang zaharlangan», dedi. Sabohiddinning fikricha esa aslida akasining ongi zaharlangan edi.

«Choyni yangilab beraymi?» deb kirgan yigit Sabohiddinning xayolini to'zitib yubordi. Sabohiddin bunga hojat yo'qligini aytdi-da, iziga qaytmoqqa shaylangan yigitni to'xtatib, so'radi:

— Tinchlikmi? Biron yerni yov bosibdimi?

— Ha, Muhiddin qo'rboshi O'shga yopishibdi chog'i.

Yigit gapni qisqa qilib, chiqdi. Sabohiddin «yov bosdimi?» deganda beixtiyor sho'rolarni nazarda tutgan edi. Yigit esa ayni shu beixtiyorlik bilan qo'rboshini tilga oldi. «Yov» deyilganda ularning ikkovlari ikki olamni nazarda tutdilar. Ammo Sabohiddin bunga e'tibor bermadi. Uni boshqa narsa tashvishga soldi:

...demak, akasi jangga ketibdi.

...demak, hayoti qil ustida.

...demak, bittagina daydi o'q uni kofir sifatida...

Shu fikr xayoliga keldi-yu, badaniga muz yugurdi. Shayton vasvasasidan qutqarishni so'rab Ollohga yolg'ibdi. Yana akasining jonini omon saqlashni, unga hidoyat bermoqlikni so'rab, duo qildi. Duo qildi-yu, biroq, ko'nglining bir chetida iltijolari ijobat bo'lmasligini sezib, kuyundi. Ibrohim alayhissalom kofir otalarini mag'firat etmoqlikni Ollohdan so'raganlarida duolari qabul bo'lmagan ekan. Payg'ambarningki duosi qabul etilmasa, Sabohiddinniki nima bo'lar ekan? Ollohga tavakkul qilmoqdan o'zga chora yo'q.

Sabohiddinning qulog'iga kimdir pichirlaganday bo'ldi: «Innahu man ya'ti Robbahu mujriman fainna laxu jahannama la yamutu fiyha va la yahyaa»³. Qur'on oyatlari Sabohiddinni titratib yubordi. U yana duo qildi. Akasiga hidoyat va yana hidoyat tiladi. So'ng o'sha ovoz yana pichirladi: «Vallaziyana kafaruu a'maluxum kasarabi biqiy'ati yaxsabuxuz zam'anuu maa xatta iza jaaxu lamyajidxu shay'an va vajadollaxa i'ndaxu favaffaxu xisabixu valloxu sariy'ul xisab. Av kazulumoti fi naxri lujjiyya yag'shahu mavjun min favqiyxi mavjun min favqiyxi saxabun zulumatun ba'duxa favqa ba'din iza

³ «Hech shubha yo'qki, kimda kim Parvardigorining huzuriga kofir holida kelsa, albatta, uning uchun jahannam bor: u joyda u na o'la olur va na yashay olur». (Toho surasi, 74-oyatining ma'no tarjimasini).

uxraja yadaxu lamyakadu yaraxa va man lam ya'jalilloxu laxu nuran fama laxu min nuriyn».⁴

Aslida hech kim pichirlamagan, Sabohiddinga deyarli yod bo'lib ketgan Qur'oni karimning bu oyatlari beixtiyor ravishda xayolini yoritgan edi.

Akasi sahroda adashgan tashna odammi? Sarobni suv deb intilyaptimi? Qoqilyaptimi, yiqilyaptimi, a'zoyi-badanlari tilinyaptimi? Suv deb o'ylagani sarobga yetib borgach, qiyomatda nimaga erishadi? Ollohning hisob-kitobiga...

Sabohiddin sho'rolarning kuchi nechog'li ekanini bilmaydi. Ammo maqsadlaridan xabari bor. Salimxo'ja bilan bu xususda ko'p bahslashishgan. Akasining gaplariga qaraganda, Salimxo'ja to'g'ri so'zlagan. Shunday ekan, akasi sarobga intilib yashayapti. Akasi bir-ikki gap bilan yo'lidan qaytuvchi go'dak emas. Ammo qachondir boshi devorga borib tegadi. Xudoni g'azabga keltirgan onida undan marhamat kutish qiyin...

Akasi endi nurdan mahrum etilganmi, umid yo'qmi? Tubsiz dengiz ostidagi qorong'u zulmatda qoldimi? Bu dengiz ustini yana katta to'lqin qoplab olganmi? Zulmat ustiga yana zulmat... Bu ham yetmaganday uning ustini yana bulut bosgan... Bu zulmatlar ostidagi odam Ollohning nurini ko'ra olarmi ekan? Hatto o'z qo'lini ko'ra olmasa... Nahot shu azoblardagi odam uning akasi?!

Shularni o'ylagan Sabohiddin beixtiyor pichirladi:

«Najot ber, Robbim, o'zing hidoyat ber akamga...»

Ertami yo indin Sabohiddin intilib kelgani islom lashkarlari qarorgohiga yetadi. Musulmonlarga omonlik, kofirlarga ofat tilab duolar qiladi. Demak, akasiga ham... ofat tilaydi. Qanday bedodlik o'zi bu!..

Sabohiddin shularni o'ylab to'lg'anardi...

* * *

Rhaq biotok oqimlari ma'lum qilgan bu voqeaning quruq bayoni bilangina tanishdi. U faqat Sabohiddinning akasi bilan uchrashganini va ayri-ayri maqsad yo'lida ajrashganlarinigina biladi. Voqeaning asosiy bayoni bilan u keyinroq, Sabohiddinni Keskanbel qishlog'idan topgach, tanishadi. Hozircha u uyqudan uyg'ongan hamrohlari bilan Yerga tushish uchun tayyorlanishi kerak. Ko'p o'tmay yassi kemadan olti kichik kemacha ajralib, odam qiyofasiga kirgan tangliklarni Yer sari olib uchadi. Rhaqning kemasi avvalgiday Qizilqum markaziga qo'nadi. Uning ixtiyorida Yer hisobicha, roppa-rosa bir yil vaqt bor. Shu bir yil ichida u Tang bilan ham, Yerning bo'lak nuqtalariga tushgan hamrohlari bilan ham aloqa qilmay, mustaqil ish ko'rishi mumkin. Markazning belgilangan rejasi shunday. Rhaq birinchi galda eski tanishlarini izlab topishi kerak.

DEVONA

Rhaq shaharga yaqinlashgach, xaroba devorni ko'rib ko'zlariga ishonmay qoldi. Yer vaqti bilan yigirma yildan ziyodroq vaqt ichida ko'rkamlashish o'rniga ortga ketgan shaharning manzarasi uni behad ajablantirdi. Rhaq odamlarning yurish-turishiga qarab ko'p narsa o'zgarganini sezdi. Shuning uchun hech kim bilan hamsuhbat bo'lmay, shahar aylandi. Buxoro sirtidan qaralsa, aytarli o'zgarmagan edi. Lukn tik chiqib tushgan minora ham o'shandayicha turibdi. Yo'q, sharafasi sal-pal yemirilibdi. Nimadir urilganga

⁴ Kufirda bo'lganlarning qilgan amallari esa sahrodagi sarobga o'xshaydi. Tashna odam uni suv deb o'ylaydi, uning oldiga kelgach esa hech narsa topa olmaydi va Ollohni qilgan amalining oldida topur. Olloh tez hisob-kitob qiluvchidir. Yoki kofirlarning qilgan amallari ustma-ust to'lqin va uning ustini qora bulut qoplab olgan dengizdagi zulmatlarga o'xshaydi. Ular ustma-ust zulmatlardir: qo'lini chiqarib qarasa, uni ko'ra olmas. Kimga Olloh nur-iymon bermasa, bas, uning uchun hech qanday nur yo'qdir». (Nur surasi 39-40 oyatlarining ma'no tarjimai).

o'xshaydi. Sabohiddin o'qigan madrasadan fayz ketgan. Mullavachchalar ko'rinmaydi. Hujralarga yamoqchilar joylashibdi. Hovuzdagi suv ancha tiniqlashibdi. Atrofga yog'och so'rilar qo'yilgan. Odamlar choy ichib, gurunglashib o'tirishbdi. Odamlar zohiran osoyishta edilar. Botinan esa hadik va alam yog'ida qovrilib yashardilar. Kulgu bilan ko'z yoshlari qorishib ketgan edi. Rhaq ularga yaqinlashib, gurunglariga quloq tutdi: ular o'zlari haqida emas, Ispaniyaning taqdiri, finlar bilan tuzilgan bitim, Gitlarning maqsadlari haqida, paxta, yangi traktor xususida suhbat qurishardi. Bu gaplarni eshitib Rhaq Salimxo'jani, uning orzularini esladi. Demak, Salimxo'ja aytganday bo'lgan! Rhaq shunday kun kelishini, o'shandayoq bilgan edi. Darvoqe, Salimxo'ja bormikin? Amir changalidan omon chiqdimikin? Rhaq o'rnidan turib, Salimxo'ja yashagan uyni qoralab ketdi. Shaharning kunbotaridagi jinko'chaga joylashgan boloxonali uyga yaqinlashib, ochiq eshikdan ichkariga qaradi. Torgina hovli bolalar bilan to'la. Rhaq yanglishdimmikin, deb o'ylab orqasiga tisarildi. Yo'q, o'sha uy. Faqat eshik peshtoqiga lavha qoqilibdi. «Ibtidoiy maktab...»

U nima qilarini bilmay turganda eshik og'zida ko'zoynak taqqan, tepa sochi to'kilgan bir kishi ko'rindi. U ro'dapo chopon kiygan, burni beo'xshov — katta, quloqlari esa kichkina, bukchayibroq turgan, baland bo'yli Rhaqqa boshdan-oyoq razm soldi. (Yerdagi eski tanishlar bilan aloqani tiklanishi oson bo'lsin uchun Rhaq avvalgi genetik kod asosida odam qiyofasiga kirgan edi.)

— Birodari aziz, siz kimni yo'qlab keldingiz?

Rhaq javobga taraddudlandi. Keyin muddaosini aytdi.

— Asadovmi? — ko'zoynakli kishining yuzida xavotir uyg'ondi. — Bilmaysizmi hali?

— Nimani?

— Asadov — xalq dushmani, otishga hukm etilgan,— ko'zoynakli kishi keyingi so'zlarni qariyb pichirlab aytdi-da, ko'chaga chiqishi lozim bo'lsa ham qaytib ichqariga kirdi.

Rhaq joyida harakatsiz turib qoldi. «Bu odam nimalarni valdiraydi, — deb o'yladi u, — Asadov xalq dushmani? Asadov otilgan? Axir, Asadov amir zamonidagi bahslarda shunday jamiyatni orzu qilardi, eng odil jamiyat shunday bo'ladi, deb tortishardi-ku? Hamisha kambag'alga qayishar edi-ku? Uni nima uchun otdilar, nima uchun xalqning dushmani deyaptilar? Nima uchun nomini tilga olishdan cho'chiyaptilar? Mana bu odam dilida: «Asadov xalqparvar odam, yashab turgan bu uyini yigirmanchi yilda bolalarga topshirib o'zi kulbasifat uyga chiqib ketgan, bor mol-mulkini o'z ixtiyori bilan so'nggi tangasigacha topshirgan», deyapti. Tilida esa o'zga gap. Bu nimadan darak beryapti? Lukning bashorati tasdiqlanyaptimi? Tili boshqa, dili boshqa xalq taraqqiyot yo'liga o'ta oladimi? Hozir birmuncha ilgarilaganday tuyulyapti. Lekin qo'rquvga asir bo'lgan bu odamlar xasdan tiklangan uychani qasr deb faraz qilsalar, yaqin kelajak davrning ayovsiz shamoli bu xaslarni uchirib, uychani vayron qilsa-chi? Bu odamlar jar sari borayotganlarini anglab yeta olarmikinlar? Anglab yetgan onlari vaqt yonib ado bo'lmasmikin?»

Rhaq shu savollarga javob axtarardi. Uning ongi oliy darajada bo'lsa-da, hozir javobga ojiz edi. Sahroda suvsab, holdan toygan, o'lim haq ekaniga ishonayozgan odam ko'ziga layli sochlarini yoyib olgan majnuntol, uning poyida esa suvga lim-lim to'lgan hovuz ko'rinsa, bechoraga g'oyibdan kuch-quvvat qaytadi. Yer tirnab emaklaydi, necha bor hushdan ketadi, o'ziga kelib yana tirishib emaklayveradi. So'ng... o'sha laylisochli majnuntol, o'sha suvga lim-lim to'la hovuz sarob ekanini anglaydi-yu... Rhaq hozir o'sha tashna odam, o'sha sarobga qarab borgan bechora ahvolidagi edi. U umidi darz ketgan holda iziga qayta boshladi. Hovuzga yetmay, o'ngga burilib, Shoazizning uyini qoralab ketdi.

Eshik ichkaridan tambalangan ekan, Shoazizning o'zi ochdi. U ancha to'lishgan, qorin qo'ygan, ustida oq ko'ylak, oq shim (Rhaq shaharda yurib, shu kiyimning rasm bo'lganini sezgan edi), soqol-mo'ylovini esa qirdirib tashlagan edi. U «Tabib afandi»ni tanisa ham, tanimaganga oldi.

— Keling, ota? — dedi u hadik bilan.

— Sizni bir ko'rib ketay deb keldim. — Rhaq Shoazizga qattiq tikildi.

— Tanimayroq turibman? — dedi Shoaziz undan ko'zini olib qochib.

— Men... Tabib afandiman. Uyingizda turar edim...

— Tabib afandi? — Shoazizning rangi bo'zar- di-yu, ostona hatlab ko'chaga chiqdi. Atrofga olazarak qaradi. — Nimaga keldingiz? Sizni birov yubordimi? Chuchvarani xom sanashmasin! Borib ayting: sizni tanimayman. Sizlar bilan hamtovoq bo'lmaganman. Amir zamonida ham sizdayin afandilarni ko'rarga ko'zim yo'q edi, ha! Mening e'tiqodimni hech kim bukolmaydi. Borib ayting sizni yuborganlarga! — Shoaziz shunday deb jazavaga tushayozdi. Rhaq bu gaplarga e'tibor qilmay qattiq tikilganicha uning fikrini o'qiy boshladi. Shoaziz battar sarosimaga tushdi: — Menga bunday tikilmang. Jo'nang! Bu yerda qorangizni ko'rmayin! — U shunday deb hovlisiga kirdi-da, eshikni shartta yopdi.

Rhaq esa turgan yeridan jilmadi. Bir onning o'zida Shoaziz vujudida yashiringan haqiqatni bilib oldi. Rhaq o'sha damlardayoq Shoazizning e'tiqodsiz ekanini bashorat qilgan edi. Agar Yerdan ikki-uch odam olib chiqib ketishga ruxsat berilganda edi, birinchi galda shu Shoazizni mo'ljallagan bo'lardi. Rhaq uni dastlab ko'rgandayoq: «Tangbop odam ekan, olib chiqib ketsam, yerliklar bitta e'tiqodsiz odamdan qutulardi. Buning yaramas odatlari boshqalarga yuqmas edi», deb o'ylagan edi. Fikri yana to'g'ri chiqdi.

U iziga qaytmoqchi bo'lib besh-olti qadam bos- di-yu, to'xtadi. Aslida, Rhaqni bu ko'chaga boshlab kelgan kuch faqat Shoaziz emas, balki Nazirani ko'rish ishtiyoqi ham edi. Ammo nima uchundir qiz bilan uchrashuvga yuragi dov bermadi. Yerga uchishga tayyorgarlik ko'rib yurganida yaqinlari bilan bo'ladigan uchrashuvlarni turlicha tasavvur qilardi. Ayniqsa, Nazirani ko'rishni.... O'ylaganlari amalga oshmaydiganga o'xshaydi. U shu hadik bilan Naziraning eshigidan uzoqlashayotgan edi, ammo ko'p yurolmadi. Iziga qaytib, ikki tavaqali eshikni taqillatdi. Eshikni yigirma besh yoshlar chamasidagi jikkak yigit ochib, ro'dapo kiyimdagi notanish odamga ajablanib qarab qoldi, hatto salom berishni ham unutdi.

— Men Zokir akani yo'qlab kelgan edim, — dedi Rhaq uning ajablanib turganini sezib.

— Zokir aka?

— Ha, bu yerga kelmaganimga ham ko'p yillar bo'ldi. Nazira degan qizlari... Shamsi degan o'g'illari bor edi...

— E, Zokir otami? U kishi olamdan o'tganlarida men hali esimni tanimagan edim.

— O'g'illari-*chi?

— To'xtamurod aka... Ibrohimbekka qo'shilganlari uchun qamalib ketganlar.

— Nazira-chi?!

— Nazira opammi? Mening yangam bo'ladilar. Akamning oilalari. Hozir Toshkentda turishadi.

Yigit notanish kimsa yuzidagi iztirobni sezib, uni ichkariga taklif qildi. Rhaq hovliga qadam qo'y-di-yu, ammo uyga kirmadi. Torgina hovli o'rtasidan o'tgan ariq hali ham to'lib oqadi. Ammo bir tup o'rik qirqib tashlagan. Yerdan ikki qarich ko'tarilib turgan to'nkaning ust qismi chiriy boshlagan. Rhaq shu hovlida, shu ariq labida Nazira bilan uchrashuvini ko'p marta tasavvur qilgan edi. Hozir hovli o'rtasida tik turgan holda, yigitni hayratda qoldirib, nigohini sarsari kezdirar, Nazirani izlardi. Nazarida, kipriklari quyuq qiz hozir qo'lida kitob ushlagan holda uydan chiqib keladiganday edi...

Rhaq bir necha kun Buxoroda bo'lib, o'zgarishlarning barchasini fahmlab oldi.

Endi u «Tabib afandi»ning «kuni tugaganini» bilardi. Shuning uchun kiyimlarini o'zgartirib oldi. Odamlarga yaqin bo'lish uchun yana tabobatni tanladi. Rhaq palapartish uzatilayotgan biotok oqimiga qarab Sabohiddinning O'sh qasabasi yaqinida yashayotganini Yerga tushmayoq aniqlab qo'ygani uchun ham ko'p adashmadi.

U Farg'ona vodiysini qoralab borar, ariqlar labida chayqalib turgan terak-tollarni ko'rganida ham, sharqirab oqayotgan soy bo'yida dam olganida ham, buloq suvidan simirganida ham, keng dalani ko'rib ko'zi quvonganida ham Tangni eslardi. «Har holda Tang ham qachondir shunday bo'lgan», deb qo'yardi. Uchragan qizlarni Naziraga o'xshatib, yuragi o'rtanaverardi. Avvaliga Toshkentga borib, Nazirani izlab topmoqchi ham bo'ldi. Ammo qizning yaralarini yangilab qo'ymay deb cho'chidi.

Rhaq O'shda uzoq qolmay Kesganbelga boraverishdagi kattaroq qishloqqa kelib to'xtadi. Hovuz atrofida bosh egib turgan majnuntol soyasidagi so'riga o'tirdi. Shaharcha kiyingan, o'zbekka uncha o'xshamaydigan bu odamni samovarchi darrov sezib, toza ko'rpacha ko'targanicha shoshilib keldi. Keyin ozoda dasturxonda qand-qurs ham paydo bo'ldi.

Bir payt ko'chaning narigi betidagi pastqam binoning eshigi shasht bilan ochilib, etdor bir kishi ko'rindi. Agar u: «Qo'lingdan kelsa yurit-da, bu ishni!» deb baqirmaganida Rhaq unga e'tibor ham bermagan bo'lardi. U eshikni qarsillatib yopib, etigining qo'njiga qamchi bilan urib qo'ydi-da, choyxona tomon yurdi. Rhaq uning ko'zlaridan, yurishidan jizzakiroq odam ekanini sezdi. Etdor kishi choyxonaga yaqinlashdi-da, bepisandlik bilan ovozi balandlatib: «Qani, tog'a, yaxnadan oling», dedi.

— Ha, rais buva, bo'g'ilib chiqdingiz? — deb so'radi samovarchi unga katta sopol piyolada yaxna choy uzata turib.

— E, bo'g'ilmay bo'lami! Bu zang'arning kitobida Kesganbel yo'qqa o'xshaydi. Bitta do'xtir bergisi kelmaydi. Toshkandan odam kelarmish, men kutarmishman. Gapini qarang. Men rais bo'laman-u, uning nozu firoqiga qarab o'tiramanmi. Toshkanidan o'nta do'xtirni boshlab kelib Kesganbelga o'tqazib qo'yish qo'limdan kelmas ekanmi? Kimligimni bilmaydi-da, bu enag'arlar.

Samovarchi bu gapni eshitib, Rhaqni imlab ko'rsatdi. Rais Rhaqqa picha tikilib qaradi-da, piyolani qo'yib, unga yaqinlashdi.

— Mehmon, siz do'xtir emasmisiz? — dedi bu safar bir oz yumshab.

— Ha.

— Kesganbelga ketyapsizmi?

— Topdingiz.

— Topmay-chi! Men bir qarashda bilaman odamni. Toshkandan kelyapsizda, a?

— Yo'q.

— Yo'g'ingiz nimasi?

— Men urushdan qaytyapman. Kareliyada o'pkamni sovuqqa oldiribman. Endi tog'li joyning havosi pokiza, qimizi ko'p bo'ladi, deb kelyapman.

— Do'xtirmisiz, axir?

— Ha, ishonmasangiz sinab ko'ring. Ko'rsatay desam hujjatlarim yo'q. Yo'lda o'g'irlatib qo'ydim.

— O'g'irlatib qo'ydim, deng?.. — u Rhaqqa sinovchan tikildi. — Urilganlardanmasmisiz?

— Sinab, tekshirib ko'ring, deyapman-ku. Qani, qo'lingizni bering. — Rhaq uni bilagidan ushlab, ko'ziga tikildi. — Tomir urushingizga qaraganda qabziyatdan ozor chekasiz. Boshingiz og'rib turadi. Hozir ham og'riq qo'zg'alyapti.

— To'g'ri! — raisning ko'zlari charaqlab ketdi. — To'ppa-to'g'ri! E, yuring, menga hujjat-pujjat kerakmas. Hujjat degani anovi zang'arlarga kerak. Men ulardan ruxsat so'rab o'tirmayman. Ammo... hech kim bilmasin, a?

Rhaq jilmayib, ma'qul ishorasini qildi.

— Hujjatingiz bo'lmasa, ismingiz bordir?

— Ha, bor. Ismim Mirzaqayum. Mirzaqayum To'xtamirzaev.

— Bo'пти, qishloqchasiga Mirzavoy, deyaveramiz. Ma'qulmi, ketdik.

Rhaq — Mirzavoyning beulov ekanini bilgan rais tolga bog'loqliq otlardan birini yechdi.

— O'zimizning yigitlarniki, minavering. Ular arava-parava qilib boraverishadi, — dedi.

Rhaq ishning oson ko'chganidan yengil tortib, otning jilovini oldi.

Uzangiga oyoq tirab, egarga qornini berganicha, bir amallab mindi. Avvalgi safar Yerga kelganida uch-to'rt bor ot mingan bo'lsa-da, hali chavandozlikning bismillosini ham o'rganmagan edi. Uning beo'xshov harakatini kuzatib turgan samovarchi bilan rais o'zaro ko'z urishtirib, jilmayib qo'yishdi.

— Aslida eshakka minishingiz kerak ekan, — dedi rais yo'lga tushishgach.

— Nimaga?

— Chayqalib ketayotganingizni ko'rgan kishi bu odam tozza mast, deb o'ylaydi. Bu ahvolda yiqilib tushishingiz hech gapmas. Eshakka minganingizda, yiqilguday bo'lsangiz, oyog'ingiz uzun ekan, yerga tirab turib olardingiz. Eshak oyog'ingiz ostidan bemalol o'tib ketaverardi.

Raisning bo'yga ishora qilib aytgan hazil gapi ma'qul kelib, Rhaq kuldi. Rais sergap emas ekan. Bu Rhaqqa qo'l kelib, unga ko'z tikkanicha yashirin fikrlarini o'qiy boshladi: bu odam bir oz tajang, bir oz o'jar, qo'polgina. Achchig'i kelganda otasini ham ayamaydigan toifadan. Maqtanishni xush ko'radi. Farosat bobida bir oz g'arib. Kolxozi ancha badavlat. U kolxozni yana ham boy qilishni istaydi. Shu niyatda kolxozning cho'pini birovga oldirmaydi. Oqibatda ko'pning ko'ziga yomon ko'rinadi. Ammo o'zi ham nafsini tiygani uchun unga otilgan tosh borib tegmaydi. Kolxozga manfaati bor, deb ishontirilsa, Quyoshni Yerga olib tushishga, agar zararli ekaniga iqror etilsa, uning yuziga qora bulut torttirishga tayyor odam. Har holda, fikri beqaror bunday rahbardan qo'rqqulik. «Kompyuterga o'xshab ketarkan, — deb o'yladi Rhaq undan nigohini uzmay. — Kompyuter xotirasiga singdirilgan har bir ishni so'zsiz bajaradi. Bu rais ham shunday. Kolxozni boyitaman, deb odamlarni xonavayron qilishi hech gapmas. Unga to'g'ri gapni tushuntirish qiyin. Afsuski, odamlar bir-birlarining fikrlarni o'qiy olmaydilar. Yo'qsa, bu odamni raislikka saylashmas edi. Kolxozni sermulohaza, ko'proq ertani o'ylaydigan, og'ir-bosiq odamga topshirishgan bo'lishardi. Yo'l qo'yilayotgan qanchadan-qancha xato yuz bermasdi. Ajab, ongli mavjudot uchun arziyas bir ish — biotok oqimiga asoslangan holda ma'lum masofada turib bir-birining fikrini o'qiy olmaslik qanchalar dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkin-a? Insoniyatning mana shu arziyas ojizligidan qanchalar odam foydalanishi, sirtidan yaxshi ko'rinib, razil niyatlarini pinhona amalga oshiraverishi ham mumkin.

Buxorodan Farg'onaga kelgunga qadar Rhaq ko'p sofdil odamlarni uchratdi. Ularning gaplarini eshitib dili yayradi. Odamlar bilan hamsuhbat bo'lib Tangdagi hissiz, tuyg'usiz yurtdoshlarini esladi. Mana bu raisni uchratib, yana Tang ko'z oldiga keldi. U yerda ham hissiz, tuyg'usiz kimsalar avval ko'p bo'lmagan. Keyin tomir ota borgan. Yerda yaxshilar bilan birga yomonlar ham bor. Yomonlari kam. Ammo ko'payib ketarmikin bular? Odamlar qora niyatlilarga, berahmlarga barham bera olarmikinlar?

Rhaq shu o'ylar bilan Kesganbelga yetdi. Baland tog'ning yonbag'riga joylashgan qishloqda oqshomgi besaranjomlik zohir edi: o'choq mo'rilaridan tutun ko'tariladi, podadan qaytgan buzoqlar yelinga yetisholmay bo'zlaydi. Onalar bolalarini, bolalar

otalarini chaqirgan... Qishloqning shu ko'rinishida, shu harakatida ajib bir pokizalik, bedorlik bor edi. Rhaq buni darrov sezdi.

Ikki tup bahaybat chinorga yondosh solingan ravonli samovarxona oldi sayhonlik, o'rtaga doira shaklida gulzor qilingan. Ravonda o'tirgan besh-olti choyxo'r rais bilan mehmonni ko'rib, o'rinlaridan turishdi.

— Ha, o'tiribsizlarmi? — dedi rais ularning salomiga alik olib. Keyin ovozi ko'tarib «Asqarali tog'a!» deb chaqirdi.

Ichkaridan past bo'yli, cho'tir yuzli kishi shoshilib chiqdi.

— Mana, do'xtirni boshlab keldim. Rais jon kuydirmasa, og'izlaringizga pashsha qo'ndirib o'tiraverasizlar. Hamma narsaga rais balogardon. Choy-poy qilib, do'xtirni joylashtiring. Erta-matan o'zim xabar olaman. Ha, otni qantarib qo'yinglar, egasi olib ketar.

Rais shunday deb, Rhaq bilan xayrlashdi-da, otini yuqoriga o'rlagan yo'lga soldi. Rhaq ajablanib turib qoldi. Mehmonning xijolatda turganini sezgan Asqarali yugurib kelib ko'rishdi-da, jilovni qo'lidan oldi.

— Xafa bo'lmaysiz, mehmon, raisimiz shunaqalar,— dedi. Bu orada ravondagilar ham pastga tushib, Rhaq bilan omonlashdilar. Tirsak shaklidagi choyxonaning kunchiqar tomoni ikki uy bir dahlizdan iborat shifoxona ekan. Rhaq shu yerga joylashdi.

Ertasiga sahar chog'i samovarxona biqinida o'tin yorayotgan devonavash odamni ko'rib Rhaq bir seskandi: mo'ylovlari oqarib ketgan bu odam Sabohiddin edi! Shundagina u biotok oqimlarining nima uchun pala partish bo'lib qolganini angladi.

Rhaq kun bo'yi samovarda beish o'tirdi. Devona ham kunini shu atrofda o'tkazarkan. Rhaq odamlar e'tiborini jalb qilmaslik uchun uning harakatlarini «loqayd» kuzatdi.

Oqshomga yaqin rais xushsurat bir juvonni boshlab keldi.

— Saboxonning hamshiralikdan picha xabari bor, vaqt-bevaqt sizga ko'mak berib turadi, — deb gapni kalta qildi-yu, iziga qaytdi.

Rhaq juvonni guzarda ko'rgandayoq taxtadek qotgan edi. Juvonning qaddi, dumaloq qora ko'zlari, quyuq kipriklari Nazirani eslatdi. Rhaq Yerda shuncha yurib bir-biriga bunchalar o'xshash ikki odamni endi ko'rishi edi. Faqat, Nazira qorato'ridan kelgan, bu juvon esa sariqqa moyil edi. Demak, Saboxon unga yordamchi. Demak, uni har ko'rganda Nazirani eslaydi. Xayoli hamisha o'sha qiz bilan band bo'ladi...

Saboxon yangi doktorning tikilib qarashidan o'ng'aysizlanib, nima qilarini bilmay qoldi. «Muncha qaraydi bu kishi, yo yoqam ochilib qolibdimikin», degan o'yda ko'ylagining yoqasini ushlab qo'ydi. Durrasini peshonasiga bostiribroq tortdi. Rhaq juvonning xijolat tortayotganini sezmedi. Asqarali Rhaqdagi o'zgarishni, juvondagi taraddudni payqab, oradagi o'ng'aysizlikni quvish uchun:

— Qizim, uyingga borovur, kech bo'lib qoldi, ishni erta-matan boshlarsan, — dedi.

Rhaq shundagina xayolini yig'di.

— Ha, ha, boravering. Bugun qiladigan ish ham yo'q, — dedi u shoshilib.

Saboxon eshitilar-eshitilmas «xayr», dedi-da, pastga tushib ketdi. Ana shu «xayr» degan mayin ovoz— Naziraning ovozi endi Rhaqning shunday orqasida pichirladi:

«O'qung har lahzakim, jonim dilar, ko'nglim qilar afg'on...»

«Endi men uchun har lahza otash azobi bo'ladi, — deb o'yladi u. — Ishqilib, vujudimda paydo bo'layotgan g'alati hislarning quli bo'lib, asosiy maqsadni unutib qo'ymay. Nima uchun Nazirani eslayapman? Ko'rishganimizda menga deyarli gapirmagan. Biron-bir va'da ham bermagan. Uni eslashimdan nima foyda? Unutishim,

ha unga bog'liq har qanday xotirani unutishim kerak. Nazira — men uchun yo'q odam. Uning ovozi ham, g'azallari ham, chehrasi ham yo'q...»

Shu lahzadan boshlab Rhaq butun diqqatini to'plab, xotiralarini unutishga kirishdi. Nazira yodiga tushishi bilan uni xayolidan quvaverdi. Saboxon kelgandan keyin ham faqat ish haqida o'ylashga tirishdi. Shu sababli juvon bilan durustroq gaplashmadi ham.

Ikki kun shifoxonani tartibga keltirish bilan o'tdi. Suvog'i ko'chgan joylarni suvashdi, oqlashdi. Saboxon deraza oynaklarini yuvib, oq pardalar tutdi, hovlini o'tdan tozaladi. «Mayda-chuyda» ishlarga Rhaqning uquvi yo'q edi. Shuning uchun juvonga yordamlashdi.

Uchinchi kuni rais kutayotgan vrach ham kelib qoldi. Past bo'yli, etdor, yuzidan samimiyat yog'ilib turgan bu yigit darrov Rhaqning diqqatini tortdi, u bilan hamnafas yashashidan sevindi. Dilmurod oilasi bilan kelgani uchun Asqarali ularni o'zining uyiga joylashtirdi. Rais avvaliga Dilmurodning tashrifidan norozi bo'ldi. Chunki Rhaq uning diliga o'rnashgan, endi boshqasini xushlamas edi. Ammo Dilmurodning uzog'i bilan bir-bir yarim yildan so'ng yana ToshMI ixtiyoriga qaytib ketajagini bilgach, bu yerda ishlashiga qarshilik bildirmadi. «Kesganbelda ikkita do'xtir bor ekan», degan gap tarqalishini o'ylab, kerilib ham qo'ydi.

Dilmurod kelgan kunning ertasiga Rhaq Devonaga yaqinlashdi. To'g'rirog'i, bunga Dilmurodning qizi Umida sabab bo'ldi. Voqea yuz bergan vaqtda ular raisning qabulida edilar, tafsilini keyinroq eshitdilar.

O'sha tun jala quydi. Tongga borib qora bulutlar kambag'alning ko'rpasiday bo'lib qoldi. Jalada savalanib, shumshaygan tabiat gunohkorona sukut bilan quyoshning ko'tarilishini kutdi. Ufq yorishishi bilan Kesganbel uyg'ondi. Eng avval guzarda jonlanish sezildi. Asqarali tarasha yorib, samovarga o't tashladi. Keyin soy bo'ylab yuqorilagan yakkatovon ko'chada oq eshak mingan qariya ko'rindi. Eshak loy sachratib kelib choyxona oldida to'xtadi. Qariya shoshilmay tushib, tosh zina bilan yuqoriga ko'tarildi. Yaktak kiyib, qo'shbelbog' bog'lagan Asqarali uni qarshilab, quyuq so'rashdi-da, ichkariga taklif qildi. Qariya uning lutfiga minnatdorchilik bildirib, panjaralari to'q yashil rangga bo'yalgan ensiz so'riga o'tirdi. Yuziga fotiha tortib, belidagi chorsini yechdi-da, dasturxon o'rnida yoyib, yarimta nonni o'rta qo'ydi.

Suv qaynaganda samovarxona odamga to'lgan edi. To'planganlar uzoq gurgung qilib o'tirmay tez tarqashdi. Guzar bir oz bo'shab qoldi. Kun yoyilishi oldidan yana gavjumlashdi. Shu paytda kechadan beri ko'rinmayotgan Devona paydo bo'ldi. Odamlar unga qarab qo'yдиларu e'tibor bermadilar. Bir mahal katta qayrag'och atrofida ivirsib yurgan Devona baqirdi. Barzangi yigit so'kindi. Keyin notanish qizchanning ovozi keldi. Hamma shu tomonga qaradi:

— Urmang! — dedi qizcha alam bilan. So'ng yonida turgan kishini yengidan tortdi-da, unga najot ko'zi bilan boqib, yolg'irdi: — Amaki, ayting, urmasin!

Voqeani loqaydlik bilan kuzatayotgan kishi qizchanning boshini silab qo'ydi. Ammo joyidan jilmadi. Qizcha atrofidagi odamlarga bir-bir qarab chiqdi. Ba'zilar kulimsirab, ba'zilar achinib, ba'zilar esa achchiqlanib turar, qiyiq ko'zli yigit changalida azob chekayotgan mo'ylovli Devonaga yordam berishni hech kim o'ylamasdi.

Qizcha bir zum dovdirab turdi-da, oxiri chidayolmay, yugurib borib yigitning qo'llariga yopishdi: «Urmang! Nimaga urasiz?!» — deb qichqirdi. Yigit jahl bilan bir siltagan edi, qizcha chalganchasiga yiqil-di.

Shundan keyingina odamlar yigitning qo'llarini qayirib: «Esing bormi, bolada nima gunoh!» deb uni koyigan bo'ldilar.

To'planganlar Devonaning aybsiz ekanini yaxshi bilardilar. Lekin unga yordam berishga odatlanmagan edilar. Devona o'rnidan turib, atrofdagilarga qo'rquv ko'zi bilan

qarab, g'alati ovoz chiqardi. Odamlar sergaklanib, «Yana tashlanib qolmasin», degan xavotirda orqaga tisarildilar. Ammo u hech kimga tegmadi. Alamli baqirdi-da, yuqoriga, qabriston tomonga qarab ketdi.

Qizcha uning izidan bir oz qarab turdi. Keyin hali yiqilganida ko'tarib olib, mehribonlik qilayotgan ayolning quchog'idan yulqinib chiqdi-da, jabrdiydaning orqasidan yugurdi. Biroq uzoqqa borolmadi. Tutib olishdi.

— Kimning qizi ekan, batlikka o'xshamaydi? — dedi ayollardan biri.

— Yangi do'xtirimizning bolasi, — dedi Asqarali shoshilib pastga tushayotib.

— Qaysi biriniki, keyin kelganinikimi?

— Ha, Dilmurodniki. Biznikiga tushishgan. Saboxon, qizim, sen olib borib qo'ya qol, — dedi Asqarali orqasidan kelayotgan juvonga qarab.

Saboxon ma'qul ishorasini qilib, qizchani ko'tarib oldi-da, samovarxona yaqinidagi ko'chaga yurdi.

Guzardan sal nariroqdagi, loyshuvoq ustidan oqlab qo'yilgan uy Asqaraliniki edi. Ayol, bu uy yaqiniga yo'lash u yoqda tursin, uzoqdan ko'zi tushsa ham yuragi g'alati bo'lib ketar, birrov kirib-chiqishga bahona izlab yurardi. Bugun bahona oyoq ostidan chiqdi. Shundan quvonibmi, qizchani suyub-erkalab ichkari kirdi. U hovli o'rtasida turgan notanish juvonne ko'rib, «onasi shu bo'lsa kerak», degan o'y bilan unga yaqinlashdi.

— Egachi, shirinchangiz guzarga o'ynab chiqqan ekan...

— Voy o'lmasam, uyda uxlab yotgan edi-ku! — Juvon Saboxon bilan so'rashishni ham unutib qizchasini yolg'ondan koyidi. Ayol ona-bolaga bir oz kulimsirab qarab turdi. So'ng bo'lgan voqeani qisqacha bayon qilib, o'zini tanishtirdi-da, mehmonni uyiga taklif etib, orqasiga qaytdi. Uning to'rdagi uy tarafga qarab-qarab qo'ygani juvon sezdi.

— Sen aralashib nima qilarding, g'irtmak, u jinni ekan-ku, — dedi ona qizning shilingan tirsagini yuva turib.

— Kim? — dedi qizcha burnini tortib.

— Kim bo'lardi, o'sha mo'ylovli kishi-da.

— U jinnimas.

— Ha, bo'пти. Jinni bo'lmasa jinnimasdir. Sen kattalarning ishiga aralashma. Ayb bo'ladi.

— U jinnimas, — dedi qizcha o'jarlik bilan. — U yaxshi kishi. Urgan odam jinni.

— Bo'ldi, jonim, bo'ldi. Jinnimas, dedim-ku. Qani yur, uyqing chala bo'libdi. Yana birpas uxlab ol.

Qizcha shiftga qoqilgan gulli qog'ozga tikilib yotdi. Guzardagi voqea yana xayolidan o'tdi. U o'rnidan turdi-da, deraza pardasini ko'tarib, asta tashqariga qaradi. Onasi ko'rinmadi. Shundan so'ng eshikni ochib hovliga, undan lip etib ko'chaga chiqdi-da, avval guzarga, undan Devona ketgan tepalikka qarab yurdi. Yo'l qizchani qabristonga olib bordi. Qizcha qo'sh qayrag'ochga yaqinlashgach, qo'rqib to'xtadi. Atrofga olazarak qaradi. Sal yuqoriroqdagi bostirma oldida o'tirgan Devonani ko'rgach, sal dadillanib, o'sha tomon yurdi.

Devona hujrasi yonidagi xarsang ustida ma'yus o'tirardi. Ammo qizchani ko'rishi bilan chehrasi yorishdi.

— Burningiz og'riyaptimi? — dedi qizcha uning ro'parasiga cho'nqayib. Devona javob o'rniga kuldi. Uning mehribonligidan quvondi. — Mening manovi yerim qonadi, — dedi qizcha tirsagini ko'rsatib. — Bitta ham yig'lamadim.

Devona titroq barmoqlari bilan uning tirsagini siladi.

— Opoq, opoq, og'rimasin, — deb yana kuldi.

— Sizzi otingiz nima? Meniki Umida.

— Um... Um... U-mi-da. Umida! — devona shunday deb zavqlanib kuldi.

— Sizziki-chi?

Devona jim qoldi. O'yga toldi. Haligacha hech kim unga bunday savol bermagan edi. U boshqalar kabi o'zining ham ismi borligini bilmasdi. To'g'rirog'i, ismini allaqachon unutib yuborgandi. Umidaning savoli uning miyasiga yashin kabi urilib, chang bosgan xotiralarini qalqitib yubordi. Darvoqe, ismi... Uning ham chiroyli ismi bor edi. Onasi ismini aytib, suyib-erkalardi. Oppoq qor ko'ziga qora qon bo'lib ko'ringan o'sha kundan beri hech kim uning ismini aytib chaqirmadi. birov «Oting nima?» deb ham so'ramadi. Faqat shu qizcha so'radi...

Devona Umidaga hayratlanib bir qaradi-da, so'ng indamay o'rnidan turib, hujrasi tomon yurdi. Umida uning bu qilig'iga tushunmadi. Hujraning g'ijirlab ochilgan eshigi, Devona ichkariga kirgach, o'z-o'zidan taraqlab yopildi. Umida uning orqasidan borib, eshikni itardi. Ichkari bir zum yorishdi-yu, yana qorong'ilashdi. Tuynuklardan nayzasifat bo'lib tushib turgan nur hujrani yoritishga ojiz edi. Umida nimqorong'i uychaning o'rtasida cho'nqayib o'tirgan Devonaga yaqinlashdi.

— Sizga nima bo'ldi amaki?

Devona qimir etmadi. Gapirmadi ham.

... Umida kelgan kuni zerikdi. Eshik og'zida turib o'tgan-ketganlarga qaradi. Qo'shni bolalar kalta ko'ylak kiygan, oppoqqina qo'g'irchoqday bu qizga qarab kulib qo'yishdi. Umida begonasirab, devorga suyananicha turaverdi. Bolalarning birinchi bo'lib so'z boshlashlarini kutdi. Shu payt muyulishdagi bolalar yugurib qolishdi. Keyin narigi ko'chadan «Jinni! Jinni!» degan qiyqiriqlar eshitildi. Dam o'tmay bolalar qurshovida irg'ishlab kelayotgan shopmo'ylovli, sochi ustara bilan qirilgan, boshyalang, sarpoychan, qirra burun Devona ko'rindi. Devona Umidaning yonidan o'tib ketdi-yu, ammo tezda iziga qaytdi. Chug'urlashayotgan bolalarni po'pisa qilib, quvgan bo'ldi-da, mehmon qiz qarshisida cho'nqayib, tirjaydi. Bolalar, shaharlik qiz hozir dod solib uyiga qochadi, deb o'ylab, Umidaga tikilib qoldilar. Umida chindan ham bir oz qo'rqdi. Lekin sirini fosh etmaslik uchun o'zini majburlab jilmaydi. Devona bundan quvonib, qiqirlab kuldi-da, mo'ylovining uchlarini tishlab miyovladi. Umida uning bu qilig'idan kulib yubordi. Qilig'i qizchaga ma'qul bo'lganini anglagan Devona o'rnidan turdi-da, «Apalamza al, hevamiza ham... Bibi shapoq, qambar buqoq...» deb o'ynab, irg'ishlay boshladi. Keyin guzar tomon yugurdi. Umida chug'urlashayotgan bolalarga qo'shilib, uning izidan chopdi. U yangi orttirgan o'rtoqlari bilan kun bo'yi Devonani ermaklab yurdi...

...Umida jinni ham biron narsadan xafa bo'lar, deb sira o'ylamagan edi. Shu sabab hujra o'rtasida o'tirgan Devonaning bu qilmishidan cho'chib, orqasiga tisarildi. Tashqariga chiqdiyu pastga yugurdi.

Soy bo'yida bir oz salqinlab qaytgan Aqida qizining g'oyib bo'lganini bilib, tashvishdan o'zini qo'ygani joy topolmay turganda Umidaning o'zi ko'rindi. Shu bo'yi qizaloq onasining qattiq nazoratiga o'tib, kechga qadar hovlidan bir qadam siljimadi.

Shomda, o'rtadan dasturxon yig'ilib, Umida uxlab qolgach, Aqida eriga uning bugungi qilmishini aytib berdi.

Dilmurod Umidaning «jasorati»ni Saboxondan eshitgan, shuning uchun xotinining hayajonli gaplarini xotirjam tinglardi.

— Men uni uxlayapti, deb bemalol yursam, bir juvon «Mana shirinchangiz», deb kirib keldi.

— Qanaqa juvon olib keldi?

Aqida erining qitmirligi tutganini sezdi-da, qaldirg'och qanotidan nusxa olgan qoshlarini sal chimirib: «Ko'hlikkina, chiroylikkina...» — deb kesatib, bu ham yetmaganday, «siz bop ekan», — deb qo'shib qo'ydi.

— Otini bilmadingizmi? — dedi Dilmurod jilmayib. U bir savol bilan xotinining qitig'iga tekkan, endi olovga jindak moy sepmoqchi edi.

— Bildim. Havoxon dedimi, Saboxonmi, shunga o'xshash. Ko'chasini ham aytdi. Yangangizga darrov xabar qilsangiz, kelib bir oy supurib turardilar.

— Shuginami?

— Yana nima kerak edi?

— Menga salom aytmabdi-da?

— Aytdi. Sog'inib-sog'inib salom, dedi.

— Mana bu boshqa gap. Siz u bilan yaxshiroq tanishib oling Zerikmaysiz.

— Shunaqa deng... O'zingiz ham... ketganimdan keyin zerikmassiz?

— Balki...

— Qachonla tanishib oldingiz?

— Kecha, kelishimiz bilan.

— Yo'lingizga ko'z tikib o'tirgan ekan-da, bechora!

— Shunaqa desa ham bo'ladi... Shifoxonada hamshiralik qilar ekan.

— Xudo beribdi. Hali ko'zlari kesak teryatuvdi, sizni qidirgan ekan-da. Bu yerga ham kelib turar endi.

— Kunda besh mahal kelmoqchi.

— Hm... menga desa ming marta kelsin.

— Yo'q, faqat besh marta keladi.

— Kelaversin.

— Nimaga besh marta keladi, deb so'ramaysizmi?

— So'ramayman. Menga nima?

— U besh marta namoz o'qigani keladi.

— Namoz? — Yolg'ondan arazlayotgan xotin enda chindan ajablandi.

— Ha... Etagimda namoz o'qiydi.

— Namoz o'qishga boshqa joy qurib ketibdimi? — xotin labini burib kuldi.

— Ha, qishloqlarida arzirli joynamoz topilmas ekan. «Siz pokizalikda farishtaning o'zi ekansiz», deb sig'inib kelmoqchi.

Aqida kulib yubordi. Eriga mushtumini ko'rsatib, nozli po'pisa qildi. Dilmurod xushsurat yigit bo'lgani uchun Aqida uni hammadan rashk qilardi. Rashkini qanchalik pinhona tutishga urinmasin, ayollarga xos ojizlik tuyg'ularini ko'pincha fosh qilib qo'yardi. Alqissa, sevishgan er-xotin uchun rashk ham darkor. Lekin u quyushqondan chiqdimi tamom, oshga zahar tushadi, muhabbat chinnisi darz ketadi, halovat buziladi. Dilmurodga Aqidaning rashk qilishi yoqardi. Rashk avvalo kuchli muhabbat belgisi. Xotin erni qizg'andimi, demak, qattiq sevadi. Er uchun yana nima kerak? Aqidaning birgalashib kelishi ham bejiz emas-da!

...Rhaq Dilmurod bilan Aqidani dastlab ko'rgandayoq ularning chehralaridagi parishonlikni ilg'agan, bu yerga besabab kelishmaganini sezgan edi. Dilmurod bilan suhbatlashgach, uning ko'zlariga boqib, boshiga tushgan tashvishdan ogoh bo'ldi. Dilmurod «Meditcina texnikumini tugallagan Mirzavoy»ga darrov elakisha qolmadi. Tanishgan chog'larida ota-onasining vafot etganlarini, o'zi yetimxonada tarbiya ko'rib, so'ng ToshMIni tugallaganini aytdi. ToshMIda professor Razzoqov degan donishmand olimning etagini tutgani, uning qiziga uylangani, ruhiy xastalarni davolashda yangilik yaratmoqchi ekanini esa yashirdi. Dilmurodning ichki sirlari boshqalar uchun pinhon edi.

Ammo bu borada hech qanday to'siq bilmaydigan Rhaq, o'sha tanishgan kunlariyoq, professor Razzoqovning tuhmatga uchrab xalq dushmani sifatida hibsga olingani, oqibatda ilmiy izlanish uchun Dilmurodning imkoniyatlari qir qilgani, qaynotasining yaqinlari maslahatiga kirib Aqida bilan xo'jako'rsinga ajrashgani, «yo'l qo'ygan xatolarini yuvish uchun eng uzoq qishloqqa oddiy vrach bo'lib kelganini» bilib oldi. Yolg'ondan ajralishsa ham bu qilmishlari uchun ich-etlarini yeb yurishlari, bir-birlariga g'oyat mehr-oqibatli ekanliklari Rhaqni hayajonga soldi. U ham uylanib, xotini bilan ko'p yil birga turdi. Farzand ko'rdi. Ammo ular orasida hech mahal bunday yaqin, iliq munosabat bo'lmagan. Er-xotinni bir-biriga bog'lab turadigan mehr ipi ham bunchalar pishiq emasdi. Rhaq Yerga avval kelganida xotinini ko'p esga olgan bo'lsa-da, biroq, vujudida unga intiluvchi, oshiquvchi qaynoq kuch uyg'onmagan edi. Rhaq Dilmurodni o'z o'rniga qo'yib ko'rdi. Yo'q, bu yigit hech qachon xasta xotinini tashlab, uzoq safarga o'tlanmasdi. Aqidaniku, aytmasa ham bo'ladi. «Aqalli uch-to'rt kun birga turay», deb shundan-shunga kelibdimi, demak, erini beqiyos mehr bilan ardoqlar ekan. Agar ularga Tang sharoiti yaratib berilsa-chi? Vujudlaridagi eng samimiy tuyg'ular o'rniga: «Yuksalish uchun ishlash, ishlash uchun yuksalish kerak, boshqa narsalarni o'ylash, hissiyotga berilish taraqqiyot yo'lidagi eng dahshatli g'ov!» degan tushuncha singdirilsa-chi! U holda Dilmurod xotini bilan chinakamiga ajralishardi. Aqida esa bu yerga kelmasdi. Umuman, ularning Lukndan farqi qolmasdi.

Rhaq Yerdagi turmushni kuzatib, uyg'onishning bahoriy fasli endi boshlanib, daraxtlar gullagan choqda qorga tutilganini bildi. U odamlar ongidagi o'zgarishlarni sezgan, hayotning salbiy ko'rinishlari, Shoazizga o'xshagan kishilarning oqibatda zarba yeyishlarini ham bilib turardi. Biroq, unga qadar oradan yillar o'tishi, odamlar shu vaqt mobaynida zohiran go'zal va to'kin, botinan esa asabiy hayotning tirnoqlari orasida ko'p dard chekishlari lozimligini ham tushunardi. Orzu qilgani, kutgani taraqqiyot necha o'n yil ortga surib tashlangani ham sir emas edi unga. Eng nodir aql egalari xalq bag'ridan yulib olingan. Xalq bu qo'rquvlardan qutulib yana uyg'onguncha ko'p vaqt kerak. «Bunaqa voqea hatto Tangda ham yuz bermagandir», deb o'ylardi u. Shularni o'ylagani sayin battar qayg'urardi.

Dilmuroddan ajraladigan biotok oqimi Rhaqni taajjubga soldi. U dastlab Salimxo'ja bilan Sabohiddinni ko'rganda shu holga tushgan edi. Biotok oqimining bu darajada kuchli bo'lishi o'sha shaxsning oliy idrok egasi ekanidan dalolat beradi. Salimxo'ja buni amalda isbot etmoqchi, idrokini to'g'ri yo'lga qaratmoqchi edi, yarim yo'lda ildiziga bolta urdilar, Sabohiddin ham qoqildi. U adashmaganida ulug' alloma bo'lishi mumkin edi. Afsuski, muhit uni boshqa yo'lga burib yubordi. Dilmurod Rhaqqa butunlay boshqa olam bo'lib ko'rindi: aql-farosati, e'tiqodi, haq yo'lni ajrata bilish uchun uning e'tiborini tortdi.

Rhaq ko'p narsani bilmaydigan kishi bo'lib Dilmurodga yaqin yurishga ahd qildi.

TUYG'UNING UYG'ONISHI

Tog'da tong qushlarni emas, balki qushlar chug'ur-chug'ur bilan tongni uyg'otadi. Ufq picha oqargach, kunchiqarda ivirsib yurgan bulutlar chekkasi qizardi. Keyin qip-qizil bo'lib quyosh ko'rindi. Ana shunday sehrli, latofatli lahzalarni eshakning hangrashi buzdi. Avval betoqatrogi o'pkasi to'lib astoydil hangradi. Keyin qishloqning hali u-hali bu yeridan birin-ketin «hasratdosh»larning hangrashi keldi. Yumushi borlar o'rinlaridan turib, ishlariga ketdilar, bekorchilar esa, bir g'ijinib olib ko'rpani boshga tortdilar-da, uyquni kelgan joyidan davom ettirdilar.

Kun yorishishi bilan Asqaralining uyida ham jonlanish sezildi. Ichkari uydan avval Asqaralining ovozi keldi. U xotiniga nimadir deb tayinlab, choyxonaga chiqib ketdi.

Dilmurodning uyqusi o'chib o'rnidan turdi-da, hovli etagidagi soy bo'yiga tushdi. Muzdek havodan vujudi entikib ketdi. Yarim-yalang'och bo'lib yuvingach, o'zini qushdek yengil sezdi. Kayfiyati ham ko'tarildi. Katta xarsangga suyangancha quyoshning ko'tarilishini kuzatdi.

«Qishloqda hayot osuda, shoshilmay kechadiganga o'xshaydi, — deb o'yladi u. — Shaharda kun qisqadek tuyuladi. Arzimagan ishlarni ham bajarib ulgurmayсан. Tabiatning bunday sehrini kuzatish esga ham kelmaydi. Yoki odam shaharga ko'nikib borgani sayin tabiatdan uzoqlasharmikan? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Axir insonning tabiatdan uzoqlashishi — halokat bilan barobar-ku? Agar bu hol yuz bersa, odamlarning o'zaro munosabatlarigacha o'zgarib, Yer hayoti qil ustida bo'lib qoladi-ku? Bunga yo'l qo'yish mumkinmi? Inson tabiatning farzandi. Farzand ona mehridan uzoqlashsa, bu mehrdan qonmasa vahshiylashadi. Inson — tabiatning eng ongli farzandi — o'z onasi ko'ksiga pichoq qadarmikan? Balki ba'zi erkatoylarga o'xshab onasining jindek xafa qilib turar. Lekin ertami-kechmi esini yig'ib olishi shart!»

Soyning narigi sohili bo'ylab o'tgan, tuproq ko'pchib yotgan ko'chada oyog'iga eski kalish kiygan, to'qim urilmagan eshakka minib olgan podachi ko'rindi. U Dilmurodga ko'zi tushishi bilan qulluq qilib salom berdi. Dilmurod, garchi soyning shovqini bosib ketsa-da, ovoz chiqarib alik oldi. Podachi yana qulluq qilib yo'lida davom etdi. Hovlida ayollarning ovozi eshitilgach, Dilmurod iziga qaytdi.

To nonushta qilib bo'lishguncha kun yoyildi. Dasturxon yig'ilmay turib Umida burama qanddan ikkitasini oldi-da, etagiga yashirdi. Asqaralining xotini buni ko'rib kulimsiradi. Aqida esa uyatdan yonib ketay deb eriga qaradi. Dilmurod: «Qani, ko'raylik-chi, nima qilarkin», degandek xotirjam bosh irg'adi. Umida, harakatimni sezishmadi, deb o'ylab o'rnidan turdi-da, ko'cha eshigi tomon yurdi. Shundagina Aqida o'zini tutib turolmay hay-hayladi. Onasiga e'tibor bermay eshik og'ziga borib qolgan Umidaga avval Dilmurod yetib keldi.

— Qaerga bormoqchisan? — deb so'radi u, qizini qo'lidan ushlab.

— Ko'chaga, — dedi Umida ayyorlik bilan.

— Yur, birga boramiz.

— O'zim boraman.

Dilmurod sergak tikilib turgan Aqidaga bir qarab oldi-da, qizining qulog'iga shivirladi:

— Ayang bilib qolsa, uyga qamaydi. Men bilan chiqsang, aytgan joyingga boramiz.

Ayangga «do'xtirxonaga ketyapmiz», degin.

Umida ma'qul ishorasini qilib, onasiga qaradi:

— Ayajon, men do'xtirxonaga borar ekanman, — dedi bidirlab.

Aqida ota-bolaning niyatini anglab, norozi qiyofada bosh tebratdi, ammo qarshilik qilmadi.

Rhaq qo'l ushlab kelayotgan ota-bolani ochiq chehra bilan qarshilab, Umidani suyib ko'tardi. Ichkaridan Asqarali chiqib, Dilmurod bilan omonlashdi.

Samovarxonada hech kim qolmagani uchun bir choynak choyni maydalab gurung qilishdi. Umida bu «sergap» odamlardan bezib, pastga tushdi.

— Devonaga qand bermoqchi, birga borishga va'da qiluvdim,— dedi Dilmurod qiziga qarab.

— Bolaning qalbidek pokiza narsa yo'q bu yorug' dunyoda, — dedi Asqarali o'ychan qiyofada. — Devona ko'nglida mehr uyg'otibdi-da, shuning uchun unga yaxshilik qilmoqchi. Do'xtir inim, meni aytdi dersiz, Xudo xohlasa qizingiz ulg'ayganda odamlarga yanayam mehribon bo'ladi.

— Aytganingiz kelsin, Asqarali aka. Axir, odamni odamga bog'lab turadigan narsa shu mehr-oqibat-da.

— Shunaqa-yu, ammo buni hammamiz ham tushunib yetavermaymiz. Bolaligimizda barcha ko'zimizga yaxshi bo'lib ko'rinadi. Keyin bora-bora odamlarni xillarga ajratamiz. Unisiga egilamiz, bunisini tepkilaymiz. Mana, shu Devonani qarang. U ham Xudoning bir bandasi. Aytgan ishingizni qiladi, birovga ozor yetkazmaydi. Lekin yotib-turishi itdan xarob. Buni hammamiz ko'ramizu parvo qilmaymiz. Oqibat degani bunaqa bo'lmaydi-da.

— Asqarali aka, Devonaning hech kimi yo'qmi?

— Yo'q. Devona bu yerlik emas.

— Qaerdan kelib qolgan?

— Do'xtir inim, buni o'zim ham tayin bilmayman. Ammo bir odamga o'xshataman. Bosmachilar davrida Norxo'janing qarorgohida bir mullani ko'rgan edim. Novqatlik edi, chamasi. Ismi Sabohiddinmi, yo boshqami, eslolmayman, ammo o'shanga o'xshataman. Devona kolxoz tuzilmasdan ilgari paydo bo'lgan bu yerda. Keyin uni bir ayol izlab keldi. Nazarimda, singlisi bo'lsa kerak. Devona uni tanidi, chamamda. Ikkovlashib ketishdi. Lekin yil o'tmay Devona yana bu yerga qaytib keldi.

— Novqatdan dedingizmi? Bu yerdan uzoqmi?

— Ana shu tog'ning orqasida. — Asqarali shunday deb ro'parada qorayib turgan tog'ni ko'rsatdi.

— Bizdan oldingi do'xtir uni tuzatishga unnab ko'rmaganmi? — dedi Dilmurod.

— Be, esi butunlarga og'rinib qarardi-yu, nima deyapsiz? — Asqarali kulimsiradi. — Dimog'i osmonda edi. Bekorga qaramasdi. Odamlar hammasiga indamay keldi-yu, omma Fotma kampirning echkisini olganda chidab turolmadi. Kampirni yara bosgan ekan deng, u zang'ar dori keltirib beraman, deb mushtiparning echkisini olibdi. Dumini tugib yubordik. Mana endi, sizlar keldilaringiz...

Bu gapni eshitib, Dilmurodning badani muzlab ketdi. Nazarida, Asqarali tagdor gapirib: «O'zlaring ham odamlarni o'sha do'xtirday shilarsizlar, a?» demoqchi bo'lardi. Dilmurod kalovlanib o'rnidan turdi. Qizining kutayotganini bahona qilib, pastga tushdi. Rhaq unga ergashdi.

Devonaning qachon, qaerdan kelganini hech kim aniq bilmas edi. Uni dastlab mozorbo'shida ko'rdilar. Keyin u pastga tushdi. Samovarxona atrofida aylanib yuradigan bo'ldi. Go'rkovning omonat hujrasida yashay boshladi. Uning ismi ham, kimligi ham qishloqdagilar uchun qorong'i edi. Ba'zan g'udranib, ba'zan kulib, ba'zan yig'lab yuradigan bu kimsaga hamma o'zicha nom bergan edi. Kim «Devona», kim «Mo'ylov jinni», kim «Mozor jinni» deb atardi. Bolalar esa oddiygina qilib «Jinni» deb chaqirishardi.

Devona beozor edi. Qishloqdagi hojatmandlarning, samovarchining yumushini bajarib, nonini halollab yerdi. Samovarxonadan bir necha marta joy qilib berishsa ham turmadi. Mozorga chiqib ketaverdi.

Bir kuni go'rkov uni yoniga chaqirdi. Qo'lga ketmon berib «kavla» dedi. Devona ketmonni qo'rqibgina ushladi. Go'rkovga xavotir ko'zi bilan qaradi. Keyin titroq qo'llari bilan ketmonni nari otib yubordi-da, yig'lamsirab orqasiga tisarildi.

Hammaning yumushini beminnat bajarib yuruvchi Devona, bir necha marta zo'rlasa ham, go'rkovning aytganini qilmadi.

Mol kirmasin uchun atrofi shox-shabba bilan o'ralgan qabriston qishloqdan uncha uzoq emas. Ikki tog' orasidan shiddat bilan oqib chiquvchi katta soy qabriston etagidan xarsang toshlarga bosh urib o'tadi. Devona yashaydigan xujra soydan ellik qadamcha balandda. Uning bisotida kimdir rahm qilib bergan (yoki avvalgi go'rkovdan qolgan) eski

ko'rpagina bor. Hujradan mozordagi har bir qabr yaqqol ko'rinib turadi. Quyosh tog' cho'qqilari ortiga o'tib, toshlar qoraya boshlagan paytda Devonaning turar joyiga kelgan yuraksizroq kimsani vahima bosishi mumkin.

Tun... Sukunat... O'liklar maskani... Barglarning shivirlashi... Tanho devona...

Devona esa vahimali tundan cho'chimas edi.

Ba'zan, samovarxonada ko'rinmagan kezlari, u hujra yonidagi xarsangda cho'nqayib o'tirgancha mozorga tikilardi. Xuddi muhim bir narsani o'ylayotgandek bo'lardi. U dafn marosimlariga barcha qatori xuddi esi butun odamday qatnashardi. Tobut ko'tarardi, yetti qadam sanab yurardi, pichirlab bir narsalar derdi. Mozorga kelgach, bir chekkada sukut saqlab o'tirib, tilovat qilinishini kutardi. Marosim tugagach, hech kimga e'tibor qilmay, hujrasiga kirib ketardi. U faqat Xo'ja piyonning janozasida qatnashmagan edi. Saharda samovarxonaga tusha turib, daraxtga o'zini osib qo'ygan Xo'ja piyonni ko'rganu orqasiga qaytib, ikki kun hujrasidan chiqmay yotgan edi.

Bolalar Devona bilan o'ynashni yaxshi ko'rishar, ammo ota-onalarining gaplariga quloq solib, unga ko'pam yaqinlashishmasdi. U bolalarga po'pisa qilganda, ko'pincha mo'ylovini burab «melisaga bervoraman», deb g'udranardi. Devona bu gapni ba'zan kattalarga ham aytardi. Kecha kayfdan ko'zlari qizarib turgan yigitga shunday dedi-yu, baloga qoldi...

Devona hujrasida ko'rinmadi. Dilmurod eshikni lang ochib, tagiga tosh qistirdi-da, ichkari kirdi. Bo'yra ustidagi yig'ilmagan ko'rpaning bosh tomonida yotgan sariq bir narsa ularning diqqatini tortdi. RhaqMirzavoy engashib uni qo'lga oldi.

— Budyonovkami? — dedi Dilmurod unga yaqinlashib.

— Ha... Ko'p urinmagan...

— Bir paytlar qizil askar bo'lganmikin?

— Asqarali aka «mulla edi», deyapti-ku?

Shu payt tashqaridan kimningdir sharpasi keldi. Uchovi baravar eshik tomon qarashdi. Ostonada Devona ko'rindi. Umida yugurib uni qarshiladi. Qo'lidagi burama qandlarni unga uzatdi.

— Oling, sizga opkeldim.

Devona xuddi Umidani ko'rmagandek, gaplarini eshitmagandek tek qotib turar, ko'zini Dilmurodning qo'lidagi qalpoqdan uzmas edi. Umida hayron bo'lib dadasiga yaqinlashdi.

— Bu dadam, bu Mirzavoy amakim, tanimaysizmi?

Devona yana indamadi. Bir qadam, keyin yana bir qadam bosdi. «A... a...a...» deganicha qalpoqni yulqib oldi. Orqasiga tisarildi. Boshi kesakiga urildi. Qalpoqni bag'riga bosgancha, ichkaridagi kishilardan ko'z uzmay, yigirma qadamcha chekindi. So'ng xarsangga o'tirdi. Shunda ham nigohini ulardan olmadi.

— Ketaylik, — dedi Rhaq asta. Dilmurod bosh irg'adi.

— Manavini bermaymizmi? — dedi Umida katta odamlarning «qilig'iga» tushunmay.

— Keyin, ertaga kelganimizda berarsan.

Ular orqalariga qaray-qaray pastga tushib ketishdi. Kutilmagan mehmonlar daraxtlar panasida ko'zdan yo'qolmaguncha, Devona tosh ustida qimirlamay o'tirdi.

Ular Umidani uyga qo'yib, shifoxonaga kirishlari bilan eshik asta ochildi. Ostonada avval ro'molining bir uchini tishlab olgan ozg'in, rangpar ayol, keyin o'n ikki yoshlar chamasidagi yumaloqqina bola kirib keldi. Ayol salom berdi. Bola indamadi. Ko'zlarini pipiratib, dam oq xalatini kiyib ulgurmagani Dilmurodga, dam qo'lini yuvib, sochiqqa artayotgan Mirzavoy-Rhaqqa qarab turaverdi.

— Keling, yanga, nima gap, tinchlikmi? — dedi Rhaq ayolning salomiga alik olgach.

— Bevaqt kelibmiz shekilli, — dedi ayol xijolat tortib.

- Juda vaqtida keldingiz. Xo'sh, nima bo'ldi, tobingiz qochdimi?
- Xudoga shukr, o'zim sog'man. Manov jiyaningiz... — ayol bolaga ishora qildi.
- Ie, polvon, bu qanaqasi bo'ldi? Qani, beri kel-chi, — Rhaq-Mirzavoy bolaning peshonasini, keyin bilak tomirini ushlab ko'rdi. — Issig'i yo'q. Qani, ko'ylagingni ko'tar-chi, Dilmurod amakisi, bir eshitib ko'ring, polvonimizning qaeri og'riyapti ekan?
- Dilmurod hali bolaga yaqinlashmay turib ayolning so'nik ovozi eshitildi:
- O'zi sog'. Hech qaeri og'rimaydi. Faqat... faqat tildan qoldi.
- Tildan qoldi?! Nimaga?
- Nevlay, chora ko'ringlar deb olib keldim.
- Necha kundan beri gapirmayapti?
- O'n kunmikin...
- Shu tobgacha qaerda edingiz?
- O'tib ketarmikin, debmiz-da.
- Chilyosin o'qitmadinglarmi? — dedi Dilmurod kesatib.
- O'qitdik, hammasini qilib ko'rdik. Bo'lmadi, — dedi ayol soddadillik bilan.
- Bola ilgari qattiq kasal bo'lganmidi?
- Yo'g'-a, bolam bechoraning boshi yostiqqa tegmagan sira.
- Biron narsadan qo'rqmadimi?
- Qo'rqibdi-da. Dadasi to'nlarini daraxtga ilganlaricha qolavergan ekan. Ashi oydinga ko'ziga boshqacha ko'rinibdi.
- Shunga shunchami? Qani, tilingni chiqar-chi? Barakalla. Hech xavotirli joyi yo'q. Mana, Toshkentdan kelgan amakisi birpasda tuzatib qo'yadi. Qani, amakingga qarab qo'y-chi, ko'rdingmi, Toshkentdagi eng katta do'xtir bu kishi. «Professor» deganlarini eshitganmisan? — Bola bosh irg'ab, tasdiq ishorasini qildi. — Shu amaking professor. Maskovda o'qib kelgan. Sendaqalardan mingtasini tuzatib yuborgan. Ukol ham qilmaydi, dori ham ichirmaydi. Sen qo'rqma. Amakingning aytganini qil. Qani, Dilmurodjon, shu polvonni ham gapirtirib yuboring. Evaziga bir chiroyli ashula aytib beradi. A, aytib berasanmi?
- Bola bosh irg'adi. Dilmurod Mirzavoyning maqsadin tushundi: Mirzavoy uning maqtovini keltirish bilan bola yuragida umid uchqunini yoqib qo'ygan edi. Dilmurod kecha gap ustida professor Razzoqovning ish usullari haqida hikoya qilganida shunga o'xshash voqeani ham aytgan edi. Mirzavoy hozir uni shu usulni qo'llashga undab tavakkal qilyaptimi? Axir, Dilmurod sira bu ishga qo'l urmagan-ku! Nima qilish kerak? G'isht qolipdan ko'chdi. Endi tomoshani ustalik bilan davom ettirishdan o'zga chora yo'q.
- Qani, mana bu yerga o'tiring-chi. Tilingizni chiqaring. Barakalla. Ko'zlaringizni ham ko'rib qo'yay-chi, — Dilmurod uning mijjalarini qayirdi, so'ng boshini uqalagan bo'ldi. — Og'rimayaptimi? — Bola yo'q ishorasini qildi. — To'rt marta o'tirib turing. Yaxshi, yoting. Mirzavoy aka, derazaga parda qoqish kerak bo'lib qoldi-ku?
- To pardalar tutilguncha Dilmurod bolaning qo'l-oyoqlariga, boshiga ishdan chiqqan eski elektrokardiografning simlarini bog'ladi. So'ng fonendoskopni bolaning yuragiga olib borib, eshitgichni uning qulog'iga taqib qo'ydi.
- Yurakning urishini eshityapsiz-a? Hozir qorong'i bo'lgach, asbobni burayman. Keyin «Sanang!» deyman. Ichingizda yettigacha sanaysiz. Tushundingizmi? Ovoz chiqarib sanamang tag'in. Keyin ozgina dam olib sakkizgacha, ozgina sabr qilib to'qqizgacha, so'ng o'ngacha sanab, menga «bo'ldi», deysiz. Asbobni o'chirishim bilan ayangizni chaqirasiz. Xo'pmi?
- Bola tasdiq ishorasini qilish paytida ovoz chiqardi. Dilmurodning ichiga chiroq yoqilgandek bo'ldi. Xona qorong'ilashdi. «Sanang», deb buyurdi Dilmurod. Sukunat cho'kdi. Dilmurod ham o'zicha sanadi. Bolaning ovozi chiqishi kerak. Jimlik. Bola

qimirladi. Gapirolmayapti. «Bo'o'... d» ... Dilmurod ishlamaydigan asbobning murvatlarini shaqillatib buradi. Yana jimlik. «A... a...» Dilmurod bolaning yoniga keldi.

— Gapirolmayapsizmi? Qo'rqmang. Tezda ayangizni chaqiring, bo'lmasa simlar oyog'ingizga sanchiladi... — Dilmurod shunday deb uning tizzasiga asta igna sanchdi.— Chaqiring. — Bola yana «A...a», deb ovoz chiqardi. — «Aya», deb chaqiring. Tez bo'ling! — Dilmurod endi ignani qattiqroq sanchdi. — Tez bo'ling deyapman!

U yana igna sanchaman deganda bola «Aya!» deb baqirib yubordi. Mirzavoy pardalarni tushirdi. Ayol turgan yerida o'zini tutolmay: «Aya, degan tillaringdan aylanay», deb piqirlab yig'lardi. Dilmurod simlarni oldi.

— Qani, turing-chi, otingiz nima?

— Ka... ka... g'im... bbeg'di...

— Karimberdimi? Barakalla. Ana, tilingiz chiqdi. Endi qo'rqmay gapiravering.

— Do'xtir amakigaa nima deyish kerak? — dedi Rhaq-Mirzavoy, bolaning yelkasiga qoqib.

— G'..g'g'ah..mat.

— Ana endi ayangizga, yuring, ketdik, deb ayting.

Bola ayasini qo'lidan ushladi.

— Yu...g'ing, k...ket...dik.

— Ana, yanga, Karimpolvon sog'aydi. Endi ajina, ajina, deb yo'q narsalarni tilga olib bolani qo'rqitavermanglar. Ko'proq gapirsin. Tili yurishib ketadi. Ikkinchi irim-sirim qilib yurganlaringni eshitsam, do'xtirxonaga yaqinlashtirmayman. Toshkentday joydan sizlarni deb katta do'xtir kelib o'tiribdi-yu, sizlar chala mullaga qo'y so'yib, ziyofatni begona qilib yuribsizlar.

— Voy, bir emas, o'n qo'y sizlardan aylansin. Dadasiga aytaman, poyondozi solib kutib olamiz.

— Endi buyog'ini qo'ya turing. Bir yo'la Karimpolvonning to'yida hisob-kitob qilamiz.

Ayol qayta-qayta rahmat aytib chiqib ketdi. Dilmurod stulga holsiz o'tirdi.

— Pichoqsiz so'ydingiz, aka. Yuragimni bir eshitib ko'ring, to'xtab qoldi shekilli.

— Hayajonlandingizmi?

— Yana so'raysiz-a? Ish o'ngidan kelmasa, nima degan odam bo'lardik. Yana «professor» deb tanishtirdingiz-a?

— Bu usulni kecha o'zingiz maqtagan edingiz-ku?

— To'g'ri maqtaganman. Lekin hali shakllanmaganini ham aytganman-ku. Bemorni hech bo'lmasa bir-ikki kun tayyorlash kerak edi.

— O'zim qoyilmaqom qilib tayyorlab berdim-ku. Assistentlarning piri bo'lsam ham arzir ekanmi?

— Ishongim kelmayapti. Bunday tajribaning o'ndan birigina muvaffaqiyatli chiqishi mumkin edi.

— Tavakkal ham qilib turish kerak, — dedi Rhaq kulimsirab. U Dilmurodni bu ishga atayin undagan, ayni paytda, Dilmurod pand yeb qolmasin, deb gipnozga shay turgan, bu usul foyda bermagan taqdirda bolaning miyasiga biotoklar oqimini yo'llab, tilga kiritmoqchi edi. Rhaq bu muolajadan so'ng Dilmurodning obro'yi oshajagini bilar, alqissa, unga xuddi shu kerak edi.

Dilmurodning hayajoni bosilmay turib, xonaga Asqarali kirib keldi. Rhaq uning chehrasiga qarab, bir oz sarosimada ekanini sezdi.

— Do'xtir inim, sizlarga bir yumush chiqib qoldi,— dedi u uzun kursiga omonat o'tirib, — mening bir qiyomatli oshnam bor. Ishoq buqoq degan odam. Unaqa askiyachi, unaqa qiziqchi yetti iqlimda yo'q. Shu oshnam og'irlashib qolibdi. Hozir nevarasi aytib ketdi.

O'zingiz bir borib ko'rmaysizmi? Tunovida Mirza inim dori-darmon qilib beruvdilar. Birgalashib borsanglar...

Hayallamay yo'lga chiqishdi.

— Oshnangizning yuraklari baquvvat ekan, — dedi Rhaq-Mirzavoy soy ustiga solingan ko'prikdan o'tayotib. — Ochig'ini aytsam, men o'sha kuni uzilsalar kerak, deb o'ylovdim.

— E, bu odamni azob yegan. Bosmachining qaerdaligini aytasan, deb yerto'laga qamab, ustidan suv bostirishgan ekan. Bo'lmasa, kamida yuz yil yashaydigan quvnoq odam edi, — dedi Asqarali afsuslanib. — Ularning ajdodida sakson-to'qsondan kam yashagan odam bo'lmagan. Otasini sakson yettida yerga qo'yishgan. Rahmatli polvon odam edi. Payg'ambar oshini tortgandan keyin ham uloq chopardi. Azroilning changalidan qutulish mumkin edi-yu, ammo uning changalidan uloqni ajratib olib bo'lmasdi. Ho'kizni chertib qulatadigan kuchi bo'lsa ham sira kurash tushmasdi. Keyin sababini bilsam, yigitlik chog'ida bir polvonni ezib, mayib qilib qo'ygan ekan. Shu-shu birovga ozor bermay o'tib ketdi, rahmatli. Ishoq buqoq ham otasiga o'xshaydi. Chivinga ozor yetkazganini bilmayman.

— Dunyoning ishlari qiziq, — dedi Dilmurod Asqaralining gaplarini eshitib. — Kuchli odamlarning bag'ri ham keng bo'ladi. Katta polvonlar zaiflarni sira xafa qilmaydi. Ziyolilarda ham shunday o'tkir iste'dod egasi boshqalarga yaxshilik qilish uchun hamisha vaqt topadi, birovga halaqit bermaydi, faqat qo'llaydi. Ilm atrofida adashib, o'ralashib yurganlar esa butun vaqtini, kuchini, o'zini aqlli qilib ko'rsatish uchun chiranishga sarflaydi. Jimgina sarflasa ham mayliga, boshqalarning asabi, tinchini buzish hisobiga kun ko'radi.

— E, Dilmurodvoy, inim, bu hamma yerda bor kasal.

— Olimlarning ko'pi odamdagi chap miya qobig'i asosiy, o'ngdagisi unga yordamchi, mustaqil faoliyati yo'q, odamning iste'dod darajasini ana shu chap miya belgilaydi, deyishadi. Men esam odamlarning chap miyasi kam shakllangan deyman.

— Ularda chapi ham o'ngi ham shakllanmagan, deyavering, — Asqarali shunday deb qo'l siltadi.

Rhaq Dilmurodning gapini eshitiboq, maqsadini aniqladi. Dilmurod odamlarning chap miya qobig'iga «dominant», o'ng qobig'iga esa «subdominant» deb sifat berishiga qarshi edi. U isbotga kuchi yetmasa ham, o'ng qobiq oddiy simmetriya emas, ya'nikim, asosiy hisoblanadigan qobiqqa butkul bo'ysunmaydi, uning o'ziga xos mustaqil yumushi bor, deb o'ylardi. Professor Razzoqov Dilmurodning bu fikrini to'la quvvatlamasa ham tajribalariga yordam berardi. Umuman, odamlarning xatti-harakati, xastalikka nisbatan chidami bilan qobiqlar haqidagi bu g'oyaning nomutanosib ekani oydin bo'lsa-da, ko'pchilik bundan ko'z yumar, ochiq fikrlashdan cho'chirdi. Chunki, uzoq yillar mobaynida mutloq hokim bo'lib kelgan g'oyani noto'g'ri deyish, haqni isbot etish «Marksizmga zid fikrlovchi olim» tavqi la'nati ostida qamalish, hatto otilish uchun qadam qo'yish demak edi. Holbuki, bu g'oyaning o'zgarishi ko'p kasalliklarni davolashga yo'l ochib berishi mumkin edi. Rhaq Dilmurodning xayolida yashirinib yotgan bu to'g'ri fikrni o'qib, yana bir bor xursand bo'ldi.

Olmazorni oralab o'tib, kichik yalanglikka chiqishdi. O'rtada pastak uy. Oldi ayvon, uyning chap biqinida qiyshiq tandir. Bahaybat o'rik shoxlari yalanglikka ko'lanka solib turibdi. O'rikka bog'langan eshak boshini eggancha qimir etmaydi. Ahyon-ahyonda dumi bilan xira pashshalarni haydaydi. Bu ham ta'sir etmagach, orqa oyoqlari bilan depsinadi. Atrofida o'ralashib yurgan uch-to'rt tovuq eshakning bu qilig'iga parvo qilmaydi.

Ishoq ota ayvonda, eskirgan namat ustiga to'shalgan ko'rpada shiftga tikilgancha yotardi. Ko'zlari botiq, yonoqlari turtib chiqqan. Mushtdek buqog'i iyagiga tiralib turibdi.

Et suyakka yopishgan, qimirlashga majoli yo`q. Otani yelpib o`tirgan kelini mehmonlarni ko`rib, o`rnidan turdi.

— Keldimi? — so`radi ota zaif tovushda.

— Yo`q... Asqarali tog`a bilan mehmonlar kelishdi.

— Darrov dasturxonga qarang, qizim.

Asqarali do`stining qo`lini olib, hol so`radi.

— E, so`rama, u dunyoga bir borib, bir qaytib kelyapman, — dedi ota zaif ovozda.

— Shu yotishingda u dunyoga borib kelyapsanmi, a? — dedi Asqarali gapini hazilga burib, uning ko`nglini ko`tarish uchun. — Balosan, buqoq, balosan. Menga qara, u dunyoda kimlarni ko`rding. Enangdi ko`rmadingmi?

Ishoq ota do`stining ko`ngli uchun jilmayishga harakat qildi. So`ng ixranib bo`lsa-da, javob berdi:

— Yo`q, seni enangdi ko`rdim.

— Nima dedi, kelib tursin, demadimi ishqilib?

— Yo`q, indamadi... — Ishoq ota tamshandi. Ammo so`zi chala qolmasin uchun o`zini majbur qilib gapini davom ettirdi: — Enang jannat bilan do`zaxning naq o`rtasida... U yoqqa o`tganlarning ham, bu yoqqa o`tganlarning ham yuzini chakichlab o`tiribdi...

Asqaralining cho`tirligiga shama qilib aytilgan bu qochiriqdan hamma miriqib kuldi. Ishoq ota ham rangiga bir oz qon yugurganday bo`lib, jilmaydi.

— Olding, buqoq, olding. Ana, aytdim-ku, bunaqa askiyachi yo`q, bu dunyoda deb, — dedi Asqarali, o`zini kulgidan tiyolmay. Keyin, hazil-mutoyibani davom ettirishga otaning majoli yo`qligini bilib, muddaoga ko`chdi. — Toshkentlik do`xtir o`g`ling, ota bilan birga otamlashaylik, deb keldi.

— Ha, mehmon boshlamasa, o`zingcha kelay ham demaysan. Nevaralaring omonmi, ishqilib. Ha, Xudo to`zim bersin. Mehmonlarni zeriktirib qo`ymayapsanmi?

— Mehmonlar ish bilan ovora. Mehmonligi qolmadi. Manavi do`xtir o`g`ling: «Shuncha yil yurib, Ishoq otanikidek baquvvat yurakni ko`rmagandim, oh-voh qilib yotishlari nimasi?» deyapti.

Ishoq ota yana jilmayishga harakat qilib Mirzavoy-Rhaqqa qaradi.

— Men «Ishoq otangizning dardlari boshqa tomonda. Toshkentga kuyov qilmasangiz bo`lmaydi», dedim.

— Tegishasan-a? — dedi ota. Unga Asqaralining hazili ma`qul kelgan, yuragida yana askiyaga mayl uyg`otgan, lekin uni tilga chiqarishga endi qurbi yetmas edi.

— Qani, inim, kuyov to`raning yuraklariga yana bir qo`l solib ko`ringchi, sizga nima der ekan, — dedi Asqarali Dilmurodga qarab.

Ota ko`rpa ustida majolsiz cho`zilib yotgan o`ng qo`lini salgina ko`tardi:

— Kerakmas.

Dilmurod savol nazari bilan Asqaraliga qaradi. Asqarali hech narsa bo`lmagandek gapni boshqa tomonga burdi:

— Abdulhay qani?

— Raisni yo`qlab ketdi.

— Raisni nima qilarkan?

— Men aytirdim. Ikki og`iz so`zim bor.

— E, bu errayimga so`z hayf, ovora bo`lganingga arzimaydi.

— Yo`q, aytib ketishim kerak. Nasihat bizdan lozim. Omma sizlar ehtiyot bo`linglar, sopi o`zimizdan chiqqan.

Asqarali mehmonlarga qaradi.

— Eshitganmisiz?

— Nimani?

— Sop haqidagi rivoyatni?

— Yo`q.

— Buqoq, do`xtir o`g`illaring bu hikmatdan bexabar ekan, aytib ber.

— O`zing aytaqol, og`zim quruqshab ketdi.

Asqarali piyoladagi choyni otaning og`ziga tutdi. U ikki yutum ichib, tamshandi.

— Bir o`rmonda Bolta paydo bo`lib, daraxtlarni birin-sirin qiyrata boshlabdi, — dedi Asqarali piyolani joyiga qo`yaturib. — Daraxtlar kekxa Chinorning oldiga maslahat so`rab kelishibdi. «Bolta deganlarning nima, temirmi?» deb so`rabdi Chinor. «Ha», deyishibdi daraxtlar. «Dastasi-chi, dastasi ham temirmi?» — debdi Chinor. «Yo`q, — deyishibdi daraxtlar. — Sopi og`ochdan». «Ie, sopi o`zimizdan ekan-ku, endi dodimizni kimga aytamiz?» — degan ekan Chinor.

— Xalqimiz xo`p donishmand-da. Bunday hikmat tushimga ham kirmagan edi, — dedi Dilmurod hayajonlanib.

Daraxtzor orasida ikki kishining sharpasi ko`rindi. Oldinda rais, orqaroqda Abdulhay.

Abdulhay suv sepilgan yerdan o`tayotib oyog`ini tap-tap urdi-da, etik changini qoqdi.

— Kelishdimi? — deb so`radi ota boshini burishga harakat qilib.

— Ha, kelishdi, — deb javob berdi Asqarali.

Salom-alik, hol-ahvol so`rashishdan so`ng, ota raisga murojaat qildi.

— Mamarayim, inim, ishing ko`p bo`lsa ham chaqirtirdim, xafa bo`lma.

— Xafaligi bormi, o`zim ham kelaman, deb turuvdim. Dalaning ishi qaynab ketdi, bilasiz-ku... O`zingiz tuzukmisiz ishqilib, rangingiz durust, ko`z tegmasin.

— Xudo deb yotibmiz, inim. Senga aytadigan so`zim bor edi. Gapimni bo`lmay eshit: bir kishining uch o`g`li bor ekan. Vaqti-soati yetganini sezgan ota merosini kimga qoldirishni bilmay boshi qotibdi. Keyin bolalarini sinash uchun ularni uch tomonga yuboribdi: «Odamlarga bittadan yaxshilik qilib qaytinglar», — debdi. Ishoq ota rivoyatning davomini eslamochi bo`lganday jimib, ko`z yumdi. Asqarali sergaklanib, uning peshonasiga kaftini qo`ydi. — Suv ber, oshnam, — dedi Ishoq ota tamshanib. Labini ho`llab olgach, ko`zini ochib davom ettirdi. Aytadiganini aytib olishga shoshilib, bu safar tezroq gapirdi: — Kattasi bilan o`rtanchasi otaning amrini bajarib, tezda qaytibdi. Biri nogiron kishining, biri ojiz kishining yumushini beminnat bajarib beribdi. Ammo kenja xiyla hayallab qaytibdi. Buning uchun akalaridan dakki eshitib, yerga qarabdi. So`ng otasiga hisob beribdi: «Dada, falonchini bilasiz-a, ashaddiy dushmanim, har lahzada jonimni olish uchun payt poylaydi. Otasi sizning dushmaningiz edi. Ketayotsam, ashi tikka jarning yoqasida uxlab yotibdi. Bir ag`darilsa, jarga qulab o`ladigan. Men uni uyg`otib yubormaslik uchun sekin-sekin surib, chetga olib qo`ydim». O`shanda ota quvonib, merosini kenjasiga qoldirgan ekan... Asqarali, choydan... Umring uzun bo`lsin, oshnam... Qissadan hissa shuki, bobolarimiz eng razil dushmaningga ham yaxshiligingni ayama, degan. Men bu gaplarni o`zim to`qiganim yo`q. Tog`angdan eshitganman. Har jumada shunaqa ibratli va`z aytardi. Donishmand odam edi, ba`zi g`alamislar so`zi bilan bekorga quloq bo`lib ketdi, bechora.

— Bizning urug`da unaqa ruhoniylar bo`lmagan, quloqlar ham, — dedi rais jahl bilan.

— Achchig`ing chiqmasin. Tog`angdan nima uchun tonayotganingni bilib turibman. Hali zamon tinchib ketadi. Qarindosh-urug`dan kechish yaramaydi.

— Qo`ying bu gaplarni!

Asqarali «Tek o`tir, rais!» deb turtib qo`ydi. Mamarayimning sholg`omsifat yalpoq burni oqarib, taram-taram peshonasida ter ko`rindi. Tumtayib oldi.

— Agar bironta odamga yaxshilik qilish qo`lingdan kelmasa, hech bo`lmasa, yomonlik qilma. Bu ibratni ham tog`angdan eshitganman. U, balki, tog`ang emasdir, balki chindan

ham sen aytganday «xalq dushmani» bo'lgandir. Ammo haq gaplarni aytib ketgan. Shu ibratlarga amal qilsang, baraka toparding.

— Men shu topgacha birovga yomonlik ravo ko'rganim yo'q. Bo'lsa shu kolxozga bo'lsin, deb jonimni jabborga beryapman. Bitta to'nim hali ikki bo'lgani yo'q.

— Durust... Birovga yaxshilik qilaman deysanu ko'ngliga ozor berib qo'yasan.

— Nima, meni tergash uchun chaqirganmisiz?

— Yo'q, — dedi Ishoq ota, - ikki og'iz nasihatim bor. Aslida, men seni qarg'ashim lozim edi. Lekin buning foydasi yo'q... Shamolda shildirayotgan makkayining barglarimi?

— Ha.

— Ilgari makkayining o'rni nima edi?

— Bog' edi.

— Men bu bog'ni yigirma yil parvarish qilgan edim. Xudo umr bersa, anavi tepalikni ham bog' qilaman, degan umidim bor edi. Atti bog' qilish Abdulhayning chekiga tushgan ekan. Baraka topsin. Sendan ilinjim shuki, inim, rais bo'lsang, odil rais bo'l. Ko'p bilan kengashib ish yurit. Bog'larni xazon qilma, uvoli tutadi. Gunohi o'zingga urmasa, bolalaringga uradi.

— Bog'ingizni buzdirgan bo'lsam, tashlab qo'yganim yo'q. Bog'dan foyda kam kolxozga. Makkayining foydasini yeb yotibsizlar-ku!

— Makkayiga bo'lak joy qurib ketgan edimi?..

Ishoq ota shunday deb jerkidi-da, yana ko'zini yumdi. Asqarali unga choy tutdi. Ishoq ota tamshan-di-yu, choydan ichmadi. Asqarali piyolani Abdulhayga uzatib, «suv bering», dedi keyin «paxta ham» deb pichirladi. Ota ko'zini ochdi. Bu safar raisga qaramay shiftga tikilib gap boshladi:

— Dovonda muzlab qolgan odamlarni ko'rgan edim. Tik qilib qo'ysang, xuddi tirik odamga o'xshaydi... Sen ham o'sha murdalarga o'xshab qolma. Sirtida jon boru ichi o'lik odamlar xalqning qarg'ishiga qoladi-ya!

Rais g'azabdan bo'lg'lsa ham, o'zini tutdi. Jon taslim qilay deb yotgan qariya bilan olishishga jur'at etmadi. Uning bosh egib o'tirganini ko'rgan Ishoq ota ham gapni kalta qildi. Abdulhay otasining imosi bilan kosalarda sho'rva keltirdi. Asqarali orada hech qanday og'ir gap o'tmaganday gurungni boshladi. Rais ham sal ochilib, kolxozga yangi traktor undirayotganini aytib, maqtandi. Abdulhayning bog'iga oqsoqollar hordiq chiqaradigan shiypon qurdirajagini bildirdi. Keyin otaga sihatlik tilab, chiqib ketdi.

Rais ketgach, Ishoq ota gapirmay, ko'zini bir ochib-bir yumib, tamshanib yotdi. Shom qorong'isi tushganda Abdulhayni chaqirdi.

— Bolam, omonatimni topshirguday bo'lsam, bog'ingga qo'y, bog'ingni qo'riqlab yotay, devdim, esingdami?

Abdulhay bosh irg'adi.

— O'ylab qaragam, shayton vasvasasiga uchgan ekanman. Yolg'iz yotishdan Xudo asrasin ekan. Ko'pning orasiga qo'yaver. Raisga insof berib, bog'ingga shiypon qursa, ko'pning duosini olasan. Ana shu duo arvohimga madad bo'ladi, bolam...

Asqarali Mirzavoy-Rhaq bilan Dilmurodga ruxsat berdi. Ammo ular shu yerda qolish istagini bildirishdi.

Ayvonga bir sidradan ko'rpacha tashlab yotdilar. Biroq ko'zlari ilinavermadi. Oy tikkaga kelganda ot tuyoqlarining ovozi eshitildi. Otliqlar qabriston tomonga o'tdilar. Dilmurod bir Asqaraliga, bir Mirzavoyga qaradi-yu, tungi otliqlar haqida so'ramadi. Qabristonga qarab yotaverdi. Tepalikda Devonaning hujrasi qorayib turibdi. Bir ozdan so'ng qabristonda qora sharpalar ko'rindi. «Otliqlarmi?» deb o'yladi Dilmurod. Yana Asqaraliga qaradi-yu, so'rashga botinmadi. Otlarning kishnashi eshitildi. Dam o'tmay qabristonda olov ko'rindi.

— Uyqungiz kelmayaptimi? — deb so'radi Asqarali uning bedorligini bilib.
— Qarang, o't yoqishyapti.
— Mozordami? Ha, Abduholiqning urug'lari bo'lsa kerak?
— Nimaga bunday qilishyapti?
— Irimi shunaqa. Bir oiladan ketma-ket odam o'laversa, tunda qabrlarga ot soladilar. Oyog'i yozilmay qolgan murda odam chaqirarmish. Ot o'shaning qabridan oshib o'tolmas ekan. O'sha murdani yo qiymalab chopadilar, yo yoqadilar.
— Biz tomonlarda murdani oyog'ini uzatib qayta ko'mishadi. Bu yerdagisi dahshatku!
— Dahshat deysizmi? Yo'q, bu ota-bobolarimizdan qolgan odat.
— Shu bilan o'lim to'xtaydimi?
— Ba'zan to'xtaydi.
— Axir o'limning ketma-ket kelishi avlodlardan avlodga o'tuvchi kasalliklar natijasi-ku?
— Buni biz tushunmaymiz, inim... — Asqarali shunday deb yonboshga o'girildi. Shu bilan suhbat ham tugadi.

Gulxan ancha vaqtgacha yonib turdi.

Ishoq otaning joni tongda uzildi. Uning uzilganini sezmay qolishdi. Beozorgina jon berdi...

Atrofi oq mato bilan o'ralgan tobut yerdan uzildi. Ayollar yuzlarini timdalab, faryod ko'tardilar. Abdulhay lahadga tushib otasini qo'yayotganda, Asqarali to'ning etagini ochib davra aylandi. Odamlar bir siqimdan tuproq olib, pichirlab duo o'qib, kuf-suflab etakka tashlashdi. Hammadan chekkaroqda o'tirgan Devona ham tuproq oldi-yu, joyidan jilmadi. Asqarali buni sezib unga yaqinlashdi. Devona duo o'qimayotgan bir kaft tuproqni etakka tashladi-da, unga qarab tirjaydi.

Asqarali to'plagan tuproqni lahadga to'kdi.

— Devonaga borganing nimasi edi? — dedi go'rkov norozi ohangda.

— U ham odam-ku...

Go'rkov lahad og'ziga guvala terib bo'lgach, Ishoq otaning yaqinlari ketmonni qo'lma-qo'l olib qabrga tuproq tortishdi. Bu manzarani bir chetda turib kuzatayotgan Rhaq o'yga toldi: mana shu tumonat odam ichida Ishoq otaning qarindoshlari ham, yetti yot begonalar ham bor. To'g'ri, ularning barchasi ko'z yosh to'kib, bir xilda qayg'urishmayapti. Ba'zilar otaning qo'lidan, hatto bir piyola choy ichmagan, hamsuhbat bo'lmagan, salom-alikdan nariga o'tmagan. Ammo ular ham kuyinishyapti. Bir odam bolasining bu dunyoni tashlab ketganiga achinishyapti. Erta-indin mana shu tuproq tortayotganlardan biri qarimi, yoshmi ko'z yumsa ham shu hol takrorlanadi. Odamlar uning o'limidan kuyunadilar. Mana, hatto Rhaqning o'zi ham achinyapti. Achinyapti? Qiziq, axir unda bunday his sira uyg'onmas edi-ku? Hatto o'g'li, xotini uchun ham bu qadar achinmagan edi. Nahot odamlarning tuyg'ulari unga ham o'tayotgan bo'lsa?

TALVASA

Gala-gala qo'ng'ir bulut osmonni artib, uzoqdagi cho'qqilar tomonga o'tib ketdi. Ikki kundan beri o'sha yoqda uzluksiz chaqmoq chaqadi, momaqaldiroq gumburlaydi. Vodiy tomondan kelgan bulutlar go'yo yordamga shoshayotgandek qishloq osmonidan tez suzib o'tadi. Momaqaldiroq qattiq jaladan darak berar, ammo tabiatning bu bemavrid ehsonidan qishloq hozircha holi edi. Faqat kunning tafti qaytib, kechalari ancha salqin bo'lib qoldi.

Tamaking barglari uzun kanoplarga terilib, shoda-shoda qilib qo'yilgan. Sarg'ayib qolgan shodalar erta-indin olinadi. Qog'oz kabi tekislab, bittadan taxlab, omborga jo'natilgach, ko'chalar huvillab qolgandek bo'ladi. Qor isi kelib, daraxt barglari umrini yashab, xazonrezgi boshlanadi. Keyin qor tushadi. Hamma uyiga tiqiladi. Tongotargacha davom etuvchi gap-gashtak boshlanadi.

Asqarali tamaki barglarining shodalariga qaragancha shularni o'ylab borardi. Uning mashqi ancha past. Yarim qadam orqada kelayotgan Dilmurod buni sezib, hamrohini gapga tutmadi. Guzarga yetishgach, Asqarali Dilmurodni choyga taklif qildi. Dilmurod tunda bir qarorga kelgan, hozir Mirzavoy-Rhaqqa maqsadini ayon aytmoqchi edi. Shu sababli Mirzavoy samovarxonada ko'rinmagach, shifoxonaga o'tishni ma'qul ko'rib, Asqaralining taklifini yerda qodirdi. Asqarali buni ko'ngliga olmadi. «Picha turib choyini o'zim olib chiqaman», deb tosh zinadan yuqoriga ko'tarildi.

Dilmurod ichkariga kirganda Rhaq Fid bilan xayolan bahs qilib o'tirardi. Keyingi kunlarda ko'rgan-kechirganlari, o'zi sezmagani, holda, achinish hissini uyg'otgan va bu xayoliy bahsga turtki bo'lgan edi. U Dilmurodni ko'rib, o'rnidan turdi. Hol-ahvol so'radi. Keyin oraga jimlik cho'kdi. Dilmurod gapni nimadan boshlashni bilmay kalovlandi. Keyin dangal maqsadga ko'cha qoldi.

— Men siz bilan maslahatlashmoqchi edim, — dedi u sukutni buzib.

— Agar mendan biror aqli gap chiqishiga ishonsangiz, marhamat, — Mirzavoy shunday deb jilmaydi. Biroq bu jilmayish yuzidagi o'ychanlik pardasini ko'tara olmadi.

Tashqarida supurgi ushlagan Saboxon ko'rindi. Dilmurod oq xalatini kiygach, titilib yotgan charm divanga o'tirdi. Rhaq deraza yonidagi stulni divanga yaqinroq surdi.

— Men Devonani davolashga urinib ko'rmoqchiman. — Dilmurod, gapim qanday ta'sir etdi ekan, deb hamsuhbatiga tikildi. Rhaq Dilmurodning ruhiy xastaliklar bo'yicha mutaxassis ekanini, Devonani dastlab ko'rgandayoq uni davolamoqchi bo'lganini sezgan edi. Ammo hozir uning qarashidagi ma'noni anglab, kutilmagan xabar eshitgan odamdek atayin hayratlandi.

— Shu mo'ylovnimi? — dedi go'yo ishonqiramay.

— Ha, o'shani. Ammo bu ishni bir o'zim uddalay olmayman. Siz yordam bera olasizmi?

— Menmi? Men-ku, jon-jon deb ko'maklashaman. Lekin... umrimda... bunaqa ishlarga aralashmaganman. O'zingiz bilasiz, texnikumning ta'limi bilan...

— Ha, texnikumda juda sayoz bilim berishadi. Hechqisi yo'q. Men qo'ldan kelgancha o'rgataman.

— Rahmat, Dilmurodjon.

— Demak, rozisiz. Lekin bu hozircha ikkalamizning o'rtamizda sir saqlanishi kerak. Chunki ishimizning oqibati hali noma'lum. Meni kutib olganingizda, katta chamadonimni ko'rib: «Butun Toshkentni ko'tarib kelganmisiz?» — degan edingiz. O'sha chamadonda o'zim yasagan bir yangi asbob bor. Unga TET — Toshkent elektron tabibi, deb nom qo'yanman. Men bu yerga ikki maqsadda kelganman: birinchisi — tashqi muhitning, turli voqea-hodisalarning inson ruhiyatiga ta'siri, to'g'rirog'i, ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarishini chuqurroq o'rganish, ikkinchisi, iloji bo'lsa, TETni sinab ko'rish...

«Qaynotasining hibsga olinganini yashiryapti. Axir, bu yerga kelib qolishining asosiy sababi o'sha-ku? Buni mendan qachongacha yashirar ekan?» — deb o'yladi Rhaq. Ammo sir boy bermay, o'zini bilmaganga oldi.

— Birinchi maqsadingiz-ku, tushunarli, ammo ikkinchisi asossiz, — dedi u. — Nima, tajriba uchun Toshkentda jinni yo'qmi? Undan keyin, yangi asbobni avval hayvonlarda sinab ko'rish kerak shekilli? Bu o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas-ku!

— To'g'ri, o'z-o'zidan bo'lmaydi. Avvalo TETni hayvonlarda sinab bo'lmaydi. Chunki hayvonlarning jinnisi bo'lmaydi. Ilmiy kengash barcha ma'lumot va xulosalarimni tahlil etib, uni tajribada sinashga ruxsat bergan. Jinni masalasiga kelsak, ruhiy kasallar klinikaga tushganlarini oz bo'lsa-da, his etadilar. Ular to'rt devor orasida yashashni istamaydilar. Ozodlikka intiladilar.

— Esi borlar intilmaydimi? Ozodlik hammaga ham yoqadi.

— Klinikadagi bemorlar bilan ozodlikda yurganlari o'rtasida farq bor.

— Yaxshi. Unda bemalol sinab ko'ravering.

— Qanday sinayman? Avval Devonaning qarindoshlari bilan tanishib, kasallik tarixini aniqlashim kerak.

— Ha, ahvolingiz og'ir, og'ayni. Ayrim tahlillarni olish ham mushkul. Elektroentsefalografiya uchun markazga borish kerak. U yerda ham imkon bormi, yo'qmi, bilmayman.

— Ba'zan bo'g'ilib ketaman-da, Mirzavoy aka, shu narsa yuzaga chiqqaniga salkam yigirma yil bo'ldi-ya! Yigirma yildan beri uni qo'llash tuzukroq yo'lga qo'yilmagan.

— Siz bo'g'ilavermang. TETingiz yaxshi natija bergan taqdirda ham uni barcha yerda qo'llanishiga erishish uchun yana yugurasiz. Kashfiyot qilishga nisbatan uni ommaviy qo'llashga erishish og'irroq.

— Nega shunday? Axir, odamzot yangilikka chanqoq-ku?

— Dunyoda oq rangdan tashqari qorasi ham bor. Yangilikka chanqoqlik bilan loqaydlik qo'shni bo'lsa, nima deysiz? Loqaydlik ko'lankaga o'xshagan narsa — chopib ham, ko'mib ham bo'lmaydi.

Dilmurod o'rnidan turib deraza oldiga bordi. Saboxon tarvaqaylab o'sgan tolning soyasida bir juvon bilan gaplashib turibdi. Dambadam Dilmurod tomonga qarab qo'yadi. Atayin qarayaptimi yo Dilmurodga shunday tuyulyaptimi?

Rhaq Dilmurodning yoniga kelib yelkasiga qo'l tashladi.

— Bo'g'ilgan bilan ish bitmaydi. Devorga duch kelsangiz, boshingiz bilan urib teshib o'tmaysiz-ku. Devorning yonida aylanma yo'l ham bo'ladi.

— Mumkin emas-da, Mirzavoy aka!

— Bilib qo'ying, hatto qonunlar ham mutlaq emas, o'zgarib turadi.

— Yozilmagan qonunlar ham bor-da.

— Hatto ular ham vaqti-soati bilan tahrirga muhtoj bo'lib qoladi. Sezib yuribman, kelganingizdan beri jinniga razm solasiz. Unga allaqachon diagnoz ham qo'ygandirsiz.

— Taxminan qo'ydim.

— Qanday diagnoz?

— Total esipastlik — diffuz dementsiya sindromi. Bosh miya po'stlog'ining diffuz zararlanishi. Xotira, diqqat, nutq, tahlil, xulosa chiqarish, tanqid qilish, umuman, aqliy faoliyat qobiliyati ishdan chiqqan.

— Masala ravshan ekan, tajribani boshlayvering.

— Qanday qilib boshlay? Asbob uzoq masofadan ta'sir etmasa, jinnini bu yerga olib kelib, yotqizib bo'lmasa...

— TETingizning ishlash jarayonini aytib bering-chi, bir ilojini topamiz.

— Bemorni yotqizib ensasiga, orqa miyasiga elektrodlar qo'yish kerak. Keyin quyi chastotali kam kuchdagi impuls tok bilan miya to'qimalarini qitiqlab uyg'otamiz.

— Tushundim. Demak, elektr bilan talvasaga tushiramiz.

— Yo'q, unday emas. Odam a'zolariga bunday qo'pol aralashuvni biz eng so'nggi chora deb bilamiz. Men unga butunlay qarshiman.

— Retrograd va aterograd amneziyalar tipidagi xotira yo'qoladi, demoqchimisiz?

— Bugina emas, miya to'qimalariga qon quyilishi mumkin. TET esa bunga yo'l qo'ymaydi. U gippokampni yoki talamusni asta qitiqlaydi. Agar miyaning bu bo'limlarida ma'lum darajada tormozlanish jarayoni mavjud bo'lsa, elektrodning qitiqlashi natijasida bu bo'laklar miyaning umumiy ish jarayoniga bog'lanadi.

— Psixiatr bo'lmasam ham maqsadingizga tushundim. Endi bunday qilamiz: jinni amakini shifoxonaga ishga olamiz. Qarshi emasmisiz?

— Qarshi emasman... Lekin...

— Demak, kelishdik. Xizmatdan so'ng Dilmurod Musaev rahbarligidagi vrachlar delegatsiyasi Mo'ylov hazrati oliylarini lutfan ishga taklif etgani boradi. Ha, aytmoqchi, unga biron ism qo'yishimiz kerak. Jinni, deb chaqirmaymiz-ku?

— To'g'ri, ism tanlashimiz zarur.

— Nima desak ekan... — Rhaq avvaliga «Sabohiddin» demoqchi bo'ldi. Lekin bu bilan Devonani cho'chitib qo'yishini bilib, xayoliga kelgan birinchi ismni aytdi: — Shopo'lat! Bo'ladimi?

— Shoh qilib yubordingiz-ku.

— Jinni o'zini shohdek his qiladi-da...

— Nima, unda shunday maniya alomati bormi? O'zini chindan shoh his qiladimi?

— Buni bilmadim. Shunchaki aytdim-da. — Rhaq shunday deb Dilmurodning soddaligidan kulib, yelkasidan quchdi.

— Bu taklifingiz yaxshi. Ammo yana bir ish qilishimiz kerak. Novqatga borib kelmasak bo'lmaydi.

— Nimaga?

— O'sha yerda singlisi bor ekan-ku, uning tarixini bilishim kerak.

— Kerakmi yo shartmi?

— Shart. Siz Freyd degan olimni eshitganmisiz?

— Freyd? — Rhaq eslamog'chi bo'lgandek, o'yg'a soldi. Avvalgi safar Yerga kelganda barcha olimlar qatori Freydni ham o'rgangan edi. Freyd ta'limotini ayrimlar noto'g'ri hisoblagani uchun Dilmurodning bu boradagi fikridan ogoh bo'lish niyatida: «Yo'q, eshitmaganman», dedi.

— Hozir G'arbda freydizm tamal toshi bo'lib qolgan. Ular psixikani moddiy sharoitlar bilan uni tug'diruvchi sabablardan ajratib o'rganadilar. Yana birovlar Freydni tahrir etib, shaxs takomilida muhitning ta'sirini yetakchi o'ringa qo'yishadi. Lekin shaxs bilan muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni butunlay inkor etishadi. Har ikkala yo'l ham qip-qizil mantiqsizlikning o'zi. Biz odam miyasi haqida bir qarashda juda ko'p, haqiqatda esa juda oz narsa bilamiz. Miyadagi kimyoviy reaksiyalarda, hatto molekulalarda insonning oddiy his-tuyg'ularidan tortib, og'ir qayg'ularigacha jamlanadi. Shuning uchun ham bemor bilan vrach o'rtasida mutlaq yaxshi munosabat va ishonch bo'lishi kerak. Biz xastalikning eng so'nggi bosqichi bilan yuzma-yuz turibmiz. Palapartish ish boshlasak, pand yeymiz.

— Yaxshi, bu shartingizga ham ko'ndim. Raisga giyoh terib kelamiz, deymizu Novqatga jo'naymiz. Istasangiz, ertagayoq...

— Yo'q, avval Devonani o'zingiz aytgandek «ishga olaylik». Keliningiz bugun-erta, uyga qaytadi. Ularni kuzatay. Novqatga keyin boramiz.

Oqshomda ikki doktor Devonaning makoniga qarab yo'l oldi. Samovarxonada emasmikin, deb guzardan o'tdilar. Devona hujrasida ham yo'q edi. Rhaq atrofga alanglab Dilmurodni chaqirdi.

— Qarang, — dedi u soy tomon ishora qilib.

Soy bo'yida Devona bilan Umida o'tirardi. Umida yerda to'p bo'lib turgan toshchalarni bir-bir olib kaftiga to'plar, Devona esa qiziqsinib, qizchanning qo'lidagi toshchalardan ko'z uzmas edi. Umida o'yin qoidasi bo'yicha barcha toshlarni kaftiga to'plagach, Devonaga

tutdi. Devona uquvsizlik qilib toshchalarni sochib yubordi. Umida arazlagandek yuzini burdi. Devona qizchani ranjiganini anglab, irg'ib o'rnidan turdi-da, suvga tushib toshchalar terdi. Keyin o'z ishidan mamnun bo'lib, suv ichida irg'ishlab, rangli toshchalarni ko'z-ko'z qildi.

— Onasi g'aflatda qolganga o'xshaydi, — dedi Dilmurod bu manzarani kuzata turib. Keyin bosh chayqab qo'yib pastga tusha boshladi. Umida otasini ko'rdi-da, hayiqqanicha turib qoldi. Soy o'rtasida irg'ishlayotgan Devonaning yuzidan kulgi yo'qoldi.

— Hormang, Shopo'lat aka, — dedi Rhaq ularga yaqinlashib. — Izlamagan yerimiz qolmadi. Umida qizimizni zeriktirmayapsizmi ishqilib? Qani, bu yoqqa chiqing-chi.

Devona «Shopo'lat aka kim ekan», degandek yon-atrofga qarab asta qirg'oqqa chiqdi.

— Qayoqqa qarayapsiz? — dedi Rhaq, — Shopo'lat akani qidirayapsizmi? Shopo'lat aka o'zingiz-da. Otingiz Shopo'latmi, axir?

— Ha, ha. Shop... Shopo'lat, — Devona shunday deb kuldi.

— Qani, qo'lni bering.

Devona Mirzavoyning kaftiga shapillatib urdi-da, rohat qilib kuldi.

— Ana endi Umidaning dadasi bilan ham ko'rishib qo'ying-chi... Devona Dilmuroddan bir oz hayiqib qo'l uzatdi.

— Gap bunday, Shopo'lat aka. Samovarxonada ishlab zerikkanga o'xshaysiz-a?

— Ha, ha. Zerikdim. Zerikdim. Hi-hi-hi...

— Endi bizning samovarxonada ishlaysiz.

— Ishlayman, ishlayman, hi-hi-hi...

— Mana shu kishi sizga xo'jayin. Nima desa qilasiz.

Devona birdan sergak tortdi. Dilmurodga g'alati qarash qildi.

— E, qo'ying-e, Shopo'lat aka, kim aytadi sizni erkak deb. Bu kishi yashi odam. Urmaydi, so'kmaydi. Umida yaxshi qizaloqmi, axir?

— Yaxshi, yaxshi, qiz... qizaloq, hi-hi-hi...

— Bo'pti-da. Dilmurod Umidaning dadasi-ku.

— Kelishdikmi? — dedi Dilmurod suhbatga aralashib.

— Kelishdik, kelishdik. Hi-hi-hi, — Devona shunday deb yana qo'l tashladi.

— Ertalab turib, soch-soqolni oldirib, bizning samovarxonaga o'ting. Mana, sartarosh haqi.

— Hi-hi-hi... Samovarxona... hi-hi-hi... do'xtirxona...

Dilmurod xayratlanib, Rhaq-Mirzavoyga qaradi. U Devona samovarxona bilan shifoxonaning farqiga bormasa kerak, deb o'ylagan edi.

Ertalab shifoxona eshigi oldida Devona bilan Saboxonni ko'rdilar.

Saboxon eshik oldini to'sib olgan, Devona esa undan ikki qadam narida ishshayib turardi.

— Manovini qaranglar, ichkariga kirib olibdi. Zo'rg'a chiqardim. Endi ketmay, xira bo'lib turibdi.

— Chakki qilibsiz. Biz Shopo'lat akani ishga qabul qilganmiz. Supurish-sidirish endi shu kishining yelkasida.

Saboxon bu gaplarni, hazilmi-chin ekanini ham bilmay, chetga chiqib yo'l bo'shatdi. Devona «qoyilmisan?» degandek tirjayib, vrachlarning orqasidan ichkariga kirdi.

Bu orada quyosh irimiga bir yuz ko'rsatdi-yu, yana qora bulutlar qa'riga kirib ketdi. Shamol tuproq ko'chalarning changini to'zitdi. Kesganbel tepasida momaqaldiriq qarsillagan paytda Umidani yetaklab Aqida kirib keldi. U ostonada turgan Saboxon bilan so'rashdi. Umida Devona sari yurmoqchi edi, onasi bilagidan asta chimchilab, to'xtatdi.

— Keling, singlim, — dedi Mirzavoy Aqidani qarshilab.

Aqida unga bosh irg'ab, eriga yuzlandi. Maqsadini aytishga taraddudlandi.

— Bizni kuzatib qo'ying, — dedi siniq ohangda.

— Qayoqqa? — Mirzavoy hayron bo'lib er-xotinga bir-bir qaradi.

— Uyga ketmoqchi edik, — dedi Aqida sal yumshoqroq ohangda. — Dadasi men narsalarni shay qilib kelgandim.

Er-xotinning jimib qolganini ko'rib, avval Saboxon, keyin Rhaq ham tashqariga chiqishdi. Devona gapi-gapiga qovushmayotgan bu odamlarga hayron qaradi-da, u ham asta chiqib ketdi. Aqida charm divanga o'tirib, yuzini qo'llari bilan to'sganicha yig'lab yubordi. Umida onasining bag'riga kirdi. Dilmurod asta xotinini yelkasidan quchdi.

— Nima bo'ldi, tinchlikmi?

— Boshqa chidolmayman, ketmasam bo'lmaydi. Dadamdan xabar olishim kerak...

— Shunga ham yig'imi, men bir narsa bo'libdimi debman.

— Hali ko'chada raisni ko'rdim. «Siz do'xtirning qonuniy xotinimisiz?» deb so'radi. «Ha», desam, «Hujjatiga qaraganda eringiz siz bilan ajralishgan ekan-ku», deydi. «Keyin yarashganmiz», deb qo'ya qoldim. G'alamisga o'xshaydi bu raisingiz. Keta qolay, yana boshingizga balolar yog'ilmasin. Vaqt topsangiz, yanagi haftalarda xabar olarsiz...

Tashqarida shamol kuchaydi. Derazaga uch-to'rt tomchi urildi. Dilmurod Aqidani yupatib, ertaga kuzatib qo'yadigan bo'ldi. Tashqaridan Asqaralining ovozi keldi. Dam o'tmay tomoq qirib ichkariga kirdi.

— Bu yilgi chilla antiqa kelyapti, — dedi u choynak-piyolani stolga qo'yaturib. — Kecha yuqorini sel olibdi. Qani, kelin, choyga qarang, bu yerda siz mehmonsiz.

Aqida qizargan ko'zlarini yerga qadab o'rnidan turdi.

— Rahmat, choyni uyda ichamiz. Endi boraylik.

— Havoning avzoyi chatoq, chiqmay turing, — dedi Asqarali oradan noxush gap o'tganini sezib.

— O'zim kuzatib qo'yaman, — Dilmurod shunday deb oq xalatini yechdi-da, Umidani o'radi. Guzardan o'tishlari bilan jala quyib berdi. Suv ko'chani to'ldirib oqa boshladi. Ular qadamlarini tezlatdilar. Dilmurod bu ahvolda uzoq yura olmasliklarini bilib, xonadonlardan birida jon saqlamoq uchun eshikni ochay deganda, ko'chani u betidagi baqaterak qarsillab sinib, ularning ustiga ag'darila boshladi. Aqida jonholatda qichqirib, Umidaning qo'lini behos qo'yib yubordi. Uchovi ham tarvaqaylagan shoxlar orasida qoldi. Umida o'rnidan turaman, deb timirskilanayotganda, yuqoridan ayqirib kelayotgan to'lqin uni shoxlar panjasidan yulib oldi-da, oldinga surib ketdi. Sal naridagi devor panasida biqinib, bu voqeani dahshat bilan kuzatayotgan Devona xunuk bir ovozda baqirgancha, o'zini suvga otdi. To'lqinlar bag'rida bir ko'rinib, bir g'oyib bo'layotgan Umidaga intilib, uni bilagidan ushlab oldi. Sel to'lqini to kuchdan ketgunga qadar ikkovini har kuyga soldi. Umida butkul hushidan ketdi. Devona holdan toydi. Duch kelgan butaga yopishib, Umidani qirg'oqqa sudrab olib chiqdi. Odamlarning baxtiga sel uylarni olmay, tezda kuchdan qoldi. Jala tindi.

Ag'anagan baqaterakka yopishib jon saqlagan Dilmurod bilan Aqida bir necha daqiqalik bu dahshatdan o'zlariga kelmay turib, xonadonlardan odamlar yugurib chiqdilar. Aqida atrofga telbalaricha boqib Umidani izladi.

— Qizim... Qizim! — deb baqirdiyu hushidan ketdi. Dilmurod ham o'zidan ketar darajada edi.

Yetib kelgan Rhaq: «O'zingizni bosing, Umidani topamiz», deb to'xtamasdan o'tib ketdi.

Guzarga boraverishdagi yo'l chetida o'tirgan Devonani ko'rib, qadamini tezlatdi. Bora solib chalqancha yotgan Umidaning qornini bosib ko'rib, oyog'idan ko'tardi. Qizchani og'zidan suv keldi. Devona turib, indamay yurib ketdi.

Bu voqeadan so'ng Aqida ko'rpa-yostiqliq qilishga holini bo'lmasa ham sir bo'y bermadi. Ammo Asqarali bilan Rhaqning ra'yiga qarab, uyda o'tirishga majbur bo'ldi. Umida esa ertasiyoq oyoqqa turdi. Ota-onasining qattiq nazorati ostiga tushgan qizcha zerikib, oqshomda Asqarali buvasi bilan Mirzavoy amakisining kelishini kutardi. Asqarali uni erkalab, ertaklar aytib berardi. Ertak tugashi bilan Umida savol yog'dirib tashlardi. Shunda Asqarali: «Do'xtir inim, qizingizning tanglayini savol bilan ko'targanmisiz?» deb kulardi. Bir kuni, kattalar choy ustida gurunglashib o'tirishganida, Umida yugurib kelib Asqaralini savolga tutdi:

— Buva, buvajon, — dedi u entikib, — mushuk nimadan paydo bo'lgan, bilasizmi?

— Bilaman, qizim, bilaman. Mushuk arslondan paydo bo'lgan.

— Unda nimaga arslonmas, mushuk bo'lib qolgan?

— E, buning tarixi juda uzun, qizim. Ilgari mushuk ham arslon bo'lgan ekan. Hammalari bitta o'rmonda inoq-ahil yasharkan. Kunlardan bir kuni o'rmonda arsloncha tug'ilib, unga «Mushuk» deb nom berishibdi. Mushuk ulg'aygan sayin o'rmonda buyumlar yo'qolaveribdi. Keyin, bilishsa, o'sha Mushuk degan arsloncha o'g'irlarkan. Mushukni insofga chaqirishmoqchi bo'lishganda, u shunaqangi lo'lilik qilibdiki, asti qo'yaverasan. Arslonlar qarashsaki, bu Mushuk insofga yurmaydigan. O'g'ri desa o'g'ri, qo'rqqoq desa qo'rqqoq, nomard desa nomard. Xullas, hech bir tuki arslonga o'xshamaydigan. Shundan keyin qari arslonlar kengashib: «Buning turqi bo'lakcha, ikki dunyoda chin arslon bo'lmaydi. Pushtimizni bulg'aydi», degan qarorga kelib: «Shu turishingda unib-o'sma», deb qarg'abdilar. Qarg'ish tegib, mushuk o'smay qolgach, uni o'rmondan haydab yuboribdilar. Shundan beri arslonlar ichida nomardlar, o'g'rilar paydo bo'lsa, «Mushuk bo'l», degan qarg'ishga uchrab, mushukka aylanib qolaverar ekan... Tushundingmi, qaqajon?

— Tushundim, tushundim. Unda... — Umida bir oz o'ylandi. — It nimadan paydo bo'lgan?

— Itmi? Nimadan bo'lardi, bo'ridan-da.

— Qanday qilib?

— Qadim zamonda bir o'rmonda...

— Arslonlar yashagan o'rmondami?

— Yo'q, boshqa bir o'rmonda bo'rilar yashar ekan. Ular erkin yashashni juda yaxshi ko'risharkan. Odamlar yuz urinib, ming urinishsa ham bo'rilarni qo'lga o'rgata olmas ekanlar. Bo'rini tutib yaxshi ovqatlar bilan siylashsa ham, qiyonoqqa solishsa ham bo'lmas ekan. Bo'rining oyoqlarini qayirib, sindirib tashlashsa ham, kaltaklashsa ham, o'lsa o'lar ekanki, ovoz chiqarib uvlamas ekan. Nima ham bo'libdi-yu, bir kuni odamlar bo'ri galasini o'rab olib, ancha-munchasini qo'lga tushirishibdi. Qo'lga tushganlar orasida «It» degan bo'ri ham bor ekan. Ozod bo'rilar sheriklaridan ko'ngil uzolmay, baland qoyaga chiqib qarab turishibdi. Odamlar bo'rilarni bir chekkadan qiynay boshlashibdi. Ko'p bo'rilar o'lib ketibdi. Navbat «It» degan bo'riga kelganda, u tayoq yemayoq dumini qisib vangillabdi. Shunda odamlar: «Bu bo'rida bir gap bor», deb unga yaxshi ovqat berishibdi. «It» degan bo'ri ovqatni yeb, dumini likillatib, odamlarning oyog'ini yalabdi. Keyin ularni bo'rilar qarorgohiga boshlabdi. Ana o'shanda bo'rilarning eng keksasi: «Kim o'z erkini bir burda go'shtga sotsa, it bo'lsin», deb qarg'agan ekan. Itlarning tarixi shunaqa... — Asqarali shunday deb jim qoldi.

Uning bu qisqa ertagi Rhak bilan Dilmurodga ham ta'sir etgan, ular piyoladagi choyni ichmay, sovutib o'tirishardi. Ertakning ma'nosini u qadar chaqib yetmagan Umida esa ko'zini hiyol qisib yangi savol o'ylandi.

— Buva, buvajon, — dedi u nihoyat, — unda musicha nimadan paydo bo'lgan?

— Musicha burgutdan, baland ucholmagani uchun musicha bo'lib qolgan.

— Chuvalchang-chi?
— Ilondan.
— Unda... Odam nimadan paydo bo'lgan?
— Odammi? — Asqarali bir oz o'ylab turdi-da, kulimsiradi... — Buni bilmayman.
— Men bilaman, bilaman! — dedi Umida quvonganidan irg'ishlab. — Odam maymundan paydo bo'lgan!

O'tirganlar baralla kulib yuborishdi.

— Gaping to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, — dedi Asqarali kulgidan namlangan ko'zlarini qiyiqchasining uchi bilan artib. — Senga o'xshagan qaqajonlarning maymundan paydo bo'lgani aniq. — Asqarali shunday deb qo'yib, «Og'ir hazil qilmadimmi», degan havotirda Dilmurodga qaradi. Dilmurod bu hazilni o'ziga olmagan edi. Asqaralining ko'ngli xotirjam bo'lib, Umidani bag'riga tortib, peshonasidan o'pib qo'ydi. — Qizim, bor-chi, sutosh pishganmikin? Pishgan bo'lsa ayt, olib kelishsin.

Umida «xo'p bo'ladi», deb yugurib chiqib ketdi. Dilmurod Asqaraliga qaradi.

— Asqarali aka, mushuk, it, musichaning ajdodlarini bilib oldik. Lekin odamnikini aytmadingiz?

— Buni chindan ham bilmayman, inim. Haligi ertaklarni buvam rahmatli aytib o'tirardilar. O'shanda odamning ajdodi kim bo'lgan, deb so'ramagan ekanmiz. Bu savolni qizingizdan eshitib turibman.

— Umida rost gapirdi, Darwin degan bir olim odamning maymundan paydo bo'lganini isbotlab bergan.

— Bunisi bizga qorong'i, inim. Menga qolsa, barchaning ajdodi maymun demasdim.

— Nimaga?

— Shuncha yil yashab, odamning har qanaqasini ko'rdim. Nazarimda, bir qism odam — siz aytganday, maymundan, bir qismi — burgutdan, bir qismi itdan, mushukdan, sichqondan, hatto eshakdan ham tarqagan.

Rhaq bilan Dilmurod qah-qah otib kulib yubordilar. Ularga Asqaralining o'zi ham qo'shilishdi...

Aqida bir yarim hafta deganda oyoqqa turdi. Turdiyu, yana ketishdan so'z ochdi. Dilmurod unga qarshi so'z aytmay, kechqurun safar tadorigini ko'rib qo'ydi. Saharda xotini bilan qizini olib markazga tushib ketdi. Qishloqdan chiqaverishda, yo'l yoqasidagi qo'ng'ir xarsang ustida Devona cho'nqayib o'tirardi. Onasi bilan mashina kabinasida o'tirib borayotgan Umida uni birinchi bo'lib ko'rdi. Qo'lini silkidi. Lekin Devona uni ko'rmadimi, har holda, joyidan jilmay, changitib o'tgan yuk mashinasining orqasidan ma'yus tikilib qoldi. Keyin tuprog'i ko'pchib yotgan yo'lda iz qoldirib qabriston tomonga yurdi.

Rhaq uni uzoqdan kuzatib turardi. Devona hujrasiga kirib ketganini ko'rib, u ham qabristonga qarab ildam yurdi. Hujra eshigini ochib ichkariga bostirib kirdi. Ko'rpa ustida boshini eggancha chordana qurib o'tirgan Devona sapchib o'rnidan turdi-da, g'alati ovoz chiqarib, orqasiga tisarildi. Keyin devorga singib ketgudek bo'lib bukchayib o'tirdi.

— Sabohiddin! — dedi Rhaq u tomon yurib.

Devona «A... a!» deb baqirganicha boshini qo'llari orasiga oldi.

— Sabohiddin! — dedi yana Rhaq qat'iy ovozda. — Qo'lingni tushir. Menga qara. Yaxshilab qara. Tek o'tir.

Devona uning buyrug'ini itoatkorona bajardi. Rhaq ko'zini unga qadadi. Devona nest bo'lib o'tirib qoldi. Rhaq yana ham yaqinlashib ko'zining qorachiqclariga tikildi.

O'sha kuni Rhaqqa Devonaning hayotidan yana bir voqea ayon bo'ldi.

MUZZLIM

Sabohiddin oqshomda, eski to'n kiygan badqovoq ko'sa bir odamga ergashib, Marg'ilonni tashlab chiqdi. Badqovoq kishi na o'zini tanitdi, na Sabohiddinning kimligi bilan qiziqdi. Indamay yo'l boshlab ketaverdi. Aftidan, u olgan ko'rsatmasini keragidan ham oshirib o'rinatardi. Sabohiddin tuni bilan yursak kerak, deb o'ylagandi. Yo'q, qorong'i tushishi bilan bir uyga qo'nishdi. Xonadon egasi ham Sabohiddinni hayratga solib, salom-alikdan nariga o'tmadi.

Tong otmay yana yo'lda bo'lishdi. Kun yoyilmasdan Vodilga yetishdi. Xoliqberdi to'raning qarorgohi shu yerda edi. Badqovoq odam miltiqli kishiga Sabohiddinni topshirdi-yu, o'zi g'oyib bo'ldi. Miltiqli kishi Sabohiddinni daraxtlar orasida zo'rg'a ko'zga tashlanayotgan o'tovga boshladi. Sabohiddin ichkariga kir-di-yu, o'tovda o'tirganlarning salobati bosib taraddudlanib qoldi. Keyin o'zini qo'lga olib, qiroat bilan salom berdi.

— Qadamingizga hasanot, — dedi to'rda o'tirgan kishi salomga qiroat bilan alik olgach. Sabohiddin qotmadan kelgan, xorij harbiylarining ko'ylagini kiyib olgan kishini ko'rib, «Xoliqberdi to'ra shu bo'lsa kerak», deb unga ta'zim qildi.

— Qani, mulla Sabohiddin, marhamat qilsinlar, o'tovimiz tor bo'lsa ham, bag'rimiz keng, — dedi Xoliqberdi to'ra unga joy ko'rsatib.

Sabohiddin poygastroqdan joy olib o'tirgandan so'ng davradagilarga, omonlashish maqsadida, bir-bir boqdi. To'raning yonida chordana qurgan qizil turkiy do'ppi Zayniddin qorini ko'rdi-yu, beixtiyor o'rnidan turib ta'zim qildi. Keyin ko'zini yerga tikkancha: «To'ram, volidangizni berib qo'yibsiz, bandalik ekan...» deb hol so'radi-da, qur'on tilovat qilib, savobini marhumaning ruhiga bag'ishladi.

— Mulla Sabohiddin kim bo'ldi, deb o'tiribman. O'zimizning so'kir Saboh ekan-ku, — dedi qori tilovatdan so'ng oraga tushgan sukunatni ko'tarish maqsadida, keyin Xoliqberdi to'raga yuzlandi, — Bu Jamol o'risning ukasi-da, taniysizmi?

To'ra, bilaman, degandek bosh irg'adi. Shu payt uchta laganda hovuri bosilmagan go'sht ko'tarib kirishdi. O'tovni ziraning xushbo'y hidi tutdi. Taom kirgach, suhbatni bas qildilar. Sabohiddin ora-sira Holiqberdi to'ra bilan Zayniddin qoriga qarab qo'yardi. To'raning nigohidagi qat'iylik, ko'zlaridagi sergaklik, mehr Sabohiddinning e'tiborini tortdi. Shundagina u: «Odamlar to'ramni bejiz hurmat qilishmas ekan», deb qo'ydi. Tamshanib o'tirgan qoriga keksalik o'z hukmini o'tkazibdi. Qoshlari, bir tutam soqoli oqargan. Ko'zlari toliqqan kabi qisilgan. Ammo istarasi o'sha-o'sha issiq. Buxoroga ketganidan beri Zayniddin qorini ko'rmagan edi. Zayniddin qori ilgarilari Novqatga har kelganida Sabohiddinlarnikiga qo'nardi. Uning Jaloliddin bilan eski oshnachiligi bor edi. Jaloliddin ko'p hollarda qoriga, uning maslahatiga suyanib ish ko'rardi. Maslahat uchun O'shga borib kelishdan ham erinmasdi. Shunday bo'lsa-da, ularning oralarida ba'zan kelishmovchiliklar bo'lib turardi. O'g'illarini rus-tuzem maktabiga bergani, yangi g'oyalar quli bo'lgani uchun, hatto turkiycha qizil do'ppi kiyib yurgani uchun Jaloliddin oshnasi Zayniddin qorini ayblardi. Qori esa uni, aksincha, johilligi uchun koyirdi. Biroq, fikrlar va dunyoqarashlarning bu qarama-qarshiligi do'stliklariga raxna solmasdi. Sabohiddinning Buxoroga borib qolishi ham Zayniddin qorining maslahati bilan bo'ldi. To'g'rirog'i, bu gap Sultonmuroddan chiqqandi. Har qanday yangilikni iskab bilib oluvchi imom mardikor balosi bosh ko'targan paytda yana Jaloliddinning uyida paydo bo'ldi. Jamoliddin Sibirga surgun qilingach, bu ko'chadan o'tmay qo'yan imom hech nima bo'lmagandek uyga kirib o'tirdi. O'tganlarning ruhiga qur'on bag'ishladi. O'sha yili xasislik qilgani uchun Jaloliddindan o'pkaladi.

— Men sizdan biron narsani tama qiladigan odam emasman, — dedi u gapni ko'p cho'zmay. — Sizga ham, farzandingizga ham mehrim bo'lakcha. Mana hozir

Sabohiddinning taqdirini o'ylab, xonadoningizga bosh egib kirib keldim. Erta-indin uni ham mardikorga chaqirib qolsalar, nima qilasiz?

— Boshim qotdi, taqsim. Xudo rahmimizni yer, deb o'tiribman.

— Xudo, xudo deysizu, xudo yo'lga bir tanga atashdan qochasiz.

— Bu gapingiz bekor. Siz yo'l ko'rsating, aytganingizni Xudo yo'lga atadim, — dedi Jaloliddin uning niyatini fahmlab.

— Sabohiddinni beto'xtov otlantirib, Buxoroi sharifdagi madrasaga jo'natamiz. Farzandi qobilingizni shu yo'l bilan asrab qolasiz. Ustiga-ustak, u bag'ringizga katta mulla bo'lib qaytadi. Bir yog'ingizni yozga, bir yog'ingizni qishga qo'yib rohatda yashaysiz. Uni Buxoroga o'zim uzatib boraman. Lekin chiqimi sizdan...

Eshon o'sha kuni niyatiga yetib, xali ham shuhrati so'nmagan qorabayirni yetaklab chiqib ketdi. Sabohiddinning onasi chirqirab qoldi. Jaloliddinning baxtiga o'sha oqshom Zayniddin qori Novqatga keldi. Imomning taklifini ma'qullab, sarmoyadan ham yordam qildi. Ana shu kishining himmati bilan Sabohiddin madrasada saboq olib qaytdi. Baxtini qarangi, akasi bilan uchrashib garangsib yurgan og'ir damda bu donishmand odamga ro'para bo'ldi.

Dasturxonga fотиha o'qilgach, o'tovdagilar ta'zim qilib chiqib ketdilar. To'ra Sabohiddinning qolishiga istak bildirdi.

— Jamol o'risni... — Xoliqberdi shunday deb kulimsiradi. Keyin so'zini to'g'riladi. — Akangiz Sibirga mendan keyin kelib, mendan ilgariroq o'rischani o'rganib olganiga Jamol o'ris, deb yurib o'rganib qolibman. Uni hali ko'rganingiz yo'qdir?

— Ko'rdim. Marg'ilonda uchrashdik.

— Nima deydi? Bosmachilarga qo'shilma, degandir?

— Ha.

— Shunaqa... sho'rolar bizlarni «bosmachi» deyishadi. Yurtni bosgan, talagan, xor qilgan ularu, «bosmachi» degan nomni olgan biz bechoralar. Xo'sh, akangiz yo'ldan qaytargan ekan, nega keldingiz?

— Har ish Ollohning inoyati bilan, to'ram, ayri bo'lish peshonada bo'lsa, na iloj? Men akamga emas, Olloha bo'ysunaman.

— Balki sizni Buxorodagi oliy zotlar qo'rqitishgandir?

— Yo'q, to'ram, men ularning ayblashlaridan qo'rqmayman. Ma'mur boyvachchaning qoni ham, akamning tortgan azoblari ham mening gardanimda, bu gunohim uchun Ollohning o'zi jazolaydi meni.

— Ma'mur boyvachcha dedingizmi? Uni Jamol o'ris o'ldirmaganmidi?

Sabohiddin, Xoliqberdi to'ra xabarsiz ekan-da, deb ajablendi. Sirni ochishga ochib qo'yib, endi gapdan bo'yin tovlashning foydasi yo'qligini bilib to'g'risiga ko'chdi.

— Uni men...

— Ana xolos! Jamol o'ris shuncha yil birga bo'lib churq etmabdi-ya... Akangizning boshidan suv o'girib ichsangiz arziydi, mulla. O'zga odam bo'lganda, «men ukamni qutqarish uchun shu azoblarni tortib yuribman», deb ikki jahonga jar solardi. Bu gapingizdan keyin Jamol o'risni yana ham yaxshi ko'rib qoldim. G'animlarim orasida shunday pokiza odam borligidan xafa bo'lib ketaman. Har jangga kirganimda Xudodan: «Adashgan birodarlarimning jonini omon saqla», deb so'rayman. Ularning qonini to'kishdan qo'rqaman.

— Buxorodan bu yerga kela-kelguncha o'ylab, o'yimga yeta olmadim, to'ram. Xudo qaysi gunohlarimiz uchun bizga bu azoblarni ravo ko'rdi ekan. Qachonga qadar bir-birimizni qashqirday g'ajiyimiz?

— Bu azoblar o'tadi-ketadi. Xudo xohlasa, farog'atli kunlarga oz qoldi.

— To'ram, aybga buyurmasangiz, bir so'rog'im bor edi? — dedi Sabohiddin ikkilanib.

— So'rayvering, — Xoliqberdi to'ra shunday dedi-da, lo'labolishdan birini qo'ltig'i ostiga olib yonboshladi.

— Akam bilan murosangiz chiqishar ekan, nima uchun uni nohaq yo'ldan qaytarib, qanotingiz ostiga olmadingiz?

Xoliqberdi to'ra bu gapni eshitib kulib yubordi.

— Jamolni yo'ldan qaytarib bo'larkanmi? — dedi u kulgidan to'xtagach. Keyin bir oz jiddiylashdi: — Uni avval qiymalab tashlab, keyin et-suyagini bittalab terib chiqsangiz ham birovning aytganiga yurmaydi. Men shunaqa odamni yaxshi ko'raman. Birovning gapiga kirib ko'ch-ko'ronini ko'taraveradigan subutsizdan juda qo'rqaman. Mana shunaqa odamlar yurtni xarob qiladi. Ular bilan ehtiyot bo'lib gaplashish kerak.

— Sho'rolar haq yo'lga qaytmasa, elning qoni daryo bo'lib oqaverar ekan-da?

Xoliqberdi to'ra asabiy holda qoshlarini chimirib Sabohiddinga qaradi.

— Yaramga tuz sepmang, — dedi u qovoq uyub. — Kecha akangiz dilimni vayron qilib ketgan edi. Elning qoni to'kilayotgan bo'lsa aybli emasman. Men xalqimning bag'riga shamol tegsin, deb bu ovloqlarda izg'ib yuribman. Mening Sibirda tortgan azoblarim o'zimga yetmasmidi? Jamol ham xalqim deydi, siz ham, Zayniddin qori ham, Shermat ko'r ham. Hammamiz xalq deymizu bir-birimizga tish qayraymiz. Akangiz o'rislarning etagini tutaylik deydi. Zayniddin qori turkiyparast. Siz, albatta, ahli din deb turib olasiz.

— Meningcha, eng to'g'ri yo'l shu, to'ram. Axir o'zingiz ham, alhamdulillah, musulmonsiz.

— Alhamdulillah... — Xoliqberdi to'ra shunday deb yengil xo'rsindi. — Xo'p, biz sho'rolarni yengdik, deylik, xo'sh, yurtni kim boshqaradi? Din peshvolarimi? Bunga ham ko'ndim. Xo'sh, kimga ishonasiz? Aniq aytolmaysiz? O'zingiz yaxshi bilgan imomingiz Sultonmurodga o'xshaganlar yurt og'asi bo'lsa elning sho'ri qurimaydimi? Nimaga indamaysiz? Yo Shermatni qo'yasizmi?

— O'zingiz-chi?

Xoliqberdi to'ra Sabohiddinga qarab turib, kulib yubordi.

— Hali ham esingiz kirmabdi, mulla. Kalta o'ylamay, ko'zingizni oching. Sho'rolardan ustun kelgan kuni Xoliqberdining g'animlari kamaymay, yana ko'payadi. Qirg'in davom etaveradi. O'zbek asli mo'min-qobil xalq bo'lsa ham, qo'chqor toifaligi bor. Ikkitasining boshi bir qozonda qaynamaydi. Elni birlashtirish uchun Temurga o'xshagan Xudo yarlaqagan zot kerak! Xudo bizga yana bunday zotni ravo ko'radimi, yo'qmi, bilmayman.

— To'ram, aqli qosirligim uchun gunohimdan o'ting, nazarimda, siz qudratingizga ishonmaydiganga o'xshaysiz?

— Bu savolingiz noo'rin. Xalq men tomonda. Agar xalqqa ishonmasam, ko'r bo'laman... Ammo... sarmoyadorlar?! Shulardan xavfdaman... Ular yurtni xohlagan paytlarida sotib yuboradilar. Balki inglizlarga allaqachon pullashgandir ham?.. Har kuni quyosh charaqlab tursa ham dunyo qorong'ilashib ketgan, oq-qorani ajratish mushkul bo'lib qoldi. Buxorodagi oliy zotlar istagi bilan siz qishloqma-qishloq yurib, va'z aytib, islom lashkarlarining haqqiga duo qilib, xalqni haq yo'lga chorlashingiz lozim ekan.

— To'ram, men haq ishga jonimni tikkanman. Huzuringizga kelmog'imdan maqsad — jihodga kirmoqlik.

— Da'vat — jihod emasmi? Sizning birgina haq so'zingiz miltiqdan uchadigan o'nta o'qdan afzal. Miltiqlardan o'q uzuvchilar yetarli. Siz bir narsani farqlab olsangiz bas — bu yer Chanoqqal'a emas. Jangdan murod ham o'zga.

Xoliqberdi to'raning keyingi gapi Sabohiddinga bir oz malol kelib, o'tirgan yerida bir qimirlab oldi. Xoliqberdi to'ra buni sezib, so'radi:

— Gaplarim yoqmadi chog'i? Fikringizni yashirmay aytavering.

Sabohiddin ko'zini hamsuhbatidan uzib, yerga qaradi. Fikrni ochiq bayon qilishga ijozat berilgan bo'lsa-da, bu imkoniyatdan darrov foydalanishga shoshilmadi. Xoliqberdi to'ra «Ha, mulla» deb qo'ygach, unga qaradi:

— To'ram, unda ham bunda ham jihoddan murod — Ollohning roziligi. Jindak farqi shuki, unda musulmonlar birlashdi. Bunda ayri-ayriga o'xshab ko'rinadir menga. Unda g'anim aniq edi: inglislar, farangilar... bunda bir qanot o'rislardan madad oladi, boshqasi inglislardan. G'ayriddinlardan quvvat umid qilgan qush yana qafasida qolmasmikin?

Bu gapni eshitib, Holiqberdi to'ra ma'yus jilmaydi:

— Durust, durust, — dedi u, — siz ham akangiz singari ushlagan yeringizdan kesarkansiz. Keling, orani ochiq qilib olaylik, yana huzurimdan mavhum xayol bilan ketmang. Chanoqqal'a urushidan xabarim bor. Bo'g'ozdan kofirlarning kemalarini o'tkazmaymiz, deb jangga kirishni siz Olloh roziligi uchun jihod hisoblayapsizmi? Janjalning boshi nimada edi, bilasizmi? Turkiya ijozati bilan Olmon harbiy kemalari bo'g'ozdan o'tib, o'rislarga hujum qilganlar. Buni inglislar va farangilar Turkiya Olmonning sherigi hisobida muhorabaga kirdi, deb hisobladilar. Oqibat nima bo'ldi? Olmoniya yengildi. Chanoqqal'a bo'g'ozidan inglisu farangilar uchun baribir yo'l ochildi. To'kilgan qonlar zoe ketdi.

— Aybga buyurmang, to'ram... — Sabohiddin beihtiyor uning gapini uzdi-yu, keyin xijolat bo'lib, nigohini olib qochdi.

— Gapisiravering, mulla.

— To'ram, Olloh roziligi uchun to'kilgan qon zoe ketmaydi.

— Olloh roziligi uchun qon to'kishdan oldin aqlni ishlatib ko'rish kerak. Siz uchun jihod — ilm olmoqlik edi. Olloh sizni ilm olmoqqa yo'llagan edi. Siz Ollohning roziligini Chanoqqal'ada emas, madrasada, ilm olishda topishingiz lozim edi. Bu tomonga ham miltiq ko'taraman, deb oshiqqaningiz chakki bo'lgan. Ustozlaringiz «xatmi kutub» bo'ldi, deb duo berganlari bilan, ilmda qiladigan yumushlaringiz ko'p edi. Hamonki, siz bunga kelibsiz, Buxorodagi oliy zotlarning istagini bir oz isloh qilamiz: Siz Zayniddin qori bilan birgalikda Norxo'jani xizmatida bo'lasiz. Farg'ona bir siqimgina bo'lsa ham qo'rboshilarga to'lib ketdi. Hammasi o'ziga xon. Siz Norxo'jani tiyishga unnab ko'rasiz. U zo'pidin aql bilan ish yuritmaydi sira. Sizga ham quloq solmaydi. Ammo yigitlari oq-qorani tanib olishlari kerak.

— To'ram, aybga buyurmasangiz, bir narsani oydinlashtirish niyatim bor edi.

— So'rayvering.

— Kecha akamni ko'rganimda... validai mukarramangizning qotillarini sizga topshirish uchun yo'lga chiqishgan ekan. Shuning sababi ham... akam bilan eski oshnachiligingizmi?

Xoliqberdi to'ra kulimsiradi.

— Oshnachilik osoyishta kunlarda, samovarxonada, ulfatchilikda bo'ladi, mulla. Sho'rolar «Xoliqberdi g'azabga minib, daryo-daryo qon to'kadi», deb cho'chishgan. Ular Xoliqberdini hali yaxshi bilishmaydi. Xoliqberdi qonxo'r emas, to'ng'iz ham emas. Onamning birgina oh urgani uchun daryo emas, dengiz-dengiz qon to'ksam ham, bu qonni bir umr simirib yotsam ham xumordan chiqmayman. Onamni ikki-uch murtad o'ldirgan bo'lsa, xalqda nima gunoh? Xalqni tig'dan o'tkazganim bilan onam tirilib kelmaydi-ku? Kalta o'ylagani uchun akangizdan ranjidim. Aslida u qotillar sho'roniki emas, o'zimizga tegishli odamlar. Bu Jamol o'risga ham ma'lum. Shuning uchun men ularga qaramadim. O'zlari hukm chiqarib, beklarimning oldida o'zlari otishdi. Men qotillar bilan emas, ularga fatvo berganlar bilan, Xudo xohlasa, hisob-kitob qilaman.

Xoliqberdi to'ra shunday deb tizzasiga qo'l tirab o'rnidan turdi. Sabohiddin, suhbat yakunlanganini anglab, ta'zim qildi. Tun bo'yi bu suhbat mag'zini chaqishga urinib

uxlamagan Sabohiddin ertalab qorining istagi bilan Novqatga, ota-onasini yo'qlash uchun yo'l oldi. Norxo'janing qarorgohiga boshlab boradigan odamni uyida kutadigan bo'ldi.

Qizilqiyan qoralab yo'lga chiqqan Sabohiddin Iskobil⁵dan o'tgach, uch quloqli anhor labida tarvaqaylab yotgan majnuntol soyasida hordiq chiqarmoqchi bo'ldi. Otining oyog'ini tushovlab, eski to'nini yerga to'shadi-da, xurjunini yostiq qildi. Majnuntolning zaif shoxlariga tikilib o'yga tildi. Qiziq, daraxtlar ichida faqat majnuntolning qaddi egik. Hatto chinor yonidagi terak ham bo'y cho'zishga harakat qiladi. Bu esa... Elning hozirgi ahvoli shu majnuntolga o'xshaydi. Balki majnuntol ham qadimda qaddi tik daraxt bo'lgandir. Balki uning tik shoxlari joy, mavqe talashib, oqibatda sovuq shamollar zahriga chidash berolmay holsizlanib, ayri-ayrim bo'lib qolgandir? Endi qaddini rostlash uchun necha yil, qancha kuch-qudrat kerak. Bu elning qad rostlab, ko'krak kerishini ko'rish Sabohiddinga nasib etarmikin?..

Yo'l mashaqqati, uyqusiz tunlar azobi kuchini ko'rsatdi: Sabohiddinning ko'zi ilindi. Kun ko'tarilishi bilan soya qochib, oftob tig'ida qizib uyg'ondi. Ko'zini ochdi-yu, atrofga olazarak qarab, otini izladi. Seskanib, o'rnidan turdi. U yon-bu yon yurdi — ot yo'q. Ulovi qaysi bir chapdastning o'ljasiga aylanganini bilib, xurjunini yelkasiga tashladi-da, yo'l o'rtasiga tushdi. Yurishini ham, yurmasligini ham bilmay turganda, qo'qonaravanning qorasi ko'rindi.

Mudroq aravakash Sabohiddinning iltimosini bee'tibor eshitdi. Keyin orqasiga yarim o'girilib:

— Siqilishib qolmaysizlarmi, tog'a? — deb so'radi.

Aravadagi uch qariyaning keksarog'i soqolini tutamlab, unga norozi qiyofada boqdi.

— Gapingni qara-yu, so'ltamat! Aravanga yana bitta podsholikning odami sig'adi. Yuragingni keng qil, — dedi jikkak qariya, keyin so'zini tugatmay Sabohiddinga yuzlandi. — Qani, o'g'lim, xurjunni uzating. Odamning fe'li siqiq bo'lsa, ko'ziga dunyo ham tor ko'rinadi. Qani, qo'lni bering, ha, barakalla. Bu so'ltamatdan xafa bo'lmang. Zamon og'ir. Yo'lda uchragan odamga xavotir ko'zi bilan qarashga o'rganib qolyapmiz...

— Kecha yo'limni to'sishgan edi, — dedi aravakash o'zini oqlash niyatida.

— Ana ko'rdingizmi, — deb uni quvvatladi jikkak chol, — odamzot ozga sira qanoat qilmas ekan-da. Norxo'ja yo'lto'sarlarni bilsami, naq putini yirib tashlar. Bosmachi boshqa, u boshqa.

— Agar qorni ochlar bosmachi bo'lsa, mana, biz ham tog'-toshda sanqirdik, — dedi yoshi ulug'roq qariya. — Ular yurtini o'ylashyapti ekan.

— Norxo'ja azaldan shunaqa, — dedi suhbatga qo'shilmay o'tirgan chalako'sa qariya. — Eslaysizmi, Yikchi eshonga murid tushib yurgan edi. Xudoning rahmi kelib tirik qoldi. Zamon alg'ov-dalg'ov bo'lib, yana jonini garovga tikibdi. Fikrimcha, u qorniga yig'lamaydi. Katta bir taxtni mo'ljal qilgan-ov...

— Taxt?! Bu yoqda Xoliqberdi to'ra turganda unga yo'l bo'lsin?

— Noumid shayton. Shunday niyati bo'lmasa, darbadarlik yukini yelkasiga olmas edi. O'ziga lozim bo'lsa, Xudodan saratonda ham qor yog'dirishini so'raydurgan odam u.

— Keling, qo'ying, so'ltamatni chaynamaylik. Yana xizrni yo'qlagan bo'lib unga yo'liqmaylik. Och qornim-tinch qulog'im. Bir-birini g'ajiy-g'ajiy oxir sillasi qurib tinchib qolishar...

Sabohiddin qariyaning bu so'zlarini eshitib, beixtiyor Salimxo'jani esladi. U ham bir suhbatida: «Bir-birining ildiziga bolta urib bo'lishini g'animlar intiqlik bilan kutib

⁵ Farg'ona shahrini ruslar general Skobelev sharafiga «Skobelev shahri» deb o'zgartirishgan edi. Xalq tilida bu «Iskobil» deb yuritilgan.

yotishibdi», degandi. Darvoqe, hozir Salimxo'ja qaerda ekan? Zindondan qutula oldimikan? Bechora ushoqqina edi, ishqilib, Xudo o'z panohida asrasin-da...

Qariyalar ekin-tikinining avji haqida so'z yuritib, Sabohiddinni suhbatlariga tortmadilar. Kecha ko'rgan-kechirganlari bilan boshi garang bo'lib o'tirgan Sabohiddin uchun bu ayni muddao edi. Qizilqiyaga shom chog'ida yetib kelishdi. Sabohiddin, ulov topilmagani uchun noiloj shu yerda tunadi. Ertalab mo'ylovi endi sabza urib, ovozi do'rillab qolgan aravakash yigitga hamroh bo'ldi. Yigit Qizilqiyaga yumush bilan tushgan, ishini bitkazib, kayfi chog' bo'lib qaytardi.

Arava asta chayqalib boradi. Yo'lning ikki tomoni tog'. Tog'larning beli qip-qizil. Xuddi birov uning ko'ksiga bexos qilich tortib yuborganu endi bag'ridan qon sizib chiqib turganday. Bunday g'alati tog' boshqa yerda bo'lmasa kerak. Hozir Sabohiddin go'yo ikki tog' orasida emas, ikki o't orasida kuyib, yonib borar edi. Akasini ko'rgandagi quvonchi so'ngan, tungi uchrashuv, Xoliqberdi to'ra bilan bo'lgan suhbat uni gangitib qo'ygan edi. Aka-ukaning oralariga qilich tushishi tayin.

Yigit ot ustida bir yonga sal qiyshayib o'tiribdi. Qamchi ushlagan qo'li xuddi jonsizdek. Ahyon-ahyonda otga qamchi urib qo'yadi. Ba'zan mung'ayib o'tirgan hamrohiga qaraydi. Sabohiddinning o'yg'a berilganini ko'rib, indamaydi. O'zicha xirgoyi boshlaydi:

*Sevib olgan yoringiz muncha chiroyli yor ekan,
Qo'llaringa suv berolmas, surati hayvon ekan.*

Yigit qo'shiq so'zlarini yaxshi bilmaydi shekilli, qolganini yamlab-yutib aytdi. Ashula yarmiga bormay, bir oz jimib qoldi-da, so'ng boshqasini balandroq ovozda boshladi:

*Tomga tariq sochilgan,
Hay bola, bola, omon yor...*

Bu qo'shiq ham chala-yarim bo'ldi. Biroq Sabohiddinni yelkasidan bosib turgan g'am yukini bir oz yengillatdi. U xayollar domidan qutulib aravakashga qaradi.

— Ashulani yaxshi aytar ekansiz, — dedi.

— E, zerikkanda bir xirgoyi qilib qo'yamiz-da, aka. Ashulani yaxshi ko'ramanu, so'zlarini to'la bilmayman. Mana, kechagi bazmda bir ashula eshitib yodlab olgan edim. Hozir esimdan chiqibdi. Balki siz bilarsiz?

— Nevlay?

— Eshitib ko'ring-a:

*Qaro qush qichqirib o'tdi, uyosida ilon ko'rdi,
Baliq ko'ksini chok aylab, azim daryoda qon ko'rdi.*

— Yo'q, bunaqa ashulani eshitmagan ekanman.

— O'zim ham birinchi marta eshituvdim. Hay, mayli, nasib etsa yana eshitarmiz. Mullaka, bu yerlarga hech yo'lingiz tushganmidi ilgari?

— Ha, bir-ikki o'tganman.

— Mullaka, so'raganning aybi yo'q, ismlari nima edi? Hali hiyla yo'l yuramiz, gaplashib ketaylik. Mening ismim Abdusattor.

— Sabohiddin.

— E-ha, endi tanidim. Boyatdan beri ko'zimga issiq ko'rinyatuvdingiz. Siz Jalol tog'aning o'g'lisiz-da, a?

— Ha.

— Buxoroda o'qirdingiz-da, a? Akangizni ham bilaman. Ma'mur boyvachchani o'ldirib sibir bo'lgan ekanlar. Chamasi, biron yilcha bo'ldi qaytganlariga. Rahmatli Jalol tog'a u kishining...

— Nima?! Nima dedingiz?

— Ie, eshitganingiz yo'qmidi?.. Jalol tog'a... Jalol tog'aning yigirmalarini ham o'tkazdik.

Sabohiddin uning boshqa so'zlarini eshitmadi. Dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib ketdi. Bo'g'ziga yig'i kelmagan bo'lsa ham, nafasi siqildi. Abdusattor aravani to'xtatdi. Meshdan suv quyib uzatdi. Sabohiddin ichmadi. Abdusattor nima qilarini bilmay bir oz turdi. Keyin aravaga chiqdi-da, otga yengil qamchi urdi. To Novqatga yetib borgunlaricha Sabohiddindan sado chiqmadi. Abdusattor ham uni gapga tutmadi. U aravani to'g'ri Sabohiddinlarning uyiga haydadi.

Sabohiddin aravadan tushib uyi tomon yurdi. Oyog'i xuddi kishan urilgandek og'ir edi. Devorlari nuragan, yetim bola kabi mung'ayib qolgan uyni ko'rgach, mijjasiga yosh keldi. Yuragidan otilib chiqqan faryodni tomog'i g'ippa bo'g'di. Ko'chada yig'lab yubormaslik uchun qadamini tezlatdi.

Sabohiddin ichkari kirdi-yu, cho'nqayib o'tirgancha qumg'on qaynatayotgan onasini ko'rdi. «Buvi, buvijon!» deb qichqirmoqchi bo'ldi. Ammo ovozi chiqmadi. Tomog'iga nimadir tiqildi. Ko'zlari yoshlandi. Yuragida uyg'ongan hayqiriq labidan sassiz uchdi — ona o'g'lining dardli nidosini eshitmadi. Biroq orqasida kimningdir nigohi qadalayotganini his qilib, yalt etib qaradi. O'g'lini bir nafas tanimadi... Yo'q, yo'q, tanidi. Faqat ko'zlariga ishonmadi. Ko'rayotgani tushi ham emas, sarob ham emas, balki zohir ekaniga ishonch hosil qilgach, avval lablariga titroq yugurdi. Keyin titroq turgan tizzalarini ushlab, qaddini rosladi. So'ng «bolam, bolajonim...» deganicha qanot yoyib o'g'li tomon yurdi. Sabohiddin yurmoqchi edi, biroq jon chiqib ketgan oyoqlarini bosolmadi. Holsizlanib tiz cho'kdi. Shu alfozda boshini ona bag'riga qo'ydi. Onasining yig'lab aytgan gaplarini eshitmadi. Qulog'iga shu topda faqat ona yuragining dukirigina urilardi.

Yig'i ovozini eshitib qo'ni-qo'shnilar chiqdi. Ayollar yig'i-sig'i qilib bo'lgach, ichkariga kirib ketishdi. Sabohiddin esa devor-darmiyon ikki qo'shnisi bilan ayvonda qoldi. Tilovat qildi.

— Rahmatli Jaloliddinning joyi jannatda, rohat-farog'atda yurgandir. Bu dunyoda ko'p g'am chekdi bechora.

— Uzoq yotdilar mi?

— Bir nafas ham yotmadi. Shu yoshga kirib «um» deganini bilmayman. Rahmatli hali baquvvat edi. Shu bahorda ham hech kimga so'z bermay, yerini o'zi ag'dardi-da. Xudoning shafqatini qarang, jonini qiynamaygina oldi.

— O'g'lim, dadangizning qanday jon berganlaridan bexabarsiz-a?

— Xabarim yo'q.

— Rahmatli dadangiz omonatlarini masjidda topshirdilar.

— Masjidda?

— Ha, masjidda. Dadangiz masjidimizda so'filik qilayotgan edilar. Peshin namozidan so'ng supurib-sidirib, endi ketaman, deganlarida, qayoqdandir bir daydi o'q kelib...

— Kim otibdi?

— Kim otganini hech kim bilmaydi. Qishloq tinch edi. Faqat uch marta o'q ovozini eshitdik. Keyin: «Jalol so'fini o'ldirib ketishibdi», deb xabar qilishdi. Masjidga borsak, qonga belanib yotibdilar. Ikkita o'q ko'kraklariga tekkan ekan. Bitta o'q masjid eshigiga sanchilib qolibdi. Uch kundan keyin ko'rdik.

— Siz ko'p qayg'uravermang, o'g'lim. Oллоhning irodasi-da. Hammamiz bu dunyoda omonatmiz. Barchamizning peshonamizga o'sha yog'och otga minish yozilgan. Dadangiz imon bilan ketdilar, shukur qiling.

Sabohiddin bunday paytda aytiladigan juda ko'p oyatlarni, hadislarni yoddan bilsa-da, qo'shni oqsoqolning bu jo'ngina gaplaridan tasalli olgandek bo'ldi. Ammo yurakda qolgan armonga hech qanday tasalli kor qilmadi.

Qorong'i tushgani sababli qabristonga erta tongda boradigan bo'lishdi. Sohiba aya o'g'liga Jaloliddin akaning so'nggi kunlarini, «Yuragim siqilyapti», «Aloq-chaloq tush ko'rdim», deganlarini, yana allaqancha mayda-chuyda gaplarni bir-bir so'zlab berdi.

— Mashhura ko'rinmaydimi? — deb so'radi Sabohiddin uning gaplarini eshitib bo'lgach. U onasi bilan ko'rishayotgan chog'idayoq ko'zlari bilan singlisini izlagan, ammo qo'shni ayollar chiqib qolib, so'rashga ulgarmagan edi.

— Mashhurani... Sultonmurod olib ketdilar.

— Qaerga?

— Nevlay. Rahmatli dadangizning yigirmalariga kelib, bosh bo'lib turdilar. «Zamon notinch, uyingizda erkak yo'q, bo'yi yetgan qiz, uvoliga qolmaylik, o'zimning panohimda bo'lsin», deb...

— Qaerga olib borishlarini aytmadilarmi?

— Aytдилar... Norxo'ja eshonning qarorgohi, dedilarmikin...

— Indamay yuboraverdingizmi?

— Voy, bolam, xudoning zorini qildim... Gapimga quloq solsalar ekan. Yolg'iz ayol boshimga shuncha kulfat kammidi, bolam? Ikki qanotim qirqilgan bo'lsa, otangiz bir og'iz vasiyat qilmay o'tgan bo'lsalar, qo'ni-qo'shnilar oraga tushishga qo'rqishsa, qo'limdan nima kelardi? Xudoga soldim. Xudodan qaytsin...

Sabohiddin onasining yosh to'la ko'ziga qaray olmadi. Imomning qilig'ini qancha o'ylamasin, tagiga yetolmadi.

Ertalab qabristonga bordilar. Sabohiddin qabrni quchoqlab, tungi salqinga to'ygan tuproqqa bag'rini berib yotdi. Onasiga qo'shilib borgan qo'shni ayollar yig'i boshlashdi.

Sabohiddin qaddini ko'targach, ayollar tinchishdi. Tilovat boshlandi. So'ng Sabohiddin ayollarni uyiga jo'natdi. Qabristonda yakka-yolg'iz qoldi. Go'yo ota mehriga qonayotgandek qabrga uzoq tikildi.

— Dadajon, ilohim joyingiz jannatda bo'lsin, — deb pichirladi lablari.

— Inshoolloh, — deb javob berdi xayolidagi dadasi.

— Bizning rohatimizni ko'rolmay ko'zingiz ochiq ketdi. Go'ringizga bir siqim ham tuproq tashlay olmadik.

— Oллоhning irodasi bu, o'g'lim. Chirog'imni yoqib tursalaring, bas.

— Endi kimga suyanaman? Maslahatgo'yim kim?

Javob yo'q. Chunki otasi bilan Sabohiddin xayolan so'zlashayotgan, fikrida esa bu savolga javob yo'q edi.

Kechqurun uylariga Sultonmurod kirib keldi. Sabohiddinga hamdardlik bildirdi-da, marhumning ruhiga bag'ishlab tilovat qildi. Tayinsiz mavzularda bir oz suhbatlashishgach, Sabohiddin muddaoga ko'chdi.

— Taqsir, men Norxo'ja eshonning huzurlariga borishim kerak ekan.

— Ha, o'g'lim. Imonini yo'qotmagan har bir musulmonning o'rni o'sha yerda. Ammo siz hozircha bu haqda tashvish tortmang. Uch-to'rt kun dam oling. Rahmatli dadangizning ruhlariga xayri-xudoyi qiling. Eshon huzuriga birga boramiz. Men shuning uchun kelganman. Manavini oling, xarajatlarga lozim bo'ladi.

— Taqsir, singlim...

— Mashhura sog'-omon. Biron nomahramning ko'zi unga tushmaydi.

— Uni uyga qaytarsak, onam yolg'izlar.

— Buni kengashib ko'ramiz. Hozir zinhor tashvish tortmang.

Sultonmurod shunday deb chiqib ketdi. Sabohiddinning norizo nigohi uning izlariga qadalib qoldi...

Sabohiddin esini tanibdiki, shu xasis odamni biladi. Maktabga qatnayotganida domlanning yaxshi gaplarini ham eshitgan, kaltagini ham ko'p yegan. Jamoliddin o'qishni xush ko'rmas, kaltak yegandan keyin haftalab tutqich bermasdi. O'g'lining o'qishga bo'yni yor bermayotganini ko'rib, otasi uni maktabga yubormay qo'ydi. Sabohiddin akasining teskarisi, tez olovlanar va shunday tezlik bilan so'nib, itoatkor bo'lib qolardi. Kechasi janjal-to'polon bilan maktabga bormaslikka ahd qilgan odam, ertalab burnini torta-torta yo'lga tushardi. Xiyol ulg'ayib, sho'xligi avjga chiqib, qishloqdagi o'spirinlarga ham bas kela boshlagach, bir tomondan otasi, bir tomondan domla siquvga olib, bo'yniga itoat zanjirini solishga urindilar. Ularning bu harakati samara berdi. Ma'mur boyvachcha voqeasida zanjir uzilay dedi-yu, ammo Sultonmurod ustalik qilib qoldi. Sabohiddinni itoatkorlik to'riga chirmab tashladi.

Sabohiddinning Buxoroga borishi aniq bo'lgach, Sultonmurod uni yo'qlab, pand-nasihat qildi:

— Olloh-taolo barcha bandalariga rahm-shafqatni bir xilda sochgan. Odam zoti rizqini kuchi yetganicha o'zi terib yeydi. Janob rasulilloh deydilarki: «Tangrim sizlarni yer yuzida voris etgan va o'zi ato qilgan narsalar bilan bizlarni sinab ko'rish uchun ba'zilaringizning darajangizni boshqalarnikiga nisbatan yuqori qilib qo'ygan». Yana Muhammad alayhissalom aytadilarki: «Ba'zi bir oilalarning bu dunyodagi hayoti farovon etilmish, ularga atalgan narsalarga sen ko'z tikma». Demoqchimanki, Olloh-taolo Ma'mur boyvachchaning bu dunyosini farovon etmakni inoyat qilib, uning rizqiga rizq qo'shgan. Akangiz xotinini taloq qilgach, Xudo o'zining bu ojiza bandasini ham Ma'mur boyvachchaga in'om etdi. Garchi Ma'mur boyvachcha yangangiz taloq bo'lmasidan ilgari don olishgan taqdirda ham sizning o'ldirmog'ingizga huquqingiz yo'q. Zinokorga jazoni Ollohning o'zi belgilagan. Ammo Tangri bilan bandalar o'rtasida shayton bor. Olloh-taoloning to'liq hikmati va inoyati birlan jannatdan quvilgan shayton mo'min-musulmonlarni haq yo'ldan ozdirishga harakat qiladi. Ma'mur boyvachchaning begunoh qonini to'kkan kimsa shayton vasvasasiga uchib, Xudoning qahrini keltirdi. Jamoliddin begunoh. Uning gunohsizligi Olloh-taologa, menga va yana bir kishiga ayon. Jamoliddin o'n uch yil do'zax azobini tortadi. Uning uvoli ham qotilning yelkasida.

Sultonmurod shu zaylda gapni aylantirib-aylantirib, ayb sirtmog'i yasadi-da, Sabohiddinning bo'yniga tashladi. Sabohiddin bu sirtmoq oldida ilojsiz qoldi. Ammo taqdir uning boshini silab, rahm-shafqat ko'rsatdi:

— Siz hozir borib, «Ma'mur boyvachchani men o'ldirgan edim», desangiz ham akangiz Sibirdan qaytarilmaydi. Bu birlamchi. Ikkilamchi — so'zlaringizga hech kim ishonmaydi. Ammo, umid chinnisini sindira ko'rmang. Tavbalar qiling, Tangrining shafqati beqiyos. Olloh, akangizni Sibirning do'zaxiy azoblaridan barvaqt xalos etib, sizning ham gunohlaringizdan o'tsa ajab emas. Buning uchun siz butun borlig'ingiz bilan ibodat qilmog'ingiz, bu dunyoning rohatlaridan voz kechmog'ingiz lozim. Ibodat chog'ida Ollohga shunday sig'ining-ki, xushu' chog'ida qilich ko'kragingizga sanchilib, kuragingizdan chiqsa ham sezmang. Men befarzand, Xudoning bir bechora bandasiman. Sizni o'g'lim qatori ko'rib, mehr qo'ygan edim. Sizni yosh deb fahmlab, ortiqcha azoblarga giriftor bo'lmasin, deb o'sha kuni yolg'on gapirdim. Yelkangizdagi gunohlarning yarmi mening bo'ynimga tushdi. Shu topgacha gunoh ishga qo'l urgan banda emasman. Gunohlarimni yuvish uchun toat-ibodatlarimning o'zi kifoya emas.

Inshoolloh, xatmu kutub qilganingizdan so'ng, agar Tangrim umrimizni bersa, birga haj qilib, Ka'batullohni tavof etib, Ollohdan gunohlarimizni so'raymiz.

Sultonmurod bir necha marta uylanganiga qaramasdan, befarzand edi. Uning mehr bilan aytgan so'zlariga Sabohiddin ishonadi. Ammo Sabohiddin uning qalbida yashiringan niyatidan bexabar edi. Sultonmurod Andijon madrasasida bilim olgan, dadasining topish-tutishi ham yomon emasdi. Boshqalarga nisbatan ziyrakroq bo'lgani, yaxshiroq bilim olgani uchun durustroq obro'-e'tiborni xayol qilgandi. Qishlog'iga oddiy imom bo'lib qaytish uni qanoatlantirmas edi. Yurtning eng obro'li ulamolari qatoridan o'rin olish yo'llarini izlab yurganda xalq besaranjom bo'lib qoldi. Yikchi eshonning g'alabasiga ishonib, tahsilni ham tashladi-da, uning etagidan tutdi. Qirg'izlar tog'dan tushib eshonni hol-joniga qo'ymay oq kigizga o'tkazib, «Xon» deb e'lon qilishganda Sultonmurodning yuragi xapriqib ketdi. Eshonga madhiya aytayotganlar orasidagi Sultonmurod ko'zini bir yumdi-yu, oq kigiz ustida Yikchi eshonni emas, o'zini ko'rdi. Bu manzara — oq kigiz ustida viqor bilan o'tirgan Sultonmurod ongiga muhrlanib qoldi. Hujum boshlanganda ham, bir necha soat ichida g'alabadan umidini uzib qochganda ham, katta obro' istagida Buxoro madrasasiga yo'l olganda ham, hatto tunlari o'g'rincha qo'shni mahallaga borib yurganlarida ham shu manzara ko'z oldidan nari ketmasdi. Nazarida, Xudo uni xon bo'lish uchun yaratganday edi. O'sha mahallaga qatnab yurganida juhud yigitlarning qo'liga tushib bichib qo'yilgach, niyati darz ketdi. Ammo Xudodan umidvor bo'lib yuraverdi. Biroq har qancha urinmasin, ishi orqaga ketaverdi. Oqibatda, Buxoro madrasasidagi tahsil ham chala qolib, qishlog'iga qaytdi. Qaytdiyu boylik to'plashga kirishdi. U endi xonlikdan umidini uzib, viloyatdagi eng boy odamga aylanishni istab qoldi. Oyog'i ostidan Sabohiddin mojarosi chiqdi-yu, bu ham bir korimga yarar, deb diliga tugdi. Sabohiddinni Buxoroga yuborib, u bir o'q bilan ikki quyonni urgan edi. Avvalo qorabayirga yetishib, uni tuzukkina aqchaga pulladi. Qolaversa, nazarida, Sabohiddin undan ma'naviy qarzdor bo'ldi. Farg'onada g'alayonlar boshlangach, u eski tanishi Norxo'janing etagidan tutdi. Norxo'ja unga ro'yxush beravermagach, Sabohiddinga muhtojlik sezdi. Baxtiga Xoliqberdi to'ra boshqa qo'rboshiga emas, aynan Norxo'jaga yuboribdi. Ammo Zayniddin qorining ham kelishi Sultonmurodga yoqmadi. Undan qutilish yo'lini izlay boshladi...

Sultonmurod pul tashlab ketgach, Sabohiddin Salimxo'janing kuyunib aytgan gaplarini esladi. Buxoroda ekanida o'z erkicha turmush kechira olishga qurbi yetadigandek edi. Ammo o't-olov bag'ridan o'tib kelar chog'ida ko'rgan-eshitganlari uni anchayin o'ylatib qo'ydi. O'z maylicha yashay olmasligiga ishonch hosil qildi. Shu tobda Salimxo'jani, uning suhbatlarini qo'msadi. Salimxo'ja hozir yonida bo'lganida, «aytmovdimmi», deb gina qilardi. Avval qoshlarini chimirib o'yga tolardi. Keyin ayrim shaxslar manfaatidan yurt-el manfaati ustunroq ekani haqida gapirardi. So'ng iroda haqida, balki oydin maqsad haqida so'z ochardi. Har nechuk, Sabohiddinni maslakdosh deb bilmasa-da, unga dalda bo'lardi. Afsuski, Salimxo'ja uzoqda qolgan. Bu yerda esa fikrlashadigan, dardlashadigan hech kim yo'q. Bundan buyon bo'lmasa ham kerak.

Endi istasa-istamasa Norxo'janing huzuriga boradi. Chunki Mashhura o'sha yerda.

* * *

Devona xirillagan ovoz chiqarib titray boshlagach, Rhaq undan ko'zini oldi-da, tashqariga chiqib ketdi. Devona o'sha kuni ostona hatlamadi.

SINOV

Kesganbelga shom tushdi. Asqarali, choyxonada hech kim qolmagan bo'lsa-da, Dilmurod kelib qolar, deb poylab o'tirdi. Kunduzgi voqea asirligidan qutula olmagan Rhaq-Mirzavoy ham noiloj samovarxonada qoldi. Asqarali choy damlab kelib so'riga chiqdi-da, Mirzavoyni yoniga chorlab, choy quyib uzatdi.

— Dilmurodjon ham xuddi to'ng'ichimga o'xshab besaranjom ekanlar, — dedi u kaftiga nos tashlab, — to'ng'ichim o'ziga-o'zi qildi. Raislikni tuppa-tuzuk eplab turuvdi. Xalq ham undan rozi edi. Ispaniyaga borishning nima keragi bor edi unga, hayronman. Begona yurt bo'lsa, u yerda amma-xolasi bo'lmasa. Na aza ochishni bilasiz, na kutishni...

— Ketayotganlarida rizolik berib edingizmi?

— Rizolik... — Asqarali bir zum o'ylanib bosh irg'adi-da, kaftidagi nosni yana nosqovoqqa qaytarib to'kdi. — Rizolik bermay ilojim qancha?

— Boshqalarning dardiga befarq qaramasa, yaxshi odam ekan o'g'lingiz.

— Nimasini aytasiz. Shu kolxozni deb necha o'lib, necha tirilgan. Agar o'g'lim yelib-yugurmaganda Mamarayimga o'xshaganlar qishloqning yarmini quloq qilib yuborishardi. Kelib-kelib ro'yxat tuzishni Mamarayimga topshirishibdi. Bitta sigiri borni ham tirkabdi-da ro'yxatga bu zang'ar. Yo'q, o'g'lim yo'l bermadi. Kattalargacha borib keldi. Bo'lmasa unga nima edi? Ro'yxatni Mamarayim tuzgan. Gunohi ham uning bo'ynida... G'alati bola edi to'ng'ichim, esiz, peshonamga sig'madi. Bolamdan zurriyot qolmadi. Shunga kuyaman. Boyoqishning Saboxonda ko'ngli bor ekan. Boshqaga uylanmadi. Saboxonning ham ko'ngli bor edi o'g'limga. Ammo otasi iblislik qildi. «To'rtta odam yig'lsa, qudam shu kishi bo'ladi, deb cho'tirni ko'rsatamanmi?» debdi. Gapini qarang, zang'arning. U aslida mening cho'tirligimdan or qilmagan. Foyda unsa moxov bilan og'iz-burun o'pishadi u odam. Mo'mayroq qalinga umid qilgan, chamamda. O'g'lim rais bo'lgani bilan echkimiz ham yo'q edi. E, ishqilib omon bo'lishsin. Dunyo shunaqa ekan-da.

Asqarali kaftiga nos to'kib, tilining tagiga tashladi-da, kaftini qoqdi.

— Turib-turib Saboxonga achinaman. Otasining ra'yiga qarab bebaxt bo'ldi, bechora. Qaynag'asi o'zini osib qo'ygandan keyin eri to'satdan g'oyib bo'ldi. Yerga kirib ketdimi, osmonga chiqdimi — hech kim bilmaydi. Saboxon ikki o't orasida kuyib ado bo'lyapti. Erini kutay desa, kuz kelsa uch yil bo'ladi — nom-nishon yo'q. Boshqasini er qilay desa — boshi ochiq emas. Tag'in ham ayol zotining joni temirdan bo'larkan. Boshimga bunaqa g'am tushsa, men chidamay, tars yorilib ketardim... — Bu gaplarni eshitib Rhaq-Mirzavoyning ko'z oldiga Nazira keldi. Saboxonning uzori Naziraga o'xsharkan, deb yursa, qismati ham bir ekan-ku? Nazira ham ko'ngil qo'yganiga yetisholmay azobda qolgan edi. Saboxon ham. Nahot birgina gapni aytish qiz bola uchun shunchalar mashaqqat bo'lsa?.. Bu holni birov bayon qilsa Rhaq ishonmas edi. Nazirani ko'rib, ikkilangan edi. Saboxonning qismati endi uni butkul hayratga soldi... Chunki u ayolning go'zalligi tashqi chiroyida emas, balki hayoda, nomusda, iffatini saqlashida ekanini hali bilmasdi.

— Choyga qarang, — Asqarali shunday deb piyolani chertib qo'ydi. Rhaq-Mirzavoy sergak tortib, Asqaralining qo'lidan piyolani oldi. — Xayol olib qochdimi, deyman-a? — dedi Asqarali unga sinov nazari bilan qarab.

— Ha... ayollarni o'ylayapman. Birovga ko'ngil qo'yishsa ham «yaxshi ko'raman», deb aytisholmaydi.

— Be, aytish qayoqda! Yaxshi ko'rishning dardi ham, lazzati ham shunda bo'lsa kerak-da. Qizlarni gapirasiz, erkak bo'la turib vaqtida yigitlar ham chaynalib qolishadi-ku... O'g'limni ayting. Bir og'iz gapirmadi. Ispaniyaga ketyapman, dedi-yu, jo'navordi. Saboxonning dardi ichida, qon-qaqshab qolaverdi. Mirzavoy, inim, bizning bir aybimiz

bor: hamma narsani ipidan-ignasigacha bilishni istaymiz. Shu deng, sizdan bir narsani so'ramoqchiman: yurishingizdan so'qqaboshga o'xshaysiz. Uylanmaganmisiz?

Rhaq bunday savol berilishini hisobga olib qo'ygan edi, shu sababli ikkilanib o'tirmadi:

— Yo'q, — deb kulimsiradi.

— Shu paytgacha-ya? Nahot biron-bir jonon yuragingizdan urmagan bo'lsa!

— Shunaqasi topilmadi-da, Asqarali aka.

— Be! — Asqarali shunday deb kuldi. — Dunyoni aylanib yuraveribsiz-ku, ishq-muhabbat ko'chasiga kirmabsiz-da, a? Qo'ying-e, inim! Sevgi dardini tortmagan bo'lsangiz, hali dunyoga kelmabsiz. Sizga qoyil bo'lmadim. — Asqarali Rhaqni yelkasiga urib qo'ydi. — Hali ham kech emas, ko'chaga chiqqanda sal boshingizni ko'tarib, ko'zingizni kattaroq ochib yuring. Birontasiga yuragingiz «jiz» etsa, o'rtada mana men kafil.

Yurak «jiz» etish... Qiziq odam ekan bu Asqarali. «Jiz» etgani bilan Rhaq unga dardini ocha olarmidi. Qiziq... Bu qanaqasi?! Yerga tushgan zahoti Nazirani izladi, keyin Saboxonni ko'rganda g'alati bo'ldi. Endi rost gapni aytmayapti. Bu yuragida uyg'onayotgan muhabbat belgilarimi? Saboxonga ko'ngil qo'yyaptimi? Ana xolos!

— Inim, choyni iching, soviyapti...

Rhaq bu gapdan keyin xayolini yig'ib, sovib qolgan choyni shoshilib ho'pladi-da, piyolani uzatdi.

— Ba'zan uyqum o'chib, osmonga qarayman, — dedi Asqarali piyolaga choy quya turib. — Bir kuni to'ng'ichim, yulduzlarda ham odam yashar ekan, degan gap topib kelgan edi. Shundan beri, o'y o'ylab o'yimga yetolmayman. Yulduzlarda odamlar bo'lsa bordir, ammo ularda ham muhabbat degan his bormikin? Bizga o'xshab bir-birini yaxshi ko'rib, dardini ichiga yutib yasharmikin?

Rhaq bu gapni eshitib, birdan Tangni esladi-yu, beixtiyor: «Yo'q», deb yubordi. Asqarali unga savolomuz qaradi.

— Muhabbat yo'q deysizmi?

Rhaq vujudidagi hisni boshqara olmay, sirini oshkor qilay deganini tushundi. Gapni boshqa mavzuga burish maqsadida chaynaldi:

— Muhabbat... emas, yulduzlarda odam yashamasa kerak...

Xayriyat, baxtiga Asqarali uning dovdirashini sezmadi.

— Kim biladi, odamlarning og'zidagi bir gap-da, bu, — dedi-da, choynak-piyolani olib o'rnidan turdi.— Dilmurodjon bugun qaytmasalar kerak. Ulov bo'lmagan ko'rinadi. Ezmalanib sizni ham uyqudan qo'ymay.

Rhaq-Mirzavoy Asqarali bilan xayrlashib, shifoxona tomonga o'tdi. Ammo ichkari kirmay ostonada turib qoldi. Samovarchining muhabbat haqidagi gaplari uning xayolini chalg'itdi. Rhaq Devona boshidan kechirgan voqealar bilan tanishgach, hech kim bilan suhbatlashmay, yotaman, deb o'ylagan edi. Devona tufayli vujudida uyg'ongan tuyg'ular azobi unga yetib ortar edi. Aksiga olib, samovarchi gapga tutdi. Gapga tutganda ham yarasini yangilab, tuz sepdi. Rhaq uchun mana shu tuyg'u hozir ortiqcha edi. Muhabbat haqida, Nazira, Saboxon haqida o'ylashni istamasdi. Shuning uchun ham to'xtadi. Orqasiga o'girilib, qabriston tomonga qaradi. Ko'z oldiga titroq bosgan Devona keldi. O'zining badaniga ham yengil titroq yugurib, junjikdi. Ichkari kirdi. Rhaq Devonaning boshiga tushgan barcha savdolarini bilmasa-da, aqldan ozish sababini angladi.

Yerliklarning yuragi tangliklarnikiga nisbatan ancha kichik. Asab hujayralari ham kam. Ammo shu mitti yurakka tushuvchi ruhiy kuch bir necha baravar katta. Rhaq bu fikrni, bu nomutanosiblikning avvalgi safar chog'ida sezmagan ekan. U yoshligida, tarixni titkilash orzusida yurganida, tangliklarning bir vaqtlar beshta barmog'i bo'lganini tasodifan eshitgan edi. Jismoniy harakat kamaygan sayin barmoqlar kichrayib-kichrayib, oxiri

ikkitasi yo'qolgan ekan. Balki yurak buning aksidir? His-tuyg'u, ruhiy yuk kamaygani sayin tangliklarning yuragi kattalashib ketgandir. Axir u hozir qon haydashdan bo'lak ishni bilmaydi-ku?! Yurak keraksiz hislardan, demakki, ortiqcha ruhiy yukdan xoli qilingani ma'quldir. Lekin mehrdan uzmaslik kerak ekan. Rhaq buning azobini Tangda sezmagani edi. Yerga tushib, bildi. Bildi-yu, og'ir yuk ko'taruvchi ana shu mitti yurak egalariga havasi oshdi.

Kesganbel uyquga berildi. Hatto itlar ham hurmay qo'ydi. Uylar qora qutilar kabi terilgan. Qabristonni daraxtlar qorasi to'sgan. Shunday bo'lsa ham Rhaq o'sha yoqqa tikildi. Devonaning titrab, bukchayib o'tirishi sira ko'z oldidan ketmadi. Aslida, u bunday qilmasligi kerak edi. Devonaning azob chekishini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham dastlabki kunlari bu ishdan o'zini tiyib yurdi. Ammo bo'lajak tahlillar uchun Devonaning boshiga tushgan savdolarni bilishi juda zarur edi.

O'sha tun Rhaq Devonadan ko'proq azob chekdi. Tongni bedor qarshilab, yuragidagi hissi yanada qudrat kasb etganini kashf qildi. U faqat qiyofasi bilan emas, ichki dunyosi bilan ham yerlik odamlarga yaqinlashayotganiga amin bo'ldi.

Rhaq-Mirzavoy samovorxonada nonushta qilgach, tog'dagi ko'katlardan tayyorlagan turkana dorini eltib, raisni tinchitdi. Shundan so'ng to peshinga qadar xonasidan chiqmadi. U bo'lajak ishlar uchun ruhiyatini sozlab olishi kerak edi. Shu sababli shiftga tikilgancha hech nimani o'ylamay yotdi.

Uning tinchini Dilmurodning ovozi buzdi. Rhaq erinibgina turib kerishdi-da, unga peshvoz chiqdi. Qoshlarigacha changga belangan Dilmurod qo'lidagi qora sumkani ostonaga qo'yib, o'zi tol soyasidagi so'riga borib o'tirdi. Qaytishda ulovsiz qiynalganini aytib bo'lgach: «Hammayoq jimjit, tinchlikmi?» deb so'radi.

— Saboxondan darak bo'lmadi. Shopo'lat akamiz bugun progul qildilar. Nazarimda, Umidani olib ketganingizdan xafa, — dedi Rhaq.

— O'zim ham shunday bo'ladi, deb o'ylagandim. Yana oldiga borish kerak. Endi o'zicha kelmaydi.

Dilmurod yuvinib, choy ichib olgach, qabristonga yo'l olishdi. Hujrani qarashdi: Devona yo'q. Uni ertasiga ham, indiniga ham topa olishmadi. Oradan besh kun o'tsa ham undan darak bo'lmadi. Nima qilishni bilmay garang bo'lib turganlarida, Saboxon kelib Devonani mozarboshida ko'rganini aytdi. Paysalga solmay, o'sha zahoti Devonaning hujrasiga borishdi. Ma'yus o'tirgan Devona ularga qarab ham qo'ymadi. Rhaqning hazil-huzuli ham e'tiborsiz qoldi.

— Menga qarang, Shopo'lat aka, siz Umidaning ketib qolganiga xafa bo'lganga o'xshaysiz, a? To'g'rimi?

Devona boshini egdi.

— Be, shunga shunchami, — dedi Rhaq-Mirzavoy, Dilmurodga «Masala ravshan» degandek ko'z qisib qo'yib, — Umida erta-indin keladi. «Ungacha Shopo'lat amakim do'xtirxonada ishlab tursinlar», debdi. Ishga bormasangiz qaytmas ekan..

... Hozir Devonaga gapirish ortiqcha ekanini bilib, bo'shashgan holda izlariga qaytdilar. Rhaqning gaplari ta'sir qildimi, har nechuk Devona ertasiga «ishga» keldi. Bir necha kun shu zaylda o'tdi. Dilmurod yaxshi gapirib uning ko'nglini ovlar, bu tayyorgarlikning mashaqqatidan emas, cho'zilib borayotganidan kuyunardi. Devona hadeganda bo'yin beradigan emasdi. Buni anglagan Dilmurod yana Rhaq-Mirzavoy yordamida ish tutishga harakat qildi.

Mirzavoy hovliga chiqib, Devonani tol soyasidagi so'riga chaqirdi-da, Dilmurod tayyorlab bergan savollar bo'yicha uni asta so'roqqa tutdi.

— Samovarchi Asqaralining eshigiga borgansiz-a? Eshigida nima bor edi?

— Eshigida... eshak! — Devona yelkasini silkitib huzurlanib kuldi.

— Yana nima bor?

— Eshak...

— Uyida sholcha-polcha, xontaxta bormi?

Devona Mirzavoyning og'ziga qarab indamay turaverdi.

— Uyida nima bor?

— G'ing-g'ing, taka-tum, taka-taka-tum, — Devona shunday deb qo'li bilan havoda aylana chizdi.

«Patefon shekilli», deb o'yladi Dilmurod uning harakatlariga razm solib.

— Shopo'lat aka, manavi xo'jayin mendan pakana,a? Asqaralining nevarasi ham shunday. Ularning orasida nima farq bor?

— Pak-pakana...

— Kapalakni bilasiz-a, musichani ham bilasizmi? Ularning bir-biridan nima farqi bor?

Devona atrofiga olazarak qaradi: aftidan, musicha yoki kapalak izladi. Ammo ko'zi eshikdan kirib kelayotgan raisga tushib, o'rnidan turib ketdi. Orqasiga chekindi.

Dilmurod Devonaning raisdan ozor chekkanini sezdi.

Rais qamchisini o'ynatgancha etik qo'njiga urib-urib kelardi. Do'xtirlar bilan sovuqqina so'rashib, so'riga omonat o'tirdi.

— Bu nimasi yana! Odamlar do'xtirxonaga yo'lamaydigan bo'lib qolishibdi-ku?

— Qani, ichkari kiraylik...

— Menga shu yer ham bo'laveradi, ichkari dim.

— Shopo'lat aka, sizga ruxsat, boravering.

Devona osongina qutulganidan quvonib tezgina chiqib ketdi. Rhaq-Mirzavoy voqeani raisga asta tushuntirdi. Mamarayim uning gaplarini bo'lmay tingladi. Keyin hech nima eshitmaganday: «Jinnini yo'latmanglar, tamom!» deb turib oldi.

— Odamlar qo'rquyapti bu birlamchi, — dedi qarorini izohlashga urinib, — ikkilamchi, o'zlaring o'ylab topgan santexnikaga ham to'g'ri kelmaydi. Do'xtirxona ozoda bo'lishi kerak.

— Santexnika emas, sangigiena... — dedi Dilmurod uning xatosini to'g'rilab.

— Ha, nima bo'lsa o'sha-da, — dedi rais bepisand ohangda.

— Axir, Toshkentdan ataylab tajriba o'tkazaman, deb kelgan bu kishi!

— Bu yer tajribaxona emas, kolxoz! Jinni kerak bo'lsa, ana, olib ketaversin.

Rais: «Gap tamom!» degandek qamchini bilan etik qo'njiga bir urib qo'ydi-da, turdi.

— To'xtang, Mamarayim aka, gapimizni eshiting. Rentgen apparatini bilasiz-a? Dizelni ham eshitgansiz. Aslida Rentgen ham, Dizel ham olimlarning nomi. Dilmurodjon antiqa bir asbob yasaganlar. Shu bahona qishlog'ingizning nomi dunyoga mashhur bo'lsa yomonmi?

Mamarayim, meni mazax qilyaptimi bu, deb bir qarab oldi. Rhaq-Mirzavoyning jiddiy turganini ko'rib, hovridan tushdi.

— Menga qolsa, yo'q demayman. Lekin odamlar...

— Odamlarga tushuntiramiz.

— Yaxshi, agar biror gap qo'zg'alsa, ranjimaysizlar... Asbobga «Kesganbel» deb nom beradimi, balo deydimi, bari bir ayab o'tirmayman... — Rais shunday deb chiqib ketdi.

Ertasiga Rhaq raisga uchrashdi-da, toqqa chiqib ketishayotganini, dorivor giyohlar terib tushajaklarini aytib ruxsat oldi. Sahar chog'ida, Asqarali ikkita eshakka to'qim urib bergach, yo'lga tushishdi. Dovon oshib yuqorilashgan sari archazor qalinlasha bordi. Salqin havoda etlari junjikdi. Eshakda yurib o'rganmaganlari uchun endi piyoda bo'lib olishgan edi. Dilmurod atrofga boqib to'ymasdi. Yolg'izoyoq so'qmoq qorli cho'qqi tomon uzayib boraveradi. Qorli cho'qqining uchi esa ko'rinmaydi. Paxmayib ketgan qo'ng'ir bulut xuddi tog' cho'qqilariga ilashib qolganday qimirlamasdan turibdi.

«Odamning hayoti ham tabiatdagi daraxtu ko'katlarga o'xshaydi, — deb o'ylardi Dilmurod. — Odamlar har xil bo'lganidek, daraxtlar ham turlicha. Biri istagancha egilaveradi. Biri egilishdan ko'ra sinishni ravo ko'radi. Mana, archalar qiyalikda ham tik o'syapti. Ularni qor ko'mib tashlaydi, sel yulmoqchi, shamol egmoqchi bo'ladi. Lekin bari bir u tik o'saveradi. Qorning ham, selu shamolning ham o'tkinchiligini biladi...»

Eshagini yetaklab olgan Rhaq Dilmuroddan besh qadamcha orqada kelardi. U ham bu ajib manzaraga suqlanib boqar, bunday go'zallikni xayolan Tangdan izlardi. «Tang ham balki qachonlar shunday sehrli bo'lgandir, — deb o'ylardi u. — Ajdodlarimiz xuddi shunday sof havoda nafas olgandirlar. Tabiatning bunday chiroyidan zavqlangandirlar. Hozirgi avlod esa hammasidan mahrum. Tangliklar Yerga kelsa, bularning qadriga yetarmikanlar?»

Ular bir-biriga yelka tiragan ikki tog' orasidan o'tib, ko'm-ko'k o't bilan burkangan yalanglikka chiqdilar.

— Buni qarang, Mirzavoy aka, quling o'rgilsin oromgoh bo'ladigan joy ekanmi, a? — dedi Dilmurod to'xtab.

— Ha, bunaqa jannatsifat joylar hamma yerda ham bo'lavermasa kerak, — dedi Rhaq-Mirzavoy uning gapini ma'qullab.

— Attang, ming attang, — dedi Dilmurod bosh chayqab. — Biz jannatimizning qadriga yetmaymiz. Bunaqa joyda hordiq chiqargan odamga kasal degan narsa yaqinlashmaydi. Avvalo havoning o'zi dori. Qolaversa, faqat sut yoki qimiz ichib shifo topish mumkni. Mana shu ko'katlarning hammasi dori.

— Sizga o'xshagan olimlar buni xalqqa tushuntirishlari kerak-da.

— E, tushuntirish bilan ish bitmaydi. Agar so'zim o'tsa, boshqa narsani taklif qilardim.

— Nimani?

— Hozir kattalar Qrimda dam olishni rasm qilishgan. Borib to'g'ri qilishadi. Yil bo'yi ishlab charchagandan keyin dam olish kerak. Ular Qrimni ko'rib, yaxshi taassurotlar bilan qaytishadi-yu, o'shanaqa oromgohlarni shu yerda qurishni o'ylashmaydi. Shuning uchun men ularni Qrimga yubortirmasdim. Ana o'shanda ular uzoqqa borishni o'ylamay, shu yerlarda oromgohtar qurishga majbur bo'lishardi.

Rhaq uning rejasini eshitib, kuldi.

— Dilmurodjon, sizga razm solib turibmanu hayron bo'laman. Bir qarasam, dono, ko'p o'ylab, kam gapiradigan vazmin olimsiz. Bir qarasam, bolalarcha soddalik bilan kuyunasiz.

— Bu hammada ham bor qusur, Mirzavoy aka. Siz o'zingizni bilmay gapiryapsiz shekilli, a?

— Men ham shunaqamanmi?

— Hozir menga taqagan aybingiz to'laligicha o'zingizga tegishli. Hatto harakatingizda ham mo'tadillik yo'q. Dam og'ir qadam tashlaysiz, dam yugurib ketay deysiz. Ayniqsa qiyaliklarda sizga yetish qiyin. Yana, o'pkamning mazasi yo'q, deysiz. Ochig'ini aytsam, ovqatni ham bir xilda yemaysiz. Kayfiyatingizga-ku mutlaqo tushuna olmayman. Sizda askiyaga moyillik bor desam, kamgap bo'lib qolasiz. Odamovi desam, Asqarali aka bilan tepa-teng gaplashasiz. To'g'ri sezibmanmi?

Rhaq-Mirzavoy jilmayib bosh irg'adi. Ammo ichidan zil ketdi. U Tang kemasidagi gen kamerasini mukammal deb hisoblagani uchun chinakam yerlik qiyofasiga kirganman, deb o'ylardi. Holbuki, harakatlarida shuncha tafovut bor ekan. Demak, vaqt oqimining tezligidagi farq genetik kod tuzilayotgan damda aniq hisobga olinmagan. Endi diqqatni bir yerga jamlab, o'ylab ish yuritish kerak...

Ular Novqatga kun oqqanda kirib kelishdi. Samovarxonaga kirib shu qishloqdan ketib qolgan jinnini surishtirishdi. Rhaq shu qishloqlik Mashhura ismli ayolni topish kerakligini bilsa ham sir boy bermadi.

Samovarxonadagilar jinni voqeasini eslash uchun ko'p urinishmadi. Darrov eslashdi.

— O'n yilning nari-berisida telba paydo bo'luvdi,— dedi chalako'sa bir qariya tamshanib. — Jalol so'fining qizi, «Akam», deb boshlab keluvdi. Jalol so'fining mullavachcha o'g'li bo'lardi. Aytishlaricha, o'shaning esi og'ib qog'onakan. Omma men unga o'xshatmadim. Yo jinni bo'g'oniga o'zgarib ketganmi, nevlay. Omma so'fining qizi kichkina to'y bergan kundan keyin jinnining ham qorasi o'chdi. O'shandan beri, Xudoga shukr, Novqatda jinni zoti bo'lmadi.

Mashhuraning uyiga o'sha qariyaning o'zi boshlab bordi. Ichkari kirib fotiha o'qidi-da, yumushi borligini aytib, chiqib ketdi.

Dilmurod Mashhuraning oppoq sochlari, ajin bosgan yuzi, xiyol egik qaddiga boqib, qari kampir bo'lsa kerak, deb o'ylagandi. Keyin bilsa u Devonaning singlisi ekan. Mashhura ham, uning muomalasi dag'alroq eri ham mehmonlarning vrach ekaniga ishonishmadi. (Qaysi vrach, qaysi zamonda bitta jinnining tarixini bilaman, deb tog' oshib kelibdi?) Shuning uchun savollarga uzuq-yuluq javob berishdi. Hatto Mashhura «Nevlay, akamga o'xshatib edim. Keyin ketib qoldi», deb gapni kalta qildi. Rhaq suhbatni yana maromiga solaman, deganda Dilmurod qovun tushirib qo'ydi.

— Akangiz Norxo'ja degan qo'rboshi bilan birga bo'lgan ekan. Buxoroda o'qib kelgan ekan, shu rostmi?— degan savolni eshitib, Mashhuraning eri yorilib ketdi.

— Hoy, uka, menga qarang, siz unaqa ipni chuvalatavermang. Yo'q yerdan aybni topib kelib qo'yishni biz ham bilamiz. Opangizning umri bolalarni o'qitish bilan o'tyapti. Men ham kolxozda kichkina emasman. Bizni qaqshatishni o'ylamang. Mening urug'imda ham, opangizning urug'ida ham bosmachi, mulla degani bo'lmagan. Opangizning akasi qizil komandir edi. Hujjatlarimiz bor. Bizni gangitmang. Choyni ichib bo'lgandirsizlar-a?

Bu gapdan keyin noiloj turib, samovarxonaga qaytishdi. Mashhura ularning ko'ziga qaray olmadi. Eri bo'lsa, pok odam ekanini to ko'chaga qadar ta'kidlab bordi.

Samovarxonadagilar bo'lgan voqeani eshitib achinishdi.

— Shunaqa bo'lishini bilib, darrov izimga qayta qoluvdim, — dedi hali yo'l ko'rsatgan qariya. — Bu so'ltamatga aql bitmadi-bitmadi. Eshigingga otangning qotili kelsa ham bir kechaga joy qilib bermaysanmi, it emgan. Axir uyingga non so'rab kelishmabdi-ku? Tag'in ham baxtiga omonliq zamon. Eski paytlar bo'lganda mehmonning yuziga chopgani uchun sazoyi qilinardi...

— Jinnining qadamini ham o'sha nomard qirqdi. To'yda odamlarga ko'rinsa izza chekaman, deb tog'asinikiga olib borib qamab qo'yibdi. Jinnida ham farosat bo'larkanda, eshigiga qaytib kelmadi.

Samovarxonadagilar Mashhuraning eriga shu zaylda la'nat tamg'asini bosishgach, mehmonlarni (biri olib, biri qo'yib) uylariga chorlashdi. Rhaq bilan Dilmurod qulluq qilib, samovarxonada qolishdi.

— Har holda kelganimiz chakki bo'lmadi. Voqea ancha oydinlashdi. Devona shu xotinning akasi. Dovdirashidan bilinib turibdi. Faqat aytishga qo'rqyapti. Endi o'z otini aytib chaqirsak ham bo'ladi, — dedi Dilmurod, ichiga paxta tiqilgan qattiq yostiqqa yonboshlab.

— Yarasini yangilab qo'ymaymizmi? — dedi Rhaq o'rnini tuzata turib.

— Bu gapingizda jon bor. Agar unga qattiq ta'sir qilgan voqeani aniqlasak, qoyilmaqom ish bo'lardi. Lekin bu voqeani bularning o'zlari ham bilmasa kerak. Har holda, bosmachilarga bog'liqqa o'xshaydi. Boshiga urishganmi, qo'rqitishganmi, qiynashganmi, ishqilib, bir gap bo'lgan. Askar qalpog'i esingizdami? Demak, u

Mashhuraning katta akasiniki. Demak, jinni aqlini butunlay yo'qotmagan. Bu ishimizni ancha yengillashtiruvchi dalil!

Dilmurod «kerakli narsalarni» bilib olganidan mamnun edi. Rhaq esa Mashhuraning yashirin o'ylarini o'qib, Sabohiddinning qismatiga yanada kuchliroq qayg'urardi.

Novqatdan qaytishgandan so'ng Dilmurod sinovga tayyorgarlikni tezlashtirdi. Devona xonaga kirib yotishga to'rt marta bo'yin bermadi. Oxiri, hech qanday qo'rqinchli hodisa sodir bo'lmasligiga ishonch hosil qilgach, ustiga charm qoplangan taxta so'ri ustiga chiqib ko'zlarini chaqchaytirgancha jim yotdi. TET ishga tushib impuls yuborilgach, hushidan ketdi. Rhaq savol nazari bilan Dilmurodga qaradi.

— Me'yoridan sal oshiribmiz. Xavotir olmang, hozir hushiga keladi, — dedi Dilmurod uning mijjalarini qayirib ko'rar ekan.

Devona ikki soat harakatsiz yotdi. Keyin badaniga titroq kirdi-da, o'rnidan turdi. Rhaq bilan Dilmurodga hayrat bilan tikilib, orqasiga tisarilganicha chiqib ketdi.

Dilmurod o'zini xotirjam ko'rsatishga urinsa-da, asta titrayotgan barmoqlari hayajonini fosh qilib turardi. Shuning uchun ham u asbobni shosha-pisha g'ilofga joylagach, uyga borib dam olajagini bahona qilib chiqib ketdi.

Rhaq uning asl maqsadini bilgani uchun kuzatgani chiqmadi. Charm qoplangan so'riga o'tirib, o'yga toldi...

«Hozir uyga boradi-yu, panalab qabristonga yo'l oladi. Devonani kuzatadi. Hayajonini mendan yashirmoqchi. Birinchi sinovning yaxshi o'tganini hali o'zi bilmaydi. Qishloqqa kelganiga oy to'ladi, ammo bir zum tinch turmadi. Doim bir narsani fikrlaydi, bahs-lashadi, isbot qilmoqchi bo'ladi. Xullas, qaragan kishi uning tirik ekanini, yuragi urib turganini darrov his qiladi. Tangliklar esa... ularning tirikligini faqat harakatlanishidan bilish mumkin...»

Rhaqning ko'z oldiga Fidning horg'in chehrasi keldi. Rhaq ikkinchi safarga tayyorgarlik ko'rayotganida Fid o'zining qarashlarini oshkor etgan, hamisha Rhaq bilan yakdil ekanini bildirgan edi.

Yerga safar qilinguncha Tang donishmandlari masalalarni bahsga berilmay turib tezda hal etardilar. Lukn bilan Rhaqning kundaliklaridagi qarama-qarshi fikr kutilmaganda ularni ikki oqimga ajratib qo'ydi. Rhaq Yer taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmay, yerliklarning ichki dunyosini sof saqlab qolish kerak, degan talabni ilgari surgan edi. Fid Rhaqning «tezkor taraqqiyot bilan ichki ma'naviy dunyo bir-birini rad etadi. Tushunmovchilik, xatolar, urushlar barham topib, Yerdan oqibat, chinakam mehr-muhabbat qaror topadi», degan fikrini qo'llab yanglishmagan edi. Agar Yerga kelganda bunga o'zi ham iqrar bo'lardi. Mutanosiblikni buzib, taraqqiyotni tezlatish tarafdorlari ko'proq edi. Yerning boshqa nuqtalarini kuzatayotgan tangliklar agar o'zgacha xulosaga kelsalar, qora oqim mutlaq qarorga kelib qo'yishi mumkin. Fid atrofidagi bir necha donishmand bilan katta kuchga dosh bera olarmikan?..

Bu o'lkaning asriy uyqudan uyg'onayotganini ko'r ham payqashi mumkin. Avvalgi safar chog'ida Shoaziz o'tkir zehnli allomalardan so'z ochganida amir bo'yniga ayb sirtmog'ini ilgan edi. Salimxo'ja esa zamon allomalarining ko'z ochishi uchun nimalar qilish kerakligini aytgan edi. Uning bashorati to'g'ri chiqdi. Mana, Dilmurod Yer sathida hech bir donishmand o'ylamagan ishni qildi. Erta-indin Devonaning xotirasini butkul tiklab, hushini joyiga keltiradi. Uyg'onishning isboti uchun yana nima kerak?

Rhaq Devona hushsiz yotganda tunov kuni uni gipnoz qilganidan afsuslandi. Shoshilmasligi kerak ekan. Chunki o'sha gipnoz ta'sirida Devonaning xotirasi qisman tiklanib qolgan, bugun esdaliklarning davomi yuz ochgan edi. Rhaq bu esdaliklarni o'qib, endi Devonani o'z holiga qo'yishga ahd qildi.

Hozir xonada yolg'iz qolgach, Devonaning boshiga tushgan savdolarning davomini ko'z oldiga keltirdi. Ustarada qirdirilgan boshiga choldo'ppi qo'ndirilgan, oq yaktak, oq ishton kiygan, qoruvli gavdasini hiyol egib tasbeh o'g'irgancha xomush tortgan Sabohiddin nigohidan ketmay qoldi...

MUBHAM SO'QMOQ

Otasining nogahoniy o'limidan dili vayron bo'lgan Sabohiddin singlisining qismatini o'ylab, yurak-bag'ri ezilib ketdi.

U singlisi uchun Norxo'janing qarorgohi nima ekan, u dunyoga borib kelishdan ham toymasdi. Sabohiddin ikki tomoni nayzayu tig'lar bilan qurshalgan so'qmoqqa kirib borayotganini bilardi. Tig'lardan duoyu iltijolar yordamida qutulib bo'lmasligiga ham aqli yetardi. Yoshligida ko'ziga ajina ko'rinsa, darrov kalima qaytarardi. Koshki edi, jinlar bazmiga kirib borayotgan bo'lsa, yo'q, u do'zax otashi tomon boryapti. Balki u yerda azroil bilan yuzma-yuz kelar. Balki omonatini topshirar. Sabohiddin bila turib shu manzilga boryapti. O'zga chora yo'q. Uni bu tomonlarga jihod istagi boshlab kelgan edi. Endi esa fikru xayoli singlisining taqdiri bilan band. Ishqilib, singlisi omon qolsa, bas. Tengini topib uzatsa, bo'ynidagi qarzdan xalos bo'lib, otasining arvochini rozi etardi...

Sabohiddin shu o'ylar girdobiga tushgan bir mahalda ot dupuri eshitildi. Chavandoz ularning eshiklari oldida to'xtadi. U oy yorug'ida akasini tanib, irg'ib o'rnidan turdi. Jamoliddin otasining qazosidan xabar topib kelgan edi. Shu uchun ukasini quchoqlab, unsiz yig'ladi. Bu orada ichkaridan Sohiba aya chiqib past ovozda yig'i boshlab, o'g'lini bag'riga bosdi.

Sabohiddin: «Akam bas qil, deb qolmasmikan», degan xavotir bilan tilovat qila boshladi. Yo'q, Jamoliddin indamadi. Aksincha, ukasiga qo'shilib fотиha o'qidi.

Aka-uka Sohiba ayaga: «Kirib damingizni oling», deyishsa ham, aya unamadi. O'g'illarining diydoriga to'yay deb tun yarmidan oqquncha o'tirdi. Tong bilan baravar turishdi. Sabohiddin bomdodni o'qib olguncha Jamoliddin otiga yem tashlab, qashlagan bo'ldi. Keyin ikkovlon qabristonga yo'l oldilar.

— Men hozir ketishim kerak, — dedi Jamoliddin qaytar mahallarida. — Imillamay Mashhurani olib kel.

— Taqsirim bilan bormoqchimiz. — Sabohiddin Xoliqberdi to'ra bilan uchrashganini, uning topshirig'ini akasidan yashirdi.

— Shunday bo'lishini sezgan edim. Bosmachilarga o'tishing aniq ekan.

— Qishloqning ko'p yigitlari islom lashkarlari, siz aytmog'chi, bosmachilar safida ekan. Ulardan bu qadar nafratlanishingiz o'rinsizmikin... axir... «bosmachi» ham siz bilan menga o'xshagan odam. Ular ham el-yurt deb azob chekishyapti.

— Bu gaping to'g'ri. Bizdaqalari ham bor. Surgundan yurib men ko'p narsa angladim. Eng muhimi, haqiqat yagona bo'lsa ham uni turli odam turlicha tushunar ekan. Zamon notinchlanib, adashganlar ham ko'paydi. Kim haq ekanini bilmay garangsib yurganlar undan ham ko'p. Mana, o'zing ham farqiga bormaysan-ku?

— Men haqiqat imonlilarda deb bilaman.

Sabohiddin, akam yana qizishib ketar, deb o'yladi. Yo'q, Jamoliddin uning gapini eshitib, bosh chayqab qo'ydiyu oyog'i ostiga qaragancha bir me'yorda yuraverdi. Qabristondan ko'ngli cho'kib chiqqani uchunmi, uning shashti past, ukasiga Marg'ilondagi kabi qo'pol muomala qilmas, aksincha, muloyim gapirardi. Boshqa bir tomondan u Sabohiddinning sirtmoqqa tushib qolganini fahmlagan, endi uni qutqarish yo'lini izlab, garang bo'layotgan edi.

— Bosmachilar quroq dasturxonga o'xshaydi. Ularning dastidan yurt ham quroq bo'lib ketdi. Bu ahvolda uzoqqa borisholmaydi. Ular chetga sig'inishyapti. Go'yoki chetdagilar dinning panohi, tayanchi emish. Padariga la'nat bunday tayanchning. Agar foyda unishiga ko'zi yetmasa, hech kim qayrilib qaramaydi. Ular hamyonlarining qappayishini o'ylab, yurtimizga adovat urug'ini sochishyapti... Musulmonchilikning pok, nopok bo'lishi bilan inglising necha chaqalik ishi bor? Nahotki shuni tushunish qiyin bo'lsa? Ularga dinning pokizaligi emas, yurtimizning boyligi kerak.

— Boylik kerak ekan, o'zlari qo'shin tortavermaydilar mi?

— Nodonsan, uka. Hali ham esing kirmabdi. Dunyoning ishlari sen o'ylaganchalik oson emas. Boquvda turgan otga tushov urish mashaqqatli, ammo holdan toygani indamaygina bo'yin egib turib beradi. Ular bizning o'lar holga kelishimizni kutishyapti. Bu — birlamchi. Ikkilamchi, hokimiyatni bosmachilar qo'li bilan olishmoqchi.

— Sho'rolar-chi?

Sabohiddinning shu topda akasi bilan bahslashish niyati yo'q edi. Savolni o'zi istamagan holda berdi. So'ramasa ham bo'lardi, chunki olajak javobini taxminan bo'lsa-da, bilardi. Sabohiddin ingliz bilan o'risning muddaosida farq ko'rmasdi. Ularning har biri oyoqlar ostiga munofiqlik to'rlarini tashlashgan. Ularning har ikkovi ham makkor ovchi. Ovchi ov ovlaydi. Go'shtini yeydi, terisini shilib, sotadi... Ovchi hech mahal o'ljasiga erkinlik berish uchun tuzoq qo'ymaydi. Agar «o'ljamga ozodlik in'om etmoq maqsadida ov qilyapman», desa odamlar undan kulib, jinniga chiqarishadi. Ammo nechundir hech kim inglizdan ham, sho'rodan ham kulmaydi, ularni tentak demaydi. Balki ko'zlarini chirt yumganlari holda so'zlariga inonmoq istaydilar. Sabohiddin Salimxo'ja bilan suhbatlarida bunga amin bo'lgan. Sabohiddin bu safar ham yanglishmadi: akasi u kutgan javobni berdi:

— Sho'rolar bizning erkimizni o'z qo'limizga topshirgan.

Sabohiddin boshqa gap qo'shishni istamadi. Akasining yonida jim boraverdi. U akasiga «siz sarob sari boryapsiz. Bora-bora topganingiz jahannam azobi bo'ladi», demoqqa og'iz juftladi-yu, biroq bunday so'zlarning o'rni emasligiga fahmi yetib, tilini tiydi.

— Adashganlar ko'p, ularga achinaman, — dedi Jamoliddin xuddi o'ziga o'zi gapirayotganday bosiq ohangda.

— Sizlar tomondami? — deb so'radi Sabohiddin. Akasi unga norozi qiyofada qarab oldi.

— Yo'q, senlar tomonda, — dedi «senlar» so'ziga urg'u berib.

— Xoliqberdi to'ra hammi?

— Adashganlarning eng kattasi o'sha. Bekorga qon to'kilyapti. Yigitlar bekorga o'lib ketishyapti...

— Bekorga emas... — Sabohiddin shunday deb jimib qoldi. Akasi «Gapni yamlama», deganday unga qaradi. Sabohiddin bir-ikki qadam qo'ygach, so'zida davom etdi: — Olloh taborak va taolo marhamat qilib deydiki: «Olloh yo'lida halok bo'lgan shahidlar haqida «bular o'liklar», demangiz! Yo'q, ular tiriklardir, lekin sizlar sezmaysizlar.» Ular uchun jannatdan joy hozirlab qo'yilarkan. Ammo shahid jannatda ko'rgan ehtiro va rohatdan keyin ham yana bu dunyoga qaytib chiqib yana o'n marta halok bo'lishni orzu qilarkan.

Sabohiddin bu gaplarni aytib, «Akam Marg'ilondagi kabi sapchib tusharmikin, «jannating yo'q narsa», deb yana kufrga ketarmikin», deb xavotirlandi. Lekin bu safar Jamoliddin javob qaytarmay, ukasini ajablantirdi.

Ko'chalariga burilgach, eshiklari oldida to'plangan odamlarni ko'rib, ajablanishdi. Olomon ularning yo'lini to'sdi.

— Ana, kallakesar padarkushning o'zi kelyapti, — deb qichqirishdi.

Jamoliddin bu gapni eshitib, qo'lini g'ilof sari yubordi.

— To'pponchangni tek qo'yatur, — dedi qo'lga so'yil ushlagan, yalang oyoq, piltasi chiqqan do'ppi kiygan o'rta yashar kishi.

— Ha, Maqsum tog'a, bu nima harakat o'zi? — dedi Jamoliddin.

— Go'shtni qaerga yashirding?

— Qanaqa go'sht?

— Peshonamda bittayu-bitta g'unajin borligini bilarmiding. Bolalarning rizqiga Xudoning rahmi kelib, bosmachilarga ham oldirmagandi. Sen yulib oldingmi, haromi! — Maqsum tog'a shunday deb so'yilni ko'tardi. Olomon baqirib-chaqirib ularning ustiga bostirib kela boshladi. Jamoliddin mauzerini chiqarib osmonga ketma-ket ikkita o'q uzdi. Odamlar to'xtashdi.

— Maqsum tog'a, g'unajiningizni boshimga uramanmi? Birov tuhmat qilibdi.

— Tuhmat deysanmi? G'unajinning terisini ham birov og'ilxonangga tashlab ketibdimi?

— Sho'rolar kambag'allarga qayishadi, deyishardi. Bosmachidan battar o'g'ri ekan-ku!

— Otangni sho'rolar otgan edi. Xun olishni o'ylamay...

— Bu gapni qo'yatur. Go'shtni berkitgan joyini ko'rsatsin.

— Gapimga ishonib, — dedi Jamoliddin bo'g'ilib.

— To'pponchangni yo'qot. Ko'zimga hech nima ko'rinmay turibdi, mayib qilib qo'yaman, bola.

— O'g'irlamagan bo'lsang, aslahangni yechib gaplash biz bilan. Mana, hech birimizda qurol yo'q.

— Bizga ishonmasang, ukangga berib qo'y. Oldimizga tushib, ellikboshiga borasan.

Jamoliddin bu gaplardan keyin noiloj aslahalarini yechib ukasiga berdi-da, olomon oldiga tushdi. Guzarga yetishganda besh chog'li otliq ularning yo'lini to'sdi. Jamoliddin bosmachilarning tuzog'iga ilinganini anglab, qochmoqchi bo'ldi. Biroq, odamlar uning qo'llarini qayirib oldilar.

— Nima gap? — dedi o'ng qo'lida beshotar ushlagan, shoyi chorsini peshonasiga chapanicha bog'lagan kishi.

Odamlar biri olib, biri qo'yib voqeani bayon qilishdi.

— Sho'rolarning ta'zirini qo'rboshining o'zi beradi.

U gapini tugatishi bilan to'rt yigit otdan irg'ib tushib, Jamoliddinning qo'l-oyog'ini bog'lay boshladi. Yordamga tashlangan Sabohiddinning boshiga og'ir narsa urilib, hushidan ketdi. Ko'zini ochib, o'zini uyida ko'rди. Tepasida Sultonmurod, sal narida esa Sohiba aya taqdirni la'natlab o'tiribdi. Sabohiddin nimadir demoqchi edi, tili aylanmadi. Uning aytmoqchi bo'lgan gapini Sultonmurod angladi.

— Barini eshitdim, o'g'lim. Xotirjam bo'ling. Akangizni Norxo'janing yigitlari olib ketibdi. Xudo xohlasa, biz ham bomdoddan keyin yo'lga chiqamiz.

... Sohiba aya o'n to'rt farzand ko'rib, o'n bir go'dagini yerga qo'ygan. O'n bir marta onalik quvonchini norasidalariga qo'shib qora yerga ko'mgan. O'sha «o'n bir hur go'dakning umrini ham, baxtini ham, rizqini ham Ollohim qolgan uchtaga bergani rost bo'lsin», deb yurganida, umidi xira tortdi. Kattasini uylantirib endi rohatini ko'raman deganida o'g'li taloq xatini berdi. Yosh yigit so'ppayib o'tib ketarmidi dunyodan. Qayta uylantiramiz, deb turishganda, oraga shayton aralashdi-yu, Jamoliddinni surgun qilishdi. Xayriyatki, u besh yilda qaytdi. Ammo bari bir diydoriga to'ymadi. Orzu-havas ko'rolmadi. Olatasir boshlanib, o'g'li sho'rolarga qo'shilib ketdi. Ba'zan oylab xabari bo'lmaydi. Ishqilib, ajal quvmagan bo'lsin. Zamon notinch ekan, erkaklarning boshi tashvishdan chiqmaydi. Lekin qiz bolaning gunohi nima? Xudo qizini ham bag'riga sig'dirmay, unga yana qanday alamni ravo ko'rди ekan? Sultonmurod uni panohiga olib

balki savob qilgandir? Unday desa musofirlikdan qaytgan Sabohiddinni ham uzoq yo'lga boshlab ketyapti. Uy huvillab qolyapti. Go'yo u sira farzand ko'rmaganday, bir umr yakka-yolg'iz yashaganday. Bir o'zi... Yolg'iz... Uning dardiga kim darmon bo'larkin?.. U ham barcha onalar kabi ohini ichiga yutadi. Boshqa iloji yo'q.

Ona ham dunyoga bir marta keladi, ammo necha bor o'lib-tiriladi. Farzandiga zirapcha kirsa, uning bag'riga xanjar sanchilganday bo'ladi. Farzand dog'i, ayriliq ona qalbini otashda qovuradi. Agar ona tiriklayin o'tda kuydirilsa, bunchalik azob chekmasdi. Ona tortgan dard bilan quvonch tarozi pallasiga qo'yilsa, umr bo'yi ko'rgan shodliklari bir kunlik dardiga ham bas kelolmasligi aniq.

Sabohiddin ayasining ko'zlariga qarab, yurak-bag'ri ezilib ketdi. Sohiba ayaning yosh aylanib turgan ko'zlari mungga to'lgan. Shu holda ham u Xudoga shukr qilib, dardini sirtiga chiqarmasdi. Sabohiddin bomdoddan keyin onasining iltijolariga beixtiyor quloq tutdi. «Farzandlarimni bag'rimdan yulib olguncha, bir burda nonga zor qilsang bo'lmasmidi...» Bu nola Sabohiddinning bag'rini tilib, tuz sepdi. Xayrlashar chog'ida ham onasining yig'lamsirab aytgan gaplari qulog'i ostida jaranglayverdi: «Farzandlarimni bag'rimdan yulib olguncha, bir burda nonga zor qilsang bo'lmasmidi...»

Sabohiddin onasini ostonada yolg'iz qoldirib, ko'ngli cho'kkan, ezilgan ahvolda imomga ergashdi. Dastlab orqasiga o'girilib qaraganida onasi eshikka suyanib turardi. Yana bir qarasa, mushtday bo'lib cho'nqayib o'tiribdi. Keyinroq orqasiga o'girilganida, ularning hovlisini daraxtlar pana qilib qo'ygan edi. Shabada turib, daraxt barglari shivirlay boshladi. Bu shivir orasida u yana onasining ohini eshitdi:

« ... bir burda nonga zor qilsang bo'lmasmidi...»

Otlarni o'z holiga qo'yishdi. Jonivorlar asta yo'rg'alaydi. Katta oq salla o'rab, oq chopon kiygan Sultonmurodni ko'rganlar ta'zimga shaylanishadi. Qishloqdan chiqishgach, otlarni ildamlatishdi.

— Taqsir, shuncha kundan beri og'zingizni poylayman, o'zingiz ayta qolay demaysiz.

— Nimani, o'g'lim?

— Siz qishloqdagi hamma odamni yaxshi bilasiz. Dadamni kim o'ldirgan bo'lishi mumkin?

— O'zimning ham aqlim bovar qilmay qoldi, o'g'lim. Dadangiz begunoh mo'min-musulmon edi. Birov bilan hech mahal sen-menga borganmas.

— Yoki qotil biror boshqa kishi bilan adashtirdimikin?

— Bundan bexabarman.

— Otgan odam sho'rolardanmi, yo...

— Masjidga qarab kim o'q uzishi mumkin?

— Axir, akam sho'rolar tomonida-ku?

— Xudodan qo'rqmagan, otani ayamaydi.

Sabohiddinning nafasi ichiga tushdi. U «taqsir sirni ochishga ko'maklashar», deb o'ylagan edi. Aksi bo'lib chiqdi.

Yon-atrofdan daraxt ko'rinmaydi. Bahaybat toshlar orasida, quyoshning nurli tig'ida kuyib borishadi. Sultonmurod otni niqtab tezlatadi. Otlar mayda toshlarda sirg'ana-sirg'ana ildamlaydi. Sabohiddin domlarning og'zini poylaydi. Yo'l boshlab ketayotgan imom esa jim. Daradan o'tishgach, Sabohiddin unga yana so'z qotdi:

— Taqsir, odamlarning bo'linib-bo'linib ketganiga sira tushuna olmayapman. Tuppa-tuzuk, ahil-inoq yashar edik-ku? Bir qism odam endi sho'rolarga qo'shilibdi, bir qismi Norxo'ja eshonda, bir qismi Xoliqberdi to'rada, yana bir qismi Shermat qo'rboshida, Muhiddin qo'rboshida...

— Yana mayda qo'rboshilarni ayting.

— Ha, ilgarilari ochin-to'qinga ham chidab birga-birga yashardik. Xudo urgani shumikin?

— Odamlar aqldan ozdi. Shaytonning qo'li baland kelib qoldi. Bu nima? Bu — oxir zamon belgisi! Agar imonsizlar yo'ldan qaytmasa, qiyomat bo'ladi.

— Taqsir sho'rolar Xudoning adashgan bandalari, shakkoklar, imonsizlar desam, oralarida imonlilari ham bor emish.

— Chin musulmon bandalari kam ularning orasida. Sho'rolar kofirlarning fisqiga uchib, ularning dinini qabul qilmoqchi. Avval podshoni yo'q qilishdi. Keyin xesh-aqrabolarni. Ular barcha baravar ishlasin, hosilni teng bo'laylik, deydi.

— Bu gaplari yomon emas-ku?

Sultonmurod ichida «qazisan, qartasan...» deb g'ijinganicha unga olayib qaradi.

— Bandalarga rizqni sho'rolar emas, faqat va faqat Olloh berishini unutdingizmi? Men yaqinda, Norxo'ja eshon Novqatni olmasdan ilgari, bir bolshavoy bilan tortishdim.

— Siz-a?

— Ha-da! Uning aytishicha, erkagu xotin baravar bo'lar emish. Erkak nima ish qilsa, xotin ham shuni qilarkan. Erkak kirgan joyga xotin ham kiraverar ekan.

— Masjidga hammi?

Sultonmurod kulib yubordi.

— E, lodon, ular masjidning kulini ko'kka sovurmoqchi-yu, xotinlarni olib kelishadimi? Uning aytishicha, do'kon rastalarida xotinlar ham savdo qilishi mumkin, dalada ham ochiq-oydin ishlayveradi. Erkaklarga qo'shilib savod chiqaraveradi. Nomahram degan gap bo'lmaydi. Ammo men uni boplab mot qildim.

— Bolshavoynimi?

— Ha. Xotinlar zaifa bir narsa, do'konda qosh-ko'zini suzib tursa, erkaklarning niyati buzilmaydimi, ayollar xiyonat yo'lga kirib ketmaydimi, dedim.

— U nima deydi?

— Nima derdi, yo'q, deydi-da. Shunda men: «Mayli, siz aytganday bo'lsin. Xotiningizni birovning qo'ynida yotganini ko'rganingizda imom-domla haq ekanlar, deysiz», dedim. Qizarib, alanga bo'lib ketdi, bechora. Keyin men undan: «Xotin kishi nima uchun yaratiladi?» deb so'radim. U allaqancha gaplarni aytib tashladi. So'ng men maydalab so'radim. «Ayol kishi erkakdan zaifroq, nozikroq bo'ladi-a? Shu nozikligi bilan erkaklarning ko'nglini ovlaydi. Erkak bilan baravar ishlasa, nozikligi qayga ketadi? Badani dag'al, qo'llari tosh xotin kimga kerak?»

— Menga kerak, demadimi?

— E, qayda! Og'iz ocholmadi. Nafsilamrini aytganda, unga ham... — Sultonmurod bir gap aytmqchi bo'ldi-yu, Sabohiddinning bo'ydoqligini, o'zining mavqeini eslab tilini tiydi, — nozik xotin kerak-da. Keyin yana so'radim: «Mulla yigit, sizni kim tuqqan? Onangiz. Kim tarbiya qildi? Onangiz. Xotin eng avvalo shuning uchun yaratilgan. Ona jonivor ertadan-kechgacha erkak bilan barobar ishlasa, bolaga kim qaraydi? Bolaga kim tarbiya beradi?» deb so'radim.

— Yana jim qoldimi?

— Yo'q, o'ttiz-qirq bolaga bir tarbiyachi bo'ladi, deydi. Buning topgan gapini qarang, axir, odam hakka emaski, tuxumini boshqa inga qo'yib ketaversa. Har bitta ona bolasiga sut bilan birga tarbiya ham berishi kerak. Sen tug'ib qo'ysangu boshqa xotin tarbiyalasa, bolada ena-otaga mehr bo'larmidi? Asrandidan farqi qoladimi?

— Shu gaplarni aytdingizmi?

— Aytdim-da! Tayinli javob berolmasa ham, bo'sh kelgisi yo'q, bachchag'arning.

Soyni kechib o'tishganda kun tikkaga kelgan edi. Otdan tushib tahorat oldilar-da, namozni yalanglikda o'qidilar. So'ng to'rvadan non, mayiz, turshak olib, tamaddi qildilar. Keyin yana soy bo'ylab yuqorilay boshladilar.

— Taqsir, siz meni Norxo'ja eshon huzuriga boshlab boryapsiz. Men u kishini sira ko'rmaganman. U kishining niyatlarini ham bilmayman.

— Qo'rboshining niyatlari ko'krak sutidek pok, o'g'lim. Norxo'ja eshon oqposhsho mahalida ham g'ayridinlarga so'z bermasdilar. Tegirmonlaridan tushgan daromad o'zlariga yetib-ortardi. Ammo, u zot yurtimizni g'ayridinlardan tozalash, imonsizlarni haq yo'lga qaytarish istagida halovatlaridan voz kechib, islom lashkarlarini to'playotirlar. Siz bilan mening vazifam — bandalarni jihodga chorlashda eshonga ko'mak berish.

— Yurt-ku, g'ayridinlardan ozod bo'lar, lekin beklarning boshi birikarmikin?

— Xudo xohlasa, birikadi.

— Unda oq kigiz kimga nasib etadi? Xoliqberdi to'ragami?

Sultonmurod javob bermay yuzini teskari o'girib oldi. Keyin: «Hali bu haqda bashorat qilish erta», deb g'udrandi. Sabohiddin uning Xoliqberdi to'raga qarshi g'arazi bor ekanini sezdi. Shunday katta kuchi bo'la turib Xoliqberdi to'ra, islom lashkarlarining qo'li baland kelgan taqdirda, yurt qanday so'ralishini bilmaydi. Qumursqalarga o'xshagan bu ko'rboshilarning niyati nima ekan? Xon bo'lishmi? Xoliqberdi to'ra ahli dinga ishonch bildirmadi. Balki, Norxo'janing niyati islom jumhuriyati barpo etishdir?

Norxo'ja eshonning qarorgohiga shomdan so'ng yetib bordilar. Sultonmurod Sabohiddinning istagi bilan uni Mashhuraning o'toviga boshladi. O'zi qo'rboshidan xabar olgani ketdi.

* * *

Devona hujrasi yonidagi xarsang ustida jag'ini tizzasiga tiragan holda, ko'zini qishloq tomon tikib, qimir etmay o'tirar edi. Bir mahal qabriston yo'lida odam qorasini sezib, sergaklandi. O'rnidan turmoqchi bo'ldi. Dilmurodni tanib, joyidan jilmadi. Dilmurod xarsang ustidagi Devonani ko'rgach, to'xtadi. Daraxtning panasiga o'tdi.

Devona uning barcha harakatlarini kuzatib o'tirardi. «Bu odamlarga nima kerak o'zi? — deb o'ylardi u. — Nimaga mening atrofimda girdikapalak bo'lib qolishdi? Ko'ngillarida yomonlik yo'qligini sezib turibman. Lekin maqsadlari nima? Ularni ko'rganim sayin unutib yuborgan odamlarni eslaydigan bo'lib qoldim. Padarla'nat Sultonmurod, Norxo'ja qo'rboshi tushimga ham kirmay qo'yuvdi. Bugun Mashhurani esladim. Qiziq, Mashhura mehribon edi. Yomon odamni er qilibdi. Meni qamab qo'ydi. Bilmaydi, deb o'ylagan. Men bilaman, ha, hammasini bilaman. Ular: «Ko'p ovqat yeb qo'yadi, bizga qolmaydi», deb qo'rqishadi. Yomon odam ular. Men bitta qo'yni yeya olmayman. Padarla'nat Norxo'ja yerdi. Akamni ham yedi. Akam? Akam qani?...» Devona seskanib tushdi. Sapchib o'rnidan turdi-da, atrofiga olazarak qaradi.

— Aka!

Uning xirildoq ovozi Dilmurodga arang eshitildi.

— Aka... a... a!..

Bu safar Devona bor ovozi bilan baqirdi. Dilmurod cho'chib tushdi. Devona paypaslanib, qo'lga ilingan tosh-kesaklarni duch kelgan tomonga otib, xayolidagi akasini muhofaza qildi. Bir mahal qo'li handalak singari yumaloq toshga tegib, serrayganicha qotib qoldi. Tiz cho'kdi. Toshni avaylab olib, bag'riga bosdi. «Aka, akajonim», deb piqillab yig'lay boshladi.

Keyin o'rnidan turib, hujrasiga kirib ketdi.

Dilmurod orqasiga qaytay deganda Devonaning qah-qah urib kulgani eshitildi:

— Qochdi, hammasi qochdi. Ularni boplab aldadim!

Dilmurod yana biror gap eshilib qolarmikin, deb kutdi. Devonadan sado chiqmadi.

QALDIRG'OGH UCHIB KETDI

Kesganbel ko'chalarini changitib poda qaytdi. Ayollar barcha yumushlarini yig'ishtirib, hovliga kirib kelgan sigirlarni bog'lagach, silab, erkalagan bo'lishadi-da, cho'nqayib sog'a boshlashadi. Sigirlar oxurdagi bedani xotirjam kavshab, sal narida tipirchilab yelininga intilayotgan buzoqlariga ba'zan qarab sekingina mo'rab qo'yishadi. Sut sog'ib olingach, buzoq bo'shatiladi. U boshini cho'zib yugurganicha to'g'ri onasining yeliniga keladi. Oldingi oyoqlari bilan tizzalaydi-da, bo'shab qolayozgan yelinni zo'r berib ema boshlaydi.

Bolalarning kattaroqlari hali ko'chadan qaytmagan, kuni bilan tugamagan o'yinlarining eng qiziqarlisi endi boshlangan. Xuddi kunduzi uyga qamalib, endi bodroq kabi sochilganday, qishloqni bolalarning ovozi bosgan. Onda-sonda ayollarning: «Hay, Abdulboqi, kel deyapman, o'yinlaring ham qurib ketsin-da, hech tugamaydi», «Jalilxon, yuguring, o'g'lim, dadangizni samovardan aytib keling», degan ovozlari aralashib qoladi.

Quyosh tog' ortiga o'tib, qishloqqa asta qorong'ilik cho'ka boshlaganda poydevori baland qilib qurilgan samovarxona yanada gavjumlashdi. Odamlarning aksari ayvondagi so'rilarda davra qurishgan. Belidagi qiyig'idan nosqovog'i do'ppayib chiqib turgan oq yaktakli Asqarali eshik kesakisiga suyanganicha chiroq shisha artar, qulog'i esa so'ridagilarning suhbatida edi.

— Jamoa jam, Frunzening quroldoshi kelyapti,— dedi Asqarali kulib.

— Kim dedingiz? — Dilmurod Asqaralining gapiga tushunmay savol nazari bilan qaradi.

— Bir qaynovi ichida odam bor, ana, yuqoriga chiqib kelayotgan bahaybat kishini ko'ryapsizmi? Yozda qirg'izlar bilan yurib, qo'tos boqadi. Ba'zi-ba'zida qishloqqa tushadi. Frunze bilan birga xizmat qilganman, deb yuradi. Hozir o'zingiz eshitasiz.

Ko'pchilik hurmat yuzasidan o'rnidan turib, barzangi bilan qo'l olib so'rashdi. Ora-sira kulgi ham ko'tariladi. Asqaralining imosi bilan dastyor bola bir choynak choy, cheti uchgan bitta piyola, patnisda turshak, mayiz, olmaqoqi keltirib qo'ydi.

— Ha, Jo'ravoy omonlikmi? Selkillab yuribsanmi? — dedi Asqarali uni suhbatga tortish uchun.

— Yuribmiz, tog'ajon, yuribmiz, qulluq, — dedi Jo'ravoy qo'lini ko'ksiga qo'yib. — O'zim Jo'ravoy, kelbatim meravoy. O'zlari ham makkayiday bo'yni o'stirib, soqolni bittadan sanab yuribdilarimi? Ie, basharaga sepilgan donlarni qushlarga oldirib qo'yibdilar-ku, a?

U Asqaralining chalako'saligi va cho'tirligiga shama qilgan edi. Asqarali uning yarg'oq boshiga ishora qilib yana bir gap aytdi. Shu zaylda payrov boshlandi. Askiyaga boshqalar ham qo'shildi. Atrofda ayollar bo'lmagani uchun istagan o'xshatishlarini keltirib, baralla xaxolab kulishardi. Jo'ravoyning so'zlari askiyaga nisbatan tentaknamo gapligini Dilmurod sezdi. U kishining laqmaligini yaxshi bilgan askiyachilar so'z toshlarini faqat shu tomonga otardilar. Jo'ravoy javob berishga ulgurmasdi. Payrovning siyqasi chiqib, fayz keta boshlagach, Asqarali gapni boshqa tomonga burdi:

— Jo'ravoy uka!

— Labbay!

— Manavi yigit bizdi mehmon bo'ladi. «Jo'ravoy akangiz Frunzeni ko'rganlar», desam ishonmayapti.

— Nimaga, chirog'im, nimaga ishonmayapsiz, yo bizni odam sanamaysizmi?

Dilmurod nima deyishini bilmay xijolatda qoldi.

— O'z og'zingiz bilan aytib bering-a, omma ishonadigan qilib ayting, — dedi Asqarali.
— E, aytganim bo'lsin. Mehmon, ishonmaganingiz chakki. Tepamda Xudo bor. Shu Asqarali tog'amning katta o'g'illari bilan qizil askarlarga qo'shilib ketganman. Tog'amning o'g'illarini bilmayman, omma men Frunzening otryadida ishladim.

— O'zini ko'rganingizni ayting.

— Ko'rganman, chirog'im, shu deng, bir kuni pistirmada Xudo deb yotsam, kelib qoldi. «Ha, Jo'ravoy aka», dedi. «Yuribmiz soyangizda, chirog'im», dedim. Shu payt tovnig orqasida qasir-qusir boshlansa, deng... «Jo'ravoy, aka, qarang-chi, nima ekan», dedi o'rtoq Frunze. «Xo'p, akasi qarag'ay», deb chiqib qarasam, bulutday bo'lib bosmachi kelyapti.

— Uchib kelyaptimi?

— E, dayusning tog'asi, otliqning uchganini qayda ko'rgansiz? Yurib kelyapti. Orqamga qaytib: «Bosmachi kelyapti», dedim. «Endi Jo'ravoy aka, umid sizdan», dedi. Yo'q, deymanmi? Katta xo'jayin bo'lsa. Pulimotdi orqalab chiqdim. Shartta qo'ydim. «E, malades, Jo'ravoy, turgan-bitganing meravoy», deb ketdi.

— Pulemyotda otdingizmi, yo tayoqda pachogladingizmi?

— Shuncha yil yurib bir martagina ko'rdingizmi?

— E, ko'p ko'rdim, qay birini eslay. Frunze degani ham ko'p ekan, to'rttasini ko'rdim-ov...

Jo'ravoy soddadilligi bilan yana askiyachilarga nishon bo'ldi. Gap orasida Asqarali Dilmurodga: «Aslida Frunzeni ko'rmagan. Miltiq ham ushlamagan. Qizil kaltakchilarga bir qo'shilib qolgan», deb izoh berdi.

Qosh qoraygach, Asqarali o'ninchi chiroqni yoqib, shiftga osig'liq simga ilib qo'ydi. Dilmurod biri olib, biri qo'yib askiya qilayotgan kishilarga havas bilan boqar, o'tkir askiya bo'lganda qotib-qotib kulardi. U shaharda yurib, ilmiy ishga ko'milib rasmana kulishni ham unutayozgan edi. Uning oshnalari kitobu ilmiy xodimlardan iborat bo'lib qolgandi. Ko'pdan beri bunday yozilib o'tirganini eslolmaydi. Ba'zan nozik odamlar doirasida o'tirasani, ba'zan miriqib kulishga arziqli gap bo'lmaydi. Bunaqada erkak kishi ham piqirlab kulishga o'rganib qolarkan. Dunyoda erkak kishining piqirlashidan xunuk narsa bo'lmasa kerak. Mana bu odamlar kun bo'yi dalada ishlashgan. Endi g'am-tashvishdan xoli, yayrab o'tirishibdi. Gaplari beg'araz, mulozamatlari samimiy, yuraklarida kir yo'q. Ichiqora odamgagina ularning mulozamatlari soxta tuyulishi mumkin. Vodiy qanchalik keng va go'zal bo'lsa, ularning bag'ri ham shunday. O'lkaning tabiati ko'p hollarda odamlarning fe'l-atvorini belgilaydi.

Dilmurod samovarxonadan yengil tortib qaytayotganda hamma narsani unutib, miriqib xordiq chiqarganini Rhaq-Mirzavoyga aytdi.

— Shuning o'zi eng yaxshi muolaja, — dedi u. — Agar har bir asabbuzarlikdan so'ng shunday dam olsangiz hech qachon kasal bo'lmaysiz. Ijobiy va salbiy ruhiy to'lqin darajasini faqat shu yo'l bilan tenglashtirish mumkin, — dedi u.

— Demak, hozirgi davrada ijobiy to'lqin uyg'ondimi?

— Albatta, ijobiy-da! Yayrab dam olish tarang tortilgan asab tomirlarini bo'shashtiradi. Tartibsiz ishda, odamlar bilan muomalada yuzaga keladigan salbiy to'lqin me'yoridan osha borsa, odam asab kasaliga yo'liqadi. U davom etib yo yurakni ishdan chiqaradi, yo ruhni shikastlantiradi. Agar har bir odamda ruhiy kasallikka moyillik borligi hisobga olinsa, oqibat oydinlashadi. Antagonistik rivojlanishning yig'indisi, albatta kasallik bilan tugaydi. Afsuski, ruhiy to'lqinlar fiziologiyasi meditsina nazaridan chetda qolyapti. Hatto fiziologiya, patafiziologiya qo'llanmalarida ham ruhiy to'lqinlarning insonga ta'siri to'g'risida lom-mim deyilmaydi. Minglab mediklar ruhiy to'lqinlarning nevrogen kasalliklarni keltirib chiqarishini bilmagan holda hayotga yo'llanma oladilar.

Hatto ruhiy to'liqinni boshqarishni, tarbiyalashni o'rgatish ham muhim ijtimoiy muammo. Bu borada ko'p qo'llanmalar kerak.

— Gapingizga qaraganda, hayotda salbiy to'liqinning o'chog'i mo'lday ko'rinadi. Odam dam olishga kamroq vaqt ajratadiganga o'xshaydi.

— Yo'q, unchalik emas. Odam hatto bajarayotgan ishidan ham ijobiy to'liqin olishi mumkin. Axir, bir maqsad yo'lidagi ish mashaqqat emas, lazzat keltiradi-ku! Siz davolagan odamlaringizni ko'rib quvonmaysizmi? Faqat maqsadsiz ishgina odamning boshini tashvishdan chiqarmaydi.

— Gaplaringizda qarama-qarshilik bor.

— Nimaga?

— Agar g'am-tashvish salbiy ruhiy to'liqinni uyg'otsa, urush yillarida kasal ko'payardi.

— Siz bir narsaga e'tibor qiling-da: og'ir yillarda odamlarda asosiy ruhiy kasallik ko'payadi. Boshqa xastaliklar esa keskin kamayadi. Urush yillari odamlarda og'ir kasalliklarga qarshi o'z-o'zidan immunitet hosil bo'ladi. A'zoyi-badanda kasallikka nisbatan qarshilik uyg'onadi. Yashash sharoiti yaxshilangani sayin bu qarshilik susayib boradi. Avval e'tibor qilinmagan oddiy shamollash maxsus muolajaga muhtoj bo'lib qoladi.

— Demak, bizdan keyingi do'xtirlarning ahvoliga voy!

— Juda tushkunlikka tushib ketdingiz-ku?

— Men uzoqqa qarayapman. Sizning gapingiz men uchun yangilik emas. Ko'chma gospitalda bir keksa do'xtirimiz bor edi. Ichi g'ij-g'ij hikmatu bilim. Odamlardagi ruhiy o'zgarishni dastlab o'shandan eshitgandim. Titilib ketgan yerga rahmi kelardi. Cho'rt uzib tashlangan daraxtlarga qarab achinardi.

— Urushda odamlar ham, tabiat ham ozor chekadi. Ammo tabiatning ozorini hech kim hisobga olmaydi.

— Odamlar o'zlari uchun eng zarur bo'lgan narsalarni yanchib tashlayveradilar.

— Insonga tabiat tomonidan dahshat soluvchi kasalliklarni yengish mumkin, lekin uning o'zi yuzaga keltiradigan xastalik bilan kurashish qiyin. Daraxtzorlarni payhon qilish, havoni, yer-suvni zaharlash, shaharlarning kattalashuvi, shovqin, jismoniy harakatning kamayishi bizga hali ko'p ish orttiradi. Ko'mir o'simliklardan, neft jonivorlardan paydo bo'lgan, deyishadi. Biz hammasini yer qa'ridan olib yoqib yotibmiz. Neft ham, ko'mir ham g'uborga aylanib, ustimizga yog'ilyapti. Hali toza havodan nafas olish muammosi ham chiqmasa edi.

— Texnika taraqqiyotiga qaraganda, bu muammo yaqin yillarda ko'ndalang bo'ladi.

— Ha... bu ahvolda meditsinaga noma'lum bo'lgan turli kasalliklar qaynab chiqaveradi. Birorta kasallikning ruhiy buzilishsiz kechmasligini hisobga olsak, bizga ham ish yetib-ortadi. To'g'ri, bu buzilishlarning bir qismi asosiy kasalliklarga va u keltirib chiqargan toksikozga, bir qismi esa shaxsning shu kasallikka ko'rsatadigan qarshiligiga bog'liq.

Dilmurodning yonib bahsga berilganini ko'rgan Rhaq avvaliga suhbatni yakunlamoqchi bo'ldi. Keyin uning fikrlarini o'z og'zidan eshitish uchun, gapni davom ettirdi:

— Har bir odamda kasallikka moyillik turlicha bo'ladi, — dedi u. — Bu uning chiniqishiga bog'liq. Agar odamlar yoshlikdan chiniqib borsalar, bizning tashvishlarimiz o'rinsiz bo'lib qoladi.

— Mirzavoy aka, gap faqat chiniqishda emas, atrof-muhitga ham bog'liq. Muhitdan ta'sirlanish natijasida paydo bo'lgan har bir ruhiy to'liqin, hayajon, qayg'u boshqa a'zolarga ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada qonga ayrim kimyoviy moddalar qo'shilishi mumkin. Ularning ayrimlari, odamga qarab gormon bo'ladi. Tabiatga qo'pol ravishda

aralashish natijasida paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. Faqat kasallikning rivojlanishini ozgina cheklash mumkin.

— Gapingiz qiziq bo'ldi-ku? Dori kor qilmasa, duo o'qib davolaymizmi?

— Davoni tabiatdan izlash kerak. Shaharliklar bilan mana shu qishloqda yashaydiganlarning o'rtacha yoshini solishtirib ko'ring-a? Kim ustun? Albatta, qishloqdagilar. Bu oddiy haqiqat-ku! Toza havo, toza suv, vaqtida sut-qatiq, jismoniy harakat... Ular uzoq umrning eng muhim omillariga ega. Faqat bulardan oqillik bilan foydalanishni o'rganish kerak. Shaharlar kattalashadi, dedim. Kattalashadi emas, kattalashyapti. Zamon tinmay harakatda. Odam kechagidan bugun ko'proq axborot qabul qilib miyaga yuk ortyapti. Bu yukni ko'tarish uchun miyada bor-yo'g'i o'n to'rt milliard asab hujayrasi bor. Holbuki, u qabul qilayotgan axborotlar soniga, taraqqiyotiga mos ravishda oshib bormaydi. O'n to'rt milliardligicha turaveradi. Shaharliklar tez-tez kasblarini o'zgartirishga majbur bo'la boshlaydilar. Taraqqiyot shuni talab qiladi. Bularning barchasi umrning egovi.

— Kasbni o'zgartirish masalasi qishloqda ham bor. Mana, Zokirxo'ja, ilgari tuppa-tuzuk juvozkash ekan. Endi moshin haydaydi. Inson yashashning odatdan tashqari tartiblariga ko'nikma hosil qilib boradi. Vahimaga ham usta ekansiz. Gaplaringizni odamlar eshitsa, ertadanoq tarkidunyo qilishadi.

— Yo'q, Mirzavoy aka, munday o'ylab ko'ring-a...

— Bo'пти, o'ylab ko'ramiz, erta bo'lsin-chi... — Rhaq-Mirzavoy shunday deb Dilmurodning yelkasiga qo'l tashladi. Ular Asqaralining ko'chasiga yetgach, xayrlashishdi.

Qishloq tun og'ushida, ko'p uylardagi chiroqlar o'chgan. Itlar beto'xtov huradi. Qaerdadir betayin xo'roz qichqiradi. Onasidan ayirib bog'lab qo'yilgan buzoq mo'rab qo'yadi.

Dilmurod chiroqning piligini sal pastlatib yotdi. Uyquasi kelmadi. Tongga yaqin ko'zi ilindiyo boshi lo'qillagan, lanj bir ahvolda o'rnidan turdi. Bir o'zini tashlab ketgani uchun xotinidan ranjib qo'ydi. Turaymi-turmaymi deb yotganida yana ko'zi ilinibdi. Tashqarida chelak taraqlab, cho'chib uyg'ondi. Bu safar irg'ib o'rnidan turdi. Qarasa, kun yoyilibdi.

Erinibgina hovliga chiqib, soy tomonga yurdi. Suvning shabadasi bag'riga urilib entikdi. Atrofga qarab, xotin-xalaj yo'qligiga ishonch hosil qilgach, shimini yechib suvga tushdi. Seskana-seskana yuvindi. Oxiri sovuqqa chiday olmay, hakkalab qirg'oqqa chiqdi-da, diydiragancha artina boshladi. Darrov iziga qaytmay, xarsang tepasida o'tirdi. Oftob nuri badaniga xush yoqdi. Kechagi suhbat xayoliga keldi.

«Texnikumda o'qiganman, ko'p narsani bilmayman, deb talmovsirab turardi. Baloga aqli yetar ekan-ku?—deb o'yladi u. — Institutni bitirganlar ham bunchalik fikrlamaydi. Hadeb unga ma'ruza o'qib, aql o'rgatavermasligim kerak ekan. Yana meni ahmoqqa chiqarib yurmasin. O'zi shu bema'ni odatimni tashlashim kerak. Bilgan narsam ichimda tek turmay, qaynayveradi. Shuning uchun ham domlamdan ko'p dakki eshitardim... Endi esa dakki beradigan odam yo'q. Mirzavoy aka indamay quloq solaveradi. Kechagi suhbatda domlam bo'lganlarida, ta'zirimni berardilar...»

Uning ko'z o'ngiga qaddi sal bukik, tepakal, mo'ylovlari ham bir tekis oqargan, nigohi sergak professor Razzoqov keldi. Domlasini olib ketishmasdan bir kun oldin ham ustoz-shogird tortishishgandi. O'sha kuni gap davolash usullari haqida borgan edi... Uyda ham oila tashvishlarini o'ylamaydigan qaynota-kuyovning bu odatiga ko'nikib qolgan Aqida qizini olib qo'shni hovliga chiqib ketdi.

— Qadimgi odamlar «Ponani pona bilan chiqaradilar», deyishgan ekan. Biz ham kasallikka qarshi kurashda kimyoviy dorilardan voz kechishimiz kerak,— dedi Dilmurod jo'shib. — Men bir xil kasallikka davo beruvchi kimyoviy dorining albatta ikkinchi xil

xastalik tug'dirishiga aminman. Balki yangi tug'ilgan xastalik biz uchun xavfliroq bo'lar. Men davoni tabiatning o'zidan qidirish tarafdoriman.

— Men qarshilik bildirmadim shekilli? — dedi professor kulimsirab. — Siz aytayotgan faraz ming yillar ilgari kun tartibiga qo'yilgan. «Kalila va Dimna» bilan tanish bo'lganingizda bu muammoni yangilik sifatida ilgari surmasdingiz.

— Faraz tug'ilgan bo'lishi mumkin. Lekin odamlar irim-sirimning quli bo'lib kelishyapti-ku?!

— Irim-sirimlarni qoralashingiz yaxshi. Bid'at hamisha zahar bo'lib kelgan. Ammo, xalqning urf-odat-lari o'n yoki yuz yil ichida emas, ming yillar davomida shakllangan. Bizga yoqinqiramayotgan irim-sirimlarni bir hamlada yo'qotish qiyin. Esini taniganidan beri Xudoning nomi qulog'iga quyilgan odamni koinot bo'ylab aylantirib chiqing-da, keyin: «Mana, hech qaerda Xudo yo'q», deb ko'ring-chi, ishonarmikan. Oshdan kurmak chiqsa, tovoqni irg'itmaysiz, shundaymi? Irim-sirimlarni butunlay inkor etmasdan, o'rganish kerak. Hozir o'zingiz, davoni tabiatdan izlash kerak, dedingiz. Unda tog'lardan giyoh terib dori tayyorlovchi tabiblarni inkor etishingiz nimasi? Ularning bid'atga mutlaqo aloqasi yo'q. «Xalq tabobati» degan iborani to'g'ri ma'noda qabul qilish vaqti yetdi. Axir ilgari kasalga chalingan odam o'lib ketavermagan-ku. Xalq tabobatida ar-Roziy, ibn Sino singari buyuk allomalarning ta'limotlari yashiringan. Yo «namoz o'qigan» deb ulardan ham yuz o'girasizmi?

— Men ularni qoralaganim yo'q. Chala mullalarni nazarda tutdim.

— Hatto ularni ham o'rganish kerak. Men ruhiy kasallarni davolaydigan eshonlarni oqlamayman. Bichib qo'yadigan, zanjirband bemorlarni kaltaklab, qo'rqitadiganlarni yovuz maxluq deb bilaman. Lekin azayimxonlarning odam ruhiga ta'sir etish san'atini nazardan qochirmaslik kerak.

— Fikringiz to'g'riga o'xshasa ham, qo'shila olmayman. Moshdek foyda izidan keluvchi olmadek zararga befarq qarab bo'lmaydi. Dadangiz o'tkir tabib o'tgan ekanlar. Shuning uchun ham siz tabobatni yoqlayapsiz. Zamon meditsinasi xalq tabobatidan ancha ustun turadi. Ularga murojaat qilishning hojati yo'q!

Professor kuyovining keyingi gaplaridan ranjib, suhbatni bas qilgan edi. Yarim kechada esa...

Dilmurod ustozining dono suhbatlarini qo'msadi. Ko'ngli vayron bo'lib uyga qaytdi. Asqaralining kelini yeng shimarib tappi yopardi. Dilmurodni ko'rib bir oz ishdan to'xtatib: «Xontaxtaga dasturxon tuzab qo'ydim», dedi. Dilmurodning nonushta qilgisi yo'q edi. Bu gapdan keyin noiloj ayvonga o'tdi. Har safar mazali tuyulgan qaymoq ham tomog'idan o'tmadi. Bir piyola choyni ichib, ko'chaga chiqib ketdi.

Ko'chalarga ilingan tamaki barglarining shodalari kamayib qolibdi. Guzarga boraverishdagi kolxoz saroyiga xotin-xalaj yig'ilgan. Ular quriyozgan barglarni hafsala bilan taxlashadi. Mayda bolalar ham shu yerda. Qishloqning keksayib qolgan temirchisi saroy yonidagi ustaxonasini yana ochmabdi. Tobi qochib qolgandir. Bir o'ziga qiyin. Shogirdi o'qiyman, deb shaharga ketibdi. O'g'li esa tamaki bilan band.

Ikki kishi ustaxona oldidagi so'richada gurunglashib o'tiribdi. Terakka bog'langan otlar shularniki bo'lsa kerak. Ular Dilmurodni ko'rib o'rinlaridan turishdi-da, quyuq so'rashishdi. Karimberdini tuzatganidan beri Dilmurodning obro'yi oshib ketdi. «Professor ekan», degan gapdan o'sha kuniyoq barcha xabar topgan edi. Endi uni «yangi do'xtir» emas «propesur do'xtir» deb atasha boshlashgan edi. Dilmurod bundan xijolat bo'layotganini aytganida Asqarali: «Qo'yavering, odamlar do'xtirlarga ham ixlos qo'yishga o'rganishsin. Erta-indin professor bo'lsangiz, xijolatingiz unutiladi», deb qo'ya qoldi.

— Mirzavoy akam ichkaridamilar? — deb soʻradi Dilmurod Asqaralidan, soʻriga omonat oʻtirib.

— Saharmardonda dorivor koʻkat terib kelaman, deb toqqa chiqib ketdilar. Sizni Mirsodiqjon kutib oʻtirib edilar. Hozirginada izlariga qaytardim. Kichiklari ogʻrib qolibdi.

— Nima boʻlibdi?

— Qaydam, emganini tashlayverib, koʻkarib ketganmish.

— Onasi tamakiga chiqqan ekanmi?

— Mamarayim chiqmaganiga qoʻyadimi?

— Mamarayimingizga odam emas, tamaki kerak. Emizikli xotinlarga tegmang, devdim-ku. U xotin ham bargni koʻkragiga qoʻyib taxlaganga oʻxshay- di. Bargning zahari sutga oʻtgan. Keyin bolasini zaharlagan. Tushuntirgan bilan quloqqa olishmay-di-ya! — Dilmurod shunday deb qoʻl siltadi-da, oʻrnidan turib ketdi.

— Kuyunavermang, inim, esi kirib qolar, — dedi Asqarali, uning bu harakatiga tushunmay.

Dilmurod pastga tushdi-da, qishloqning kunbotar tomoniga qarab ketdi. U ketdi-yu, guzarda qopchigʻini orqalagan Rhaq-Mirzavoy koʻrindi. Asqarali bilan omonlashib, shifoxonaga oʻtdi.

Shifoxona oldi supurilib, suv sepilibdi. «Shopoʻlat akamiz kelibdilar, yaxshi», deb oʻyladi u. Ammo ostonadan hatlay turib uch-toʻrt qizaloqning davrasida oʻtirgan Saboxonga koʻzi tushdiyu toʻxtadi. Saboxon chanqovuz chalar, qizaloqlar undan taralayotgan ajib kuy sehrigami yoki ijrochining mahoratigami mahliyo boʻlib qolgandilar. Rhaq ularga xalal bermaslik uchun, toʻgʻrirogʻi, chanqovuzni eshitish maqsadida toʻxtab, oʻzini panaga oldi.

Kuy tindi. Saboxonning ovozi chiqdi:

— Endi kim chaladi?

— Siz.

— Ie, hadeb men chalaveramanmi? Boʻpti, kim chalishini hozir aniqlaymiz:

*Hakalakam, dukalakam,
Chovli chambar,
Ola koʻzi qagʻda?
Bagʻda.
Lola,
Kaptar,
Guldur gup.
Olama-qurama,
Oftobda yurma,
San kir,
San chiq.*

Mana, Sojidaxonning gallari ekan.

Sochlariga pilik taqqan qiz chanqovuzni oldi. Endi kuy emas, yopishmagan tovushlar chiqa boshladi. Rhaq soʻri tomonga yurdi. Saboxon uni koʻrib oʻrnidan turdi. Qizaloqlar salom berib, sekin chiqib ketdilar.

— Chanqovuzni yaxshi chalar ekansiz, — dedi Rhaq-Mirzavoy uning salomiga alik olib.

— Voy, eshitdingizmi? — Saboxon chinakamiga uyalib ketdi.

— Ha, sal-pal, Shopoʻlat akam qanilar? — dedi Rhaq uning koʻziga tik qaray olmay.

— Kelmadilar. — Saboxon ham undan koʻzini olib qochdi. Rhaq Saboxon bilan bir necha marta yolgʻiz qoldi. Har safar juvonga iliq gap aytgisi keladi, ammo oʻzi bilmagan

holda, so'zini yo'qotadi. Sal dovdirasa ham juvondagi o'zgarishni sezadi. Sezadi-yu, yuragi g'alati o'rtanib ketadi...

— Ko'chaga suv sepilganiga, kelibdilarmi, debman.— Rhaq shunday deb, ichkariga kirdi. Xonaga qamalib qolgan dim havo dimog'iga urildi. Borib derazani ochmoqchi edi, qanotlarini yoygancha pardaga yopishib turgan qushchaga ko'zi tushdi. Tikilib qaradi. Bu nima? Qaldirg'ochmi? Yo'q-e, bunaqa kichkina bo'lmasdi, dumi ham... rangi qo'ng'irmi.. Ko'rshapalakmi? Ha, ko'rshapalak. Qorong'ida kirib olganu kun yorishib ucholmay qolgan.

Qushchani bunday osilib turishi Rhaqqa ajoyib tuyuldi. Saboxonga ko'rsatish uchun uni chaqirdi.

— Voy, qaldirg'och! — dedi Saboxon uni darrov qo'lga olib. — Hali ko'rmabman. Qaerdan kirib qoldiykin? Chiqolmay toza qiynalibdi bechora.

— Qaldirg'ochmi?

— Ha-da, mana, qanotini qarang.

— Men ko'rshapalakmikin, debman.

— Voy, xudoyim, — Saboxon kuldi, — siz tomonlarda hech qaldirg'och yo'qmidi?

Saboxon qushchani avaylab ushlagancha chiqib ketdi. Rhaq oq xalatni oldiyu kiygisi kelmay divanga o'tirdi. Saboxonning gaplari suyak-suyagidan o'tib ketdi: «Siz tomonlarda qaldirg'och yo'qmidi?..» Juvonga nima desin? Yo'q edi, shuning uchun ham qushlarni farqlay olmayman, desinmi? Tangda-ku, qush zoti yo'q edi. Axir, Yerga avval kelganda qaldirg'ochni ko'rgan edi-ku! Nahot unutdi? Nahot endi Yerda ham atrofdagi narsalarga befarq qaraydigan bo'lib boryapti?..

Buxoroda, Naziraning ayvonida, shundaygina toqiga yopishtirib qaldirg'och uya solgan edi. Og'izlarini katta-katta ochib chiyillaydigan polaponlarga onasi yemish tashirdi. Kun bo'yi tashisa ham bolalari to'ymasdi. Rhaq qaldirg'ochlarning osmonda charx urib uchishlarini tomosha qilishni yaxshi ko'rardi. Ko'm-ko'k osmon, cheki-chegarasi yo'q kenglik. Qaldirg'ochning erkin uchishi... Uning qalbi ham kengliklarga intilardi. Biroq... taqdir taqozosi bilan unga gavjum shaharda yashash nasib etdi. Qaldirg'ochning beg'ubor osmonda uchishini ko'rmaganiga, aniqrog'i, ko'ra turib avvalgiday e'tibor bermaganiga qancha bo'ldi?

Rhaq o'rnidan turib, deraza oldiga keldi. Saboxon ko'rinmaydi. Nima qilyapti ekan? Rhaq shu xayol bilan tashqariga chiqdi. Saboxon ko'cha tomondan kirib keldi.

— Qaldirg'och qani? — deb so'radi Rhaq.

— Uchib ketdi.

— Uchib ketdi?

— Ha, — Saboxon Rhaq-Mirzavoydagi bu o'zgarishni sezib hayron bo'ldi. «Yo qaldirg'och kerakmidekin?» deb cho'chidi ham.

— Uchib ketgani yaxshi bo'libdi... — Rhaq shunday dedi-yu, ammo qaldirg'ochning uchib ketganiga yurakdan achindi. Go'yo qushcha uning qalbidan nimanidir olib ketgan edi. Rhaq bir narsasini yo'qotgan odamday garang bo'ldi. Osmonga qaradi. Ikki qaldirg'och uchib yuribdi. Shuning bittasi hozir ozodlikka chiqqan qaldirg'ochmikin? Bir necha soatlik tutqunlikdan so'ng erkning qadriga yetib, shodon charx uryaptimi? Rhaq dastlab uni ko'rganda jonsiz deb o'ylagandi. Juvonning issiq kaftida yangidan jon kirdimikan...

Saboxon... Yoshi o'ttiz beshlarga borib qolgan bo'lsa ham, latofatini yo'qotmagan. Unga ba'zan o'g'rince qaraganida Rhaqning yuragi g'alati bo'lib ketadi. Nimagaligini aniq bilmaydi. Hozir ham shunday bo'ldi.

— Yuring, o'tiraylik, qiladigan ish ham yo'q, — dedi Rhaq, so'ri tomon boshlab. Saboxon undan sal chetroqqa o'tirdi.

— Qishlog'ingiz kichkina ekan, — dedi Rhaq gapni nimadan boshlashini bilmay.

— Zerikib qolyapsizmi?

Rhaq bu savolning qay maqsadda berilganini anglamadi.

— Zerika boshladim.

— Oilangizni olib keling edi-da.

— Bo'lganda olib kelardim.

— So'qqaboshmisiz, hali?

«Quvlik qilishini qarang-a, — deb o'yladi Rhaq,— hammasini biladi, atayin gap qo'shmoqchi».

— So'qqaboshman. Uylanishga vaqt bo'lmadi.

— Ol-a... — Saboxon piq etib kuldi.

— O'zingiz-chi? O'zingiz nimaga turmush qurmaysiz?

Saboxon unga yalt etib qaradi. Quyuq kipriklari titrab ketdi. Erkak kishidan, yana bo'ydoq odamdan bunday savol kutmagani uchun dovdirab qoldi. O'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi, ammo o'zini tutdi. Sezilar-sezilmas xo'rsindi.

— Erim bo'lmagani bilan boshim ochiq emas, — dedi pichirlab.

Boshqa so'z aytmadi. Yuzini burgan holda, ariqdagi suv yuzini silab turgan atirgulning siniq shoxiga ko'z tikib o'tiraverdi. U shu topda boshidan o'tgan savdolarni istarasi issiq bu «so'qqabosh» odamga aytib bergisi kelar, lekin hayosi yo'l qo'ymas edi. Rhaq esa uning xayolidan o'tgan gaplarni «o'g'irlab», u bilan fikran gaplasha boshlagan edi:

«Asqarali tog'aning o'g'illariga ko'nglim bor edi. Peshonam sho'r ekan, boshqa kishini er qildim. Men uni azaldan yomon ko'rardim. Yo'q, o'zi yomon odam emasdi, faqat sal to'pori, ko'rinishi sovuqroq edi. Tegishga tegdimu u bilan yashab ketishga ko'nglim chopmadi. Yostig'imiz boshqa-boshqa edi. Men ayvonda, u achchiq qilib uyga kirib ketardi. Bir kuni yonimga akasi kirib olibdi... Xo'ja piyon deyishardi. Esipastroq odam edi. Ustiga-ustak, betinim aroq ichardi. O'sha kechasi o'zini osib qo'ydi. Yonimga kelgani bilan menga tegolmadi. Irg'ib turib ketdim. Uydan erim chiqdi. Akasining yigirmasi o'tgandan keyin erim g'oyib bo'ldi. Uzunquloq gaplarga qaraganda shaharda emish. Men qaynonam bilan yashab yuribman. Unga ham qiyin, bir o'g'li o'ldi, biri bedarak... Taqdirimga qaynonaning qosh-qovog'iga qarab o'tish yozilgan ekan shekilli...»

«Eringizni hech kim qidirmadimi?»

«Qidirishdi... Soyga xas tashlab izlab ko'ring-chi, topa olarmikansiz...»

Saboxon Rhaqning tikilib o'tirganini sezib yana yalt etib qaradi. Rhaqning xayolidagi suhbat uzildi. Juvonni noqulay ahvoldan qutqarish uchun o'rnidan turdi. Ichkariga kiray deb turganida ostonada yuz-ko'zini chang bosgan Dilmurod ko'rindi.

— Saboxon, yaxnadan bormi? — dedi u so'riga hor-g'in o'tirib. Keyin do'ppisini olib yoniga qo'ydi. Ro'molcha chiqarib bo'ynidagi terni artdi. Ro'molcha qop-qora kir bo'ldi. — Obbo, toza boplanibman-ku, bir yuvinib olmasam bo'lmaydi. — U shunday deb, hovli o'rtasidan o'tgan ariqqa keldi-da, ko'ylagini yechib yuvina boshladi. Rhaq ichkaridan sochiq olib chiqdi.

— Suv yaxshi narsa-da, butun charchoqni oladi-qo'yadi,— dedi u artina turib.

— Mana yaxna, — Saboxon shunday deb choynakni so'riga qo'ydi.

— Juda hayallab ketdingiz, tinchlikmi? Bolaga nima qilibdi? — deb so'radi Rhaq.

— Zaharlanibdi. Uch oylik go'dakni ko'tarib tamakiga olib chiqibdi. Rayonga olib bordim. Bolani Xudo qaytarib berdimi yo vaqtida yetib bordik-mi, bilmayman. Rais mashina bermasa ahvol chatoq edi. Rayonga borganimizda bola ko'karib ketgan edi. Yo'q, endi picha tuzuk. O'zingiz qalaysiz? Ha, aytmoqchi, rayonda ilon ovlovchilar bilan ko'rishib qoldim. Ilonning zaharini to'plashar ekan. Boquvdagi ilondan ozodlikda yurganlari ko'proq zahar berarkan. Bunga nima deysiz?

— Nima derdim, to'g'ri.

— Demak, farazim isbotlandi. Esingizdami, klinikadagi bemor bilan erkin yuruvchi Shopo'lat akamizni taqqoslagan edim. Demak, to'g'ri yo'ldan boryapmiz... Bugun ham hech kim kelmabdi shekilli? Rayondagilar kasallaring yo'q, bitta odam ishlasa ham bo'ladi, deyishyapti. Boshim qotib qoldi. Ikkovimizdan bittamiz rayonda ishlaymiz shekilli...

— Aniq gapmi?

— Unchalik aniq emas. Hujjatlaringiz topilguncha indashmaydi. Qani, yuring, bir choy ichaylik. Keyin Shopo'lat akadan xabar olarman.

Dilmurodning rejasi bo'yicha TET ning ikkinchi sinovi shu kunga belgilangan edi. Shuning uchun Rhaq choy ichib bo'lgach, mo'zorboshiga bordi. Devonaga yaxshi gapirib, uni pastga boshlab tushdi. Devona hovliga suv sepayotganda Dilmurod ham kirib keldi. Devona uni ko'rdiyu ishdan to'xtab, og'zini sal ochib Mirzavoyga savol nazari bilan qaradi. Rhaq unga jilmayib qo'ydi. Shunda Devona ularning har ikkovini hayratga solib ichkari kirdi-da, charm qoplangan taxta so'riga yotib oldi. Dilmurod simlarni ehtiyotlik bilan uning ensasiga qo'ydi. Devona shunda ham qimir etmadi. Faqat impuls yuborilganda sal titradi-yu, tinchidi. Bu safar hushini yo'qotmadi. Ammo shiftga baqraygancha qimir etmay yotaverdi. Rhaq ham, Dilmurod ham bir chetda uni kuzatib turaverdilar. Devona «Qani Shopo'lat aka, turing endi», deyilgandan keyingina o'rnidan qo'zg'aldi. Dilmurod Devonadan xabardor bo'lib turishni Rhaqdan iltimos qildi-da, qog'oz-qalam olib yozishga tutindi.

Devona bu safar mo'zorboshiga qarab yurmay, samovarxonaga kirdi. Eski odati bo'yicha bir burchakda biqinib o'tirdi. Devonaning boshqalarga xalal bermaslik uchun doim shu yerdan joy olishini Rhaq yaxshi bilardi. Asqarali uning oldiga bir choynak choy, non, qand-qurs keltirib qo'ydi. Devona quvonib, unga qarab tirjaydi. Rhaq esa so'riga yonboshlagancha uning shoshib non chaynashini, bo'ynini cho'zib yutinishini kuzatdi. Shu asnoda Devonaning xotirasida bugun uyg'ongan voqealarni ko'z oldiga keltirdi.

CHIMILDIQDA JON BERGAN KUYOV

Mashhuraning dilida qancha dard yig'ilib qolganini yig'isi oshkor etib qo'ydi. Ozib, xipchindek bo'lib qolgan qiz akasiga hasratini to'kib sololmay, faqat yig'lardi. Hatto akasining yelkasiga bosh qo'yishga ham hayosi yo'l bermasdi.

Bir muchal oshib o'tilgach, qizlardagi iffatning uyg'onishi, ancha hurkak bo'lib qolishlarini Sabohiddin bilardi. Shuning uchun ham singlisiga faqat yelkasini tutish bilan cheklandi.

— Sizni hech kim ranjitmadimi? — deb so'radi Sabohiddin Mashhura ovungach.

— Yo'q, — dedi qiz siniq ovozda.

— Tashqariga chiqyapsizmi?

— Qo'rqyapman...

— Ovqat-oziqni kim keltiradi? Ayollardan bormi?

— Bor... tunov kuni haligi keldi...

— Haligingiz kim?

— Sojida... yangam...

— A? U bu yerda nima qilyapti?

— O'zingiz ko'rasiz, — Mashhura ularning nima bilan mashg'ul ekanini aytishga uyaldi. Sabohiddin buni sezdi. O'rinsiz savol bergani uchun o'zi ham o'ng'aysizlandi.

— Kirib gaplashib turadimi?

— Ha.

— Nima deydi?

— Ko'p gapiradi. Meni akangiz achchiq ustida taloq qilganlar, keyin chiqqan gaplarning bari tuhmat, deydi. Baxtsiz ekanman, deb yig'laydi.

— Baxtsiz bo'lsa ham, baxtli bo'lsa ham Xudodan. Xudo gunohlari uchun axir bir kun jazo beradi.

— Shu ko'yda yurishining o'zi xudo urgani emasmi?

Sabohiddin singlisiga qaradi. Faqat bo'yiga bo'y, husniga husn emas, aqliga ham aql qo'shilibdi. Oq-qorani ajrata boshlabdi.

Sultonmurod o'tov oldiga kelib bir yo'talib oldi-da, ichkari kirdi.

— Qo'rboshi Shermuhammadnikiga ketibdi. Buguncha dam olsak ham bo'ladi, — u shunday deb to'rga chiqib o'tirdi.

— Akam-chi, akam shu yerda ekanlarmi? — deb so'radi Sabohiddin uning fотиha o'qishini kutmay.

Sultonmurod Sabohiddinning savolini eshitmaganday fотиha o'qigach, qizning hol-havolini so'radi. So'ng norozi qiyofada unga qaradi:

— Ko'pam besabr bo'lavermang. Jamoliddin sog'-omon. Teginmanglar, deb tayinlab keldim. Xotirjam bo'ling.

— Axir akam o'g'irlik qilmaganlar. Xudo shohid.

— Bunga men ham ishonaman. Lekin akangizning mo'minlar oldida bo'lak ayblari ham bor. Qo'rboshi siz bilan mening yuzimni qilib, akangizning aybidan o'tsa, ajab emas, — u yana yuziga fотиha tortdi-da, o'rnidan turdi. Keyin «Sizlar bafurja gaplashaveringlar, mening beklarga aytadurgan so'zim bor», deb chiqib ketdi.

Kech kirib, osmonga yulduzlar sochildi. Tog' o'rkachlari qorayib ko'rindi. Otlar pishqiradi, kishnaydi. Toshlarga urilib oqayotgan suvning shovqini ko'tarilganday bo'ladi. Bir necha yerda o't yoqildi. Eng katta gulxan yo'g'onligi ikki quloch keladigan chinor ostidagi oq o'tov qarshisida alanga oldi. Bir zamon o'sha tomonda kimdir xirqiroq ovozda qo'shiq ayta boshladi. Doira gumburi, yigitlarning qiyqirig'i unga jo'r bo'ldi.

*Qibladan ko'rsat yuzingni, Makkaday aylay tavob,
Sen labingdan bo'sa bersang, men qilay bag'rim kabob.*

Mashhura yuziga qizil yugurib, yerga qaradi. Qo'shiq shu yerda uzilib, yigitlarning qiyqirig'i doira ovozini ham bosib ketdi.

— Ana, chiqdi shekilli...

— Kim?

— Anovi-da, qarang.

Sabohiddin tashqariga chiqib, gulxan tomonga qaradi. Yigitlar o'rinlaridan turib ketishgan, o'rtada kimdir o'ynar, lekin uni tanib bo'lmas edi. Sabohiddin davra tomon yurdi. Yana qo'shiq boshlandi.

*Olti kaptar yetti bo'lib qo'ndi terakka,
Qo'shnimizning ikki qizi chiqdi elakka.
Do'st, chiqdi elakka, yana chiqdi elakka,
Bodomqovoq, yupqa tomoq, dodimga yetsang-chi!
U yog'ingdan o'tay, bu yog'ingdan o'tay, ko'nglingni olay.
To'tiqushning bolasiday qo'lingga qo'nay.
Ha, qo'lingga qo'nay, do'st, qo'lingga qo'nay!
Bodomqovoq, yupqa tomoq, dodimga yetsang-chi!*

O'rtada ayolcha kiyinib, durracha bog'lagan, gajak yasagan semiz bir yigit lorsillab o'yinga tushardi. Sabohiddin uni ko'rib kulimsiradi. Singlisi shuni Sojida deb o'ylagan bo'lsa kerak. Yigit qosh qoqib, nozik qiliqlar qilib xotin bola-chaqasidan yiroqda yurgan erkaklarning xirsiga tegar, ular qarsak chalib «Do'st!», «joningdan!» deb qiyqirishardi.

*Tog'da quyon otibman, iyagi yo'q,
Jonon ko'ylak kiyibdi, jiyagi yo'q.
Jiyagi yo'q joylaridan qo'lim solsam,
Bilqillaydi qo'sh anori, suyagi yo'q,
Dod, suyagi yo'q...*

Qiyqiriq avjiga chiqdi. Hayajoni toshib ketgan yigitlarning ayrimlari o'rtaga tushib «juvon» bilan o'ynay boshladilar. Ayrimlari «juvon»ni belidan ushlab, o'ziga tortgan mahalda, ba'zan esa «juvon»ning o'zi kimgadir «karashma» qilib o'tganda oh-dodlar ulanib ketardi.

Sabohiddin iziga qaytdi. O'tovga yaqinlashib, to'xtadi. Atrofga alangladi. Hamma ko'ngil ochish bilan band. Qo'rboshidan marhamat kutmay akasini qochirib yuborishning ayni payti emasmikin? Qo'rboshining Jamoliddinni afv etishi uning bo'yniga qo'shimcha sirtmoq bo'lib tushmaydimi? Lekin akasi qaerda, uni qaerdan izlash kerak? Sabohiddin beixtiyor narida yonayotgan gulxanlar tomon yurdi. Qumg'onda choy qaynatayotgan yigitga yaqinlashib salom berdi-da, kecha tutib olib kelingan odamning qaerda yotganini so'radi.

— O'zlari kim bo'ladilar taqsir? — deb so'radi yigit unga ishonqiramay qarab.

— Sultonmurod akaning... o'g'illariman. Kechagina Buxorodan qaytdim.

— Ha, yangiligingiz bilinib turibdi. Hibsga olinganlarni, hali omon bo'lishsa, yerto'ladan topasiz. Qo'rboshi bolshavoylarni ko'pam tutib turmaydilar.

— Yerto'la qaerda?

— Oq o'tovni ko'rdingizmi? O'shaning shundaygina poyida. Qo'rboshi izn bermasa, avliyoni ham yo'latishmaydi u yerga. Borib ovora bo'lmay qo'ya qoling. Yoki bolshavoy yaqiningizmi?

— Nimaga bunday deyapsiz?

— Kuyunishingiz oshkor qilib qo'yyapti-da.

Sabohiddin bu gapdan gangib, oq o'tov sari yurdi. Ammo o'tovga yetmayoq uni to'xtatdilar...

Norxo'ja ertasiga oqshomda qaytdi. Uning kayfiyati buzuq, qovog'i soliq edi. Sultonmurod Sabohiddinni oq o'tovga boshladi. Norxo'ja to'rda o'tirardi. Sultonmurod Sabohiddinni tanishtirdi.

— Xush kelibsiz, mulla Sabohiddin. Buxoroi sharifdan yuborilgan nomani oldim. Qutlug' xabar yetkazibsiz.

— Mulla Sabohiddin xizimatingizga tayyorlar, — dedi imom ta'zim bilan.

— Qani, o'tiring, xizmat qochmas.

Eshonning bu taklifi javobsiz qolib, Sultonmurod ham, Sabohiddin ham qo'l qovushtirgancha turaverishdi.

— Yana nima gap? — dedi qo'rboshi ular savol nazari bilan qarab.

— Uzmanimiz bor.

— Keyin.

— Uzmanimizni eshitmasangiz, yeganimiz ichimizga tushmaydi.

- Tezroq ayting bo'lmasa.
- Tunov kuni beklaringiz Sabohiddinning akalarini olib kelishibdi.
- Ha, Jamol o'rismi? Bir kambag'alning sho'rini quritibdi-da, a?
- Asti unday emas, bu tuhmat. Biz Jamoldiddinning gunohini so'ramoqchimiz.
- Qo'yib yuboring, deysizmi?
- Ha, taqsir. Jamoliddinni shayton yo'ldan ozdirgan. Chilla tutib uning gunohini Xudodan so'rayman. Marhamatingizni ayamang.
- Qo'yib yuboraymi? — deya qayta so'radi qo'rboshi Sabohiddinga tikilib. — Bugun qo'limdan chiqib ketsa, ertaga yana sheriklariga qo'shiladi. To'pponchasidan uchgan o'q naq peshonangizga sanchilsa ham chilla tutib o'tirasizmi?
- Endi zinhor bu yo'lga qaytmaydi. So'zimizni yerda qoldirmang.
- Iziga qaytmaydimi? Mulla Sabohiddin, sizdan so'rayman: iziga qaytmaydimi?
- Xudo xohlasa...
- Qaytadi... — Norxo'ja keskin ohangda shunday deb o'yga toldi. Keyin tizzasiga shapatiladi. — Mayli, to'rt tomoni qibla, ketaversin. Chiqib ayting, saharda yo'lga solib yuborishsin. Qani, endi o'tiringlar, uzringiz qabul bo'ldi. Ahmad dev, Mamat chirik qani? Yusuf qiziqni topib kelibdimi?
- Yo'q, begim, Yusuf qiziqni Marg'ilondan topolmabdi.
- Osmonga uchib ketibdimi?
- Xoliqberdi to'ranikida ekan.
- Shu yerda ham yo'limga g'ov bo'ldimi? Bu marg'ilonlikdan qutular kun bormi o'zi?!
- Yana bir gap o'tdimi?
- Siz uchun shunchaki bir gapdir, — dedi Norxo'ja unga qovoq uyib. — Men uchun musulmonlarning hayot-mamotini hal qiladigan gap. Tunovinda dashnoqi armanlar peshin namozi paytida masjidga bomba tashlashibdi. Dashnoqlarni bitta qo'ymay qirib tashlash o'rniga, Xoliqberdi to'ra Frunze bilan ahd-paymon qilib, bizni bittadan tutib bermoqchi.
- Begim, qaerimizdan tutar ekan, aytmadimi? — bu qochiriqning ma'nosini tushungan qo'rboshi kulib yubordi.
- Omma zap olding, yomon yeridan olding, Ahmad dev, balosan, omma yomon balosan-da! — dedi Norxo'ja chehrasini ochib. — U Sibirda yurganida o'rislarga sotilgan-da! Qo'qonda bir xotinchalishlik qildi, g'azabimni ichimga yutdim. Endi rasmanasiga xoinlikka o'tibdi. Kallasi og'irlik qilib qolganga o'xshaydi.
- Eshon, g'azabga o'rin bermaganingiz ma'qul. Jahl kelganda aql ketadi. Ikki urishqoq podshohdan ikki ahil darvishning kuchi ziyodroq, deyishadi. Murosai madora...
- Murosaga o'rin yo'q. Islom lashkarlari ichida xoinlar bo'lmasligi kerak! Endi uning yigitlarini o'zimizga ag'darish harakatiga tushmog'imiz lozim. Buni alohida kengashib ko'ramiz. Ahmad dev, nima, shunday o'taveramizmi?
- Begim, Mamat chirik Ishoq buqoq bilan Asqar cho'tirni boshlab kelibdi. Chaqiraymi?
- Tashqariga joy qilishsin. Beklarimning ham bir bahri-dili ochilsin.
- Begim, ularning bir parizodi ham bor ekan, chiqaversinmi?
- Nima? — Norxo'ja Ahmad devga o'qraydi. — Ko'ngling najasni istab qoldimi? Naq putlaringni yirib yuboraman-a!
- Qonimizdan keching, begim, ko'nglingiz yozilarmikin, deb edim-da.
- Ahmad dev ta'zim bilan chiqib ketdi.
- Oq o'tov oldidagi maydonga yigitlar davra qurishdi. Ikki kishi kelib qo'rboshiga ta'zim qildi. Ularning oriqrug'i chindanam uzun, go'shtdor kishining esa tomog'ida mushtday buqog'i osilib turardi. Norxo'janing imosi bilan ular chidirmalarni chertib, aytishuvlarini boshladilar.

*Oxirat bozoriga
Yuk bog'lagan karvon, buqoq.
Olti ming g'ishtni pishirgan
Betutun xumdon, buqoq.*

Atrofni kulgi, qiyqiriq bosib ketdi. Ishoq buqoq davraning tinchishini kutib turdi. Keyin xirildoq ovozi bilan javob qildi:

*Arilarning uyasini —
Bet bu, deb aldar cho'tir.
Xuddi chakichlab chekilgan —
Patir, deb javrar cho'tir.*

Yana kulgi.

*Yelkasiga xurjun osgan,
Xurjunida oshqovoq.
Har biri chorak yetilgan,
Mirishkor dehqon, buqoq.*

Bo'ldi kulgi.

*Bu kecha qaylarda qolding?
Betlaring itning izi.
Panjaragulchin yuzingdan
Ayladingmi or, cho'tir?*

Qiyqiriq avjiga chiqdi. Kulgidan ko'zlari yoshlanib, ichak uzilay dedi. Cho'tir avval qo'lini ko'tarib, keyin buqoqqa ta'zim qilib, taslim bo'lganini bildirdi. Keyin ikkovlon qo'shiq boshlashdi:

*Bo'z o'g'lonning bo'z oti,
Ko'kka qarab kishnaydi.
Uni ko'rib jonona
Jilovidan ushlaydi.
Ushlama, qo'y, oyimqiz
Harom o'lgur tishlaydi.*

Davra o'rtasiga bu safar shopmo'ylovli «juvon» eshilib chiqdi. Sabohiddin nari ketdi. Norxo'ja savol nazari bilan Sultonmurodga qaradi.

— Akasini o'ylab tinchini yo'qotdi, — dedi eshon.— Manavilar bilan kelgan parizod Jamol o'risning xotini bo'lgan bir vaqtlar.

— Shunaqami? Bu biladimi?

— Singlisi aytgandir.

— Xoliqberdi unga nima yumush buyuribdi, so'ramadingizmi?

— Yo'q.

— So'rang. Jilovni bo'sh qo'ymang. Kunimizga asqotib qoladi.

Bazm davom etardi. Yigitlarning har bir qiyqirig'i Sabohiddin qalbiga tig' bo'lib sanchildi. Uning ko'ngli jihat istab bu tomonlarga yo'l borgan edi. Bunda ko'rganlari... Shularmi islom lashkarlari?! Yurt qon qaqshayotgan damda ko'ngilochar bazmlari nimasi? Azon chaqirig'ini birov qulog'iga olib safga turadi, boshqasi o'z yumushi bilan band. Akasining gapi isbot topyapti-ku? Chindan ham bular adashganlarmi? Sust iymon bilan g'alabaga erishmoq mumkinmi? O'z nafsiga jihat e'lon qila olmagan odamdan katta jihatda qanday karomat kutish mumkin? Qo'rboshi amiralmuslimindan nafratlansa, bu qanaqa jihat bo'ldi?

Afsus, alam, nafrat qorishgan paytda kishining bag'rini portlatib, qo'porib yuboray deydi. Sabohiddin hozir shu holatda edi. Bag'riga ming-ming odamning dardini, sir-asrorini yashirib, qorong'i kechada xunuk manzara kasb etib, mung'ayib yotgan bu tog'lar Sabohiddinning ham dardini yuta olarmikin? Ko'rganlari shu o'rkachlar ichiga sir bo'lib singarmikin? Nahot Olloh shuncha nolayu ibodatini tariqcha inobatga olmasa? Yurt boshiga shuncha azoblar kammidi? Axir yurak hil-hil bo'lib ketdi-ku? Oldinda yana necha qiynoqlar bor? Bu azoblarga Sabohiddinning vujudi chidash bergan taqdirda yuragi chiday olarmikin? Tars yorilib ketmasmikin? Sabohiddin miyasiga bexos yarq etib urilgan bu fikrni «alhamdulillah, shunisiga ham shukr», degan so'zlar bilan quvmoqchi bo'ldi.

U yong'oqzor etagida yonib turgan gulxan sari yurdi. So'ng gulxan atrofida davra qurganlar safiga qo'shildi. Suhbat avvaliga qovushmadi. Sabohiddin uzun kosov bilan gulxanni titib o'tirgan kishiga tikilib qoldi: qorato'ridan kelgan, yonoqlari bo'rtib chiqqan, ko'zlari qisiroq, mo'ylovli... Yana nimadir yetishmaydi. Ha, soqol. Agar soqol qo'ysa, Norxo'janing quyib qo'ygan o'zginasi.

— Mendan ko'z uzmay qoldingiz, taqsir, tinchlikmi o'zi?
— Siz qo'rboshiga juda o'xshar ekansiz.
— Jiyan bo'lgandan keyin o'xshaydi-da, — dedi davradagilarning biri.
— Ie, jiyan bo'lsangiz... bu yerda...
— Nima, anov yerda, to'rda o'tirishim kerakmi? — dedi jiyan to'ng ovozda. — Men issiq o'rnimni to'vda o'yin-kulgi ko'raman, deb sovutmaganman. Qo'rboshingiz shunday yuraversa, qornini o'zimla yorib tashlayman!!

— Tilavoldi!
— E, sen meni tergayverma. Hammang pana-panada botirsanlar.
Tilavoldi shunday deb qo'l siltadi-da, turib daraxtzor orasiga kirib ketdi.
— Bu boshqa olam, qo'rboshi boshqa olam. Tilavoldiga Xudo devning yuragini bergan. Ammo gap kelsa, amakisini ayamaydi, — dedi Tilavoldini insofga chaqirgan yigit.

— Taqsir, hov o'tovda yolg'iz turgan qiz kimingiz bo'ladi? O'tovga kirib chiqqaningizni ko'rib edim, — deb so'radi davradagi yoshi ulug'roq kishi.

— Singlim.
— U qizni ancha burun Sultonmurod boshlab kelganlar. Qattiq qo'riqlaydilar. Bir sir bor, deyman-a...

— Sir yo'q, taqsirim, shunchaki... panohlariga olganlar...
Sabohiddin bu gapdan keyin davradagilarning bir-biriga sirli qarab olishganini sezdi.

Bazm tugagach, Norxo'ja o'toviga kirdi. Ahmad dev unga ergashdi.

— Begim, bir narsani so'rash niyatim bor.
— Surayver.
— Buxoroi sharifdan maktub oldim, dedingizmi?
— Ha.
— Yordamdan darak bormi?
— Kutinglar, deyishyapti. Amir jangga tayyorlanyapti.

— Tayyorgarligi juda cho'zilib ketmadimikin?
— Bu bilan ishing bo'lmasin.
— Mulla yuborgandan ko'ra to'rtta beshotar yuborishmaydimi?
— Kalta o'ylaysan, dev. Bilagingda kuching boru kallangda aql yo'q. Birgina mullaning yarim og'iz so'zi bilan sendaqa yuzta dev eplay olmaydigan ish bitadi. Bu yigit jihat ko'rgan ekan, bizga asqotib qoladi. Besh yil Buxoro tuprog'ini yalagan. Bu chakana gap emas! Ammo mulla yigitni sira nazardan qochirma. Bu yoqqa kelishdan oldin Xoliqberdining suhbatida bo'lgan. To'raning bir niyati borgan o'xshaydi. Lekin mulla yigit unga emas, menga xizmat qiladi. Bir niyatim bor. Inshoolloh, unga shu mullaning ko'magi ham tegadi.

— Sultonmurod-chi?
— Endi u qarib qoldi... Qari eshak ag'anab, tuproq to'zitishdan boshqa narsaga yaramaydi. Men Xudo deb, qilich yalang'ochlab yuribmanu, Xudo menga obro'liron shayxni ravo ko'rmayapti. Avomni og'ziga qarata oladigan bir shayx bo'lganda edi. Xudo shu mullavachchani ravo ko'ribdi, shunisiga ham shukr...

— Mulla bolangizdan ish chiqarmikin?
— Chiqadi. Bizning istagimiz bilan u katta obro' egasi bo'ladi. So'ng ana shu obro' bilan bizga xizmat qiladi.

— Oson esh beradiganga o'xshamaydi.
— O'xshamasa o'xshatamiz. Hozircha hamma ishimiz xamirdan qil sug'urgandek boryapti. Burnidan ip o'tkazib oldik, qaerga sudrasak boradi. Yaqin kunlarda oyog'iga ham kishan uramiz... Erta-indin Zayniddin qori keladi bu yerga. Uning tashrifi ham bejiz emasdir.

— Istasangiz, qori bu yerga yetib kelolmasligi ham mumkin.
— Esingni yema. Qori bizga dushman emas. Faqat yo'li boshqacharoq. U dushman bo'lgan taqdirda ham tirik qolishi kerak. Xalqning peshonasiga bunaqa odamlar har kuni bitavermaydi. Senga qo'yib bersa... Bor, jo'na.

Ahmad dev chiqib ketdi. Norxo'ja o'ringa yonboshladi. Uning niyati faqat o'zigayu Xudoga ma'lum. Bu qishdan eson-omon chiqib olsa, oshig'i olchi. Xoliqberdi to'ra o'ziga xoinlikni ravo ko'rib, sho'rolar tomoniga o'tsa o'tar. Bu hali butun islom lashkarlari bo'yin egdi, degan gap emas. Kuch yetmasa, hiyla ishlatadi. Laylatulqadr kuni Sabohiddin tush ko'rganini qishloqma-qishloq yurib aytadi. Norxo'jani mahdi deb e'lon qila boshlaydi. Xoliqberdi to'radan ayrilgach Zayniddin qori shubhasiz, uning panohiga kiradi. Ana shunda uning yo'lga hech kim g'ov bo'lolmaydi. Buxoro amiri qo'shin tortmagan taqdirda ham Farg'onani o'zlari eplay olishadi.

Norxo'ja shu xayollar og'ushida o'tirganda o'tov og'zida Sultonmurodning qorasi ko'rindi. U yengil tomoq qirib ichkari kirdi-da, qiroat bilan salom berib poygakka tiz cho'kdi.

— Ha, taqsir, paytavangizga qurt tushganga o'xshaydi? — dedi Norxo'ja, joyidan jilmay.

— Zayniddin qori kelarmishlarmi?
— Is oldingizmi darrov. Kelsa kelar, sizga nima?
— U kelsa beklaringizni yo'ldan urarmikin, deyman-da.
— U holda yo'lga peshvoz chiqing-da, iziga qaytarib yuboring.
Bu gapni eshitib Sultonmurod o'rnida bir qimirlab oldi.
— Eshonim, hazil qilmang. Shu xususda bir fikr bilan kirib edim huzuringizga. Malol kelayotgan bo'lsam, chiqa qolay.

— Ayting, fikringizni.

— Qori kelsa kelsin. Izzat bilan kutib olaylik. Keyin... uylantirib qo'yib, iziga qaytarsak-chi?

— «Uylantirib» deysizmi? — Norxo'ja bu taklif panasida qanday niyat bor ekan, deb bir oz o'yladi. «Zayniddin qori kelsa men beklarimni yo'ldan uring, deb qo'yib qo'yar ekanmanmi. Qori kelsa yonimdan bir qadam ham siljimaydi. Bu tullakning xavotiri bo'lak. Qori bilimi, e'tibori bilan undan baland. Bir davrada cho'qishib qolsa rasvoi jahon bo'lishi tayin. U shundan xavotirda». — Uylantirib qo'yamizmi? — deb qayta so'radi Norxo'ja. — Kimga?

— Yallachilar bilan kelgan parizodga.

«Maqsadi endi ayon. Qorini xo'rlamoqchi»

— Parizodga deysizmi? — Norxo'ja shunday deb qaddini ko'tardi. — Men uni sizga ravo ko'rib edim?

— Menga? — Sultonmurodning kapalagi uchib ketdi. — Hazillashmang, eshonim. Mening uylanish niyatim yo'q. Men taqvodor odamman, jonimni Olloh yo'lga tikkanman. Oxiratni so'rab yurgan menday odamga bu dunyo lazzati kerak emas.

— Shundaymi? U holda... — Norxo'ja Sultonmurodga sinovchan tikildi. — U holda qorini parizodingizga emas, o'zingiz boshlab kelgan qushchaga uylantiramiz.

Sultonmurod qo'rboshining nigohiga dosh berolmay boshini egdi. Norxo'ja undan sado chiqishini kutdi.

Sultonmurod bu safar yanglish kirganini fahmladi. Qo'rboshi qorini yoqtirmaydi, aytganim bo'ladi, deb adashganini bildi. Norxo'ja Zayniddin qorini yoqtirmasa ham uning xizmatlariga hali umidi bor edi. Sultonmurod xuddi shuni hisobga olmay yanglishdi. Endi bo'lar ish bo'ldi. Qo'rboshi javob kutyapti.

— U qizaloq... qaydam, — deb chaynaldi, — akasi shu yerda... ko'narmikin?

— Ko'ndirasiz. Siz tongda mulla yigitni chaqirib, bir tush ko'rganingizni aytasiz.

— Qanday tush?

— O'zingizni go'llikka solmang. Siz tushingizda uning dadasini ko'rgansiz. Dadasi: «Qizimni qoriga atadim», degan. Men ham xuddi shunday tush ko'rganman. Uqdingizmi? Boring, nonushtadan so'ng o'zim chaqiraman.

Sultonmurod bu safar hurmat yuzasidan emas, yelkasiga bexos tushgan g'amdan bukilib tashqariga chiqdi.

«Kallasiga yaxshi fikr kelibdi, — deb o'yladi Norxo'ja, — Zayniddin qori ham o'zirniki bo'lib qoladi shekilli?»

Sabohiddin «qo'rboshining amriga ko'ra akamni tongda qo'yib yuborsalar kerak, bir og'iz bo'lsa ham gaplashib olay», degan niyatda yo'lga chiqib turgan edi. Kun yoyilsa hamki, qarorgoh tomondan hech kim kelmadi. Norxo'ja fikridan qaytdimikin, deb xavotirlandi. Quyosh ko'tarilgan sayin tashvishi orta boshladi. Endi qarorgohga qaytishni niyat qilib turganida qarshi tomondan otliq ko'rindi. Sabohiddin tarvaqaylab o'sgan archaning panasiga o'tib, uni kutdi. Otliq yaqinlashgach, uni tanidi-yu, quchoq ochib qarshiladi.

— Qori domla, o'zingizmisiz? Ko'zlarimga ishonmayapman, — dedi shodligini yashirolmay.

— Xuddi o'zimman. Nima, pistirmada yolg'iz turibsanmi? — dedi Zayniddin qori otdan tushar ekan. — Qani, xurjunni ol, bahonada nafasimni rostlay.

Sabohiddin xurjunni olib, archa soyasiga joy qildi.

— Meshda qimiz bor, och, — dedi qori yonboshlab, — sen akangni kutayotganga o'xshaysan-a?

Sabohiddin «Qaerdan bilasiz?» degandek yalt etib unga qaradi.

— Jamoliddinni yo'lda ko'rdim. Bomdodni o'qiyotuvdim. Qarasam, qo'rboshining ikkita yigiti oldiga solib kelyapti. Nima gapligini bilolmadim.

— Akamga tuhmat qilishdi. Kimdir sigir o'g'irlab so'yibdi-yu, terisini og'ilxonamizga tashlabdi.

Zayniddin qori kuldi.

— Sigirni kim o'g'irlaganini bilmadingmi?

Sabohiddin yelka qisdi.

— Nima uchun sendan emas, akangdan shubhalanishdi, o'ylab ko'rmadingmi? Shunaqa ham sodda bo'ladimi kishi? Axir bu Norxo'janing o'yini-ku? Jamolni ushlab kelgandan keyin sen kelgansan. «Akamni qo'yib yuboring», deb Xudoning zorini qilgansan. U «marhamatini ayamay» iltimosingni inobatga olgan, shundaymi? Shu yaxshiligi uchun sen endi undan qarzdorsan. Qani, biron ishdan bo'yin tovlab ko'r-chi, endi?

— Singlim ham o'sha yerda...

— Buni eshitdim. Har holda Norxo'ja Xoliqberdi to'ra huzurida bo'lganingni bilib, nayranglarini ishga solgan. U bizning nima uchun kelganimizni anglab turibdi. Seni qarmoqqa ilintiribdi. Meni bir balo qilib O'shga qaytarib yuborishga urinadi.

Zayniddin qori shunday deb, qimizdan simirdi. Sabohiddinning ichgisi kelmadi.

— Siz ketib qolsangiz, men bir o'zim...

— Sen hadiksirama. Uning xizmatlarini bajarib yuraver. Arqonni uzun tashla.

— To'ramning topshirig'i-chi?

— To'ra aytaveradi. Quruq gap bilan odamni insofga keltirib bo'lar ekanmi? To'ra noto'g'ri ish qilyapti. Sho'rolar bilan san-manga bormay, avval Norxo'jaga o'xshagan kichik baliqlarni yutish kerak. Ana keyin katta baliq bilan betlashsin. Sho'rolar yengilgan taqdirda Nor ham, Ko'r ham tek turmaydi. Buni Xoliqberdi biladi. Bila turib «jigarlarimga tig' tortmayman, insofga keltiraman», deydi. Amiralmusliminning onasigaki tig' urdilar, bu palagi nosog'lardan yaxshilik kutib bo'lmaydi.

— To'ramning onalarini... Shular fatvo berganlarmi?

— Bilmasmiding?

— Yo'q. O'ylab ham ko'rmabman.

— Shu ishing chakki. Endi sen mullavachcha emassan. Muhoraba o'tidagi odamsan. Chanoqqa'lada aqling kirmadimi: lalaysang, peshonangdan o'q yeysan. Xoliqberdi sho'rolar bilan yarashsammi, yarashmasammi, deb kalovlanib turibdi. Yarashish niyatidan qaytsin, deb shu nopok ishga qo'l urishdi. Ularning rejasicha, onasining sho'rolar qo'lidan qazosini topganini bilgach, to'ra g'azabga minishi kerak edi. To'ra g'azabga minishga mindi-yu, sir boy bermadi. Endi nima qilmoqchi ekani Xudoga ayon bo'lmasa, bandaga ma'lum emas.

— To'ram fatvo berganlarni bilaman, degandilar.

— Bilmay-chi! Axir u ko'r ham, kar ham emas. Ko'rib, eshitib turibdi.

Qori hordiq chiqargach, o'rnidan turdi. Sabohiddinning yelkasiga tiralib otga mindi. Sabohiddin otining jilovini olib oldinda yurdi. U arosatda qolgan, hozir Salimxo'jaga o'xshash dono hamsuhbatning maslahatiga zor edi. Qori ham dono kishi, ammo uning yo'li boshqa, Sabohiddinniki boshqa. Qori manfaatdan kelib chiqib, nasihat qiladi, ehtiyotkorlikni hush ko'radi. Sabohiddinga esa to'g'ri yo'l uchun jonini ham ayamaydigan odamning nasihati kerak. Sabohiddin shunday xayollar bilan ketayotganida Qori yana so'z boshladi:

— Nopok odamlar ham jismonan, ham irodasi kuchli kishini tez payqaydi. Keyin atrofiga to'planib, uni aldab, boshqalarni esa gangitadi. Xalq ham omi-da, qo'yga o'xshab o'sha kuchli odamning atrofiga to'planaveradi. Nopoklar esa bundan foydalanib,

podani o'ziga kerakli yo'lga buradi. Norxo'janing atrofini ham shunaqa nopoklar o'rab olgan. Uning ishonganlaridan biri o'zingning domlang. Chala mulla domlangga qaraginu qo'rboshiga baho beraver.

Sabohiddin bosh irg'ab, qori domlasining gapini tasdiqladi. Qori esa gapini davom ettirdi:

— Bu qo'rboshilar yoz chillasida tentirab yurgan laxtak-laxtak qora bulutlarga o'xshaydi. Quyosh yuzini to'sgani bilan bir parchagina yerga soya tashlashini bilmaydi. Nazarida hammayoqni ostin-ustun qilib yuborganga o'xshaydi. Etagi yirtiqligidan, shu yirtiqdan nur oqib kirayotganidan xabarlar yo'q. Laxtak bulutlar birlashsa, kuchli momaqalldiroq bo'lsa, jala quysa, sel kelsa uning yo'lini to'sish qiyin. Laxtak bulut tashlagan uch-to'rt tomchini yer birpasda yutadi. Qo'rboshilar buni fahmlamay kuchanib yotishibdi. Turkiy bayroq atrofida birlashmas ekan, bu bulutlarni yengil shabada ham haydab ketadi.

Sabohiddin bosh irg'ab, bu gaplarni tasdiqlagan bo'lib, indamay borardi. «Bu odamlar tobelikni buncha yoqtirishmasa, — deb o'ylardi u — biri o'risga qayishaylik, deydi. Biri turklarga, yana biri inglislarga. Nahotki o'zgalarga ko'z tikmay, mustaqil harakat qila olmasak? Qori domlamning quloqlariga turklar azon aytishganmi, ikki gapning birida ularni alqaydilar. Buxoroga borajagimni bilib ham «Istambulda tahsil olsa durustmikin?» deb edilar. Otam kamxarj bo'lmaganlarida bu kishining so'zlariga kirib Istambulga jo'natardilar. U holda men ham turkiy bayroqqa sajda qiladiganlardan bo'larmidim? Ahli millatning aksari turk davlatiga najot ko'zlarini tikyapti. Ular «biz bir xalqmiz», deyishadi. Lekin qonlari qonimizga qo'shilmikin? Ularning o'zlari hozir jar yoqasida turishibdi. Bizga yordam berishga qurbilari yetmaydi-ku?» Sabohiddin shu tarzda qoriga fikran qarshilik bildirar, ammo bu gaplarni tiliga chiqarmoqqa botina olmasdi. Yana picha yo'l yurishgach, Zayniddin qori afsus ohangida gap boshladi:

— Xoliqberdi amiralmuslimin, deb hisoblangani bilan do'ppisi ancha tor. «Islom lashkari, amiralmuslimin...» nomi ulug'u ammo quvvat yo'q. Orada ittifoqlik yo'q. Sen Chanoqqal'ada inglislarni, farangilarni ko'rding, ularning harb ilmida ilg'or ekanliklariga guvoh bo'lding. Sho'rolarning askari ham olmon bilan urushib obdon pishgan. Ularning «kazak» deganlari bor-ki, Xudoning bir balosidir. Sho'rolarning aslahalari ham bekamu ko'st. Xoliqberdining yigitlarichi? Miltiq otishni endi-endi o'rganishyapti. Hozir uncha-buncha odamga so'z bermayman, deguvchi Shermuhammad ham miltiq otishni Xoliqberdidan o'rgangan. O'rganish chog'ida miltiq piltasidan uchqun sachrab, bir ko'zni ko'r qilib olib «Ko'rshermat» degan nomni olvoldi. Shular jahon muhorabasini ko'rgan askarlarga bas kela olisharmidi? Turklarning jang ko'rgan zobitlari kelishsa edi, ishlar bo'lakcha bo'lardi.

— Ularning katta zobitlari orasida ham noittifoqlik mavjud, — dedi Sabohiddin.

— Ha, — Zayniddin qori xo'rsindi, — bilaman. Hamma balo shu noittifoklikda, hamma sharaf esa millat birligida! Sharafga eltuvchi birlik yo'q.

— Birlikning bo'lish yoki bo'lmasligi bandalardagi iymon quvvatiga bog'liq. Iymon zaif yerda ittifoqlik ham, jihod ham yo'q. Erkak kishiga gajak taqib, bazm qilish jihod emas.

— Ha, balli, buni fahmlab yetibsan, — dedi Zayniddin qori kulimsirab. — Har qanday jang ham jihod bo'lavermaydi, urushga kirgan hamma ham shahidlik martabasiga yetavermaydi. Qani, o'rni kelib qoldi, — Zayniddin qori Sabohiddinga sinov nazari bilana qaradi: — Abu Muso roziyolloxu anxudan bu xususda rivoyat qilingan hadisi sharifni esla-chi, shoyad mas'ala oydinlashsa.

Sabohiddin bu sharaflil hadisni bilsa ham, odob saqlab, qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, «o'zingiz marhamat qila qoling», degan ma'noda yengil ta'zim etdi. Yigitning bu odobi qoriga ma'qul kelib, ko'zlari kuldi.

— Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan so'radilarkim, «Shijoat bilan urushga kirgan Odam Ollohning yo'lida urushgan bo'ladimi, tarafkashlik uchunmi yoki riyo uchunmi?» U zoti bobarakot javob qildilarkim, «Kim Ollohning so'zi oliy bo'lishi uchun urushga kirsa, Ollohning yo'lida urushgan bo'ladi». Shunga ko'ra aytishimiz mumkinkim, bu ko'rayotganimizni tarafkashlik urushi demoqlik durustdir. Hattoki riyo ham bor bunda. «O'lsam shahid ketaman», deb yurganlar adashayotganlarini bilmaydilar. O'lishdan oson ish yo'q, ammo shahidlik martabasiga yetmoqlik juda-juda mushkul vazifa. Siz bilan biz buni bilamiz, biroq, boshqalarga ayta olmaymiz. Ularning shashtini qaytarmoqlik ham gunoh-da.

— Qori domla, inglislardan nari bo'lmoqlikning imkoni yo'qmi?

— Borlikka bor. Ammo qurol-aslahalar kimdan olinadi?

— Ulardan qo'rqulik.

Chanoqqal'adagi urush avj pallasiga ko'tarilgan kunlari bir sayxonlik yaradorlarni davolash maydoniga aylantirilgan, unda musulmonlar bilan birga asir tushgan inglisl, farangi yaradorlari ham anchagina edi. Harbiy kemadan tushib yopirilgan inglisl musulmonlarga qo'shib o'zlarining yaradorlarini ham qirib tashlashgan edi. Hozir Sabohiddin o'sha voqeani eslab, ustoziga so'zlab berdi. Zayniddin qori bu ayanchli hikoyani eshitdi-yu, javob qaytarmay afsus bilan bosh chayqab qo'ya qoldi.

Bitta dovon oshib o'tib, Norxo'janing qarorgohiga kirib kelishdi. Qo'rboshi qorini quchoq ochib kutib oldi. Sog'ingan odamini ko'rib quvonganday anchagacha bag'riga bosib turdi. Norxo'janing orqasidan kelganlar ham quyuq salom-alik qilishdi. Sultonmurod esa qo'rboshiga o'xshab quchoqlashib omonlashdi. Chinor soyasiga dasturxon tuzalib, davra qurishdi. Ishoq buqoq bilan Asqar cho'tir xizmatga chorlandi. Zayniddin qori Sabohiddin bilan ko'z urishtirib oldi-yu, ularning chiqishiga monelik qilmadi.

Bazm qizigan mahalda Norxo'ja Zayniddin qorini o'toviga boshladi.

— Bazm yoshlarga yarashadi. Biz dunyoning ishlaridan gaplashaylik, — dedi u qori o'tirgan yerga lo'labolishini surib. — O'zingizcha bir kelay ham demaysiz. Har holda bitta soyning suvini ichardik. Yaxshi hamki, to'ram muruvvat qilib, sizni biz tomonga yuboribdilar... Yo, o'zingizcha keldingizmi?

— Yo'q, to'ram yubordilar. — Zayniddin qori kulib qo'ydi. — Siz ogoh bo'lmagan sir bormi o'zi bu dunyoda?

— Bor! — Norxo'ja shunday deb yostiqni nari surdi-da, cho'k tushdi. — To'ramning harakatlariga aqlim yetmayapti. Sho'rolarga qo'shiladiganga o'xshaydilarimi?

— Bu bir mish-mish...

— Yo'q, shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Eshitishimcha, Jamol o'ris serqatnov bo'lib qolibdi?

— Ha, tez-tez kelib turardi. Lekin qo'shilish haqida gap bo'lganini eshitganimcha yo'q. Bu xususda Jamol o'risning o'zidan so'ramadingizmi?

— Jamol o'risdan biladiganimni bilib oldim. Omma to'ram qo'shilguday bo'lsa omon qolmaydi. Shuni yetkazib qo'ying.

— Mening gap tashish hunarim yo'q.

— Qo'ying bu gaplarni, qori! Nima uchun bu yerga ivirsib kelib qolganingizni bilaman. Sizga dangal bir gapni aytaymi: uyingizda tek o'tiring. Bu g'alvalarga aralashmang. Siz urush tugagandan keyin kerak bo'lasiz. Shuning uchun... men sizni uylantirib, O'shga qaytarib yuboraman.

— Uylantirib?

— Ha. Xotiningizni egam chaqirganiga salkam ikki yil bo'lyaptimi?

— Bo'ydoqlarga rahm qilaman, desangiz, o'zingizda kammi?

- Kim?
- Sultonmurod-chi?
- E, qo'ying uni qori, siydigining ko'pigi yo'q odamga qiz xayf!
- Menga qaysi qizni ravo ko'ryapsiz?
- Begona emas. Novqatlik Jalol oshnangizning qizini.
- Eshon, esingizni yedingizmi?
- Yo'q, desangiz... uni beklarimga topshiraman.

Bu gapni eshitib, Zayniddin qori o'rnidan turib ketayozdi.

- Yo'q, yo'q, asti unday qila ko'rmang, gunohga botmang, — dedi shoshilib.
- Demak, kelishdik-a?
- Men o'ylab ko'ray.
- O'ylaydigan zamon emas. Ertaga to'y.

Norxo'ja gap tamom, deganday o'rnidan turib ketdi. Zayniddin qori holsizlanib qaddini ko'tardi-da, xayrlashib, tashqariga chiqdi.

Sabohiddin singlisini imom panohiga olganini eshitganda, «Bir balo bor», deb qo'ygan edi. Bu tong uning ko'rgan tushini eshitib, o'yi to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildi. Ammo oraga qorining aralashganiga lol qoldi. Nonushtadan so'ng ularni qo'rboshi chaqirtirdi. Norxo'ja gapni uzoqdan boshlab, endi muddaoga ko'chay deb turganda tashqaridan so'kingan ovozlari eshitildi. Ahmad dev kirib ta'zim qildi:

- Begim, ot o'g'risini tutib keltirdik.
- Qani?

Kaltakdan yuzlari momataloq bo'lib ketgan bir kishini olib kirdilar.

- Qaerda tutdilaring?
- O'zimizning ichimizda ekan, begim. Otlarni o'g'irlab, G'ani qirg'izga bo'yatib yana qayta o'zimizga olib kelib mukofot olar ekan.

- Laqillatarkan-da? G'anini topib keltir.
- U ham shu yerda. — Ahmad dev chiqib, keksa bir kishini boshlab kirdi.
- Otlarni kishi bilmas qilib bo'yab berarmiding?— deb so'radi Norxo'ja.
- Shunday, — dedi u.
- Qani o'zini ham bir bizga bo'yab ber-chi?
- Bo'yamayman, eshonim, bu odam, jonivor emas.
- Bo'lmasa o'zingni bo'yaymiz.
- Xudodan qo'rqaman, eshonim, azobiga chidamay o'lib qoladi.
- O'lsa, gunohi bizga, bo'ya!
- Yo'q, bo'yolmayman.

— Dev! So'rab ko'r-chi, ularning orasida bo'yashni biladigani bormikin? Topilsa ikkovini ham bo'yat. Tirik qolsa haydab yubor.

- Topilmasa-chi?
- Unda terisini shil. G'anining qo'llarini chopib tashla.

Aybdorlar olib chiqib ketilgach, Norxo'ja gapini kelgan joyidan davom ettirdi. «Bir g'alati tush ko'rganini» ayta boshlagach, Sabohiddin muddaoni angladi. Shunday bo'lsa-da, qo'rboshining so'zini bo'lmay, oxiriga qadar tingladi.

— Zamon og'ir, qiz bola nozik chinni bo'ladi. Darz ketishi hech gap emas. Mana shularni mulohaza qila turib singlingizni qoriga nikohlab qo'ysammikin, degan xayolga keldim. Ertamatan qori bilan maslahat qildim. U kishi rozi, qori otangiz bilan qiyomatli oshna edi. Kecha uzringizni qabul qilib, akangizni qo'yib yubordim. Bugun siz so'zimizni yerda qoldirmassiz? — Norxo'ja gapini tamom qildi. Sabohiddindan javob kutib, unga tikildi. — Picha o'ylang. Sizni shoshirayotganim yo'q.

— O'ylaganim bilan o'yim nihoyasiga yetmaydi, taqsir. Avvalambor, xohishingizni singlimga yetkazishim kerak. So'ng onam bilan akam bu gaplardan bexabarlar. Dadam rahmatlidan so'ng, bu nikohga rozilikni faqat akam bera oladilar. Ustiga-ustak biz azadormiz...

— Gap bunday, mulla Sabohiddin: singlingiz hali g'o'r. Nima yaxshi, nima yomon fahmiga bormaydi. Undan rizolik olish ortiqcha. Onangiz uchun esa bari bir. Ona farzandi qaerda tinib-tinchib ketsa, shunga shukr qiladi. Akangiz imonini sotib, oqpadar bo'lgan. Endi oila boshlig'i huquqidan mahrum. Qizning butkul ixtiyori sizning qo'lingizda.

— Agar qiz norizo bo'lsa, nikohning kuchi qirqiladi.

— Mulla! — Norxo'janing ovozi birdaniga tahdidli tus oldi. — Farosatingiz haqida ko'p yaxshi gaplar eshitganman. Bu gaplarni tasdiq qilarsiz, degan umiddaman. Boring, nikohga tayyorlaning. Kechqurun to'y.

— Bir ozgina fursat bering, taqsir.

— Fursat — g'animat. Ertangi nikoh bugun o'qilsa, osmon uzilib yerga tushmaydi. Manavini olib qo'ying, uyingizga qaytganda onangizga berasiz, — Norxo'ja shunday deb tilla tangalar solingan xaltachani uzatdi.

Ta'zim bilan chiqdilar. Sabohiddin Sultonmurod yuziga qaramadi. Nazarida hamma ish shu odamning rejasi bilan bo'lgan edi. Sabohiddinning butun vujudi nafratga to'lgan edi. «Ustozi»ga gapirishni ham istamadi. Zayniddin qori qo'ngan o'tovga qarab yurdi. Qori uni noxush kutib oldi:

— Hamma gapdan xabar topgan ko'rinasan? — dedi ostonada serrayib qolgan Sabohiddinga — Qani, ichkari kir. Ostonada gaplashishning xosiyati yo'q.

Qori shunday deb uni ichkari chorladi-da, kecha bo'lgan gapni so'zma-so'z aytdi.

— Kecha: «Norxo'ja meni bir bahona bilan izimga qaytaradi», degandim. Gapim to'g'ri chiqdi. Lekin bu qadar tez harakat qilar, deb o'ylamagan edim. Rizolik berishdan bo'lak ilojimiz yo'q. Ko'p qayg'urma. Sen o'g'lim, Mashhura esa qizim. Uni ona sutiday pokiza holicha uyingga olib borib topshiraman. O'sha yerdayoq taloq xatini qo'lga berib, tengi chiqsa to'yiga bosh bo'laman. Ko'nglingni xotirjam qil. Xo'p desang, Mashhura bilan buvingni O'shga olib ketaman. Sen hozir chiqib, bor gapni Mashhuraga tushuntir. Uning ham ko'ngli cho'kmasin.

Sabohiddin ma'qul ishorasini qilib, o'rnidan turdi. Qorining gapidan keyin bag'ridagi g'ubor picha tarqagan bo'lsa-da, dardi yengillashmadi. To'y haqidagi gapni singlisiga qay holda yetkazishni bilmay garang edi.

U Mashhuraga ajratilgan o'tovga kirib o'tirdi, yonboshladi. Yana o'tirdi. Mashhura akasidagi o'zgarishni sezdi.

— Aka, sizga nima bo'ldi? — dedi u hadik bilan.

— Hech narsa. — Sabohiddin shunday deb ko'zini olib qochdi.

— Besaranjomga o'xshaysiz?

— Sizga shunday tuyulgandir.

— Aka, bu yerda yana qancha turamiz? Siz meni olib ketgani kelmabmidingiz?

Sabohiddin javob bermadi. Nima desin? Ayni damlarda o'z erkiga ega emasligini singlisiga qanday tushuntirsin? Mashhura undan javob kutyapti. Yolg'on gapirishga majbur endi...

— Mashhuraxon, buvim sizga dadamning istaklari haqida hech so'z ochgan edilarmi?

— Qanday istak?.. Yo'-o'q...

— Dadam sizni kuyovga uzatishga... hozirlik ko'rib, so'z ham berib qo'ygan ekanlar.

— A?

— Men ham keyin bildim. Sizning bu yerga kelib qolishingiz dadam rahmatlining o'sha so'zlari bilan bog'liq ekan. Rahmatli dadam qori domlamizga xo'p, deb qo'ygan ekanlar.

— Sizga kim aytdi buni? Dadam vasiyat ham qilolmay ketdilar-ku?
— Buvim aytdilar.
— Yolg'on! Meni aldayapsiz! — Mashhura shunday deb yig'lab yubordi.
— Ota so'zi — amri vojib. Dadam rahmatli go'rlarida tinch yotsinlar, desak...
— Jon akajon, unday demang! Aldayapman, deng, akajon, aldayapman, deng...
— Bu Oллоhning inoyati, taqdirga tan berish kerak. Peshonaga shunday yozilgach, kimga dodimizni aytamiz. Osmon yiroq...

— Nahot peshonam shunchalik sho'r bo'lsa?! Uyimizga g'amdan bo'lak narsa kirmas ekan-da?!

— Tavba, deng, noshukur bo'lmang? Dadam rahmatli sizga yaxshilikni ravo ko'rganlar. Odamlar qizini ikki-uch xotin ustiga beryapti. Qori domlamiz, Xudoga shukr qiling, so'qqaboshlar. Kundoshlar zahridan ozor chekmaysiz.

— Uyga ketaylik. Bu gaplarni buvimning o'zlaridan eshitay. Siz aldayapsiz!

— Uyga Xudo xohlasa, to'ydan so'ng boramiz.

— A? Nimaga?

— To'yni shu yerda qilamiz.

— Men qochib ketaman!

— To'y shu oqshom bo'ladi...

Sabohiddin yolg'on-yashiq so'zlar bilan singlisini ovutmoqchi bo'lar, ammo shu topda qizga qo'shilib o'zining ham yig'lagisi kelardi.

Tashqarida ayol kishining qisqa-qisqa yo'talgani eshitildi. Keyin quloqqa tanish ovoz keldi.

— Mullaka, sizni yo'qlashyapti. Biz kelin- poshshaning pardoz-andozini boshlashimiz kerak ekan.

Sabohiddin Sojidaning ovozini tanib, g'ijindi. Noiloj turdi. Mashhura uvvos solib akasining bo'yniga osildi. Yalinib-yolbordi. Sabohiddin qult etib yutinib, singlisining qo'llarini yelkasidan oldi-da, shasht bilan burilib chiqib ketdi.

«To'y»ning qanday o'tganini Sabohiddin bilmadi. Og'ziga bir qultum suv ham olmadi. Qulog'iga yor-yor ham eshitilmadi. Nest bo'lib yurdi, o'tirdi. Birov bilan gaplashish uchun so'z topolmadi. So'z bor edi. Biroq uni eshitadigan dardkash, hasratkash do'st yo'q edi. Uning barcha azoblariga endi yolg'izlik dardi ham qo'shilgandi.

Sabohiddin uxlagan-uxlamaganini ham bilmaydi. Bir payt xuddi singlisi qichqirganday bo'ldi. U ko'zini ochdi. Jimlik. Yo'q, ana, Mashhura yana qichqirdi. Sabohiddin beixtiyor o'tov tomonga yugurdi. O'tov atrofida ikki-uch kishi uymalanib yurar, Sojida esa kiraverishda o'tirgan Mashhurani ovutmoqchi bo'lib turardi.

— Nima gap?

Mashhura akasining ovozini eshitib, yozilgan sochlarini bir qo'li bilan g'ijimlaganicha, ikkinchi qo'li bilan ichkarini ko'rsatdi.

— Ana, ana... — Uning tili gapga kelmay qolgan edi. Sabohiddin hech nimaga tushunmadi.

— Siz aytsangiz-chi, nima bo'ldi? — dedi Sojidaga qarab baqirib.

— Bilmadim, mullaka, bilmadim. Kuyov pochcha omonatlarini... — dedi Sojida titrab.

Sabohiddin otilib ichkari kirdi. Go'shanga uzilib tushgan, o'rinda Zayniddin qori qimirlamay yotar, jag'i tushgan, ko'zlari olaygan edi. Sabohiddin go'shanganing bir chetini yirtib uning jag'ini tang'ib bog'ladi. So'ng uning ochiq qolgan ko'zlarini yumib qo'ydi-da, tashqariga chiqdi.

SOZLANISH

Samovarxonada Dilmurodning ovozi eshilib, Rhaq nonini yeb bo'layotgan Devonadan ko'zini oldi. Devona choyini xo'rillatib ichgach, unga qarab tirjayib qo'ydi-da, pastga tushib ketdi. Dilmurod uning izidan bir oz qarab turdi. So'ng Rhaq-Mirzavoyning yoniga o'tirdi.

Shu payt shalag'i chiqayozgan yuk mashinasi yo'lni changitib kelib, guzarning o'rtasida to'xtadi. Peshonasini ro'molcha bilan tang'igan haydovchi pastga tushib, old g'ildirakni tepib ko'rди-da, «Hormang, Asqarali tog'a» deb baqirdi turgan yerida.

— Aravangni tomga chiqarib qo'ymading-da, — dedi Asqarali unga qarab. — Sal chetroqqa olsang bo'lmaydimi?

— G'am yemang, tog'a. Moshina qishloqda bitta bo'lgandan keyin ko'zga ko'rinib turovursin. Moshina yuzta bo'lsaykan, yo'lni to'sib qo'yding, deb tashvish cheksangiz, — u shunday deb Asqarali bilan ko'rishdi. — Qani, oling endi, bir xumorbosdi qilaylik.

Asqarali belbog'ini qayirib nosqovog'ini oldi-da, unga uzatdi.

— Nima balo, tuproqqa ag'anaganmisan, ko'zlaring ham ko'rinmay qolibdi?

— E, rais tindirmaydi. Moshina bo'lmasa nima qilardiykin, garangman. Omma tozza tentagimni chiqazyapti, — u shunday deb nosqovoqni kaftiga urib-urib qo'ydi-da, po'kagini ochib ichiga qarab turdi.

— Baqqa ber, — Asqarali undan nosqovoqni tortib oldi-da, kaftiga bir chekim nos tushirib, tilining tagiga tashladi. — Ma, po'kak, muncha qo'rqasan?

Zokirxo'ja indamay nosdan otdi-da, narigi so'riga borib o'tirdi.

— Shatta o'tirovurmay ketganini qarang, ke baqqa.

— Shoshib turibman, tog'a. Bir piyola choy ichsam, bas.

— Mirzavoy inim, choydan bormi? Avval choynakning ichini qarang, ilon-piloni yo'qmikin?

Bu gapga yondagi so'rida o'tirganlar kuldi. Zokirxo'ja teskari qarab oldi.

— Ilon desa, yetti chaqirimdan qochadi. Unga sari ulfatlari ham qo'yisha qolmaydi. Tunovinda nosqovoq ichiga ilondi bolasini solib berishibdi. Shundan beri nosqovoqdan cho'chiydi, — deb izoh berdi Asqarali.

— Chindan qo'rqasalar, bunday qo'pol hazil qilish kerakmas, — dedi Dilmurod.

— Gap uqtirib bo'ladimi? — dedi Zokirxo'ja o'tirgan joyidan. — Bularga mayna qilish bo'lsa, bas. E, o'rgildim...

— Bo'ldi, achchig'ing chiqmasin. O'zing jizillayvermasang, hech kim senga tegishmaydi. Ichingga ilon tashlab yuborganda ham indamay tur-chi, yana shunday hazil qilarmikin?

— Asqarali tog'a, bas endi, shu choyni ichaymi-yo'qmi?!

— Bo'pti, tavba qildim, ichovur. — Asqarali shunday deb Dilmurodning yoniga o'tirdi.

— So'z xo'p g'alati narsa-da. Bir so'z bilan bosh osmonga ham yetadi, jon bo'g'izga ham kelib qoladi.

— So'z buyumlarning o'lik soyasi bo'larkan. U xanjarga aylanib yurakka sanchilishi, hayot suvi bo'lib jon ato qilishi ham mumkin ekan. Qaysi bir shoir shunday degan, kimligi esimda yo'q, — dedi Dilmurod uning so'zini ma'qullab.

— Kim bo'lardi, hazrat Navoiy-da! «Hayratul-abror»da aytadilar. Emishki, so'z tartibsiz sochilib yotgan gavhar, shoir esa zargar. Gavharlarni o'rni-o'rniga qo'ya olsa, ajib g'azal bitiladi.

Agar Zokirxo'ja o'rnidan turmaganda, Asqaralining so'zi hali-beri tugamasdi.

— Asqarali tog'a, Markazga ketyapman, xizmatlar bormi?

— Xizmat yo'q, eson-omon borib kel.

— Rayonga tushadiganlar bo'lsa, olib ketay, — dedi Zokirxo'ja boshqalar eshitadigan qilib. Hech kimdan sado chiqmagach, mashinasi tomon yurdi. Kabina eshigini ochdi-yu, yana qarsillatib yopdi. Ovozini baralla qo'yib kimningdir onasini «o'qib» tashladi. O'ng tomondagi so'rida o'tirganlar kula boshlashdi. Zokirxo'ja: «He enangdi...» deb qayta-qayta so'kinganicha mashina atrofida aylanar, kabinaga yaqinlasha olmasdi. Boshqalar esa uning qilig'iga qarab qotib-qotib kulishardi.

— Obbo dayuslar-e, yana ilon tashlab qo'yishganga o'xshaydi, — dedi Asqarali o'zini kulgidan tutolmay.

Dilmurod o'rnidan turib mashina tomon yurdi. Kabinaga yaqinlashib ichkariga qaradi: haqiqatan ham ilon cho'zilib yotibdi. Dilmurod asta eshikni ochdi. Samovarxonadagilar kulgidan to'xtab unga tikilishdi. Dilmurod eshikni ochishga ochdi-yu, yuragiga qo'rquv yugurib, nima qilishni bilmay qoldi. «Ilonni bo'ynidan mahkam tutsa hech nima qilmaydi», degan gapni eslab, chaqqonlik bilan ilonni ushladi. Ilon qimirlamadi.

— Do'xtir aka, chaqib olmadimi? — dedi kimdir. Yana kulgi ko'tarildi. Dilmurod o'lik ilonni chetga uloqtirdi. Zokirxo'ja hamon so'kinganicha motorni o't oldirdi-da, gazni bosib mashinani yeldirib ketdi. Asqarali so'ridagi yigitlarni koyidi.

Dilmurod xijolat bo'lib yuqoriga chiqarini ham, chiqmasini ham bilmay turganda yo'g'on tolga suyanib o'tirgan Devonaga ko'zi tushdi. Devona unga o'ychan boqardi. Yo'q, o'ychan emas, uning nigohida qandaydir beparvolik, loqaydlik zohir edi. Dilmurod shu paytgacha Devonani bu ahvolda ko'rmagan edi.

Devona erinibgina o'rnidan turdi. Yo'l o'rtasida cho'zilib yotgan o'lik ilonning dumidan ushlab ko'tardi-da, tol tanasidagi kavakka tashladi. Keyin hech kimga e'tibor bermay mo'zorboshi tomon yurdi. Uning yo'l o'rtasidagi ilon o'ligini chetga olib qo'yishi Dilmurod qalbidagi umid chirog'ini yoqdi. Odatda Devona bir ishni bajargach, maqto'v kutibmi, tirjayib qo'yardi. Bu safar esa... Demak, unda o'zgarish boshlangan!

Dilmurodning bag'riga shodlik yeli ufurdi. Ammo bu shabadaga uchmay: «Hali erta, hali erta», deb o'zini bosdi. Uning xayolini Asqaralining: «Dilmurodjon, keling endi, choy sovuyapti», degan gapi bo'ldi.

Asqarali damlagan choy yarimlamay turib, guzarda to'qim urilmagan eshakka mingashib olgan bola ko'rindi. U pastga tushmay Asqaralini chaqirib: «Propesur do'xtir amakini rais buva yo'qlayaptilar. Tezda borar ekanlar», dedi-da, eshakning qorniga to'voni bilan niqtadi.

— Dayusning bolasini qarang, — dedi Asqarali kulib, — yugurdagi ham «egardan tushmaydi-ya!»

Dilmurod piyolani to'nkarib o'rnidan turdi.

Rais idora eshigi oldida kutib turgandi. Dilmurod bilan quyuq so'rashib ichkari boshladi.

— Tamakidan ham qutulib oldik. Kolxozning xazinasi picha qappayadigan bo'ldi. Kelasi yili aytganingizday qilib, emizikli ayollarni chiqarmaymiz. Endi do'xtir uka, odamlar har xil gap qilib yurishadi. Ularga ko'pam quloq solavermang. Men ertayu kech tinim bilmasdan, nima bo'lsa kolxozga bo'lsin, deyman. Ular esa...

— Mamarayim aka, ochig'ini aytsam xafa bo'lmaysizmi?

— Ie, nimaga xafa bo'laman. Yigit kishi dangal gapi bilan xotindan farq qiladi-da!

— Dangalini aytsam... Siz odamlarni ranjitish hisobiga ishlar ekansiz. Shuning uchun sizni yomon ko'rishadi.

— Yomon ko'rishadi? Nimaga bunday deyapsiz?

— O'zingiz buni bilmaysizmi?

— Meni yomon ko'rganlarning maqsadi manavi, — rais shunday deb stolni urib qo'ydi.

— Yo'q, unchalik emas. Bekorchi xavotirga berilar ekansiz.

— Bu xavotir emas, haqiqat. Men picha bo'sh qo'yay, keyin ko'rasiz.

— Siz bir umr rais bo'lib turmaysiz-ku? Vaqti kelib qariysiz, raislikni birorta yoshroq kishiga topshirishadi. O'shanda... O'zingiz ranjitgan odamlar orasida qanday yashaysiz?

Rais qo'l siltadi.

— Bir gap bo'lar, juda siz o'ylagandek emasmiz... Sizni chaqirganimning boisi, rayondan topshiriq berishgan, yordam qilmasangiz bo'lmaydi, Xudoga qarshi bir ma'ruza qilib berasiz. Odamlarimiz maktab muallimlarining gapini ko'p eshitishgan. Sizday olim odamning ma'ruzasi ta'sirliroq chiqadi. Xo'p desangiz, shu oqshom odamlarni to'play.

Rais majlisga kolxozning keksayu yoshini to'pladi. Guzarga odam sig'may ketdi. Choyxonadagi so'rilarini pastga olib tushib qariyalarga joy qilishdi. Maktabdagi uzun stoldan ikkitasini keltirib, tepasiga qizil mato yopdilar. Majlisni raisning o'zi ochib, dinning zarari haqida uzoq gapirdi. Keyin Dilmurodga so'z berdi. Dilmurod so'ridagi qariyalarga bir qarab olib, «hali ularni ranjitib qo'ymasam edi», deb ehtiyotlik bilan gap boshladi.

Avval dinning kelib chiqishi, aqidalar, urf-odatlar haqida shoshilmay gapirarkan, ora-sira qariyalarga ko'z qirini tashlab qo'yardi. Oqsoqollar uning so'zlarini diqqat bilan eshitar, ayrimlari esa norozi qiyofada bosh chayqashardi. Dilmurod buni sezar, norozilik sababini ham bilar edi.

Har qanday ma'ruzachi suhbat yakunida asosiy mavzuni o'zi shug'ullanadigan sohaga bog'lagani singari Dilmurod ham dinning zararli jihatlarini ruhiy kasalliklarga bog'lagan holda tugatmoqchi bo'ldi. U muddaoga endi ko'chganda, kimdir qattiq ovozda: «Mo'ylov jinni sizga nima uchun kerak bo'lib qoldi, shuni ham ayting», deb luqma tashladi.

G'ala-g'ovur boshlandi. Rais o'rnidan turib ovoz kelgan tomonga qaradi:

— Tek turinglar. Ichlaring qaynab ketayotgan bo'lsa, sovutib qo'yay.

— To'g'ri-da, — dedi yosh-yalanglar o'rtasida turgan yigit, — kelganlaridan beri Mo'ylov jinni bilan ovoralar. Nimagaligini bilishga qiziqyapmiz-da. Shunga ham do'g' urasizmi?

— Qiziqsang, idoraga kel, tushuntirib qo'yaman.

Dilmurod raisga qarab: «Qo'yavering», degan ishorani qildi.

Rais o'tirdi. Odamlar yana tinchishdi.

— Qiziqishingiz o'rinli. Mana shu majlisdan foydalanib maqsadimni tushuntirishga harakat qilaman. Men vrachman. Vazifam bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish. Mo'ylov jinni, eng avvalo odam shunday emasmi? U ham biz kabi esli-hushli bo'lgan. Eramizga qadar beshinchi asrda yashagan buyuk yunon donishmandi Gippokrat: «Bir tomondan lazzatlanish, shodlik, kulgi, o'yinlar, boshqa tomondan g'amginlik, ma'yuslik, norozilik, achinish miyada vujudga keladi. Shu tufayli biz tentak bo'lamiz, alahlaymiz, kechasi yoki kuppa-kunduzi vahimaga, qo'rquvga tushamiz», deydi. Jinnilik—odamzodda uchraydigan kasalliklarning biri. Bu, xastalik — Xudoning qahridan emas, odamning tashqi muhitdan ta'sirlanishi oqibati. Ba'zilar haddan tashqari ta'sirchan bo'ladi. Demak, ularda ruhiy kasallikka moyillik ham boshqalarga nisbatan kuchliroq. Biz ruhiy xastaliklarni bir necha turga bo'lib o'rganamiz, davolaymiz. Hozir sizlarga bu haqda gapirib o'tirmayman. Bu maxsus suhbat talab qiladi. Men savolingizga javob berish uchun muddaoga ko'chay: jinnilik — davolash mumkin bo'lgan kasalliklarga kiradi. Buni bizdan ilgari o'tgan ulug' alloma tabiblar yaxshi bilganlar. Bundan ming yil ilgari Bag'dod, Shomi Sharif, Damashq degan shaharlarda ruhiy kasalliklarni davolovchi shifoxonalar ochilgan. Lekin jinnilarga mehr emas, nafrat ko'zi bilan qarovchilar ham ko'p bo'lgan. Ilgari Yevropaning ko'p mamlakatlarida ruhiy bemorlarni jodugar, deb o'tga tashlaganlar. Dunyoda hech qachon qora kuchlar hukmron bo'lgan emas. Yomon niyatlarga qarshi yaxshi, yorug' maqsadni ko'zlagan allomalar kurashganlar. Pinel degan frantsiyalik olim ruhiy bemorlarga nafrat

bilan qaramay, ularni davolash shiorini olg'a surdi. Shu asosda bemorlar saqlanadigan qamoqxonalar shifoxonalarga aylantirildi. Yuz yil ilgari Kokolli degan ingliz olimi ruhiy bemorlarni kamsitmaslik masalasini ko'tardi. Bu olimlar, shunchaki, rahm-shafqatning quli sifatida ruhiy bemorlarni himoya qilmadilar. Ularning barcha xatti-harakatlari ilmiy asosga ega edi. Biz o'zimizni ana shu insonsevar olimlar ishining davomchilari deb bilamiz. Shuning uchun ham bemorlarga befarq qarolmaymiz.

Dilmurod ruhiy bemorlarni dindorlar tomo- nidan davolashga urinish yaxshi natijaga olib kelmasligini gapirib, so'zini tugatdi. Odamlar raisdan hayiqishdimi, yo hamma gapga yaxshi tushunishdimi, yoki aksincha bo'ldimi, har holda savol berishmadi. Rais xo'jalik ishlariga oid masalada yana nutq so'zlagach, majlis yopildi. Dilmurod TET ni sinab ko'rayotganini atayin tilga olmadi. Avvalo uni tushuntirish ko'p vaqt talab etardi. Qolaversa, hozircha isbotlab bo'lmagan taxminlarni ovoza qilishning foydasi ham yo'q edi...

Majlisga yig'ilganlar tarqalishdi. Faqat eng oldidagi so'rida o'tirgan olti qariya o'rnidan jilmadi. Rhaq-Mirzavoy ularning maqsadini darrov angladi. Dilmurodga yaqinlashib past ovozda «jangga hozirlaning», dedi-da, o'zi choy damlagani yuqoriga ko'tarildi. Dilmurod uning gapini tuzukroq fahmlashga ulgurmay qariyalarning eng ozg'ini uni chaqirdi:

— Prapesur o'g'lim, biz bilan bir piyola choy iching...

Dilmurod qulluq qilib kelib so'rining bir chetiga omonat o'tirdi.

— So'zlaringizni jon qulog'imiz bilan eshitdik, xo'p dono yigit ekansiz, otangizga balli, — dedi ozg'in qariya. Qolganlar bosh irg'ab uning gapini tasdiqlashdi. So'rida bu qariyaga nisbatan yoshi ulug'roq oqsoqollar ham o'tirishardi. Dilmurod ularning sukut saqlashidan bu qariyaning davra ahli orasida alohida mavqega ega ekanini sezdi. Rhaq-Mirzavoy keltirgan choyni soqoli ko'ksiga tushgan qariya olib, uch marta qaytardi. O'zi bir xo'plamgina quyib ichgach, piyolaga ikki xo'plam choy quyib, ozg'in qariyaga uzatdi.

— Ko'p bilimli yigit ekansiz, o'g'lim, otangizga rahmat. Ammo ba'zan o'ylamay gapirib yuborish odatingiz bor ekan. Hali noo'rin so'zlarni ham aytib yubordingiz, nafas yutib indamadik. Endi, nasihat bizdan lozim, o'g'lim. Musulmon dini dinlar ichida eng pokizasi. Unga tosh otish yaramaydi. Dinni nazarga ilmasligingiz chakki.

— Otaxon, xafa bo'lmangu, ammo zamonaviy fan nazarga ilmaslik u yoqda tursin, dinni zararli deb hisoblaydi.

— Nimasi zararli ekan, qani bizga bir tushuntirib bering-chi?

— Din bilan bog'liq hamma narsalar zararli.

— Shundan qay birlari, aniqroq aytovring.

— Masalan, odamlarni qilgan gunohlari uchun qo'rqitish, ularni yolg'on umid bilan ushlab turish, Xudo yaratgan turli g'aroyibotlar bilan boshlarini aylantirish... Bu «g'aroyibotlar» borgan sayin fan yutuqlari oldida tiz cho'kyapti.

— O'g'lim, so'zingizdan ma'lum bo'ldiki, dinning zararini o'zingiz ham durust bilmaysiz.

— Nimaga endi...

— Andak sabr qiling. Gaplaringizni yaxshigina uqdim. Aslida sizga do'ppim yoqinqiramabdi, siz esa meni butunicha yomonotliqqa chiqardingiz. Fanimiz taraqqiy etyapti, dedingiz. Xudo hohlasa, bundan ham yuksakroq kamolga yetadi. Din peshvolari hech mahal bunga shak keltirmaganlar. Chunki ilm Olloh tomonidan yaratilgan g'aroyibotlarni bandalarga tushuntirib beradi. Men ham omi emasman. Ba'zi narsalardan xabarim bor. Qadimgi allomalar avval Xudoning nomini tilga olib, keyin ish boshlaganlar. Hozirgilar ham shunday qilishsa, ajab ish bo'lardi.

— Bizda bunday taxminga muhtojlik yo'q.

— Qadimning eng buyuk allomalari Xudoga ishonganlar-ku? Ilm bilan din kelishib yashashi mumkin.

— Xudoga ishonuvchi ayrim olimlar hali fan degan gap emas. Umuman, ular bu sohada yanglishgandirlar, yoki kelishishga majbur bo'lgandirlar. Din hamisha fan yo'lga to'g'anoq bo'lib kelgan. Juda ko'p olimlarning quvg'in qilinganini, o'ldirilganini bilsangiz kerak?

— Jaholat botqog'idagi ayrim odamlar — hali din emas. Siz ilm va din olamini bir butun olib qarshi qo'yapsiz, shekilli? Shunday olib qarasak, musulmon dini ilmni sira inkor qilmaydi. Siz aytgan quvg'inlar, o'ldirishlar nasroniy dini tarixida bo'lgan. Islom dini o'limga hukm qilgan bironta olimni ayting-chi? Aytolmaysiz. Sizlarning piringiz bo'lmish Ar Roziy, ibn Sinolar ham musulmon edilar. Ularni shariat «jodugar» deb hukm qilganini eshitganmisiz? Ha, eshitmagansiz. Qur'oni karimning birinchi nozil bo'lgan surasi qaysi muborak so'z bilan boshlanadi? Bilmasangiz bilib oling: Alaq surasining avvalida, asta'izubillahi: «Iqra' bismi robbikal lazi xolaq. Xolaqal insana min alaq. Iqra va robbukal akram», sodoqollohul aziym, deyilgan. Bu degani «Butun borliqni yaratgan zot bo'lmish Robbingiz nomi bilan o'qing. U Insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Robbingiz karamlidir». Xo'sh, o'qishga da'vat etuvchi din ilmga dushman, jamiyatga zararli bo'larmikin?

— Qur'onda aytilgan bo'lishi mumkin. Amalga oshirilmagan gaplar kimga kerak?

— O'g'lim, donolik yaxshi, omma muqaddas oyatlarni nazarga ilmay, qattiq gapirishingiz chakki. Darvoqe, o'zingiz Qur'on bilan tanishmisiz?

Dilmurod bunday savolni kutmagan edi. Javob berishga taraddudlanib qoldi.

— Tanish emassiz, ochig'ini aytovring. Shunchaki inkor etish oson. Lekin mohiyatini bilmay turib rad qilmoq esa gunoh sanaladi. Siz avvalo din bilan bid'at va xurofotlarni ajratib oling. Siz aytgan bekorchi urf-odatlar din emas, keraksiz bid'at va xurofotdir. Men Marg'ilonda siz kabi ziyoli bir yigitning katta yig'ilishdagi so'zlarini tasodifan eshitib qoldim. Azamat tozza bir soat gapirib, qur'onni yerga bulg'adi. So'ng men unga hozirgi savolni berdim. «Qur'onni sizdan ham yaxshi bilaman», deb javob qildi. Shunda men «To'qson oltinchi suraning oltinchi, yettinchi oyatlarida nimalar deyilgan?» deb so'roqqa tutdim. Bu hozir eshitganingiz Alaq surasi, oyatlar esa insonning qorni to'yib, badavlat bo'lgach, takabburlashib tug'yonga ketishi haqida edi. Yigit lom-mim deyolmadi. Oxiri Qur'onni bilmasligini tan oldi. Bilmay turib tosh otgani uchun sharmanda bo'ldi.

— Otaxon, siz-ku Qur'onni bilar ekansiz, lekin hamma mullalarni ham shunday deb bo'lmaydi-da.

— Surishtiraman desangiz, bu sizlarda ham bor gap, o'g'lim. Har holda, din jamiyatning beshigini tebratib kelgan katta kuch. Sizning bosh ko'targaningizga hali hech qancha vaqt bo'lmadi. Katta chinorga otilgan tosh qaytib tushaveradi.

— Biz din ojizlarning ishi, deb bilamiz. Bunday kasallik bilan kurashib, uni davolash kerak.

— Yanglishyapsiz, o'g'lim. Din ojizlarning emas, donolarning ishi. Xudoga ishonuvchi odam manmanlikdan, birovga zulm qilishdan xoli bo'ladi. Bu birlamchi, ikkilamchi din kishilarning ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sizlar esa bu qudratdan mahrumsiz. Dinni mutlaqo inkor etmay, kelishuvingiz sizga faqat foyda beradi.

— Yaxshi, otaxon, kelishdik ham deylik. Biz bir tomonda odam Xudoning g'aroyiboti emas, tabiatning bir bo'lagi desagu, siz boshqa tomondan tabiatni Olloh yaratgan, deb tursangiz, bu yog'idan qanday naf unadi?

— Chindan ham tabiatni Robbimiz Olloh yaratgan-da!

— Yaxshi, tabiatni Xudo yaratgan, deylik. Xudoni kim yaratgan? Yo'qdan bor bo'lganmi?

— Xo'p, tabiatni Xudo yaratmagan ekan, gapingizni ma'qul deylik. Xo'sh, odamni-chi? Unda odamni kim yaratgan?

— Odam tabiatning qonuniy rivojlanishi mahsuli.

— Ba'zilar maymundan paydo bo'lgan deyishadi shekilli? — qariya shunday deb ayyorona jilmaydi.

— To'g'ri, odam maymundan paydo bo'lgan, — dedi Dilmurod kinoyani fahmlamay.

Ozg'in qariya kuldi. Unga boshqalar ham qo'shildi. Qariya Rhaq-Mirzavoy keltirib qo'ygan likobchadagi mayizdan olib og'ziga tashladi.

— Nimaga kulyapsiz?

— Aybga buyurmasangiz, bir gap keldi, o'g'lim: Sizning ota avlodingiz maymunmi yo ona avlodingizmi?— bu gapdan keyin oqsoqollar baralla kulib yuborishdi. Sal narida bahsni diqqat bilan eshitayotgan Rhaq-Mirzavoy ham, Asqarali ham kulgidan o'zlarini tiyolmadilar.

— Otaxon, bu gapingiz yangi emas, — dedi Dilmurod ham kulgiga qo'shilib. — Mana shu nazariyani yaratgan olimga ham shu savolni berishgan. U kishi: «Men avlodimning maymundan kelib chiqqani uchun qayg'urmayman. Ammo hali ham ikki oyoqda yuruvchi ongsiz, nodon maymunlar borligidan afsuslanaman», deb javob qaytargan ekanlar.

Qariyaning tanglayiga mayiz po'sti yopishdimi, yo qalqib ketdimi, yo Dilmurodning gapi ta'sir qildimi, bexosdan yo'tal tutdi. Oqsoqol choydan quyib uzatdi. Qariyaning yo'tali bosilgach, Dilmurod gapini davom ettirdi:

— Olimning shogirdi esa: «Men o'z hayotini xavf ostiga qo'yib poda qorovulini qutqarish maqsadida yovuz dushmanga tashlangan maymun avlodi bo'lishni begunoh g'animlarni azoblab lazzat topuvchi, qonli qurbonliklar qiluvchi, o'z farzandlarini o'ldiruvchi, xotinlarini cho'ri o'rnida ko'rib muomala qiluvchi, hech bir uyati bo'lmagan holda Xudoga sig'inuvchilar avlodiga mansub bo'lishdan ko'ra yuqoriroq qo'yaman!» degan ekan. Otaxon, uzr, bu sizga taalluqli emas. Yuz yil ilgarigi gaplar bilan savolingizga javob qildim. Meningcha, bundan boshqacharoq javob bo'lmasa kerak...

— Chindan ham javoblari o'tkir ekan, omma gapni kavlashtirsang, yana bir savol chiqyapti. Xo'sh, nima uchun hozirgi maymunlar odamga aylanmaydi?

— Otaxon bu bir kun, ikki kunda bo'ladigan gap emas. Tabiatning qonuniy rivojlanishi natijasida amalga oshadigan jarayon. Bunga balki yuz ming yil, balki million yil talab etilar. Ikki oyoqli «maymun»larni odam qilish qiyinu siz to'rt oyoqligini aytasiz.

Dilmurodning bu gapidan keyin yana kulgi ko'tarildi. Qariyalar «to'g'ri-to'g'ri», deb bosh silkib ma'qullashdi. Bundan foydalangan Dilmurod qo'qqis boshlagan samimiy bahsni o'z foydasiga hal qilish uchun ozg'in qariyani bexos savolga tutdi:

— Otaxon, nima uchun Xudo Muhammad payg'ambardan so'ng yerga elchi yubormadi? Nima uchun Qur'on Xudoning oxirgi kitobi bo'lib qoldi?

— Yangisiga hojat yo'q-da. Islom dini oxir zamon dini, Muhammad alayhissalom oxir zamon payg'ambaridir.

— Agar dinning talablari hisobga olinsa, hojat borgan o'xshaydi. Axir, odamlar borgan sari gumroh bo'lib ketyapti-ku, nahotki, Xudo bunga befarq qarasa?

— Propesur o'g'lim, siz andak quyushqondan chiqib ketdingiz. Nafsilamrini aytganda, men haligi ma'ruzangizdan keyin sizni insofga chaqirib qo'ymoqchi edim. Afsuski, insofga yurmas ekansiz. Har holda musulmonchilikka shak keltirmaganingiz ma'qul. Bir tanangizga o'ylab ko'ring. Din ilmini ham o'rganing. Ana shunda bahsga kirishsangiz yarashadi. — Qariya shunday deb hamsubhatlariga qaradi. Ular bosh iring'ab ma'qul ishorasini qilgach, fotihaga qo'l ochdi. Oqsoqollar ketgach, Asqarali bu qariyaning O'shdagi katta masjidda imom ekani, bu yerga mehmon bo'lib kelganini aytdi. Dilmurod dinning mohiyatini bilmay turib bahslashganidan izza chekdi. To'g'ri-da, biror-bir

savodsiz kishi psixiatriyaning asoslari bo'yicha Dilmurod bilan bahs qilsa, unga nima deb baho berardi? Dilmurodning ham ko'ngli xira bo'lib Rhaq-Mirzavoy bilan xayrlashdi-da, Asqaraliga qo'shilib uyga qaytdi.

Rhaq Dilmurodning majlisdagi gaplarini ham, qariya bilan qilgan bahsini ham eshitib, Sabohiddinni ko'z oldiga keltirdi. Sabohiddin ham jamiyatni faqat din insofga keltiradi, der edi.

Yangi jamiyat yangi yo'l tanlagan bo'lsa-da, qarashlar kurashi so'nmaabdi. Yerda eski xotiralardan birdan qutulish qiyin. Tangda bo'lak gap edi. Ular hozir Rhaqning Yer sayyorasi haqidagi dastlabki taassurotlarini unutishgan. Uning kundaligi tarix javoniga tushgan.

Bugun-erta Rhaqning kuni bitsa, uni kim eslaydi? Agar Yerda jon bersa, «Mirzavoy degan bir odamovi do'xtir bor edi», deb yodga olib turishar. Qariyalardan biri ruhiga qur'on bag'ishlar. Tangda bo'lsa-chi? Kuydirilib, kuli ustiga tuproq tortilishi bilan hamma narsa tugaydi. Hatto Fid ham eslamay qo'yadi. Chunki uning boshida olam-olam tashvish. Bordi-yu, undan avval Fid o'lsa-chi? Uni Rhaqning o'zi eslaydimi?

Rhaq do'stining qiyofasini ko'z oldiga keltirib seskandi. «Yo'q, o'lmay tursin. Men bilan yana kim dillashadi?»

Rhaq mana shu o'ylar bilan yotib uxlab qoldi.

Dilmurod esa anchagacha uxlay olmadi. Ko'zni yumdi deguncha ilonni chetga olib qo'ygan Devona gavdalanaverardi. O'rnidan turib o'tirdi, hovliga chiqdi. Soy bo'yiga tushdi. Qaytib kirib yotdi. Ko'zini yumdi: o'sha hol takrorlandi. Yana o'rnidan turdi. Hovliga chiqdi-da, beixtiyor qabriston tomon yurdi.

Hujra eshigi berk, ammo ichkaridan Devonaning ovozi kelib turardi. Dilmurod eshikka qo'l yubor-di-yu, lekin ichkari kirish fikridan qaytib, Devonaning uzuq-yuluq gaplariga quloq soldi:

— Norxo'ja... qo'rboshi... Norxo'ja... Sojida, ana keldi! Keldi!

— Uvv!..

Birdan Devona jonholatda qichqirib yubordi. Dilmurod beixtiyor ichkariga otilib kirdi. G'ira-shirada devorga biqinib dir-dir titrayotgan Devona xuddi ustiga ajal bostirib kelayotganday yuzini panjalari bilan to'sib, baqira boshladi:

— Begim, begim, tavba qildim... Aka, qoching! Uvv...

Dilmurod avvaliga qimir etmay turdi. Keyin iziga qaytib eshikni yopdi.

Ichkaridan Devonaning kulgisi eshitildi.

Keyin u yig'ladi.

So'ng jimib qoldi.

Dilmurod nima qilarini bilmadi. Chunki Devonaning bu qiligi uning uchun yangilik edi. Devona nimalarnidir eslayapti. Agar ilgari bu nomlarni tilga olmagan bo'lsa, demak, TET kuchini ko'rsatyapti: Devonaning miyasi sozlana boshlagan...

Bir haftadan so'ng Devonani uchinchi marta charm qoplagan taxta so'ri tomon boshlashdi. Devona bu safar ham indamay kirib yotdi-da, ko'zlarini chirt yumib oldi. Muolaja tugagandan keyin ham qimirlamadi. Dilmurod Mirzavoy bilan Saboxonni imlab tashqariga chiqdi.

— Saboxon, siz Haqberdi buvadan bir xabar olib keling, — dedi Dilmurod tol soyasidagi so'riga o'tirar ekan, — bugun o'zlari kelmoqchi edilar, daraklari bo'lmayapti.

Saboxon ketgach, Dilmurod Rhaqqa yuzlandi.

— Mirzavoy aka, Devonada o'zgarish boshlangan, sezyapsizmi?

— Picha o'zgardi shekilli?

— Boshqalar ham sezishganmikin?

— Nima edi?

- Devona sal esini tanisa, shov-shuv bo'lib ketarmikin, deyman?
- Qo'rqyapsizmi? — dedi Rhaq kulib. — Mehnat qilgandan keyin shuhrat yukini ham ko'tarasiz-da...
- Juda ichim kuyib ketdi. Men bir choy ichib kelay, siz qarab turing. Yotaversin, indamang.
- Dilmurod shunday deb chiqib ketdi. Rhaq esa derazaga yaqinroq borib Devonaga tikildi. Shu asnoda unga Sabohiddinning keyingi hayoti ayon bo'ldi.

«POK» NIYAT

Sabohiddin, go'shangada cho'zilib yotgan Zayniddin qorining jag'ini tang'igach, tashqariga chiqdi-yu, shoshilib kelayotgan Norxo'jaga ro'para bo'ldi. Qo'rboshi uning qarshisida to'xtamay, nimadir deb pichirlab o'tovga kirib ketdi. Dam o'tmay iziga qaytdida, Sabohiddinga yuzlandi.

— Mulla Sabohiddin, yo'lga hozirlaning. Zayniddin qorini O'shga qo'yamiz. Men asrga yetib boraman. Dev, otlarni egarla. O'zing Xoliqberdi to'ramga xabar qil. Shilpiqni O'shga jo'nat. Barvaqtroq xabar yetkazsin.

Norxo'ja «ma'qulmi?» deganday Sabohiddinga nigohini qadadi. Sabohiddin qo'lini ko'ksiga qo'ygach, u: «Bevaqt o'limdan Tangrining o'zi saqlasin», deb oq o'tov tomonga yurdi.

Sabohiddin: «Qo'rboshi hozir hammani burovga oladi», deb o'ylagan edi. Uning xotirjamligidan hayratga tushib, o'tovdan ikki-uch qadam narida turgan singlisiga qaradi:

- Bo'ldi, o'zingizni bosing, ko'pam vahmga berilmang, — dedi uni ovutish maqsadida.
- Qori domlam jonlari uzilmay turib biron narsa demadilarmi?
- Mashhura o'ylanib qoldi.
- Dedilar... dedilar, shekilli.
- Nima dedilar?
- Yaxshi eshitmadim. Oxirida «Xudo urdi!» dedilar.
- Jon berishda qiynaldilarmi?
- Ha. Avval «yuragim kuyyapti», dedilar. Choy so'radilar. Choyni ichib battar besaranjom bo'ldilar.
- Nimaga odam chaqirmadingiz?
- Qo'rqdim... Keyin yana choy berdim. Bir-ikki qultum ichib, ko'zlari olaydi...
- Choyni kim olib kirgan edi?
- Choynimi? Anavi..
- Yuraklari kuymasdan ilgari ham ichgan edilarmi?
- Ha, bir choynakni bo'shatganlar.
- Choydan qolganmi?
- Keyingisining yarmi shunday turibdi.
- Sabohiddinga voqea ravshanlashganday bo'ldi. Ichkariga kirib choynak-piyolani oldida, Norxo'janing huzuriga qarab ketdi. Lekin: «Qo'rboshi uxlayapti», deb uni ichkariga qo'ymadilar. Sabohiddin nima qilarini bilmay turganda, Norxo'janing o'zi chiqib keldi.

— Ha, nima gap? — dedi u norozi ohangda.

Sabohiddin bor gapni bayon qilib, choynak-piyolani uzatdi.

- Ol, — dedi Norxo'ja soqchiga imo qilib. Soqchi choynak-piyolani ichkari olib kirgach, Sabohiddinga qaradi: — Siz ketavering, arava tayyor bo'lgandir. Men gunohkorni o'zim topaman.

Darhaqiqat, hozir aybdorni surishtiradigan vaqt emasdi. Sabohiddin bo'zlayotgan singlisi bilan xayrlashib, aravaga ergashdi. Ancha yergacha otni yetaklab piyoda bordi. Ikki dovon oshilgandan keyingina otiga mindi.

Norxo'ja aytganiga amal qilib, asrga yetib keldi. Janozaning boshida o'zi bo'ldi. Qabristondan Zayniddin qorining uyiga kelib, tilovat qildi-da, iziga qaytdi. Ketar mahalida Sabohiddinni bir chetga tortib: «Siz yigirmalarini o'tkazib, so'ng qaytasiz, buni sarf-xarajatga ishlating», deb xaltachada pul uzatdi.

Keldi-ketdi bilan bo'lib Zayniddin qorining o'g'illari bexos o'limning sababini surishtirishmadi. Sabohiddin ertami-kechmi hisob berishga majbur ekanini bilardi. Norxo'ja shuning uchun ham uni qoldirib ketdi. Axir qori uning singlisiga uylanib, go'shangada jon berdi-ku? Norxo'ja, qori aytganiday, ayyor ekan. Sabohiddin buni janozadan keyin to'la his qildi. Ana shunday odamning millat otasi bo'lmoqchi ekanini eslab, g'azabdan vujudi yondi. Bugun u o'zining yigitlariga hukm o'tkazadi. Ertaga Xoliqberdi to'rani yamlab, hokimlik qulochini kengroq yoyadi. Keyin boshqa qo'rboshilarni bo'ysundiradi. Millat otasi bo'ladi. Yurt esa xaroblikka yuz tutadi. Xalqning boshi qirg'indan chiqmaydi. U millat, millat deb, va'z aytaveribdi-yu, odamlarning ahvol-ruhiyasiga qaramabdi. Vijdon bilan mal'unlikning bir vujudida yashashini hisobga olmabdi. Odamning jig'ildoni uyg'onsa, eng avvalo vijdonini kemiradi. G'azab bosh ko'tarsa, mehr ketadi. Mal'unlik qad rostlasa, yaxshilik chirydi. Sabohiddin buni akasi Sibir qilinganidayoq anglashi lozim edi. Ammo u insofga ishonib, sarobni orzu qilib yuraverdi. Nihoyat, Norxo'janing xatti-harakatlarini fikr tarozisidan o'tkazgach, bu achchiq haqiqatni tan olib, yuragi larzaga keldi. Qalbida uyg'ongan nolayu afsuslar bag'rini ayovsiz tildi. Endi u arosatga qadam qo'yib bo'lgan: na qaytishi, na ilgarilashi mumkin. G'isht qolipdan ko'chgan, qilich qinidan sug'urilgan. Qarorgohda Mashhura qon yig'lab yotibdi. Norxo'ja butun aybni uning bo'yniga qo'yadi. Sojidaga tegmaydi. Sojida... Bunchalar rasvo bo'lmasa bu xotin. Kelib-kelib Norxo'jaga xizmat qiladimi, alamini shu norasidadan oladimi? Yo'q, uning uchun Mashhura bir vosita. Mashhura orqali u Sabohiddindan, Jamoliddindan o'chini oldi. Ha, makkor xotin! Hali qarab tur, Xudo seni it azobiga solmasami...

Sabohiddin yursa ham, tursa ham shu o'ylar hukmida ezildi. Ertasiga, peshin namozi paytida, Xoliqberdi to'ra yetib keldi-yu, bu azobdan bir oz xoli bo'ldi.

Xoliqberdi to'ra namozdan so'ng qabristonga borib tilovat qildi. Mozoriston atrofidagi yetim-esirlarga sadaqa ulashdi. Keyin Sabohiddinni yoniga olib shahar oraladi. Sabohiddin yo'l-yo'lakay unga bo'lgan voqeani aytib berdi. Xoliqberdi to'ra uning gaplarini indamay eshitdi. Anchagina sukutda qoldi.

— Gunohi mening bo'ynimda, — dedi u nihoyat siniq ovoz bilan. — Bila turib o'limga yuboribman. Afsus chekkan bilan murda tirilmaydi. Endi o'zingizni o'ylang. Jamol sizdan rizo emas. Sizni deb men bilan xafalashdi. Bir jihatdan u haq. Aka bir yon, uka bir yon bo'lgani maqbul emas. Ixtiyoringiz o'zingizda. Istasangiz, uyingizga qayting. Bugun-erta O'shni sho'rolarga topshiramiz. Ular Andijonda katta kuch to'plashyapti. Bas kelishimiz qiyinga o'xshaydi.

— Singlim Norxo'janing qo'lida-ku?

— Ha, darvoqe, avval Norning oldiga qaytar ekansiz. O'sha yerda bo'la turing. Hech bir ishga aralashmang. Sal tinchib olganimizdan so'ng, sizni huzurimga chaqirtiraman.

Ular shaharni oralab, bolaxonali uy qarshisida to'xtashdi. Ichkaridan bolalarning ovozi eshilib turardi. Xoliqberdi to'ra otdan tushib ichkariga kirdi. Boshqalar ham unga ergashishdi. Eshik tepasidagi: «Sho'rolar yetimxonasi», degan lavhaga ko'zi tushib, Sabohiddin ajablandi.

Xoliqberdi to'ra ichkari kirishi bilan hovli tinchib qoldi. Soch qo'ygan qiltiriq kishi to'ra bilan qo'shqo'llab so'rashdi.

— Xo'sh, mudir afandi, ahvollar durustmi? Bolalarni zoriqtirmayapsizmi?

— Kam-ko'stimiz yo'q, to'ram.

— Qani, bolalarni saflang-chi. Nimalarga o'rgatayotibsiz?

Mudir o'ttizga yaqin bolani darrov safladi. Orasta kiyingan bolalardan besh-oltitasi qaddini g'oz tutib she'r aytdi. She'rlari inqilobiy ruhda bo'lsa ham, Xoliqberdi to'ra ularni bo'lmay eshitdi. Keyin o'rnidan turib mudirga ikki xalta pul berdi.

— Bularni zoriqtirmang, — dedi qat'iy ohangda. So'ng bolalarga yuzlandi. — Sizlar yaxshi o'qinglar. O'qishdan boshqa hech narsani o'ylamanglar. Zamon ham tinchib ketadi. Kelajakda yurtga o'zlaring hokimlik qilasizlar. O'qimas ekansizlar, sizlardan el rozi bo'lmaydi.

Xoliqberdi to'ra shunday deb iziga qaytdi.

— Ha, mulla, sho'rolarning yetimxonasiga muruvvat ko'rsatganimga hayronsiz-a? — dedi u otga minar chog'ida. Keyin javob kutmay gapini davom ettirdi: — Bolalarda gunoh yo'q. Kattalar bir-birining go'shtini yeyapti. Bu ham johillik oqibati. Urushda biz yengsak ham, sho'rolar yengsa ham, bari bir, erta shu bolalarniki. O'qisa, yaxshi-yomonni o'zi ajratib oladi.

— Aytgan she'rlari boshqacha-ku?

— Ha, sizga qur'ondan suralar o'qib bersinmi?— Xoliqberdi to'ra kuldi. — Yo'q, mulla, endi yangicha savod chiqarish kerak. Zayniddin qorini shuning uchun yaxshi ko'rardim.

Xoliqberdi to'ra o'ttizga yaqin yigiti bilan oqshomga yaqin O'shdan chiqib ketdi. Sabohiddin, uning buyrug'iga ko'ra, ertasiga bomdoddan so'ng yo'lga tushdi. Bir kungina Novqatga qo'nib, onasini yo'qladi. Sabohiddinga uylari yetimchadek mung'ayib ko'rindi. Bir hafta ichida onasi ozib, ko'zlari kirtayib qolibdi. Darmoni yo'qligidan hovliga ham qarolmagan ko'rinadi-rayhonlarni zarpechak o'rabdi. Sabohiddin onasiga bo'lgan voqeani ma'lum qilib o'tirmadi. Akasining ozod etilganini bildirib, Mashhurani shu ikki-uch kun ichida jo'natib yuborajagini aytdi-da, yo'lga otlandi. Ona yana g'amini ichiga yutib qolaverdi.

Norxo'ja Sabohiddinning barvaqt qaytganidan ajablanmadi. O'tovga ta'zim bilan kirgan Sabohiddinning salomiga sovuqqina alik olib poygakdan joy ko'rsatdi.

— Xoliqberdi meni xushlamay yurardi. Endi ko'rarga ko'zi qolmadi. Buning boisini fahmlagandirsiz?— dedi nigohini qadab. — Uning nazarida qorini men o'ldirtirganman! U hech qachon singilchangizni ayblamaydi.

— Axir chindan ham singlim...

— Kim bo'lmasa?! — Norxo'ja shunday deb baqirib yubordi. — Qani, ayting, kim? Sojida mi? U ham bo'yniga olmadi. Choynakda qolgan choyni ichirdim. Balo ham urmadi. Xo'sh? Balki bu to'raning nayrangidir? Yashirmay aytovuring, gunohingizdan o'taman.

Sabohiddin bu gapni eshitib, garangsib qoldi. Tili aylanmadi.

— Nayrang? Qanaqa nayrang, so'zingizni anglamadim? — dedi g'udranib.

— Tushunmadingizmi? — dedi Norxo'ja piching bilan. — Xoliqberdi qorini o'ldirishni sizga topshirmaganmide?

— Yo, Oллоh! — Sabohiddin shunday deb yoqa ushladi. — O'limdan xabarim bor, ammo bu gap yetti uxlab tushimga ham kirmagan. Qori domlamning o'limlari to'ramga nima uchun kerak ekan? Axir... to'y sizning niyatingiz bilan bo'ldi-ku?

Bu gapdan keyin Norxo'ja sal pasaydi. Darvoqe, Sabohiddinga ayb to'qiyotganda bunisini o'ylamagan ekan. Endi unga qarshi so'z aytolmay yumshashga majbur bo'ldi.

— Sojida aybni bo'yniga olmasa ham uni jazoga buyurdim.

— O'limgami?

— Yo'q, nimaga endi? — Norxo'ja zaharxandalik bilan kuldi. — Bizni bu darajada bemehr deb o'ylamang. Biz, odatimiz, bo'yicha, beozorlik liboslarini kiyganmiz, omma lozim bo'lsa, dushman qonidan tepaliklarni sug'oramiz. Fikrimcha, siz dushman emassiz. Shuning uchun akangizning gunohidan o'tdik. Singlingizni yigitlar qo'lga nikohsiz berilishidan saqlab qoldik. Sizga bo'lgan hurmatimiz bizni bu yo'ldan tiydi. Shu hurmat haqqi, yana bir karra marhamatimizni darig' tutmay, singlingizni emas, aybsiz juvonn kaltaklatib, gunohini bo'ynimga oldim. Axir bandalariga besabab jazo berilsa, Ollohning g'azabi keladi, shunday emasmi? Domlangizga ayting, singlingizni olib, Novqatga qaytsin.

Sabohiddin yana ta'zim bilan chiqdi.

Norxo'ja hali oldinda jiddiy olishuvlar borligini sezardi. Shuning uchun ham beaql Sultonmuroddan qutulib, itoatkor bandaga aylangan Sabohiddinning xizmatiga umidvor edi. Xudo xohlasa, lak-lak muridlari bor eshonlardan biri Norxo'ja qarorgohiga kirib keladi. O'shanda mulla yigitning ham bahridan o'tadi-qo'yadi!

Sabohiddin o'tovdan chiqqach ham, singlisini kuzatib qo'ygandan keyin ham o'ylab o'yiga yetolmadi: «Qori aka Norxo'jani qimorboz, deb so'kardilar. Odatda qimorbozlar ham ayyor, ham mard bo'ladilar. Hozir qo'rboshining mardligi tutdimi yo yangi hiyla ishlatmoqchimi? Nima uchun menga yaxshilik qilmoqchi. Mendan qanday naf ko'rmoqchi? Qori akamning o'limlarida kim aybdor? Sojida ijrochi xolos. U choyga zahar qo'shilganini bilmagan bo'lishi ham mumkin?»

Norxo'ja bu kech bazmga izn bermadi. Shuning uchun ham qarorgohga barvaqt osoyishtalik cho'kdi. Sabohiddin oq o'tovga qo'rboshining yaqinlari to'planganini bilib: «Bir gap borga o'xshaydi», deb qo'ydi. Oq o'tovdan odamlar chiqib ketgach, Norxo'ja uni ham yo'qlatdi.

— Ertaga yigitlarim bilan safarga chiqaman. Xoliqberdi to'ra yordam so'rayapti. Sho'rolar O'sh bilan ovora bo'lib turganda Namanganni olmoqchi. Do'ppisi sal torroq. Bir yarim ming yigit so'rattiribdi. Uni amiralmuslimin, deb fotihaga qo'l ochganmiz. Istagini bajo keltirishga majburmiz. Xudo xohlasa, Namanganda qishlab, Navro'zni Qo'qonda qarshilaymiz.

— Inshoolloh.

— Bomdoddan so'ng yo'lga chiqamiz. Beklarimning ruhiga madad beradigan va'z ayting.

— Xo'p bo'ladi, taqsir.

— Sizni shu yerda qoldiramiz. Xudo madadkor bo'lib Namanganni olsak, orqamizdan tushib borasiz.

Sultonmurod oq o'tovga chorlanmay qo'yganidan xavotirda edi. Izdihomdan so'ng yo'qlov bo'lganda bir oz cho'chigan, ammo yuzidan kulgini yo'qotmagan holda oq o'tovga kirdi.

— Taqsirim, ko'rinmaydilar? — dedi Norxo'ja piching bilan.

— Soyai-davrlatingizda...

Sultonmurodning gapi chala qoldi.

— Zayniddin qorining o'limidan kuyib ketganga o'xshaysiz? Rangingizni ham sal oldirib qo'yibsiz. Ishqilib, Xudo asrasin sizni.

— Duolaringiz, inshoolloh, ijobat bo'lsin.

— Taqsirim, qoriga kim zahar beribdi ekan, bilmaysizmi?

— O'limdan xabarim bor...

— Bilmaysizmi?

— Aybdorni jazoladingiz-ku?

— Siz meni kim deb o'ylayapsiz? Onamdan kaltafahm bo'lib tug'ilgan ekanman-da, a?

— Unday demang, eshonim, sizday ulugʻzot...

— Bas! — Norxoʻja tizzasiga shapati urib, oʻrnidan turib ketdi. — Aslida men sening teringni shilishim kerak edi. Qorida nima qasding bor edi? Qushchani qizgʻandingmi? Yo qori oldida obroʻdan ketishdan qoʻrqdingmi? Senda obroʻ bormi oʻzi? Sariq chaqaga qimmat tullak ekaningni bilasanmi oʻzing?! Zayniddin qori menga kerak edi, sen uni yeding. Endi koʻzimga koʻrinma. Qizni olib, Novqatga qayt. Agar uning yuziga nopok nigohing tushsa, koʻzlaringni oʻyaman. Bor, joʻna.

Sultonmurod oson qutulganidan quvonib, Norxoʻjaning etagini oʻpib, koʻziga surtdi-da, uni duo qila-qila oʻtovdan chiqdi.

Bomdod namozidan soʻng Sabohiddin qoʻrboshining istagi bilan yigitlarning ruhini koʻtaruvchi vaʼz aytdi:

— Aziz birodarlar, hozirgina barchamiz ahli muslim bajo qilishi lozim boʻlgan farzlardan birini ado etdik. Muhammad alayhissalom aytadilarki, besh farzning biri boʻlmish namoz bandalarni buzuqlikdan va nomaʼqulchilikdan saqlaydi. Bu hadisning naqadar chin ekani oydin ravishda barchangizga ayon boʻlib turibdi. Shayton vasvasasiga uchib namozdan qaytgan, imonini sotgan yurdoshlarimizning ayrimlari shu buzuqlik yoʻliga kirdilar. Ular oʻzlarining xatti-harakatlari bilan qiyomat-qoyimni chaqiryaptilar. Bu dunyoda hayot kechirayotgan har bir gunohkor banda koʻzi ochiq boʻlsa ham baʼzan qay yoʻl toʻgʻri, qay biri jahannam yoʻli ekanini koʻra olmaydi. Bandalar hidoyat yoʻlini koʻrsatuvchi Tangriga va uning marhamatiga hamisha muhtojlar. Hijratdan oʻn ikki yil avval, ramazon oyining yigirma yettisiga oʻtar kechasida, yaʼni laylat ul-qadr kuni Olloh-taolo Muhammad alayhissalomga vahiy yuborib bandalarni haq yoʻlga boshlashni buyurdi. Yurtimizni depsib, xorlik sari boshlayotgan imonsizlar Olloh-taoloning muqaddas soʻzlari bitilgan Qurʻoni karimga ham shak keltirmoqdalarkim, ularning oxiratlari, inshoolloh, butkul kuygay. Tangri ularga doʻzaxdan makon hozirlab qoʻygan. Muhammad alayhissalom aytadilarkim, mening ummatlarimdan kimki Ollohning amriga hozir tursa, u sira kamlik koʻrmaydi. Bunday ummatlarni xorlovchi va ularga zidlik qiluvchilarga shodumonlik darvozlari taqa-taq berkiladi. Bu imonsizlar Ollohning qahriga uchrab, qiyomat-qoyim boʻlgunga qadar xorlikda yashayveradilar.

— Siz, aziz birodarlar, Ollohning amrini bajarmoq uchun issiq uy-joylaringizni, bola-chaqalaringizni tashlab islom lashkarlari safiga qoʻshilgan ekansiz, ishoollohim, Tangrining magʻfiratiga choʻmilgaysizlar. Robbimiz marhamat qiladikim, astaʼizubillahi: «Vallaziyna hojaruna fiy sabilillaxi summa qutiluu av matu layarzuqannaxumulloxu rizqan xasan va innalloyu laxum xoyrur-roziqiin». Sadoqollohulazim. Yaʼnikim, Olloh yoʻlida hijrat qilgan, soʻngra qatl etilgan yoki vafot topgan zotlarni, albatta, Olloh goʻzal rizq yaʼni mangu jannat bilan rizqlantirur. Darhaqiqat, Ollohning oʻzi eng yaxshi rizq beruvchidir.

Sabohiddin soʻzlarini jon qulogʻi bilan tinglayotgan odamlardan koʻz uzmasdi. Gapira turib: «Kecha yigitga gajak qoʻyib, oʻynatib, bazm qilganlar shularmi? Ular haqida notoʻgʻri toʻxtamga kelmadimmi?» degan fikr xayolidan oʻtdi. U: «Gaplarim taʼsir etyaptimikin?» degan oʻyda sal narida turgan qoʻrboshi tomonga ham qaradi. Norxoʻja uning vaʼzini boshini quyi eggan holda tinglardi. Xayolidan nimalar kechyapti — qilgan gunohlariga tavgami yo navbatdagi zulm rejasimi — bilib boʻlmasdi. Sabohiddin nazarini undan olmagan holda soʻzini davom etdi: — Har bir tirik jon toki nafas olar ekan, Vatani ozodligi uchun, din pokligi uchun kurashmogʻi lozim. Yoʻqsa, bora-bora odamlar islomdan yuz oʻgiradilar, masjidlar molxonalarga aylantiriladi, bolalar otalariga qoʻl koʻtaradilar, xotinlarimiz, qizlarimiz, opa-singillarimiz kofirlar bilan ayshu ishratga beriladilar. Oqibatda, Olloh qiyomatni yuboradi. Qurʻoni karimda shunday zikr etiladikim:

«Odamlar bilan qilinadigan hisob-kitob yaqinlashdi, ular bo'lsa beparvo yuz o'girib yuribdilar. Ha, ular muhlatni yolg'on deb o'ylaydilar. Bular uchun biz olovni tayyorlab qo'ydik». Farg'ona viloyatida bosh ko'targan imonsizlar qo'li baland kelguday bo'lsa, Tangri bu olovlarni yerga yuboradi. Qiyomat kelgan taqdirda ham, Olloh-taolo ahli muslimni shafqat nurlari bilan panohiga oladi. Chunki musulmonlar Olloh-taoloning tanlangan bandalaridir. Qur'oni karimda deyiladikim, «kimki kelajak hayot ekinlarini eksa, biz uning hosilini ko'paytiramiz. Kimda-kim yaqin hayot ekinini afzal ko'rsa, biz unga xohlaganini beramiz, ammo unga kelajakdan hech qanday hissa yo'q». Kufr yo'lidagilarning oqibatini ham Yaratgan Robbimiz o'z kalomida aniq bayon etgandir. Qachonki sur chalinib, qiyomat boshlanganida umri iymonsizlik bilan o'tganlarga qarata Olloh aytadiki: «Sizlardan oldin o'tgan jin va insdan iborat kofir ummatlar ichida sizlar ham do'zaxga kiringlar!» Har bir ummat do'zaxga kirgach, sherigini la'natlaydi. U yerda bir-birlari bilan jam bo'lib topishishgach, oxirgi ummat o'zidan oldingisi haqida «Ey Robbimiz, ana o'shalar bizlarni adashtirganlar. Ularga do'zax azobini ikki barobar qilib bergin», deydilar. Shunda Olloh «Har birlaringiz uchun ikki barobardir, lekin sizlar buning hikmatini bilmaysizlar», degay. Yana Tangri-taolo zolimlarning jazosini aniq bayon etadikim, «Ularga jahannam o'tidan ostilariga gilam va ustilariga yopinchiq bo'lur...» Siz, muhtaram birodarlar, o'z xatti-harakatlaringiz bilan bugun kelajak urug'larini sepmoqdasizkim, insha Olloh, uning shirin mevalaridan bahramand bo'lursiz. Oraga shayton qo'shilib, bir millat, bir din farzandlari bir-birlarining qonlarini to'kmoqdalar. Nailoj, bu ham Ollohning irodasi, ulug' sinovi. Ollohning ijozatisiz daraxtlar kurtak ham chiqarmaydi, urg'ochilar homilador ham bo'lishmaydi. Olloh iymonsizlarga «Joningni o'z birodaring olsin», deb jazo yuborgan ekan, insha Olloh, shunday bo'laveradi. Agarchi, millatimizning ozodligi, dinimizning pokligi yo'lida joningiz qurbon bo'lsa, to'g'ri jannatga ravona bo'lasiz. Shahid ketganlarning u dunyodagi hayoti boqiydir va rohat bilan o'tadir. Agar o'lim taqdirga yozilmagan bo'lsa, qirq yil qirg'indan ham omon chiqasiz. Taqdirdagi o'lim muddati kelgan bo'lsa, uyingizda ham o'laberasiz. Shuning uchun barchangiz Olloh-taoloning nomini dilga jo qilib, umrlaringizga baraka so'rangiz. Chunki «Hech bir jon Ollohning iznisiz va yozug'da belgilangan muhlatga yetmasdan o'lmaydi». Insha Olloh, o'lim yomg'irining barchasi g'animlar ustiga yog'ilgay. Vai'zamiz so'nggida yana Olloh taborak va taolo marhamat qilgan oyatlardan birini zikr etaylik. Robbimiz deydiki, asta'izubillahi: «Ya ayyuhallaziyna omanu sabiru va sobiru va robitu vattaqulloha la'lakum tuflixuun». Sadoqollohulazim. Ya'nikim, ey iymon keltirganlar, sabr qilingiz va sabr toqat qilishda kofirlardan ustun bo'lingiz hamda doimo kurash, ya'ni jihad uchun belingiz bog'liq holda hozir bo'lib turingiz. Va Ollohdan qo'rqingizkim, shunda shoyad najot topgaysiz». Ollohning amriga itoat etmoqlik va najot topmoqlik barchamizga nasib aylasin. Qani, omin, g'alabayor islom lashkarini Tangrining o'zi qo'llasin! Dushmanga xorlik, do'stga farog'at ato etsin! Ollohu akbar!

Sabohiddinning va'izasi odamlarni go'yo sehrlab qo'ygan edi. Norxo'ja buni sezdi. Sezdi-yu, «Bu mulla balo ekan, hali ko'p karomat ko'rsatadi», deb qo'ydi.

* * *

Tog'larga qish erta keladi. Norxo'ja ketgan kundan uch kecha-kunduz o'tgach, qor tushdi. Ammo peshinga qolmay erib ketdi. O'sha damda Sabohiddinni bazmlarni qizitib yurguvchi Asqar cho'tir yo'qlab keldi.

— Taqsir, malol kelmasa, o'tovimizga birrov kirsangiz, deb kelib edim. Sojidaning aytadigan gap bor ekan.

— Uning so'zlarini eshitadigan quloq yo'q.

— Bechora o'sha kundan beri o'nglanmayapti. Ko'zim ochiqligida bir sirni aytib ketay, deyapti. Bu sirdan bexabar qolsangiz, uvol bo'lishingiz mumkin ekan.

Sabohiddin Sojidaning kaltaklanganini ko'rmagan bo'lsa-da, odamlardan eshitgan, «o'zi Xudo uradigan edi», deb e'tibor qilmagandi.

— Azbaroyi xudo, buni hiyla deb o'ylamang, taqsir.

Sabohiddin choponini kiyib unga ergashdi. O'tovga yaqinlashgach, cho'tir sekin yo'talib qo'ydi-da, ichkariga kirib ketdi. Dam o'tmay qaytib chiqib: «Kiraverar ekansiz», dedi. O'tovning bir chekkasiga to'shalgan o'rinda Sojida harakatsiz yotardi. Nimqorong'ida uning rangi o'likka o'xshab ketgan edi.

— Chiqib turinglar, — dedi Sojida cho'tir bilan buqoqqa. Uning ovozi siniq, so'zlar uzilib-uzilib chiqardi. Xoli qolishgach, Sojida yana gapira boshladi:— Mullaka, beriroq o'tiring. Xudo omonatini so'rayapti shekilli. Umrin oxirida bir savob ish qilay, rozi-rizoligingizni olay, deb sizni ayttirdim. Jahlingiz chiqmasin. Har qalay begona emassiz. Peshonamga shunday ishlar yozilgan ekan, nima qilay? Keyingi erim tirik bo'lganda, balki... — uning so'zi ichida qoldi. Badanida og'riq turib ingradi, keyin «Suv bering», deb pichirladi. Sabohiddin piyoladagi suvni tutdi. — Ilohi bu dunyoda kam bo'lmang...

— Menga qanday sirni ochmoqchi edingiz?

— Qori akaning o'limlarida aybim yo'q. Choyini menga uying kuygur imom-domlangizning o'zi damlab bergan edi.

Sabohiddin seskanib ketdi.

— Sultonmurod akami?

— Ha, o'zingizning taqsiringiz. Siz hali ko'p gaplardan bexabarsiz. Ehtiyot bo'ling. Ilondan qo'rqmasangiz-qo'rqmang, ammo bulardan hayiqing. Agar kerak bo'lmay qolsangiz, sizni ham qoriga o'xshab...

— Ochmoqchi bo'lgan siringiz shumi?

— Ha, shu, sizdan faqat bir o'tinchim bor?

— Ayting.

— Mening kunim bitganga o'xshaydi. Tashqarida turgan ikki kishini taniysiz-a? Shularni tezroq bu yerdan chiqarib yuboring.

— Nimaga?

— Bizni bu yerga akangiz yuborgan edilar.

— Akam?

— Ha, bazmlarni qizitgan bo'lib, sho'rolarga ma'lumot yig'ib berishadi. Xudo xayringizni bersin, ularning ketishiga yordam qiling.

— Norxo'ja o'rniga Ahmad devni tashlab ketgan. Unga aytib ko'raman.

Sojida bu gapni eshitib, ayanch bilan jilmaydi.

— Devdan marhamat kutguncha kofirdan imon kuting.

— Xotirjam bo'ling, uchovlaringizni kuzatib qo'yaman. — Sabohiddin shunday deb o'rnidan turdi.

— Mullaka, yana bir gapni aytib ketay: men akangiz oldida pokiza edim. Otga vaqtida yem tashlamaganim uchun achchiq ustida taloq qilgan edilar. Ot desa hamma narsadan kechadigan bo'lib qolgan edilar, eslaysizmi? Keyin bo'zaxo'rlikka ham mayl qo'ydilar. Taloq xatimni berganlaridan keyin, meni buzuqqa chiqarib, o'zlarini oqlamoqchi bo'ldilar. Ishonmasangiz o'zlaridan so'rang. Umrin qisqa bo'lmaganida sirni o'zim bilan olib ketardim. Yana orqamdan yomon o'ylar bilan yodlamang, deb aytdim. Rozi bo'ling... Men sizlardan — roziman...

Sojida keyingi gaplarni yig'lamsirab aytdi. Sabohiddin nima deyishini bilmay tashqariga chiqdi.

— Taqsir, — dedi buqoq uning yo'lini to'sib, — biz ketadigan bo'lsak, o'zimizni eplaymiz, omma bu juvonga qiyin. O'ris tabiblar ko'rmasa, nobud bo'ladi. Shu bugunog jo'natishning imkonini toping.

— Yaxshi, tayyor turinglar.

Sabohiddin shunday deb to'g'ri oq o'tov tomonga yurdi. Norxo'ja ketgandan keyin Ahmad dev shu yerni egallab olgan, Sabohiddin kirganda u bo'zaning kuchidan mast bo'lib o'tirgan edi.

— Ha, mulla yigit, kelsinlar, — dedi u joyidan jilmay.

— Hozir yallachilarning o'toviga kirgan edim.

— Xo'sh!

— Sojidaning joni halqumiga kelib qolibdi...

— Men nima qilay, jonini qaytaraymi? — Dev bo'za quyib simirdi-da, oyoqlarini uzatib yonboshladi.

— Agar omonatini topshirsa, kim g'assol bo'ladi?

— Siz! — Ahmad dev shunday deb xaxolab kuldi. Keyin xiqichoq tutib kulgidan to'xtadi.

— Uni uyiga jo'natish kerak.

— Mumkin emas, qo'rboshi qaytguncha qumursqa ham joyidan jilmaydi. Siz ham, mulla, — Ahmad dev keyingi so'zlarni g'udranib aytdi-da, boshini yostiqa qo'ydi. Sabohiddin endi turaman deganda u: «Shilpiq!» deb baqirdi.

O'tov og'zida soqchilik qilib turuvchi to'ladan kelgan xunuk odam ichkariga mo'raladi. Devning uxlab qolganini ko'rib, Sabohiddinga savol nazari bilan qaradi.

— Nimaga chaqirdilar? Bo'za keltiraymi?

— Arava tayyorlab, anavi yallachilarni yo'lga solib yuborar ekansiz.

— Ie, ko'ngilxushlik nima bo'ladi?

— Birodarlarimizning qoni to'kilayotgan mahalda ko'ngilxushligingiz nimasi?

— UZR, taqsir, tilimdan bexos uchdi.

Shilpiq odam beo'xshov ta'zim qilib chiqdi. Sabohiddin xayoliga kelgan bexos fikrdan mamnun bo'lib o'toviga qarab ketdi.

Ertasiga ko'zlari qizargan Ahmad devning o'zi uning o'toviga kirib keldi.

— Bu qanaqasi bo'ldi, mulla yigit? Yallachilarni nimaga qo'yib yubordingiz?

— Menmi?

— Ha, siz! Shilpiq!

— Labbay begim.

— Shu odam aytdimi?

— Ha.

— Eshitdingizmi?

— Bo'zaxo'rlik eplagan odamga yarashadi. Agar xushingizdan ayrilgan bo'lsangiz, qo'rboshi kelganda ma'lum qilib qo'yay. «Ayting, bajarsin», deb uni chaqirgan o'zingiz-ku? Sizni men chaqirdimmi, yo bu kishimi?

— Begim o'zingiz chaqirdingiz.

Shilpiq shunday deyishi bilan Ahmad dev uning yuziga shapati tortib yubordi. Keyin so'kindi-da, chiqib ketdi.

O'sha kuni shomga yaqin qor yog'a boshladi. Daraxtlarning za'faron barglari go'yo kaft yoyib, qorlarni tutib olardi. Lekin allaqachon jon tomiridan uzilgan bu barglarga qor uzoq qo'nib turmaydi. Ularni titratib pastga sirg'alib tushadi. «Qor yerning g'uborini berkitmoqchi bo'ladi. Odamlar esa turli bahonalar bilan gunohlarini yashirmoqqa intiladilar. Ammo qor erib, yerning qora yuzi ko'ringani kabi haqiqat quyoshining chehrasi ochilganda, ularning gunohlari ayon bo'ladi-ku! Nima uchun buni o'ylamas

ekanlar? Mana shu Ahmad dev gunohlari oshkor etilgach, odamlarning yuziga qanday qarar ekan?»

Sabohiddin birinchi qorni shu xayollar bilan kutib oldi.

Oradan kunlar o'taverdi.

Norxo'jadan yarim oy darak bo'lmadi. Ahmad dev yigitlarni olib ikki marta pastdagi qishloqlardan oziq-ovqat g'amlab keldi. Qor tizza bo'yi bo'lganda Norxo'ja beklarini olib qaytdi. Lashkarlarning yarmidan ko'pi yo'qligi, qo'rboshining kirtaygan ko'zlari, ma'yus chehrasi ularning mag'lub qaytayotganini oshkor qilib turar, hol-ahvol surishtirish ortiqcha edi. Zero, Sabohiddin bunga ehtiyoj sezmedi. U Sojida aytgan so'zlardan so'ng Norxo'janing maqsadi haqida ko'p bosh qotirdi. Norxo'ja nima maqsadda uni ushlab turibdi? Qorini nima uchun avval uylantirib, keyin o'ldirdi? Gunohni singlisiga ag'darish, keyin qizga shafqat ko'rsatib, evaziga Sabohiddinni burunduglash uchunmi? Bunchalik xatti-harakatning boisi nima? Norxo'ja uni faqat va'z ayttirish uchun ushlab turgani yo'qdir?

Sabohiddin ertami-kechmi Norxo'ja maqsadini ayon qilajagini bilar, shu sababli uning qaytishini sabrsizlik bilan kutardi. Ibodatlarida Xudoga nola qilib, akasining gunohlarini so'rardi. Chunki uning taxminicha, akasi bu paytda Namanganda ham bo'lishi mumkin edi.

Norxo'janing huzuriga Sabohiddin hol so'ragani emas, majbur bo'lgani uchun kirdi. Qo'rboshining gapirishga ham hushi yo'q edi. Sabohiddin undan faqatgina: «Sihatingiz yaxshimi?» deb so'radi.

— Alhamdulillah, — dedi Norxo'ja. Keyin jim qoldi. Dam o'tmay Sabohiddinga qarab so'z boshladi:— Tangri bizning duolarimizni inobatga olmadi. Namanganni bizga ravo ko'rmadi. Shaharga kirolmadik.

— Xudo xohlasa...

— Yo'q, Xudo xohlamaydi. To'rangizning qilayotgan ishlari toat-ibodatlarimizni yelga sovuryapti.

— Nimaga, taqsir?

— U o'rislar bilan til biriktirgan.

— Sho'rolar bilanmi?

— Yo'q, oqposhshoning odamlari bilan. Ertaga qo'ylar so'yib, xayri-xudoyi qilamiz. Shuncha balo-qazodan asragan egamga ming qatla shukr. — Norxo'janing bu so'zlari «gap tamom» degani edi. Sabohiddin buni sezsa ham o'rnidan jilmadi.

— Menga gapingiz bormi? — deb so'radi qo'rboshi uning qimirlamayotganini ko'rib.

— Ha, taqsir, bir narsaga fikrim ojizlik qilib qoldi.

— Nimaga?

— Qarorgohingizga kelganimdan beri qirq kun o'tdi. Ammo bu yerda bo'lishimning boisini bilolmay garangman.

— Garangsiramang. O'z ishingiz bilan mashg'ulsiz-ku?

— Men bu yoqlarga jihod istab kelib edim. Siz esa... meni faqat toat-ibodat va va'z uchun ushlab turmagandirsiz?

Norxo'ja Sabohiddinning niyatini angladi. Bir oz o'yg'a toldi.

— Siz aytgan va'zdan so'ng lashkarlarning bir kuchiga o'n kuch qo'shiladi. Sizning jihodingiz shu. Buni fahmlashingiz kerak edi. Qolganini bizlarga qo'yib bering. Sizga ijozat.

Sabohiddin ta'zim qilib chiqib ketishga chog'landi.

— To'xtang, o'tira turing, — Norxo'ja shunday deb o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqdi. Soqchiga «Hech kim o'tovning yaqiniga yo'lamasin», deb buyurib ichkariga qaytdi. — Mening bir rejam bor edi. Namanganni olgan taqdirimda bu rejamdan voz

kechardim. Endi uni amalga oshirishga majburman. Bu ishni siz boshlab berasiz... Tog'larga chiqib kelganimga ikki yil bo'lyapti. Hali unga-hali bunga qo'shilib yurish halqumimga keldi. Bir yoqda Muhiddin, bir yoqda Sheramat, yana bir yoqda Ergash, Hamdam, Ismonqul... E, sanog'i yo'q bu qizig'arlarning. Biri birining o'limini poylaydi. Ularning boshini birlashtirishning birgina yo'li bor. Farg'onada mahdi paydo bo'lishi kerak.

— Mahdi?

— Ha, mahdi. Qo'rboshilar amiralmusliminga zohiran bo'yin egasalar-da, botinan ko'rarga ko'zlari yo'q. Hali Farg'ona g'ayridinlardan tozalanmay turib taxt talashishadi. Mahdi paydo bo'lsa, ular majburan bo'yin egadilar. Chunki lashkarlar endi mahdining etagini tutadilar... Reja ma'qulmi?

— Ma'qullikka ma'qul... Ammo mahdini Tangrining o'zi yuboradi. Biz uni chorlaganimiz bilan Ollohning istagi...

— O'z amrini bajarayotgan lashkarlardan Olloh marhamatini ayaydi, deb sizga kim aytdi? Go'l bo'lmang, mulla. G'animni mag'lub etish uchun hiyla ham ishlatish kerak. Hiyla yolg'onsiz o'tmaydi. G'alaba bizga yor bo'lgach, Olloh gunohlarimizdan kechadi. Siz ertagayoq qishlog'ingizga qaytasiz. Masjidda tuxum bosib o'tirmay, qishloqma-qishloq yurib va'z ayting. Musulmonlarni jihodga chorlang. Ora-sira bir tush ko'rganingizni, Xudo xohlasa, yurtimizga mahdi kelajagini ayting. Bahorga qadar qiladigan ishingiz shu. Aqlli kishining tili hadeb tish hatlamaydi. Siz aqlli odamsiz.

— Demak, qo'rboshilardan biri maxdi⁶, deb e'lon qilinadimi?

— Ha.

— Kim?

— Bu yolg'iz Ollohning o'zigagina ma'lum.

Garchi Norxo'ja shunday deb maqsadini yashirgan bo'lsa-da, Sabohiddin bo'lajak mahdining kim ekanligini angladi.

Sabohiddin Xoliqberdi to'ra bilan birinchi uchrashuvdayoq ochiq fikrlasha olgan edi. Norxo'ja bilan ancha fursatdan buyon birga bo'lsa-da, u bilan erkin suhbatlashishga jur'at etolmasdi. Qo'rboshining andak qo'pol muomalasi, cho'rtkesarligi Sabohiddinni cheklab qo'ygan edi. Bu safar ham qo'rboshining orzusi ahmaqona ekanini bilsa-da, «tushuntirishga urinish befoyda», degan o'yda tilini tiydi.

Qo'rboshi huzuridan chiqqach ham uning rejasini o'ylab, boshi qotdi: «Nobop odam, deb yursam, qip-qizil telbaga o'xshaydi-ku? Bu fikrni unga kim berdi ekan? Har holda qori domlamdan bunaqa bema'ni maslahat chiqmasdi. Kurakda turmaydigan bu aqlni Sultonmurod domlamiz o'rgatgandirlar. Mahdilik g'oyasi shia mazhabida tug'ilganini mendan boshqalar ham bilar. Men da'vat etsam, qo'rboshiga qo'shib meni ham telbaga chiqarishmasmikin? Tarixda Sayyid Ali Muhammad degan zotning o'zini mahdi, deb e'lon qilgani, oqibat Eron shoxi tomonidan Tabrizda qatl etilganini aytsam, qulog'iga olarmikin? Yo'q, bu gapni eshitib, fikr qilg'uvchilardan emas bu odam. O'rtada men isnodga qoladiganga o'xshayman...»

Ertasiga u qishloqqa qaytdi.

Uyda akasini ko'rib, Xudoga shukr, deb qo'ydi. Jamoliddin u bilan sovuqroq ko'rishdi. Mashhura bilan onasi boshqa uyga chiqishgach, aka-uka yolg'iz qoldi.

— Norxo'ja nima uchun meni qo'yib yubordi? — dedi Jamoliddin tik turganicha.

— Aka, besabr bo'lmang, o'tiring, bafurja gaplashaylik.

— Faqat iltimos qilganingni aytma. Qo'rboshining boshqa niyati bo'lishi kerak.

⁶ Qiyomat yaqinlashganida tirilib kelib, Dajjolga qarshi kurashuvchi va adolatli tuzum o'rnatuvchi imom.

— Men ularning rejasini tuzuk anglay olmadim. Ammo bo'lak rejasi borligini yuragim sezib turibdi.

— Durust... Mashhurani nima uchun kuyovga berding?

— Axir...

— Hech kim bilmaydi, deb o'yladingmi?

— Majbur edim. Qo'limdan nima kelardi? — Sabohiddin bo'lgan voqealarni birma-bir aytib berdi. Biroq, qotillikda qo'rboshi bilan Sultonmurodning qo'li borligini yashirdi.

— Qo'rqoq, boshingga ro'mol o'rab yur endi!

— Aka, unday demang, men faqat... Xudodan qo'rqaman.

— Ha, ana endi o'zingga kelding. «Xudodan qo'rqasan!» Xudoning sevimli bandalari esa or-nomusingni istagancha ermak qiladi. Sen chidaysan. Chidashga majbursan. Chunki tepangda Xudo bor. Xudoning qiladigan ishi yo'q. Nigohini faqat senga tikib olgan. Har qadamingni o'lchaydi.

— Aka, hammamiz musulmon farzandlarimiz, u qadar yomon gaplarni ayt mang.

— Shakkoklik qilmang, degin... Qaytishingda Norxo'jani ko'rdingmi?

— Ko'rdim.

— Qancha askar bilan qaytdi?

— Bilmayman, bunday gaplarni mendan so'ramang. Bilgan taqdirimda ham aytmas edim. Men ayg'oqchi emasman.

— U holda sen bilan gaplashib o'tirmasam ham bo'ladi.

Sabohiddin boshini egdi-yu, «Akam shashtidan tushib qolar», degan umidda sukut saqladi. Jamoliddin ham hozirgi ahdida qat'iy qolib, gapirmadi. Shunda Sabohiddin boshini ko'tarib akasiga qaradi-da, ma'yuslik bilan so'z boshladi:

— Aka, sizga aql o'rgatishga haqqim yo'qdir... Lekin bir gapni aytish men uchun farz: Olloh sizga hidoyat bersin, iymonga qayting.

— Bekorchi gaplarni gapirib, boshimni og'ritma,— dedi Jamoliddin keskin tarzda.

— Aka, — bu safar Sabohiddin o'zi kutmagan holda yig'lamsiradi, — iymonga qayting..

— Bas qil, dedim...

— Iymonga qayting, aka, oxiratingizni kuydirmang. Bir onadan tug'ilib, u dunyoda ayri-ayri bo'lmaylik.

Jamoliddin «Rostdan yig'layaptimi yo xiyla qilyaptimi?» degan o'yda ukasiga tikildi. Keyin avvalgidan sal yumshoqroq ohangda:

— Men to'g'ri yo'limni tanlaganman. Biz quradigan jamiyatda Xudo degan gap bo'lmaydi, — dedi.

— Aka, Xudosiz jamiyat yashay olmaydi, — dedi Sabohiddin.

— Shunday yashasinki, o'zing qoyil qolgin. Hali ko'rib turasan. Bu boshi buzuq bosmachilarni tinchitib olaylik, keyin senga o'xshaganlar bilan ham shug'ullanamiz. sen menga aql o'rgatmaginu o'sha payt kelgunicha esingni yig'ib ol, bola.

Bu gaplardan so'ng Sabohiddin jim bo'ldi-yu, dardini ichiga yutdi.

Kechasi sandalning ikki tomonini egallagan aka-uka go'yo daryoning ikki sohilida qaltirab yotganday edilar. Sandalning o'txonasidagi cho'g' ularni go'yo isitmas, oyoqlar go'yo daryoning muzlay boshlagan suvida zirillayotganday edi.

Sabohiddin tongga qadar Xudodan akasiga hidoyat tiladi.

Jamoliddin ukasini qanday qilib to'g'ri yo'lga solish mumkinligini o'yladi...

Jamoliddin ertasiga ketdi. Qaytar mahali ukasiga: «Qishloqdan jila ko'rma», deb tayinladi. Boshqa so'z aytmadi...

O'RTA VAGON

Rhaq harakatsiz yotgan Devonaga qarab turib qoldi.

Yerliklar orasida olchoq, mal'un odamlar borligini u avvalgi safari chog'ida aytarli sezmagani ekan. Rhaq odamlarning qalb g'alayonlarini, qayg'ularini vujudlarida yashira olishlarini bilganda ularga nisbatan bo'lgan mehri yanada ortgan edi. Sabohiddin xotirasida uyg'onayotgan voqealar, shuningdek, unda-bunda uchraydigan hiylagarlar uning ruhini cho'ktirdi. Oralarida bunday makkorning borligiga odamlar ko'nikib qolganlar. Hamisha ulardan ehtiyot bo'lishga urinadilar, hatto botiniy tahlikada ham yashaydilar. Nima uchundir hiyla sohiblarini, qalban parokanda odamlarni fosh qilishga jur'at etolmaydilar. Axir hayot shunday davom etaversa, bunday mal'unlarning safi kengayaveradi-ku. Ular turli ko'rinishlarda ildiz otib, oxir-oqibat sayyorani halokat yoqasiga olib kelmaydilmarmi? Ilgari amir yomon edi. Boy, bosmachi yomon edi. Qancha qon to'kib, ularni mahv etdilar. Odamlar nima uchun yomonlarga befarqlar? Agar Rhaq ularni ilgariroq fahmlab, kundaligida zikr etgan taqdirda, Luknning qarashlari to'la ma'qul etilib, Yer xususidagi bahsga o'rin qolmagan bo'lardi.

Rhaq o'zini o'zi savolga ko'mib, yana javob izlardi. Javobni unga Asqarali, Dilmurod, Aqida, Rhaq hali o'zi ko'rmagan Asqaralining o'g'li bilan professor Razzoqov berardi. Rhaq uzoqni ko'ra bilish xususiyati bilan ularning kelajagiga ishonardi...

— Shopo'lat akamiz hali ham uxlayaptilarmi? — eshikdan kirib kelgan Dilmurod shunday deb Rhaq-Mirzavoyning xayolini to'zitib yubordi. Keyin to'g'ri ichkari kirdi-da, Devonaning bilak tomirini ushladi. — Qani, Shopo'lat aka, turing endi, yotaverib belingiz qotib ketgandir.

Devona yarq etib ko'zlarini ochdi. Dilmurodni birinchi ko'rayotgandek unga boshdan-oyoq razm soldi. Keyin qaddini asta tikladi. Charm qoplangan taxta so'rida, oyog'ini osiltirib o'tirdi. So'ng eski kalishini kiydi-da, horg'in bir ahvolda uydan chiqdi. Deraza oldida turgan Rhaqqa ham burgut qarash qildi-da, ko'cha eshigi tomon yurdi.

— Sezyapsizmi? — dedi Dilmurod quvnoq bir ohangda. — Yana ikki marta muolaja qilsak, esini yig'ib oladi. Endi bunga to'la aminman.

— Keyin-chi?

— Nima keyin? — Dilmurod Rhaqqa hayron bo'lib qaradi. — Odamlarga qo'shilib yashayveradi. Balki uy-joy qilar...

— Uning jinni bo'lganini qishloqdagilar unutadi deb o'ylaysizmi?

Dilmurod xayolga toldi.

Rais shifoxonada Saboxon qiladigan ish yo'q ekan, deb uni idoraga oldi. Idorada ish ko'pmidi, yo o'zining kelgisi kelmadimi, har holda Saboxon shifoxonaga yo'lamay qo'ydi. Dilmurod bunga e'tibor bermadi. Rhaq Saboxonning nima uchun kelmay qo'yganini bilsa ham, o'zini bilmaganga olib yuraverdi. Bu orada Dilmurod raisning buyrug'i bilan toqqa, cho'ponlar oldiga chiqib ketdi. Ertasi kuni, kutilmaganda, shifoxonaga Saboxon kirib keldi. Rhaq uni iliq qarshilab, o'tirishga taklif qildi.

— Yo'q, rahmat, tezda qaytishim kerak, — dedi Saboxon bir oz gapidan tutilib.

— Olovga kelgan ekansiz-da?

— Sizni rais chaqiryapti.

— Hozir boraymi?

— Ha, kutib o'tirishibdi.

Rhaq Saboxon bilan ko'chaga chiqdi. Uning gaplariga juvon ba'zan javob qilmas, ba'zan «ha» yoki «yo'q» deb qo'ya qolardi. Rhaq bundan ajablandi.

Raisning xonasida o'tirgan yigitni darrov tanidi. U bilan ikki oy burun rayon markazida tasodifan ko'rishgan edi. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasida ishlovchi bu yigit Dilmurodning kursdoshi ekan. Dilmurodga aytganda, u qo'l siltab qo'ya qolgan edi. Dilmurod uni xush ko'rmas, har narsadan hadiksirovchi, o'zini chetga olib yuruvchi, «sen menga tegma, men senga» qabilidagi hayotni afzal biluvchi bu yigitdan hatto nafratlanar ekan. Anvar shaharda hammavaqt tramvayning ikkinchi vagonida yurarkan. Birinchisi bilan uchinchi izdan chiqishi mumkin, o'rtadagisi xavfsiz, deb hisoblarkan...

— Salom Don Juan, ahvol qalay? — dedi Anvar sovuqroq ohangda.

Rhaq bu gapni eshitib g'ijinsa ham sir boy bermadi.

— Endi maqsadga ko'chsak ham bo'ladi, — dedi Anvar rasmiy tarzda.

— Avval bir piyola choy... — dedi rais.

— Choyni keyin, bafurja icharmiz. Xo'sh... — Anvar baqaloq portfelidan qog'oz chiqardi. — Bizga bir xat tushdi. Shuni aniqlagani kelganman. — U qog'ozni raisga uzatdi. — Siz yuborganmisiz?

Rais qog'ozga astoydil qaradi.

— Shtampasi bizdi kolxozniki, — dedi. So'ng hijjalab o'qiy boshladi. Mirzavoyning Saboxon bilan «oshiq-ma'shuqligi», juvonning shifoxonadan ketib qolishi haqidagi jumlaning o'qib bo'lgach, Anvarga savol nazari bilan qaradi.

— Mehmon buni qaydan oldingiz? Toza g'iybat qilibdi-ku? Sabaxonni o'zimiz chaqirib olganmiz. Ana, o'zidan so'raymiz.

— Oxirigacha o'qing.

Rais «xo'p», deb xatni oxirigacha o'qib chiqdi.

— Yo'-o'q, — dedi u xatni qaytarib berar ekan. — Buni men yozmaganman. Qo'l meniki emas. Men yuboradigan xatlarimga yumaloq muhr bosaman. Buning muhri ham yo'q. Birov nomimni sotibdi.

— Shtamp-chi?

— Shtampa — hisob emas. Yumaloq muhr hisob.

— Xatdagi gaplar to'g'rimi?

— To'g'ri ham deyolmayman, noto'g'ri ham. Do'xtirimizning chakki qadam qo'yganini shu topgacha eshitganim yo'q.

— So'qqabosh ekanlar. Siz eshitmagan bo'lsangiz...

— Men eshitmagan bo'lsam, demak, do'xtirimiz suyuqlik qilmagan. Xatingizga qaraganda, ular oshiq-moshiq emish. Be, qishloqda shundoq yurib bo'ladimi? Siz bir qizga uchta gap aytaman deb, og'iz juftlang, bir so'zingizni tugatmay nima deganingiz qishloqqa ma'lum bo'ladi. O'ynash tutish katta shaharda yarashadi. Bu yerda har qadamingiz o'lchog'lik. Agar tekshirgani kelgan bo'lsangiz, Saboning o'zidan so'rang, qo'ying. Gap qishloqqa yoyilmasin. Yolg'on gapni chinga aylantirib yuboradiganlar bor. Sabaxon! — rais shunday deb o'tirgan yeridan baqirib chaqirdi. — Baqqa bir qarang.

Saboxon kirdi. Anvar unga xatni uzatdi. Sabaxonning rangi bo'zardi. Rhaq xat ushlagan barmoqlarning qaltiraganini sezdi. Sabaxon xatga tikilib turar, ammo o'qimasdi. Rhaq buni ham payqadi. Rais bilan Anvarga qaradi: Mamarayim charm kreslosiga yastanib o'tiribdi. Anvar stol ustidagi kitobchani varaqlayapti...

Saboxon xatni uzatdi.

— Hammasini o'qidingizmi? — deb so'radi Anvar.

— Ha.

— Gaplar rostmi?

— Yo'q.

— Buni kim yozgan bo'lishi mumkin?

— Nevlay?

- Shtamp sizda turadimi?
- Yo`q, raisda.
- Unda...
- Shtampa menda turadi, mehmon. Men besh-o`n varaq qog`ozga urib beraman. Vaqt-bemahalda men yo`g`imda ispropkaga kerak bo`lib qoladi. Bu qog`ozlar stol ustida turadi. Bitta-yarimta olgandir-da. Endi, Saboxon, qog`ozlarni berkitib yuring. Odamlarga ishonib ham bo`lmaydi.
- Endi nima qilamiz? — dedi Anvar, raisning so`zini shart bo`lib.
- Nima qilardingiz? Tuhmat ekan, deb borasiz. Do`xtirimiz yaxshi ishlayaptilar.
- Shu gaplaringizni yozib berolmaysizmi?
- Kerak bo`lsa, xat ham qilamiz. Saboxon, yozib turing, biz choy-poy ichib olaylik.
- Tamaddidan so`ng Anvarning istagi bilan shifoxonaga borishdi. Shamol xazonlarni gala-gala qilib uchirib yurardi. Eshiklarning lang ochiqqligini ko`rib, Rhaq hayron bo`ldi. Shoshib ichkariga kirdi: TETning g`ilofi ochilgan, simlar esa uzilib yotardi. Rhaq bu manzarani ko`rib, ostonada qotib qoldi. So`ng TETga yaqinlashib, sinchiklab kuzatdi.
- Nima bu? — dedi Anvar ichkariga kirib.
- Dilmurodning asboblari.
- TETmi?
- Eshitganmisiz?
- Ha. Ozgina ishlab dushman orttirib olganga o`xshaysizlar.
- Bu dushmanning ishi emas. Dushman bo`lganda faqat simlarni uzmay, TETni pachaqlab tashlardi. Qolaversa, dushman sizga emas, boshqa yerga, bo`lak mazmunda xat yozardi.
- Bular do`stning ishi ekan-da?
- Yo`q, do`st emas. Ammo dushman ham emas.
- Men xatni yozgan odamni aniqlab ketsam bo`lardi.
- Qishloqda gap ko`payadi. Eng muhimini aniqladingiz-ku, bo`lar.
- Anvar uzoq turmadi. Yuk mashinasiga o`tirib, iziga qaytdi.
- Rhaq bo`lib o`tgan voqeadan taajjubga tushib qolgan edi. Saboxonning fikrini o`qiy olgani bilan, uning harakatlariga tushunib yeta olmadi.
- Buning ustiga TET... Bu Sabohiddinning ishi. Xotiralari tiklanyapti. Vujudida g`alayon uyg`onyati. Endi o`ylab ish yuritish kerak. Buni Rhaq Dilmurodga qanday tushuntiradi?
- TETning uzilgan simlarini sozlash uchun o`tirganda eshik oldida Saboxon ko`rindi. Rhaq: «Keling», deb qo`yib o`z ishi bilan mashg`ul bo`ldi. Saboxon ichkariga bir qadam qo`yganicha turaverdi. «Kiring, o`tiring», dedi Rhaq unga bir qarab olib.
- Yo`q, ketaman, — dedi Saboxon. Rhaq indamadi.— Sizga bir gap aytmoqchiydim.
- Nima demoqchiligingizni bilaman.
- Bilmaysiz.
- Nimaga endi, bilaman, — Rhaq o`rnidan turib, Saboxonga yaqin keldi. — Xatni siz yozgansiz.
- Yo`q.
- Siz aytib turgansiz, boshqa odam yozgan. Har holda xatning mazmuni sizga tanish edi. Qo`lingiz titrashidan sezganman. Uni tuzukroq o`qimadingiz ham, to`g`rimi?
- Saboxon qo`llari bilan yuzini to`sib oldi. Teskari qaradi. Yelkalari silkindi.
- Nimaga yig`layapsiz?
- Siz hech narsani bilmaysiz! — dedi Saboxon shasht bilan o`girilib. Ko`z yoshi yonog`ida iz qoldirib pastga tomdi. — Nima uchun shunday qilganimni bilasizmi?
- Balki rais...
- Rais! Yo`q. O`zim qildim bu ishni.

- Saboxon, o'zingizni bosing. Aybim bo'lsa, yuzimga ayting.
- Ayb? Yo'q, siz begunoh farishtasiz. Siz... siz... hech nimani sezmaysiz!
- Nimani sezishim kerak?

Rhaq Saboxonning yosh to'la ko'zlariga qarab, yuragi o'rtanib ketdi. Voqea endi oydinlasha boshlagan edi. Darvoqe, u Saboxonning sirli qarashlarini sezardi. Lekin bu qarashlarga qanday javob berishni, o'zini qanday tutishni bilmasdi.

- Axir, sizni keting, deb shu ishlarni qildim.
- «Keting» deb?
- Ha... Meni... qiynamang, keting bu yerdan!

Saboxon shunday deb ho'ngrab yubordi. Boshini Rhaqning yelkasiga qo'ydi.

Kutilmaganda Rhaqning bag'riga iliqlik yugurdi. Juvonning iliq nafasi yelkasini kuydirganday bo'ldi. Vujudida g'alati his uyg'ondi. G'alati his... Esladi! Xotini bilan ilk bor qovushganda shu holga tushgan edi. Ajab!!! Genetik kod asosida yerlik qiyofasiga kiradigan tanglik bunday hislardan mahrum etilar edi-ku? Qaerdan keldi bu his? Juvon uning yelkasiga bosh qo'yib turibdi... Rhaq esa savoliga javob topa olmaydi. Aksincha, badani qizib, maylini yangidan uyg'ongan hislarga topshira boshlaganini o'zi ham sezmay qoldi; juvonne mahkam quchoqlab, o'pa ketdi. Saboxon qarshilik ko'rsatmay yig'lar, Rhaq esa o'zini tamom unutib, juvonne bag'riga tobora qattiqroq bosardi. Qo'llari bejo harakat qila boshlagach, Saboxon uni itarib yubordi. Shundagina Rhaq o'ziga kelib, hansiragancha unga tikilib qoldi.

- Saboxon...
- Yo'q! Yaqinlashmang! Siz... yomon odam ekansiz...
- Saboxon!
- Nomusdan o'ldirasiz meni...
- Saboxon, axir o'zingiz...

— O'zim... o'zim ahmoqman... Bu yerdan keting, o'tinaman. Bo'lmasa... men ketay. Sizni ko'rsam... meni gunohga qo'ymang. Endi sizga ishonmayman. Sizdan qo'rqaman.

Saboxon shunday deb chiqib ketdi.

Rhaq: «E, ahmoq kalla!» deb o'zini o'zi koyigancha, yuragi siqilib o'tirdi. Endi u hamisha ehtiyot bo'lib yurgan dardga chalinganiga — yerliklar tuyg'usi vujudiga butunlay singganiga amin edi.

Rhaq o'zini ovutish uchun uzilgan simlarni uladi. Oqshomga yaqin Dilmurod qaytdi. Uning iltimosi bilan Devonani topib keldi.

Devona charm qoplangan taxta so'riga itoatkorlik bilan yotdi. Ammo muolaja yarimlaganda titray boshladi. Dilmurod buni sezib asbobni o'chirdi. Devona shu zahotiyoq o'rnidan turib ketdi.

— Qonxo'r! — deb baqirdi u bor ovozi bilan. — O'ldiraman! — u atrofiga alanglab bir narsa izladi.— O'ldiraman! — deb baqirdi yana. Rhaq vaziyatni tushunib, unga ko'zlarini qadadi-da, fikran buyruq berdi. Devona yuzini kaftlari bilan to'sib so'riga o'tirdi. Dilmurod har ehtimolga qarshi tayyor qilib qo'ygan tinchlantiruvchi dorini olib, uni em ignasi bilan Devonaning bilagiga yuborgach, yelkasidan ushlab yotqizdi.

Devona uyquga ketdi. Rhaq voqea oydin bo'lgani uchun tashqariga chiqdi. Dilmurod esa garangsib, Devonaga tikilgancha o'tirib qoldi.

QOCHOQLAR

Bu qish Novqat atroflariga qor qalin tushdi. Sovuq hamma yerni qaqshatib yubordi. Barcha bahorni intiqlik bilan kutar, ammo tabiatning iliq nafasi hadeganda sezilmas edi.

Sandalning tafti pasaygani uchun Sabohiddinning eti junjikib uyg'ondi. Lekin o'rnidan turishga, kul bosgan cho'g'ni titib qo'yishga erindi. Bulut tarqab, havo ochilibdi — oy nuri qor zarralarida yaltiraydi. Itdan ham sovuq o'tganmi, inida yotgancha g'ingshiydi. Sabohiddinning ko'zi yana ilindi. Bosinqiradi. Tushiga Sojida bilan Ma'murboyvachcha kiribdi. Ikkovi ham qonga belangan. Sabohiddinga xunuk tikilishadi. Indashmaydi. Sabohiddin kalima keltirsa ham joylaridan jilishmaydi. Tirnoqlari orasidan chak-chak qon tomadi. Qon, qop-qora qon... Yer uni shimmaydi. Xuddi lag'cha cho'g' ustiga suv tomchisi tushib, jizg'anak bo'lgani kabi ulardan tomgan qon ham yer ustida olovlanib turadi-da, so'ng toshga aylanadi. Birpasda ularning tizzasigacha tosh bo'lib ketdi. Keyin Sojida toshlarni olib, Sabohiddinga otdi. Sabohiddin qochishga harakat qildi. Lekin ildamlashga qancha urinmasin, og'ir oyoqlarini sudray olmadi.

Shu payt it qattiq hurib, uni uyg'otib yubordi. Kimdir qorni g'irchillatib bosib kelib, uyga yaqinlashdi. Ayvon ustuniga qamchin dastasi bilan asta urib, taqillatdi.

— Kim? — dedi Sabohiddin uyqu aralash.

— Taqsir, otlaning, begim yo'qlayaptilar sizni, — dedi kutilmagan mehmon past ovoz bilan.

— Nima uchun? Tinchlikmi?

— Tinchlik. Tez bo'ling. Vaqt g'animat.

Ichkari uydan Sohiba ayaning ovozi keldi. Sabohiddin o'sha tomonga o'tdi. Onasi bilan singlisini tinchlantirib, xayr-xo'shlashib, to'rvani yelkasiga tashladi-da, tashqariga chiqdi. Sabohiddin uchun ham ot keltirishgan ekan, katta dovon sari yo'lga tushdilar. Kecha yarimlagan, charog'on yulduzlar to'lin oy izmiga bo'ysunib, go'yo yerga ayoz ufurardi.

Tong otdi. Kun mashaqqatli yo'l azobi bilan o'tdi.

Qarorgohga shom qorong'isida yetib bordilar. Otlar ham xoridi. O'zlari ham holdan toydilar.

Sabohiddin otdan tushib, oq o'tov sari yurdi. Qora chiroq ichkarini xira yoritib turibdi. Norxo'ja yonboshlab, Ahmad dev esa chordana qurib olgan. O'rtada dasturxon yozig'liq. Norxo'ja Sabohiddinni ko'rib qo'zg'aldi. Ruhiyati horg'in bo'lsa-da, iliq so'rashdi.

— Tinch keldilaringmi? — dedi fotihadan so'ng.

— Alhamdulillah. Dovondan o'tishda bir oz urinib qoldik chamasi.

— Iloj qancha. Ilgarilari bunaqa paytda esi bor odam dovonga yaqinlashmasdi. Xudo xohlasa, yana o'sha kunlarga yetib qolarmiz.

— Insha Oллоh. Kela-kelguncha nima gap ekan, deb xavotirda bo'ldim.

Norxo'ja miyig'ida kuldi.

— Sizni xiyla azobga qo'yibmiz-da. Xavotirli yumush yo'q. Hamma ish joyida. Sizni bir quvonchli xabardan ogoh qilib qo'yay, deb yo'qlatgan edim.

— U holda, nur — alannur, taqsir. Bu quloqlar shodiyona xabarlariga chanqoq bo'lib qoldi.

— Biz sho'rolar bilan yarashishga ahd qildik. Ortiqcha qon to'kmay, qurollarimizni ularning oyog'i ostiga tashlab, issiq uyimizda jon saqlaylik, degan niyatdamiz. Siz bunga nima deysiz?

Bunday gap Sabohiddinning yetti uxlab tushiga kirmagan edi. Agar biror murda tirilib kelibdi, deyilsa, ishonardi. Ammo bu gapga... Yo Norxo'ja sinayaptimi? Balki rostdir. Tushida qon ko'rgan edi. Qon yorug'lik deydi.

— Taqsir, so'zlaringizni sal yanglish angladim shekilli?

— Nazarimda aynan tushundingiz.

— Yo meni sinamoqchi bo'lyaptilarmi?

Norxo'ja kulib yubordi. Lekin Ahmad devning yuzida o'zgarish sezilmadi. U chordana qurganicha piyoladagi ikki qultumgina choyni aylantirib, o'y surardi. Go'yo Sabohiddin bilan qo'rboshining suhbatlari qulog'iga kirmayotgan edi.

— Sizni sinab esimni yebmanmi, mulla Sabohiddin, nafsilamrini aytyapman.

— Bu qadar osonlik bilan bo'yin egish...

— Nomardning ishi! Ha! Dev, eshitdingmi, mulla ham shu fikrda. Lekin mening qarorim qat'iy. Xoliqberdi to'raga qo'shilib, bolshavoylarga taslim bo'laman.

Sabohiddin nima deyishni bilmadi.

— Gap bunday, mulla Sabohiddin, taxminim to'g'ri chiqib, to'raning sho'rolar bilan yarashishi aniq bo'ldi. To'rtinchilar bizni ayri-ayri qilib, birma-bir yanchib chiqishlari mumkin. Kuchimiz anchayin qirqilgan. Shuning uchun hiyla ishlatmasak bo'lmaydi. Beklarimning ichida bu hayotdan norozi bo'lib yurganlar bor. Shularni olib Xoliqberdi bilan birga bo'yin egib boraman. Qolgan asl beklarimga Ahmad dev bosh bo'lib Shermatga qo'shiladi. Siz ham men bilan birga borasiz. To'raning mingdan ziyod beklarini ham Shermatga qo'shishga ulgurdik. Xoliqberdi taslim bo'lgach, Shermatning payiga tushishadi. Ana shunda biz xoin bilan hisob-kitob qilamiz.

— Taslimning boisi faqatgina undan qasd olishmi?

— Meni shu qadarli farosatsiz, deb o'ylaysiz, chog'i-a, mulla Sabohiddin?

— Afv eting, taqdir, menda sira bunday o'y bo'lgan emas. Faqat maqsadingizni anglab yetishga fikrim o'zlasiz qilib qoldi.

— Har bir ishning vaqt-soati bor. Xudo xohlasa, birin-sirin barcha ishlardan ogoh bo'lib borasiz. Sizga hozir faqat bir narsani aytib qo'yay: men qo'limga qilich olganimda bo'ynimga o'limni ham olganman. Azroil, men qaerda bo'lmay, bir kunmas-bir kun jonimni oladi. Men Xudodan bir narsanigina so'rayman: meni sharmandalik kafaniga o'ramasin. Jag'imni «xoin» deb tang'ishmasin. Shuni bilib qo'ying, mulla, agar biz bugun xoinlik qilsak, jon rohatini o'ylasak, ertaga zuryodlarimiz bizni la'natlashadi. Biznigina emas, «shu xezalaklarni tuqqanga ming la'nat» deb onalarimizni ham qarg'ashadi. Men bunga yo'l qo'ymayman. So'nggi nafasim chiqquncha olishaman. Tirnoqlarim ko'chguncha tirnayman, tishlarim yemirilib bitguncha tishlayman. Men uchun boshqa yo'l yo'q. Siz uchun ham! Buni fahm eting, mulla! «Jihod» degan edingiz. Haqiqiy jihod ana endi boshlanadi.

Norxo'ja chiroyli so'zlar tizimini kuyunib aytgan bo'lsa-da, Sabohiddin uning gaplariga ishongisi kelmadi. Suyagi yo'q til sayrayverar ekan, dilda bir pokizalik, bir cho'g' bo'lmasa jonsiz so'zlar tezgina o'lar ekan. Sabohiddinning nazarida qo'rboshining tilidan uchgan so'zlar aks-sado bermay, o'laverdi... o'laverdi...

Sabohiddin bu odamdan durustroq mujohid chiqishiga ishonmasdi. Uning mahdi haqidagi gaplarini hali unutmagandi. Garchi bu telbalarcha rejasidan boshqa so'z ochmagan bo'lsa-da, uning qalbida yovuzlik qushi tuxum bosib yotganini Sabohiddin his qilib turardi. Shu bois ham endi bosilajak har bir qadamidan ehtiyot bo'lishi joizligini angladi. Sabohiddin qo'rboshining g'azabiga uchrashidan yoki o'limdan cho'chimasdi. U niyatiga yetmay, bemaqsad o'lim topishdan qo'rqardi...

Uch kundan so'ng olti yuzdan ziyod otliq dovon oshib o'tib, Shohimardon tomon yo'l oldi.

Quyoshning o'limtik nurlarida sal harorat sezildi. Adirlarning etaklari mosh-guruch bo'lib qoldi. Tabiatning zirillatadigan qahri o'rnini dilxush havo egallay boshladi. Ana shunday bir damda ular Xoliqberdi to'raning lashkarlariga qo'shilib, Iskobil sari yurdilar. Peshindan so'ng manzilga yetishdi. «Tartib bilan qator saf tortilsin!» degan buyruq bo'ldi. Sabohiddin lak-lak lashkarining bir yerga to'planishini xayoliga keltirmagan edi. Saf qaerdan boshlanib, qaerda tugaganini bilib bo'lmaydi. Hammada miltiq, yelkasi osha

o'qdon. Otlar uchaman, deb turibdi. «Norxo'janing, orqavoratdan so'kingani bilan, to'ramga bo'ysunishida gap bor ekan», deb o'yladi Sabohiddin.

Guzarda jonlanish sezildi. Bir guruh otliq kirib keldi.

— Hov anavi oldinda kelayotgan Nizomiddinxo'ja degani. Frunzening ishonchli odami ekan. Akangizning ulfati. Bachchag'ar xo'ja nomiga ham isnod keltiribdi. Xudo xohlasa, xo'ja bo'lib tug'ilganiga ham pushaymon yeydi.

— Taqsir, siz hozir unga taslim bo'lyapsiz, — dedi Sabohiddin ovozini pastlatib.

— Mulla, qo'chqor zarb bilan kalla qo'yish uchun orqaga tisariladi, hech ko'rganmisiz?

Sabohiddin javob bermadi. Saf oldida Xoliqberdi to'ra paydo bo'ldi. U oq otda, jigarrang chakmon kiygan, boshida qunduz telpak. Qo'lidagi qilichni o'ynatgancha otini yo'rttirib borib, Frunzening odamlariga peshvoz chiqdi. Nimadir dedi. Lekin Sabohiddin uning gaplarini eshita olmadi. Otliqlar orasida akasini ko'rib, yuragi hapriqib ketdi. Keyin Xoliqberdi to'raning aslahalarini yechib, yerga qo'yganini ko'rdi. So'ng guzar o'rtasida qurollar uyumi qad ko'tara boshladi. Akasi bu uyum orqasida ko'rinmay ketdi.

Norxo'ja sulhdan so'ng ham Sabohiddinga ruxsat bermadi. Sabohiddin Marg'ilon masjididagi mutavallining uyida qo'noq bo'ldi...

... Hamal keldi, amal keldi. Sumalak qaynatish uchun doshqozonlar osildi. Marg'ilon atrofidagilar ikki yillik besaranjomlikdan so'ng erkinroq nafas olib navro'zni bayram qilishdi. Saylgohlar odamlarga to'ldi. Navro'zning birinchi kuni Sabohiddinni akasi chaqirtirdi. Harbiy aslahalarini taqib olgan Jamoliddin ukasining salomiga alik olmadi. Otdan ham tushmadi.

— Nimaga qishloqqa ketmayapsan?

— Navro'z o'tsin.

— Shu bugunoq jo'na. Qaytib kelganimda bu yerda qorangni ko'rmay. Bo'lmasa...

Norxo'ja qani?

— Yaqin-atrofdadir?

— Nima qilmoqchi u, pisib yurishidan bir gap borgan o'xshaydi

— Bilmayman...

— Bilmaysan-a?..

— Xudo ursin, maqsadidan xabarim yo'q.

— Bo'pti, borib narsalaringni yig'ishtiraver.

— Aka, Sojida haqida g'alati gaplar eshitdim?

— Qanaqa gap?

— Uni o'qishga yuborar emishsizlar?

— Ha, nima edi?

— O'qisa, demak, rost ekan-da?

— Chaynalmay ochiqroq gapir.

— O'qisa ochiq yuradigan bo'ladimi?

— Ha.

— U holda... buzuqlik...

— Buzuqlik qonida bo'lsa ochiq yursa ham, paranjida bo'lsa ham baribir. Bitta buzuqni deb hammasini chordevor ichiga qamash kerakmi? Ayol ham odam. Odamday yashasin endi. Senga o'xshagan mullalar fisqu fasod to'qiyverib, ularni qon qilib yuborishdi-ku.

— Aka!

— Bas qil. Hozir aytishadigan payt emas. Gaping bo'lsa yig'ib tur, uyda gaplashamiz.

Jamoliddin shunday deb otga qamchi bosdi.

Ertasi masjidda Norxo'ja kirib keldi.

«Tezda otlaning, yo'lga tushamiz, — dedi u. Qo'rboshining o'zi safarga tayyor edi, shuning uchun Sabohiddinni shoshiltirdi.

Ular o'nta o'zlarining yigitlaridan, beshta sho'ro askarlaridan olib Rishton tomon yurdilar.

— Taqsir, bir gap bo'ldimi, yana aslahalarni taqib olibsiz? — deb so'radi Sabohiddin shahardan chiqishgach.

— Sobiq beklarimdan bir qanchasi Shermatga qo'shilib beboshlik qilayotgan ekan, shularni insofga chaqirgani boryapmiz. Xoliqberdi Shermatning oldiga ketgan.

Norxo'ja boshqa yigitlar oldida sirni fosh qilmaslik uchun gapni aylantirgan bo'lsa-da, Sabohiddin uning maqsadini tushundi. Qasos oni yaqinlashganini, birga ketayotgan yigitlarning, ayniqsa qi-zil askarlarning taqdiri allaqachon hal etilganini fahmladi.

Yo'llar tinch. Norxo'ja bilan Sabohiddin oldinda. Otliqlar bir-birlari bilan deyarli so'zlashishmaydi.

Bahor oftobi ularni bir oz lanj qilgan, ko'z ba'zan uyquga tortib ketardi. Rishtonga oqshomda kirib kelib, Ko'rshermatga qo'shilib ketgan Karimboyning qo'rg'onida tunashdi. Yarim kechada olatasir boshlandi-yu, dam o'tmay tindi. Hovlida besh-olti kishi mash'ala ko'tarib turar, yerda esa Sabohiddinning hamrohlari cho'zilib yotardi. Sabohiddin mash'ala ko'targanlar orasida Ahmad devni ko'rib, tinchidi. Ammo, u bekboshiga yaqinlashib: «Iblis, sotqin!» deb qamchilay ketgach, lol qoldi. So'ng qamchi o'z yelkasiga ham bir-ikki tushdi. Ahmad dev: «Sotqinlarga o'lim!» deb baqirib, qolgan qizil askarlarga o'q uzdi. To'rt kishini yer tishlatib, beshinchisiga qamchi urdi.

— Sen tirik qolasan. Xo'jayinlaringga sovg'a berib yuboraman, — dedi unga. So'ng yigitlariga qarab buyurdi. — Sotqin qo'rboshining miyasi aynib qolibdi. Bunday miyani ko'tarib yurish har qanday gavdaga malol. Yelkasini yengillashtirib, achigan kallani bolshavoylarga sovg'a qiling.

Norxo'jani sudrab olib chiqishmoqchi bo'lishdi. Qo'rboshi dod soldi. Sabohiddinni ham turtib ko'cha tomon haydadilar. Biroq kutilmaganda ko'chaga chiqishlari bilan muomala o'zgardi. Norxo'ja, unga tegishmasa ham baqirar, tez-tez yechinardi. Yigitlarning biri uning kiyimlarini olib nari ketdi, Ahmad dev esa unga boshqa ust-bosh berdi. Qorong'i ko'cha bo'ylab yurishgach, otlarga mindilar. Ahmad dev qoldi. Ammo qishloqdan chiqishga ulgurishmay, ularga yetib oldi.

— Hamma ish tinchidimi? — dedi Norxo'ja otga yengil qamchi urib.

— Aytganingizday bo'ldi, begim. Qizil askarni otga mingazib, oyog'idan bog'ladim. Xurjunga Tilavoldining kallasini soldim. «Sotqinning jazosi shu!» deb ikki enlik xat ham tashlab qo'ydim. Omma soqolingizni oldirib, yaxshi qilgan ekansiz. Chippa-chin ishonishadi endi.

— Kallani ko'rib esi og'ib qolgandir?

— Yo'q, diydasi qattiq ekan, zang'arning.

— Taqsir, Tilavoldining kallasini, dedingizmi? — deb so'radi Sabohiddin.

— Ha.

— O'zlarining jiyanlarimi?

— Ha, jiyanim. Uni xayrli ish yo'lida qurbon qildik.

Sabohiddin yoqa ushladi. Bunday ishlardan keyingi paytlarda hayratga tushmay qolgan bo'lsa-da, vujudi larzaga keldi. Qarorgohda Tilavoldi bilan qilgan suhbatlarini eslab, qult etib yutindi. Norxo'ja undagi o'zgarishni sezmay, so'zini davom ettirdi:

— Muhammad alayhissalomning qaysi bir katta bobolari zam-zam bulog'ining suvini ko'paytirib ber, deb Tangriga yolvorib, farzandlaridan birini qurbon qilgan ekanlar. To'g'rimi? Aziz-avliyolar bir qultum suv uchun farzandlarini xudoyi qilganlarida, biz yurtning halovatini ko'zlab, bir kishini qurbonlikka atasak ayb emasdir?

— Din at-tavhidda qurbonliqqa odam.. so'yish taqiq etilgan.
— Shundaymi? Biz bundan bexabar ekanmiz. Ollohning o'zi kechiradi gunohlarimizni...

Otlarga achchiq qamchi urildi. Sabohiddin orqada qoldi.

— Mullangizning fikri buzilmadimikin? Orqada qolyapti, — dedi Ahmad dev.

— Yo'q, ketmaydi. Undan ko'nglim to'q. Chizgan chizig'imdan chiqmaydi.

— Unga sovg'a olib keluvdim.

— Qanday sovg'a?

— Akasining kallasini.

— Jamol o'risnimi? Qaerda ko'rding uni?

— Xoliqberdi bilan birga kelgan ekan. Tinchitib qo'ya qoldim. Shermat qo'rboshi sizga ham sovg'a atagan ekanlar, uni ham olvoldim.

— Nima ekan?

— Ozgina zebi-ziynat. Yo'l xarji... Keyin G'uljadagi og'a-inilariga ko'rsatsin, deb Xoliqberdining kallasini berib yubordilar.

— Obbo bachchag'ar, ko'r chaqqonlik qilibdi-da, uning kallasini o'zim olib, bir rohatlanmoqchi edim. Sovg'alar qani?

— Xurjunda.

— Jamolnikini tashlab yubor, ukasi ko'rmasin.

— Ko'rgani ma'qulmikin?

— Bo'lmasa o'tib ketgunimizcha indamay tur.

Tongda ularni uch yuzga yaqin yaxshi qurollangan yigit kutib oldi. Norxo'ja odamlarni shoshirar, dam olishga deyarli ruxsat bermasdi. Qashqar yo'lga chiqishgach, Sabohiddin Norxo'janing niyatini angladi. Demak, u xorijga o'tib ketmoqchi. Shuning uchun ham: «Qaerga ketyapmiz?» degan savoli javobsiz qolgan ekan-da.

Yo'l yuqorilagani sayin yurish og'irlashdi. Otlar charchadi. Odamlar ham holdan toydi. Jar yoqasidagi tor so'qmoqlarda otlar hurkiydi. Besh-olti ot pastlikka quladi. Bir dovonni oshib o'tishgach, Norxo'ja hordiq chiqarishga ruxsat berdi. Shunda Sabohiddin orqaga qaytish uchun qo'rboshidan izn so'radi.

— Sizning maqsadingiz aniq, u yerdan lashkar to'plab qaytasiz. Begona yurtlarda mening yurishimga hojat bormikin? — dedi u.

— Islom lashkarlarining safi siyraklashib qoldi. Har bir odam hisobli. Siz qaytsangiz, izingizdan o'ntasi ergashadi. Qo'rqmang, G'uljada zerikib qolsangiz, qaytarib yuboraman. Dunyoni ko'rganingiz qoladi.

— Dunyoni ko'rish qochmas. Men yaqin-yiroqlarim bilan xayr-xo'shlashganim ham yo'q edi.

— Kim xayrlashibdi? Menmi? Bu gaplarni qo'ying, mulla. «Jihod, jihod!» deb og'iz ko'pirtiruvchi sizmidingiz? Bir cho'qishga chidamay qochmoqchimisiz?

Sabohiddin lab tishladi-yu, indamadi.

Ular yana yo'lga tushdilar. Kechga yaqin pistirmaga duch keldilar. Sabohiddin chegaraga yaqinlashganlarini shunda bildi. Olishuv uzoqqa bormadi. Norxo'ja o'liklarni ko'mishga ham ruxsat bermay, yo'lda davom etdi.

Yurish tobora og'irlashdi. Havo yetishmaydi. Suv ichib qo'ygan sakkizta ot shishib o'ldi. Sulayib, holdan toygan yigitlar orqada qolib ketaverdilar. Tungi sovuq zirillatib yuboradi. Ertalab qorli cho'qqilarga yetib oladilar. Norxo'ja shuni o'ylaydi. «Qor ko'chmasa edi», deb xavotir oladi. Xudodan madad so'raydi. Eng xavfli manzilga yetishganini faqat u bilan Ahmad dev biladi. Boshqalar avvallari bu yo'ldan yurmagan.

Norxo'janing kutgani bo'ldi. Oqshomga yaqin qor ko'chdi. Qancha yigit ko'chki ostida qoldi. Qanchasi qutuldi, bilmaydi. Oldinda kelayotganlardan o'ttizga yaqini bu ofatdan

omon chiqdi. Orqada kelayotgan-lar balki sog' qolgandir. O'rtadagilardan esa umid yo'q...

Sabohiddin iziga qaytajagini yana aytdi.

— Oллоh bizning yo'limizni to'sdi. Qilayotgan ishimizdan norozi, — dedi u.

— Bizni omon saqlab qoldi-ku? — dedi Norxo'ja.

— Oллоh gunohlarimizni yuvishga imkon yaratib, jonimizni qaytarib berdi.

— Biz gunohlarimizni yuvish uchun ketyapmiz.

— Men qaytaman.

— Qo'rqaysizmi?

— Men faqat Oллоhning g'azabidan qo'rqaman. Borgim yo'q.

— Hammayoqni qor bosdi-ku, qanday qaytasiz?

— Bir amallab o'taman.

— Yo'q, mulla, bu xayolni miyangizdan chiqarib tashlang. Siz men aytgan ishni qilasiz.

— Nima uchun?

— Sababi ko'p. Aytaylik, siringizni yashirganim uchun.

— Qanday sir?

— Ma'mur boyvachchaning o'limi menga ham ma'lum. Ammo siz Ahmad devning kimligini yaxshi bilmaysiz. U boyvachchaning O'shdagi bo'lası. Dev qotilni bilmaydi. Men esa unga aytmayman. Eski yarani qo'zg'ashning nima hojati bor? Qolaversa, hisobli dunyo deganlaridek, yelkangizdagi qarzni uzishingiz kerak. Akangizning jonini, singlingizning nomusini saqlab qoldim. Bu anov-manov gap emas, mulla, o'ylab ko'ring. Men Norxo'ja qo'rboshiman, a? Hadeb noz-firoq qilavermang. Achchig'im chiqsa... Jiyanimni ham ayamadim, a?

Sabohiddin u bilan tortishish ortiqchaligini bilib, indamadi. Fursat poylamoqni lozim ko'rdi. Sukutni rizolik alomati, deb fahmlagan qo'rboshi gapini davom ettirdi:

— Biz bir-birimiz bilan achchiqlashmasligimiz kerak, mulla. Esingizdami, mahdi haqida gapirgan edim. Shu rejalarni amalga oshirish fursati keldi. Rishtonda Norxo'janing, ya'ni mening kallam olindi. Hozir hamma meni o'ldiga chiqargan. Dushmanlarimning kayfi chog', mahdi uchun yana nima kerak. Qashqarga borgach, siz Makka sari o'tlanasiz. Xarajatlarni men ko'taraman. Uyingizga Sabohiddin hoji bo'lib qaytsangiz yomonmi? Mana shu yaxshiliklarim evaziga «Islom yurti uchun Xudo Norxo'janing jonini qaytarib berdi», deb gap tarqatasiz. Bor yumushingiz shu!

Sabohiddin yaxshilik bilan javob ololmasligini bilib, qochishni xayol qildi. Qattiq-quruq so'zlari uchun qo'rboshidan uzr so'radi.

Tog'ning tungi ayozidan ham uyqu zo'r kelib, barcha pinakka ketdi. Faqat Sabohiddin uxlamadi. Tun yarimlaganda o'rnidan turdi. Yonidagi xurjunni asta ko'tardi-da, iziga qaytdi.

Erta tongda Norxo'jani Ahmad dev turtib uyg'otdi.

— Begim, mullangiz qochibdi?

— Qayoqqa qochadi?

— Qayoqqa qochardi? Zang'ar, mening xurjunimni ko'tarib ketibdi.

— Nima bor edi?

— O'zining narsalari... Qiyomat qarzdan qutulibman. Ozgina tilla bilaguzuklar ham bor edi. Orqasidan tushamizmi?

— Yo'q, — dedi Norxo'ja bir oz o'ylanib, — orqaga qaytish xosiyatsiz. Hali qochganiga pushaymon yeydi. Qaytgan kunim birinchi bo'lib shu mahluqning terisini shilaman.

Ular yana yo'lga tushdilar.

... Sabohiddin xurjunni yelkasiga olib uzoq yurdi. Ko'chki bosgan joyga yetib kelguncha oyoqlari qaqshab ketdi. U hali ko'chki nima ekanini bilmasdi. Belga qadar qorga botgan kezlarda iziga qaytganidan pushaymon bo'lar, chiqib olganda esa: «Ota yurtdan uzilgandan ko'ra muzlab o'lganim afzal», deb qo'yardi.

U oqshomga borib sillasi quriganini, ochiqqanini sezdi. To'xtadi. Tamaddi qilib olish uchun xurjunni qo'ydi, o'tirib nafasini rostladi. Keyin qo'lini xurjunga tiqdi, Silliq, sovuq, yumaloq bir narsaga panjalari tegib ketdi. Seskandi. Xurjunni ochib, ikki qo'llab uni chiqardi. Chiqardi-yu, serrayib qotib qoldi. Nafasi ham, yurak urishi ham to'xtadi. U xurjundan akasining kallasini olgan edi!..

Ana shunda...

Tog'lar ham qotib qoldi. Osmon ham. Dunyoning hayot tomirlaridan jon chiqib ketdi.

Bir zum, faqat bir zum shunday bo'ldi. U qo'lidagi kallani tashlab yubordi. Akasining kesilgan boshi qorga cho'kdi. Sabohiddinning qalbidan otilgan faryod sukunatni qalqitib yubordi. Tog'lar aks-sado berdi. Yo'q, sado emas bu. Tog'lar ham faryod chekdi. Bu faryodni qorlar o'ziga shima olmadi — osmon bag'riga singdirdi.

Hozirgina oqligi bilan ko'zni qamashtirayotgan qor bir nafasda qop-qora bo'lib qoldi. Keyin asta qizardi. Cho'qqilardan qip-qizil qon oqib kela boshladi. Issiq qon Sabohiddinni ham qa'riga tortib, avval tovonini kuydirdi, keyin badaniga tarqaldi. So'ng miyasi qiziy boshladi. Tomog'i qurib, qonni simira ketdi. Simirgan sayin ichi kuyaverdi. Keyin qon qorga singib, atrof asta oqardi. Shunda Sabohiddin qorga botib turgan kallani avaylab qo'lga oldi. Yumuq ko'zlarni, o'siq qoshlarni siladi. Silay turib vujudidan yana faryod otilib chiqdi.

Osmon qa'riga ikki kungacha faryod otilib turdi. Keyin bu alamli ovoz boshqa yerlarga ko'chdi.

Sabohiddin ozib-to'zib ketdi. Borar joyini ham unutdi: telba bo'lib qoldi. Kallani qo'ldan qo'ymay tentirab yuraverdi. Bir yerda oyog'i toyib, pastga qarab yumalaganda uni yo'qotdi. Alam bilan nola chekdi. Oxiri bir dumaloq toshni kalla xayol qilib avaylab oldi. Qosh-ko'zni izladi. Topolmay uvvos solib yig'ladi. Lekin uni tashlab yubormadi. Ehtiyotlab ko'tarib yuraverdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, savdo vajidan Qashqarga borib-kelib yuruvchi o'zbeklar uni ko'rib qolib, xachirga mingashtirib oldilar.

Charx urayotgan quzg'unlar yemishlaridan mahrum bo'ldilar. Ko'chkini pastlab o'tgan savdogarlar Sabohiddinning yig'isidan bezor bo'lib, uni yana tashlab ketdilar.

* * *

Mudhishlikning guvohi bo'lgan Rhaq derazadan nari ketdi. Boshidan bunday azoblarni kechirib, oxir-oqibatda charm qoplangan taxta so'rda itoatkorlik bilan yotgan Sabohiddinga boshqa qarab turolmasdi. Yuksak salohiyat egasi bo'lgan, ammo bu imkonni kerakli yo'nalishga mutlaq sarf etolmagan, mavhum maqsad yo'lga tushib, o'zgalar niyati uchun qobiliyatini qurbon qilgan Sabohiddinning taqdiri Rhaqning yurak-bag'rini ezib yubordi.

Dilmurod esa nima voqea yuz berganini bilolmay gangib o'tiribdi. Agar Sabohiddinning boshiga tushgan kulfatlar unga ham ro'para qilinguday bo'lsa, esini yo'qotib qo'yishi aniq. Odam bolasi tishini-tishiga qo'yib har qanday azob-tashvishlarga chidasa ham, miyasi oxir-oqibat bu yukni ko'tarolmaydi. Odamlar o'z a'zolarining imkonini bilmagan holda tabiat qoidalariga qarshi turmoqchi bo'ladilar. Tabiatdan hech qachon ustun kelish mumkin emasligini bilmaydilar.

Eshik ochilib, ostonada Dilmurod ko'rindi.

Uning ruhi anchayin past, ko'ngliga hech nima sig'masdi. Devonaning mavhum harakatlari, TETning hali mukammal emasligi, uni takomilga yetkazish uchun ko'p ish qilish kerak ekani Dilmurodning fikrini band etgan edi. U bir-bir bosib Rhaq-Mirzavoyning yoniga o'tirdi.

— Biz muolajani kech boshladik, shuning uchun tushunib bo'lmaydigan voqealar yuz beryapti, — dedi Dilmurod hamkasbiga.

— Hozircha hamma kasallikni ham so'nggi bosqichda davolashga to'g'ri kelyapti, — dedi Rhaq unga dalda berish uchun. Ammo uning gapi olovga yog' sepganday bo'ldi.

— Xuddi shu meditsinaning eng katta aybi, — dedi Dilmurod qizishib. — Biz hali odam anatomiyasini tuzuk bilmaymiz. Ha, yuzaki bilamiz. Odam miyasiga homilaning taxminan o'n sakkiz-yigirmanchi kuni asos solinadi. O'sha ondan boshlab har daqiqada o'rtacha yigirma ming asab hujayrasi tug'iladi. Biz tekshirishni, o'rganishni xuddi shu damdan boshlashimiz kerak emasmi? Miya asosan ona qornida kamol topar ekan, onaning tashqi muhitdan ta'sirlanishi bolaga kor qilmaydimi? Masalan, och-nahor bo'lsa, xo'rlansa, tashvish cheksa... daqiqasiga yigirma ming hujayra tug'ilarmikin? Meningcha yo'q. Demak, miya bir me'yorda shakllanmaydi. Yoki, yigirma yoshli odamning miyasi o'rtacha bir ming to'rt yuz gramm. Uch yoshli go'dakniki esa bir ming ikki yuz gramm. O'rtacha o'n yetti yilu yana ikki yuz gramm farq bor. Yangi tug'ilgan go'dak miyasining og'irligi uch yuz qirq gramm bo'lsa, dastlabki uch yilda sakkiz yuz oltmish, keyingi o'n yetti yil ichida esa ikki yuz grammga oshadi. Demak, biz ana shu dastlabki uch yilga ko'proq e'tibor berishimiz kerak emasmi? Ana shularni tadqiq qilish o'rniga, xastalik so'nggi nuqtaga kelganda yugurib qolamiz.

— Hadeb kuyinavermang, Dilmurodjon, axir mashoyixlar: «Musulmonchilik ham asta-sekin», deganlar-ku.

— E, — Dilmurod qo'l siltadi, — asta-sekinlikning vaqti o'tdi. Zamonni qarang, zir titrab turibdi...

Dilmurodning gapi og'zida qoldi. Bo'sag'ada Devonani ko'rib ikkovi ham o'rnidan turdi. Devona past bo'yli to'ladan kelgan Dilmurodni, qoruvli Rhaq-Mirzavoyni endi ko'rayotganday ko'zlarini chaqchaytirdi-da, asta burilib, ko'chaga chiqib ketdi.

* * *

Tog'larga qalin qor tushdi. Daraxt shoxlari majnuntol singari egilib qoldi. Shamol yo'q, oftob charaqlab chiqadi-yu, tafti sezilmaydi. Faqat daraxt surxlaridan to'kiluvchi qor uchqunlarini mayda yulduzchalar singari jilvalantiradi. Odamlar uylariga qamalanganlar. Sandalning bozillagan o'ti kishini elitadi. Dangasalik tutib, qimirlashga toqat qol-maydi.

Devona ham hujrasiga tancha qilib olgan. Kunduzi yolg'izoyoq yo'l bilan pastga tushib, xonadonlarning qorini kurab beradi. Oqshomga yaqin bitta non bilan bir xokandoz cho'g' olib makoniga ketadi. Shifoxonaga onda-sonda bir kiradi. Kech kuzakda kelgan Umida bilan ham uncha ishi yo'q. Uning «yovvoyilashib» qolganiga qizcha ham ko'nikkan. Aqida yengil tin oldi. Rhaq-Mirzavoy shifoxona yonidagi hujrasidan pastga tushmadi. Saboxon bilan (biron ish bahonasida) uchrashib turishni odat qildi. Ularning munosabatlaridagi iliqlikni sezgan Asqarali Saboxonning otasiga maslahat soldi. Bir necha yildan beri salom-alik qilmaydigan ikki qariya shu bahonada gaplashib, Saboxonning eridan darak chiqishini yana picha kutishga qaror qilishdi.

Osmon kamroq bulutlanib, quyoshli kunlar ko'proq bo'la boshladi. Serqatnov yo'llarda qor erib, pilchillab qoldi. Devonaning ishi kamaydi. Ana shu paytdan foydalanib, Dilmurod yana muolaja qilmoqchi bo'ldi. Uning rejasi bo'yicha shundan so'ng tajriba natijalari ma'lum bo'lishi kerak edi. TETni jinni buzganligiga amin bo'lgach, Dilmurod tajribaning ijobiy yakunlanishiga ishonib qolgan, shuning uchun bemorning xatti-

harakatini diqqat bilan kuzatar edi. Hatto qishloq aholisi «jinniga bir gap bo'lganini», odamlarga uncha qo'shilmayotganini, mutlaqo tirjaymay qo'yganini payqadi. Rhaq esa Dilmurodni tashvishga ko'muvchi voqealar yaqinlashayotganini bilib, muolajani keyinga surishga harakat qilaverdi.

Dilmurod Devonani sinab ko'rish uchun qizil askarlar hayotiga doir hikoyalar to'plab yurgan paytda qishloqqa «Chapaev» filmini olib kelishdi. Qish bo'yi kino kelmagani uchunmi yoki «Chapaev»ning shuhrati balandmidi, har holda, bu voqea salkam bayramga aylandi. Dilmurod Devonani ham kinoga olib kelish uchun hujrasiga bordi.

— Yuring, tomoshaga kiramiz, — dedi Dilmurod.

Devona taklifni eshitmagandek indamasdan o'tiraverdi. Dilmurod «yuring», deb uning bilagidan ushlab, turg'izmoqchi bo'ldi. Devona unga bir qarab qo'ydi-da, o'rnidan turib, itoatkorlik bilan ergashdi. Devona to kino tamom bo'lguncha qimir etmay o'tirdi. Hammadan keyin o'rnidan turdi-da, hujrasiga ketdi. Dilmurod unda biror o'zgarish bo'lishini kutgan edi. Taxmini bekor bo'lib chiqdi.

Ertalab shifoxonaga yetib ulgurmagan ham ediki, Dilmurodni bir bola chaqirdi. U to'xtab, orqasiga qaradi. Yugurib kelayotgan bola hansiraganicha gap boshladi:

— Propesur tog'a, jinni o'lib qolibdi.

— Nima deding?

— O'zini osib qo'yibdi.

— Qaerga?

— Abdulhay amakimizning bog'iga. Shiypon qurilayotgan bog' bor-ku, ashi yerda.

Dilmurod qadamini tezlatdi. Abdulhayning bog'iga odamlar to'plangan. Murda yerga olib qo'yilgan edi. O'rik shoxida sirtmoq osig'liq, pastda esa... go'r qazilgan edi. «Darrov ulgurishibdimi, nimaga bu yerga qo'yishmoqchi», deb o'yladi Dilmurod murdaga yaqinlashib. U Devonaning mijjalarini qayirib ko'rdi. Kimdir murda ustiga urinib qolgan to'n tashladi. Bu orada halloslab go'rkov yetib keldi. Qazilgan qabrga qarab bosh chayqadi.

— O'ziga o'zi tayyorlab ketibdimi? Tirikligida ham hech kimga og'irligi tushmagan edi, — go'rkov shunday deganicha engashib, lahadga qaradi.

— Shu yerga ko'mamizmi? Qazigan qabriga qaraganda... — deb so'radi Dilmurod.

— Duch kelgan joyga qo'yavermaylik. Hech bo'lmaganda o'lganda hamjihat yotishsin.

Devonani hujrasi yaqiniga ko'mdilar.

Odatda inson bolasi kamdan-kam hollarda g'alayonga jur'at etadi. Hayoti davomida o'nlab, balki yuzlab voqeaga nisbatan bag'rida isyon uyg'onsa-da, uni yuzaga chiqarmaydi, bo'g'ib yashaydi. Ayniqsa, bu hol Devona- Sabohiddinning hayotida ko'p bo'ldi. Sabohiddin umrida ikki marta g'alayonini jilovlay olmadi. Uning qalbida ko'z ochgan dastlabki isyon oila nomusini poklashga undadi. Ikkinchi marta jamiyatga, nainki jamiyatga, balki o'z-o'ziga qarshi isyonga jur'at etdi. U ikki martagina g'alayon qildi. Ammo har ikkala harakati izsiz ketdi. Birinchi gal uning jur'ati akasiga muhrlandi. Ikkinchi va so'nggi marta qilgan g'alayonida u o'zi go'r qazib, bosh tomoniga akasidan yagona xotira — askar qalpog'ini qo'ygan edi. Ammo odamlar buni anglab yetmay, uni boshqa qabrga ko'mdilar.

Ko'p o'tmay raisning buyrug'i bilan Devonaning hujrasi buzib tashlandi.

Dilmurod nima qilarini bilmay qoldi. U Devonaning tuzala boshlaganiga ishonardi. Uning o'zini osib qo'yishi ham shundan. Lekin Dilmurod buni qanday isbot etadi? Balki Devonaning o'limida Dilmurodning aybi bordir? Miyasidagi ayrim xotiralar uyg'onib, uni azobga solgandir? Odamovi bo'lib qolgani ham shundandir? Norxo'jani tilga olib talvasaga tushganda, nima uchun tuzukroq ahamiyat bermadi? Mudhish xotiralarining

o'sha kezlari uyg'ona boshlaganini taxmin qilgan edi-ku? Ha, ayb Dilmurodda. Agar Devona doimiy nazorat ostida bo'lganda...

Qorlar erib, yerning nami ko'tarila boshlagach, barcha daladagi ishlar bilan ovora bo'ldi. Qishloqdagi mudroqlik, dangasalik bahor oftobi bilan hovur singari ko'tarildi.

Dilmurodga erinchoqlik yuqib samovarxonada Asqaralining suhbatini olay deb chiqqan edi. Guzar tomonga usti berk mashina kelayotganini ko'rib, Dilmurod sergaklandi. Mashina guzarda to'xtashi bilan undan ikki noma'lum kishi tushib atrofga alanglab oldi. So'ng... Anvar tushib samovarxonaga qaradi. So'ri panjarasiga tirsagini tirab o'tirgan Dilmurodni ko'rib ikki kishiga nimadir dedi.

Notanish kishilar tez-tez yurib samovarxonaga ko'tarildilar. Biri Dilmurodning ro'parasiga turib oldi, ikkinchisi orqasiga o'tdi.

— Sen qamoqqa olinding, — dedi ro'paradagi odam dag'al ohangda.

Dilmurod qaynotasini qamoqqa olinganini ko'rgan, bularga gap uqtirish mumkin emasligini bilardi. Shu sababli indamay o'rnidan turdi.

Nogahoniy bu tashrifdan, bu gapdan hayratga tushgan Asqarali esa Dilmurodga o'zini qalqon qilmoqchi bo'ldi.

— Inim, Dilmurodjonning ayblari nima, avval tushuntiring. Yana yanglish kelgan bo'lmang?

— Sen nari tur, — u bepisandlik bilan shunday deb xuddi xasni surib qo'ygandek Asqaralini turti.

— Asqarali tog'a, qo'ying, bularga bas kelib bo'lmaydi, — dedi Dilmurod.

— Sen xalq dushmani Razzoqov bilan birga Vatanga qarshi jinoiy ish olib borganda ayblanasan, oldimga tush. Qo'lingni orqaga qil.

— Hoy, inim, insof qiling, bola-chaqasi shu yerda, ko'rishib olsin.

— Nari tur.

Bu safar qattiqroq turtgan edi, Asqarali gandiraklab so'riga o'tirib qoldi.

Bu voqeani Rhaq-Mirzavoy Asqaralidan eshitib o'yga toldi. Umidani bag'riga bosib o'tirgan Aqidaga qaray olmadi. Aqida jim edi. Uning ko'z yoshlari qurib bo'lgan. Yig'lashga madori ham yo'q edi.

Rhaq nima deyishni bilmay turganida Aqidaning o'zi so'z ochdi.

— Mirzavoy aka, yaxshi ham siz tog'da ekansiz... Endi bu yerdan tezroq keting. Erta-indin sizni izlab kelishadi. Dadamga yaqin odamlarni terib bo'lishdi. Endi Dilmurod akamning yaqinlarini terishadi.

— Hech ishongim kelmayapti, — derdi Asqarali, — qanaqa zamon bo'ldi bu, a?

— Shaytanat zamoni, — dedi Aqida hazin ovozda.

XOTIMA O'RNIDA

Rhaq ertalab shaharga tushib hujjatlarini surishtirish bahonasida Buxoroga yo'l oldi. Tangda berilgan ko'rsatmaga muvofiq, birinchi aloqa muddati yaqinlashgandi. U Qizilqumda qolgan kemaga qaytib, bir-ikki kun tiniqib olmoqchi, ko'rgan-bilganlarini fikr oynasidan o'tkazib, hisobot tayyorlamoqchi edi.

Rhaq kemaga kirdi-yu, chaqiriq chiroqlarining tinmay yonib-o'chayotganini ko'rib hayron bo'ldi. Aloqa bog'lashga hali uch kun vaqt bor edi. Biror kor-hol yuz berdimikin? U kursiga o'tirib Yer atrofida yo'ldosh kabi uchayotgan asosiy yassi kema bilan aloqa bog'ladi. Boshliq darhol yo'lga o'tlanishni buyurdi. Boshqa barcha tangliklar kemaga qaytganini aytib, Yerda katta urush boshlanayotgani uchun Tangga qaytishlari lozimligini bildirdi. Rhaq bu yangilikni eshitib, hang-mang bo'lib qoldi. Axir, odamlar orasida: «Gitler bilan sulh tuzildi, urush bo'lmaydi», degan gap yurardi-ku! Nahot hamma

aldangan bo'lsa? Nahot qirg'in boshlansa? Asqarali, Dilmurod, Umida, Aqida, Kesganbelning mehr-oqibatli odamlarining umriga nuqta qo'yilsa? Rhaq yerliklarni samimiy bir muhabbat bilan sevib qolgan edi. Mana shu Yer, mana shu odamlar uning qalbida izsiz yo'qolib ketgan mehr, sevgi, oqibat tuyg'ularini qaytardilar. Endi bu odamlarni tashlab, qaerga qaytadi? Hissiz yurtigami? Uni kim kutyapti? Uning gapiga kim quloq soladi? Bu yerda-chi? Taraqqiyotni belgilaydigan nodir iste'dod egalari bo'lmish odamlaridan voz kechayotgan jamiyat endi Rhaqqa mehr ko'rgaza olarmikin?

Shu savollar o'tida qovrilgan Rhaq og'ir ish qilib toliqqanday ko'zlarini yumdi. Beozor devona— Sabohiddin, unga mehribonlik qilayotgan Umida, kuyunchak Dilmurod, vafodor Aqida, hazilkash Asqarali, iffatli Saboxon, bir-birlariga oqibatli hamqishloqlar, Shoaziz, Mamarayim kabi temir odamlar ko'z oldidan o'ta boshladilar. Hozir ana shu xilma xil odamlar bilan vidolashib uchib ketishi kerak. Buyruq shunday. Qo'ng'ir murvatni burasa bas. Hammasi ortda qoladi: shirin tush ko'rayotib cho'chib uyg'ongan odam holiga tushadi. Tug'ilib-o'sgan yurtiga qaytish qanchalik lazzatli bo'lmasin, tuyg'ulari tug'ilgan Yerni tashlab ketish azobi shu qadar ulkan edi. Ikki qudratli kuch uni ikki yoqqa tortqilardi. Shu onda, shu nafasda ikki yo'ldan birini tanlashi kerak. O'ylab ko'rishga fursat yo'q. Ikki qudratning biriga mayl berishi shart. Nima qilsin? Hammasini tashlab ketsinmi?

Rhaq entikib ko'zlarini ochdi. Qo'ng'ir murvat... Tang, hissiz hamyurtlari... Ulkan sayyorada bir o'zi tanho... Boshqalar begona! Begona... Yerda-chi?

Qo'ng'ir murvat...

1976—1982. O'sh — Toshkent.

www.ziyouz.com

2007